

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

**K.J. MATKARIMOV**

# **AVTOTRANSPORTDA QONUNCHILIK ASOSLARI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*



«DAVR NASHRIYOTI»  
TOSHKENT – 2012

UDK: 656:34(075)

KBK 67.404.2

M39

*Mamdurov xg'ys*

*Taqirizchilar:*

**A. Polvonov** – Namangan muhandislik-pedagogika instituti, Kasb ta'limi (Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash) kafedrasini mudiri, t.f.n., dotsent

**A. Eshondedayev** – Namangan viloyati Uychi sanoat-transport va aloqa kasb-hunar kollejining «Transport» kafedrasini mudiri

**I. To'xtaonov** – Namangan yuridik kolleji, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari.

Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'quv metodik birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash nashrga tavsiya etgan


**Matkarimov K.J.**

M39 **Avtotransportda qonunchilik asoslari:** K.J. Matkarimov/ Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. –T.: Davr nashriyoti, – 2012. – 336 b.

ISBN 978-9943-4017-0-9

Mazkur o'quv qo'llanma «Avtotransportda qonunchilik asoslari» fani bo'yicha 3521200-Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash hamda 3521203-Transportlarda tashish va boshqarishni tashkil etish tayyorlov yo'nalishlarining o'quvchilari uchun namunaviy fan dasturi asosida tayyorlangan. Ushbu o'quv qo'llanmadan avtomobil transporti yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlarning o'quvchilari, oliy o'quv yurti talabalari, transport sohasida faoliyat yuritayotgan yuridik va jismoniy shaxslar ham foydalanishlari mumkin.

O'quv qo'llanmada avtotransport huquqi to'g'risida tushuncha, avtomobil transporti boshqarishning huquqiy asoslari, avtomobilda yo'lovchi, yuk, bagaj, pochta tashish bo'yicha shartnomalar tuzish, transport-ekspeditsiya operatsiyalari va xizmatlari, yo'lovchi tashishni tashkil qilishning huquqiy masalalari, xalqaro avtomobil qatnovini huquqiy tartibga solinishi, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar, da'volarni taqdim qilinishi va ko'rib chiqilishi haqidagi huquqiy me'yorlar keltirilgan.



*40553*  
*HO 3*

UDK: 656:34(075)

KBK 67.404.2

M39

ISBN 978-9943-4017-0-9

© «Davr nashriyoti», 2012.

*Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash – bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi<sup>1</sup>.*

**Islom Karimov**

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi chuqur ijtimoiy-siyosiy islohotlar davrini boshdan kechirmoqda: mamlakat iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o'tmoqda; jamiyatda umuminsoniy qadriyatlar borgan sari ko'proq qaror topmoqda; shaxs huquqlari va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish davlatning burchiga aylanmoqda. Respublikada demokratik huquqiy davlat barpo etish va adolatli fuvarolik jamiyatini qaror toptirish jarayoni kechmoqda.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish xalqimizning oliy maqsadlaridan biridir. Konstitutsiya va qonunlarimizning mazmun va mohiyatidan shu narsa qat'iy ayonki, mamlakatimizda shakllantirilayotgan fuqarolik jamiyati – demokratiya va adolat tamoyillariga tayanuvchi erkin insonlar jamiyatidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Biz fuqarolik jamiyati qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir». Yurtboshimiz fikrini yana davom ettirib: «Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va

<sup>1</sup>«Xalq irodasi» gazetasi, 2011-yil 25-may. 11-son.

erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi».

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish yo'llarini Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagi beshta tamoyil asosida belgilab bergandi:

– iqtisodiyotning siyosatdan ustun qo'yilishi, iqtisodiy islohotlar hech qanday mafkuraga bo'ysundirilmasligi;

– davlat asosiy islohotchi bo'lib, uning boshqaruv tizimini qo'ldan chiqarmasligi, bir tomondan aholini himoya qilib, ikkinchi tomondan ularni islohotlarga tayyorlab, ijobiy o'zgarishlar qilib, jamiyatni yangilashi, xalqning osoyishtaligini ta'minlab, tinchlikni mustahkamlash;

– Konstitutsiya va qonunlarga barcha barobar rioya etishi, qonunlarning hamma narsadan ustun turmog'i va hamma uchun majburiy bo'lmog'i, davlat va uning organlari, mansabdor shaxslar jamoat birlashmalari va barcha fuqarolar qonunlarga asosan ish ko'rishlik;

– kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, ayniqsa, aholining kam ta'minlangan qatlamlari, ya'ni ko'p bolali oilalar, nafaqaxo'rlar va boshqa kam daromadli fuqarolarga yordam berish, ochlik va muhtojlikka yo'l qo'ymaslik;

– bozor iqtisodiga shoshma-shosharliksiz, bosqichma-bosqich o'tish, odamlar ongida yangi tuzumning afzalliklariga ishonchni bunyod etish.

Xullas, «o'zbek modeli» asosida taraqqiyot yo'limiz bilan umuminsoniy qadriyatlarni mutlaq tiklash, inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini tan olish asosida xalqaro va Sharq milliy davlatchilik tajribalaridan foydalanib, demokratik huquqiy davlat barpo etishga zamin hozirlab maqsadga erishdik, desak yanglishmaymiz.

Demokratik huquqiy davlat barpo etishning nazariy asoslari va amaliy muammolari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat», «Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati», «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «Yangi uyni qurmay turib, eskisini



buzmang», «Buyuk maqsad yoʻlidan ogʻishmalik» nomli va boshqa asarlarida hamda «Oʻzbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalarini yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yoʻnalishlari» mavzularidagi maʼruza va nutqlarida atroflicha belgilab berilgan.

Respublikamizda keyingi-yillarda avtomobil transporti sohasida olib borilayotgan institutsional va huquqiy islohotlarning maqsadi – bu transport xizmatlarini koʻrsatish huquqi ustidan adolatli raqobatga asoslangan avtomobil transporti faoliyatini yaxshilash, ushbu sektorga turli mulkiy shakldagi tashuvchilarni jalb etishdir.

Natijada bugungi kunda avtomobil transportida nodavlat sektor yetakchi oʻrinni egallamoqda. Mulkning nodavlat turidagi korxonalar tomonidan avtomobil transportida yuk tashishlarning deyarli 90 foizi va yoʻlovchi tashishlarning deyarli 100 foizi amalga oshiriladi.

Islohotlar samaradorligini esa avtomobil transporti faoliyatining quyidagi koʻrsatkichlariga qarab baholash mumkin: 2011-yilda respublikamizning barcha avtomobil transporti vositalari yordamida 1 milliard 149,4 million tonna yuk va 6 milliard 245 million yoʻlovchi tashilib, ushbu koʻrsatkich 2010-yilga nisbatan mos ravishda 108,8 va 106,3 foizga ortgan.

Yuk aylanmasi 26 milliard 50 million tonna km.ni (2010-yilga nisbatan 107,0 foiz), yoʻlovchilar aylanmasi esa 72 milliard 545 million yoʻlovchi km.ni (2010-yilga nisbatan 108,1 foiz) tashkil qildi.

Agarda avtomobil transporti faoliyatining 2001–2011-yillardagi asosiy koʻrsatkichlarini qiyoslasak, unda 2011-yil yakunlarida yoʻlovchilar tashish hajmi 2001-yildagi koʻrsatkichdan qariyb 2 barobarga oʻsgan, yoʻlovchi aylanmasi esa mos ravishda qariyb 3 marotaba koʻpaygan.

Avtomobil transportida yuk tashish hajmi 2011-yilda 2001-yil koʻrsatkichiga qaraganda 1,7 barobarga oʻsgan, yuk aylanmasi mos

ravishda 3 marotaba ko'paygan. Ayniqsa, agrosanoat va qurilish majmualari yuklarini avtomobil orqali tashish hajmlari o'sgan.

Barcha turdagi transportlarda amalga oshiriladigan tashuvlar ichida avtomobil transportining ulushi yo'lovchi tashishda 98,5 foizga va yo'lovchi aylanmasining 88,1 foiziga to'g'ri keladi. Tashilgan yuklar hajmi va yuk aylanmasi bo'yicha avtomobil transportining solishtirma ulushi esa tegishli ravishda 90,6 va 32,3 foizga teng.

Respublikamizda avtomobil xo'jaligini yanada rivojlantirish bilan birga bevosita avtomobillar ishlab chiqarishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. 1996-yilda Asaka shahrida birinchi avtomobil zavodining ishga tushirilishi tariximizdagi eng muhim voqealardan biri bo'ldi. Chunki jahon miqyosida olib qaralganda, kamdan-kam davlatda avtomobil ishlab chiqariladi. Ularning ham aksariyati rivojlanish bosqichini uzoq vaqt bosib o'tgandan keyingina shu sanoatga qo'lgan. Agar korxonalar faoliyat boshlagan dastlabki yilda jami 25300 ta yengil avtomobil ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2008-yilning kuziga kelib millioninchi avtomobil konveyerdan chiqdi. 2009-yilda 205 mingdan ortiq zamonaviy avtomobilni ishlab chiqarishga muvaffaq bo'lingan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich sezilarli darajada ortib, 221 ming 400 tani tashkil etdi.

Respublikamizda transportni, jumladan, avtomobil transportini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida jahondagi avtomobil ishlab chiqaruvchilar bilan sherikchilikni o'rnatish bo'yicha nufuzli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Asaka avtomobil zavodi bazasida «Jeneral Motors» bilan qo'shma korxonalar, Toshkent shahrida «Jeneral Motors» bilan avtomobil va dvigatellar ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar tashkil etildi, avtobuslar va o'rtacha yuk avtomobillari ishlab chiqarishda «Itonu» va «Isuzu» kompaniyalari bilan hamkorlik qilinmoqda, katta yuk avtomobillari ishlab chiqarish uchun «MAN» kompaniyasi bilan qo'shma korxonalar tashkil etildi.

2012-yilda Samarqand shahrida «JV MAN Auto-Uzbekistan» qo'shma korxonasining «MAN» katta yuk avtotransport vositalari ish-

lab chiqarish zavodi ish boshladi. Korxonaning hozirgi quvvati yiliga 5 mingga yuk mashinasi ishlab chiqarish imkonini beradi. Uning ikkinchi yig'uv liniyasi ishga tushirilgach mazkur ko'rsatkich 10 mingga yetkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 5-dekabrda qabul qilingan «2008–2009-yillarda avtomobil sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash Dasturi to'g'risida»gi, 2008-yil 2-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2009-yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida»gi, 2009-yil 12 martdagi «2009–2014-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo'yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida»gi qarorlarini bajarish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar natijasida ishlab chiqarilayotgan avtomobillar bo'yicha mahalliy lashtirish darajasi bugungi kunda 50 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. 130 tadan ortiq korxonalar va tashkilot 950 dan ziyod nomdagi butlovchi qismlarni yetkazib bermoqda.

2000–2010-yillar davomida respublikamizda yengil avtomobillar eksporti 7,6 marta ko'paydi. Rossiya OAVning ma'lumotlariga ko'ra, 2010-yilning to'qqiz oyi yakunlari bo'yicha «Nexia» va «Matiz» Rossiya Federatsiyasida eng ko'p sotiladigan modellar sirasiga kirdi. Ta'kidlash joizki, bu holat keyingi yillarda odatiy tusga kirgan. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi tufayli ko'pchilik avtomobilsozlik korxonalarini uchun og'ir kechgan 2009-yilda ham «GM Uzbekistan» korxonasida ishlab chiqarilgan avtomobillar Rossiyada eng xaridorgir avtomobillar o'ntaligidan joy olgan edi. 2010-yil 9 oylik yakunlariga ko'ra, Rossiyada «GM Uzbekistan» korxonasida ishlab chiqarilgan 54 ming 564 dona avtomobil sotilgan. Bu 2009-yilga nisbatan 40 foiz ko'pdir.

O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan avtomobillarga nafaqat Rossiyada, balki Ozarboyjon, Qozog'iston, Moldova, Ukraina, Belarus, Gruziya, Armaniston, Turkmaniston, Afg'oniston davlatlarida sotuv shoxobchalari ochildi.

Ichki bozorda ham Asaka avtozavodining mahsulotiga ehtiyoj yuqoridir. 2010-yil yakunlariga ko'ra «GM Uzbekistan»da ishlab chiqarilgan 143 mingtaga yaqin avtomobil yurtimiz bozorlarida sotilgan. Jumladan 45 ming donadan ortiq «Nexia», 44 mingdan ziyod «Matiz», 23 mingdan ortiq «Damas». Shuningdek, o'tgan yili 21 mingdan ziyod «Lacetti», 1500 dona «Captive» va 2500 ta «Epica» modelidagi avtomobillar xaridorlarga yetkazib berildi.

Shu bilan birga, har yili xaridorlarga yangi rusumdagi zamonaviy avtomobillar taqdim etish an'ana tusini olmoqda. Jumladan, soha vakillari 2010-yilda «Spark», 2011-yilda «Kaptiva» avtomobillarini tuhfa qilgan bo'lsalar, 2012-yilda Navro'z umumxalq bayrami arafasida «GM Uzbekistan» zavodida ishlab chiqarilgan yangi «Chevrolet Malibu» yengil avtomobili taqdim etildi.

«SamAuto» MChJ korxonasi Isuzu (Yaponiya) shassilari asosida o'rta toifali avtobuslar va yuk mashinalarini ishlab chiqaradi. «Isuzu» avtomobillarini ishlab chiqarish 2007-yildan boshlab, «Isuzu Motors» va «SamAuto» MChJ o'rtasidagi texnik ko'mak haqidagi shartnoma asosida amalga oshirilmogda. «SamAuto» MChJ faoliyat boshlaganidan buyon 7 ming donadan ortiq o'rta toifadagi avtobuslar va yuk mashinalarini ishlab chiqardi. Ishlab chiqarilgan zamonaviy va ishonchli mahsulotning uchdan ikki qismiga yaqinini avtobuslar tashkil etadi. Ichki va eksport bozorida 7 ming donadan ortiq texnika sotilgan. Korxonada ishlagan dastlabki yilida 1,5 ming dona texnika ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2008-yilda – 2 ming dona, 2009-yilda esa bu ko'rsatkich 2,039 donagacha o'sdi. O'zbekistonda 5 tonnagacha yuk ko'taruvchi shahar avtobuslari va yuk avtomobillari ommalashgan. Mazkur texnika turlariga barcha sotuvlarning aksariyat qismi to'g'ri keladi. «Isuzu Motors» va «Itochu Corp» yapon kompaniyalari bilan strategik hamkorlik doirasida, korxonada avtomobilsozlik sohasida yangi loyihalarni amalga oshirish borasida faol ish olib boradi. Istiqbolli vazifalar jumlasiga – «SamAuto» MChJda eksportga mo'ljallangan yuk avtomobillari, past polli avtobuslar hamda boshqa, yuqori darajada ekologik, texnologik mahsulotni ishlab chiqarishni tashkil etish kiradi.

Respublikamizda aholiga transport xizmati ko'rsatishga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Agar 2000-yilda respublika bo'yicha 2000 taga yaqin yo'lovchilar tashish yo'nalishlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozirgi kunda yo'nalishlar soni 3873 taga (2010-yilga nisbatan o'sish 152 ta yoki o'sish 104,1 foiz) yetdi. Ularning 988 tasi shahar, 2272 tasi shahar atrofi va 613 tasi shaharlararo yo'nalishlardir.

Avtomobil transporti xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish va barcha tashuvchilarga teng sharoit yaratib berish bo'yicha viloyat va shahar hokimiyatlaridagi Komissiyalar hamda O'zbekiston avtomobil va daryo transporti Agentligi qoshidagi Idoralararo Komissiya tomonidan yo'lovchi tashish yo'nalishlari ochiq tender tanlovlari orqali joylashtirilmoqda.

Respublikamizda avtomobil xo'jaligini tashkil etish bilan birga, avtomobil transporti xizmati ko'rsatishning normativ-huquqiy bazasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda «Avtomobil transporti to'g'risida», «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida», «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida», «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida», «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida», «Shahar yo'lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to'g'risida», «Avtomobil yo'llari to'g'risida», «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida», «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonunlar qabul qilindi.

Respublikamizda avtomobil transportining rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-2871 «Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish va boshqaruvni takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda avtomobil transportini rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qator qarorlar, jum-

ladan, «Avtomobilda xorijiy yuk tashuvchilarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishlari, bo‘lishlari, yuk olib o‘tishlari va undan chiqib ketishlari tartibi to‘g‘risida», «O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligini tashkil etish to‘g‘risida», «Shahar yo‘lovchilar transportida ochiq tenderlar tashkil etish va ularni o‘tkazish masalalari to‘g‘risida»gi, «Shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo‘lovchilar tashish avtomobil transportida ochiq tenderlar tashkil etish va o‘tkazish masalalari to‘g‘risida», «O‘zbekiston Respublikasida transport-ekspeditorlik faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish to‘g‘risida», «Avtomobil transporti sohasida boshqaruvning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», «O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta‘minlashga doir talablarni tasdiqlash haqida»gi qarorlari qabul qilindi.

Avtomobil transportida xizmat ko‘rsatuvchi tomonlarning huquq-majburiyatlari va javobgarliklari O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi, Fuqarolik va Xo‘jalik protsessual kodeksilarida va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida o‘z aksini topgan.

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi transportda tashishga oid qariyb 150 ta xalqaro shartnomani imzolagan, 25 ta konvensiya va 112 ta boshqa xalqaro huquqiy hujjatlarga qo‘shilgan.

Shu bilan birga, transport tarmoqlari va kommunikatsiyalarini modernizatsiya qilishda xalqaro hamkorlikni izchil rivojlantirib borish, shuningdek, mamlakatimizning o‘z tranzit-transport salohiyatini ro‘yobga chiqarish zarurati milliy transport qonunchiligini xorijiy tajribani o‘rganish asosida yanada takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizdagi mavjud qonunchilikni bo‘lg‘usi mutaxassislariga o‘rgatish davr talabidir. Shu munosabat bilan kasb-hunar kollejlari-ning o‘quv rejalariga «Avtotransport qonunchiligi asoslari» fani kiritildi.

Ushbu o'quv qo'llanma 3521200-Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash hamda 3521203-Transportlarda tashish va boshqarishni tashkil etish tayyorlov yo'nalishlarining fan dasturi asosida yozilgan bo'lib, unda «Avtotransport huquqi to'g'risida tushuncha», «Avtomobil transportini boshqarishning huquqiy tashkil qilinishi», «Avtotransport korxonalari va birlashmalarining huquqiy holati», «Avtomobillarda yuklarni tashish bo'yicha shartnomalar», «Yo'lovchilar, bagajlar va pochtalarni avtomobillarda tashish bo'yicha shartnomalari», «Transport-ekspeditsiya operatsiyalari va xizmatlari», «Xalqaro avtomobil qatnovini huquqiy tartibga solinishi», «Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar» hamda «Da'volarni taqdim qilinishi va ko'rib chiqilishi» kabi masalalar yoritib berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmaning IX va X boblarini Namangan muhandislik-texnologiya institutining «Ijtimoiy gumanitar fanlar» kafed-rasi katta o'qituvchisi Z. Yusupov bilan hamkorlikda yozilgan.

## I BOB.

# AVTOTRANSPORT HUQUQI TO'G'RISIDA TUSHUNCHA, UNING TURLARI, TUZILISHI VA MANBALARI

### 1.1. Avtomobil transport huquqi tushunchasi

Transport – moddiy ne'matlar ishlab chiqarishning mustaqil tarmog'i bo'lib, Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari (sanoat, qurilish va qishloq xo'jaligi) bilan bir qatorda faoliyat ko'rsatadi. Transportning o'ziga xos iqtisodiy xususiyati shundan iboratki, u qandaydir shakldagi yangi moddiy ne'matlarni yaratmaydi, balki sanoatda, qurilishda va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni makondagi joyini o'zgartiradi, ya'ni ularni ishlab chiqarish doirasidan iste'mol doirasiga yetkazib (tashib) beradi. Agarda sanoat, qurilish va qishloq xo'jaligi uchun eng muhim vazifa moddiy shakldagi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'lsa, transport uchun esa eng muhim vazifa – ushbu mahsulotlarning joylarini o'zgartirishdir. Mahsulotlarning joylarini o'zgartirish ishlab chiqarish jarayonining eng zarur shartlaridan birini tashkil etadi. Transport ijtimoiy ishlab chiqarishning hamma tarmoqlarini bir butun holatda bog'lab turadi. Bundan tashqari, transport milliy iqtisodiyotda mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonini davom ettirib, uni nihoyasiga, ya'ni iste'mol doirasigacha yetkazib beruvchi sohadir. Shu sababli, transport ishlab chiqarish faoliyatining mahsuloti shu faoliyatning o'zidan ajralmasdir. Transportning bu faoliyati yo'lovchilarni va yuklarni tashishda ifodalanadi.

Transport ko'p tarmoqli murakkab ishlab chiqarish sohasi hisoblanadi. Uning faoliyatini va transport vositalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni huquqiy tartibga solish uchun maxsus me'yorlar kerak bo'ladi.

Shu o'rinda huquq tushuchasiga izoh berib o'tish maqsadga muvofiqdir. **Huquq** – bajarilishi majburiyligi o'rnatilgan yurish-turish qoidalari, xatti-harakatlaridir. Huquqning majburiyligi davlat



tomonidan o'ratiladi va bajarilishi ta'minlanadi. Huquq tushunchasi – fuqarolarga nisbatan olinsa, u Konstitutsiyaviy yoki oddiy huquqlarga bo'linadi. Konstitutsiyaviy huquqlar konstitutsiyaviy me'yorlar bilan, oddiy huquqlar oddiy qonunlar bilan tartibga solinadi. Huquq, o'z navbatida, tarmoqlarga bo'linadi: konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, transport huquqi va boshqalar.

Transport huquqlari me'yorlar majmuidan iborat bo'lib, transport faoliyatini va uning ishini tashkil etish sababidan paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni, transport korxonalari va transport vositalaridan foydalanuvchi uning ko'p sonli mijozlari o'rtasidagi munosabatlarni, hamda bir xil va har xil turdagi transport korxonalari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Shunday qilib, transport huquqining mavzusi (predmeti) transport vositalaridan foydalanish tufayli paydo bo'ladigan, transport korxonalari va transportning mijozlari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlardan tashkil topadi. Shuningdek, ushbu mavzu transport faoliyatini va uning ishini tashkil etish sababidan paydo bo'ladigan transport korxonalari o'rtasidagi munosabatlardan va transport faoliyatining jarayonlarida uchrab turadigan xorijiy tashkilotlar, firmalar va fuqarolar bilan bo'ladigan munosabatlardan iboratdir.

Avtotransport huquqida markaziy o'rinni yuk va yo'lovchi tashishni tartibga soluvchi me'yorlar egallaydi. Avtotransport huquqi faqatgina tashish majburiyatlarini belgilovchi me'yorlar majmualarini o'rganib qolmay, balki shu bilan birga, ma'muriy, mehnat, moliya huquqiy munosabatlarini va shartnoma majburiyatlarini ham keng ma'noda o'rganishga da'vat etadi. Avtotransport huquqining fuqarolik huquqlari tizimidagi o'rini muhokama qilishda shundan kelib chiqish kerakki, avtotransport huquqi huquqshunoslikning mustaqil sohasi deb e'tirof etilmaydi.

**Fuqarolik huquqi** – fuqarolik huquqiy munosabatlari ishtirokchilari huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelishi asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilash, shartnoma majburiyatlari va o'zga majburiyatlarni, shuningdek, boshqa mul-

kiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq me'yorlari yig'indisidan iboratdir. Fuqarolik huquqi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (FK)ga asoslanadi. Fuqarolik huquqi tovar-pul munosabatlariga va ishtirokchilarning teng huquqliligiga asoslanadi.

Avtotransportning faoliyati sababidan paydo bo'lgan mulkiy munosabatlar fuqarolik huquqining umumiy holatlariga mos tushadi. Avtotransport huquqining eng muhim bo'limi – tashish shartnomasi esa FKning huquqiy poydevoriga asoslangan. Avtotransportda mulkiy munosabatlarni tartibga solish uslublari FKda bayon etilgan uslublardan jiddiy farq qilmaydi.

Transport huquqi huquqshunoslikning turli sohalari – fuqarolik, ma'muriy, xalqaro, mehnat va boshqa huquqiy me'yorlarning majmuidan iborat. Avtomobil transporti huquqi esa transport huquqining maxsus qismini tashkil etadi (temiryo'l, dengiz, suv, havo transporti huquqi singari). Transport huquqi me'yorlari ko'p qirraligi va murakkabligi bilan ajralib turadi, shuning uchun ham ularni o'rganish, o'z mavzusiga va o'z tizimiga ega bo'lgan, maxsus mustaqil kurs sifatida ajratib qo'yilgan. Transport huquqi tizimi yuk, yo'lovchi va bagaj tashish jarayonida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos uslublarni aks ettiradi. Avtotransportning tashish bo'yicha faoliyati xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari singari shartnomaga asoslanadi. Tashish shartnomasi esa tashishni tashkil etishni tartibga soluvchi huquqiy usul deb e'tirof etiladi. Shuning uchun tashishni tashkil etishda shartnomaviy munosabatlar ahamiyatini kuchaytirish, tashish ishtirokchilari shartnoma majburiyatlarini lozim darajada bajarishlaridagi huquqiy kafolat deb e'tirof etiladi.

O'z mohiyatiga ko'ra yuk tashish (quyida tashish deb yuritiladi) jarayoni nihoyatda murakkab jarayondir va uni bir qator texnik operatsiyalarni bajarish natijasida (yuklarni tashishga tayyorlash, ortish-tushirish va ombor ishlari, saralash va manevr ishlari, transport vositalarining harakatini tashkil etish va h.k.) amalga oshiriladi. Bu texnik operatsiyalar mustaqil ravishda har biri alohida-alohida ma'lum ketma-ketlikda bajarilsa-da, ammo har biri boshqalari bilan birgalik-

da maqsad-mohiyatga ega bo'ladi. Chunki bu maqsad iqtisodiy jihatdan yuklarni makondagi joyini o'zgartirishga qaratilgan. Yuk tashish jarayonining texnologik munosabatlardagi bu umumiyliigi, tashish bo'yicha huquqiy munosabatlarning umumiyiligini ham belgilaydi. Shuning uchun tashish jarayonidagi har bir texnik operatsiyani bajarish bo'yicha qilingan harakat ma'lum huquqiy shaklda namoyon bo'ladi. Shu sababli, uning har biriga tashish ishtirokchilarining ma'lum doiradagi huquqlari va majburiyatlari mos keladi. Bu esa, o'z navbatida, tashish bo'yicha huquqiy munosabatlar tarkibidagi ayrim majburiyatlarni ajratib olish imkoniyatini beradi. Lekin, bu majburiyatlar o'zaro shunday tig'iz va ajralmas bog'langanki, xuddi tashish jarayonidagi material harakatlardek, qaysiki ular huquqiy shakllar hisoblanadi va ularning majmui esa tashish tushunchasini o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, transport huquqiy munosabatlarining umumiyliigi tashish jarayonining texnologik va tashkiliy ajralmasligini yuridik ifodasi hisoblanadi. Tashish jarayonining murakkabligi esa tashish bo'yicha huquqiy munosabatlarning murakkabligini belgilaydi, qaysiki bu huquqiy munosabatlarda har bir taraf mazmunan turli huquq va majburiyatlarga egadirlar.

Ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi huquqiy munosabatlar huquq manbalari asosida tartibga solinadi. Huquqiy munosabatlar – huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardir. Mehnat, mulkiy, pul-kredit munosabatlari huquqiy munosabatlarga kiradi. Huquq manbalari – huquqiy me'yorlar qayd qilingan hujjatlar, huquq manbalari – Konstitutsiya, Konstitutsiyaviy qonunlar, farmonlar va hokimiyat organlarining hujjatlari hisoblanadi.

**Konstitutsiya** – davlatning asosiy qonuni bo'lib, eng yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatdir. Konstitutsiya davlat tuzimini, davlatning boshqaruv shaklini, davlat organlarini tuzish tartibi, ularning vakolatlarini, shaxsning huquq, erkinlik va burchlarini belgilab qo'yadi. Konstitutsiya me'yorlari bilan jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy munosabatlar mustahkamlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan. Shu kuni umumxalq bayrami deb belgilangan.

Konstitutsiya – O‘zbekiston Respublikasidagi huquqning bosh manbai. U turli qonunchilik sohalarining mushtarakligini, bir butunligini va o‘zaro muvofiqligini, boshlang‘ich tamoyillarining umumiyligini ta‘minlaydi. Konstitutsiya va qonunning ustunligi shundan dalolat beradiki, hech kim, hech bir jismoniy va yuridik shaxs o‘z xatti-harakatini qonundan yuqori qo‘ya olmaydi va bunga haqqi yo‘q. Qonun hamma narsadan ustun turishi kerak. Chunki demokratik tarzda uyushtirilgan jamiyatda qonun adolat va tafakkur ifodasidir. Qonunning eng asosiy ijtimoiy vazifasi – jamiyatda tartib-intizom va barqarorlikni ta‘minlashdan iboratdir.

Avtotransport huquqining eng muhim manbalaridan biri – **O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi** hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining «Yo‘lovchi, bagaj va yuk tashish» deb nomlangan 39-bobi 17 ta moddadan (709-725 moddalar) iborat bo‘lib, unda yo‘lovchi, bagaj va yuk tashishning umumiy qoidalari; yo‘lovchi va yuk tashish shartnomasi; bir yo‘nalishda har xil transportda tashish; umumiy foydalanishdagi transportda tashish; kira haqi; transport vositalarini berish, yuk ortish (tushirish); yo‘lovchi, bagaj va yukni eltib qo‘yish muddati; tashishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bo‘yicha javobgarlik; tashish shartnomasi talablarini bajarmaganlik yoki o‘z vaqtida bajarmaganlik uchun javobgarlik; yuk yoki bagaj yo‘qolganligi, kam chiqqanligi va ularga shikast yetkazilganligi (buzilganligi) uchun tashuvchining javobgarligi; tashishni tashkil etish shartnomalari; yuk tashishga nisbatan talab va da‘volar hamda boshqa shu kabi huquqiy me‘yorlar berilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 40-bobi ham transport ishini tashkil etishga bag‘ishlangan bo‘lib, «Transport ekspeditsiyasi» deb nomlanadi. Bu bob 6 ta moddadan (726-731 moddalar) tashkil topgan bo‘lib, unda transport ekspeditsiyasi shartnomasi; shartnomaning shakli; transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo‘yicha ekspeditorning javobgarligi; espeditorga beriladigan hujjatlar va boshqa axborot; uchinchi shaxsning ekspeditor majburiyatini bajarishi va ekspeditsiya shartnomasidan bosh tortish kabi huquqiy masalalar yoritib berilgan.

## 1.2.«Avtomobil transporti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni


O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaroriga asosan 1998-yil 29-avgustda amalga kiritilgan «Avtomobil transporti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni transport huquqining asosiy bosh manbalaridan biri deb hisoblanadi. Mazkur qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasida avtomobil transporti faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirishdan iborat deb belgilab qo'yilgan (1-modda). «Avtomobil transporti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 31 ta moddadan iborat bo'lib, uning 2-moddasi asosiy tushunchalarga bag'ishlangan. Bu moddada avtomobil transporti; avtotransport vositalari; tashuvchi; mijoz (yo'lovchi, yuk oluvchi, yuk jo'natuvchi) kabi atamalarga ta'rif berilgan.

Qonunning 3-moddasi «Avtomobil transporti to'g'risidagi qonun hujjatlari» deb nomlanib, unda ushbu Qonun, O'zbekiston Respublikasining «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi Qonuni, yo'lovchilar, bagaj va yuk tashish qoidalari hamda boshqa qonun hujjatlari avtomobil transporti to'g'risidagi qonun hujjatlari deb belgilangan. Shuningdek, ushbu moddada, «Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining avtomobil transporti to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanadi» – deb e'tirof etilgan.

Qonunning 4-moddasi «Avtomobil transportida mulkchilik shakllari» deb nomlangan bo'lib, bu moddada O'zbekiston Respublikasida avtomobil transporti xususiy va ommaviy mulk asosida faoliyat ko'rsatishi mumkinligi, avtomobil transportining barcha mulqdorlari teng huquqlarga egaligi va qonun himoyasidan bab-baravar foydalanishlari belgilab qo'yilgan.

Avtomobil transporti yerlari (5-modda), avtotransport vositalarini tasniflash (6-modda) kabi masalalar ham Qonunda o'z o'mini egallagan.

Qonunning 7-moddasi «Avtomobilda tashish turlari» deb nomlanib, bu moddada avtomobilda tashishlar shahardagi, shahar atrofidagi, shaharlararo va xalqaro tashishga bo'linishi belgilangan va ularga ta'rif berilgan.



Avtomobil transporti faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish, avtomobil transportini boshqaruvchi davlat organining asosiy vakolatlari, davlat hokimiyati mahalliy organlarining asosiy vakolatlari Qonunning 9,10 va 11-moddalarida ta'kidlab o'tilgan.

Avtotransport vositalari xavfsizlik, mehnatni muhofaza qilish, ekologiya talablariga, shuningdek, standartlar va texnik shartlarga, tibbiy-sanitariya va yong'inga qarshi normalarga muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lishi lozimligi; avtotransport vositalarini standartlash, metrologiya va sertifikatlash ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston davlat standartlash, metrologiya va sertifikatlash markazi hamda boshqa davlat organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi; sertifikatlashdan o'tmagan va belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan avtotransport vositalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi hamda avtomobilda tashishlar tashuvchilar tomonidan maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosida amalga oshirilishi Qonuning 12 va 13-moddalarida belgilab berilgan.

Yo'lovchilar, bagaj va yuklar tashish shartlari va tomonlarning javobgarligini nazarda tutuvchi tashish shartnomasi asosida amalga oshirilishi qonunning 15-moddasida belgilab qo'yilgan.

Tashuvchining huquq va majburiyatlari hamda mijozning huquq va majburiyatlari Qonuning 17–20-moddalarida belgilab berilgan.

Tashish shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarmagan yoki tegishli darajada bajarmaganligi uchun javobgarlik; yuk yoki bagaj yo'qolgan, kam chiqqan yoki shikastlangan (buzilgan) hollarda tashuvchining javobgarligi; tashuvchining yuk tashish uchun avtotransport vositasini bermaganligi yoki o'z vaqtida bermaganligi uchun javobgarligi; yuk tashish uchun tashuvchi tomonidan berilgan avtotransport vositasidan foydalanmaganlik uchun mijozning javobgarligi; yo'lovchini jo'natib yuborish kechiktirilgani uchun tashuvchining javobgarligi; yo'lovchining hayoti yoki sog'lig'iga shikast yetkazilganligi uchun tashuvchining javobgarligi; mijozning zarar yetkazganlik uchun javobgarligi masalalari Qonuning 21–27-moddalarida belgilab berilgan.

Qonunda harakat xavfsizligini va ekologiya normalarini ta'minlashga katta ahamiyat berilgan, chunki yo'lovchilarning hayoti va sog'lig'i hamda yuk, bagaj va yuk bagajlarni o'z vaqtida asrab-avaylab yetkazib berish, avtomobil transporti korxonalari xodimlarining mehnati va atrof-muhitni muhofaza qilish bevosita harakat xavfsizligiga bog'liqdir. Shu bois Qonunning 29-moddasida harakat xavfsizligini va ekologiya normalarini ta'minlash, zaharlovchi, portlovchi, alanganuvchi, radioaktiv, zaharli va boshqa xavfli yuklar faqat bunday yuklarni tashish qoidalari o'z o'mini egallagan.

Qonunning 30-moddasi nizolarni ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Bunda yuklar, yo'lovchilar, bagaj va yuk bagajini tashish bo'yicha majburiyatlar buzilgan taqdirda yuk jo'natuvchilar va yukni oluvchilar tegishli avtotransport korxonalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda talab va da'volar taqdim etishga haqli ekanligi va bu talab va da'volarni ko'rib chiqishning o'ziga xos xususiyati Avtomobil transporti Nizomida belgilab qo'yilganligi uqitirib o'tilgan.

Tashishning umumiy shartlari hamda bunday tashish yuzasidan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq transportning ayrim turlariga oid ustavlar, kodekslar, boshqa qonunlar va belgilangan tartibda ularga muvofiq chiqarilgan qoidalar bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda avtomobil transporti tashkilotlarining o'z mijozlari bilan bo'ladigan munosabatlari Avtomobil transporti Ustavi bilan tartibga solinadi.

### **1.3. «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni**

Ushbu qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasida shahar yo'lovchilar transporti faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirishdan iborat bo'lib, qonun 1997-yil 25-aprelda kuchga kirgan hamda 27 ta moddadan iborat.

Qonunda Toshkent shahrida, viloyat va tuman bo'ysunuvidagi shaharlarda, shuningdek, shaharchalarda shahar yo'lovchilar trans-

porti subyektlariga nisbatan tatbiq etilishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida shahar yo‘lovchilar transporti sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinishi belgilab qo‘yilgan (2-modda).

Qonunda shahar transporti tushunchasiga ta‘rif berilib, «Shahar yo‘lovchilar transporti deganda O‘zbekiston Respublikasi hududida ro‘yxatga olingan, shahar doirasida yo‘lovchilar hamda bagaj tashishga mo‘ljallangan avtomobil va elektr transporti tushuniladi» deb ta‘kidlangan hamda shahar yo‘lovchilar transporti ommaviy va xususiy mulk asosida ishlashi mumkinligi belgilangan (3,4-moddalar).

Shahar yo‘lovchilar transporti jumlasiga avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten, yo‘nalishli va yo‘nalishsiz taksilar kiradi. Idoralarga qarashli yo‘lovchilar transporti jumlasiga korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning o‘z xodimlarini muayyan yo‘nalish va harakat jadvali bo‘yicha mazkur korxonalar, muassasa yoki tashkilot tomonidan belgilangan tartibda yoxud tashish shartnomasi bo‘yicha tashish xizmatlari ko‘rsatuvchi avtobuslar va mikroavtobuslar kiradi (5,6-moddalar).

Qonunda yo‘lovchi tashish shartnomasi, yo‘lovchi tashishda tashuvchining vazifalari va majburiyatlari, yo‘lovchining huquq va majburiyatlari belgilab qo‘yilgan (7,8,23–25-moddalar).

Qonunda shahar yo‘lovchilar transporti faoliyatini litsenziyalash, soliq solish, kreditlash, moliyalash va narx belgilash, investitsiya, yagona ilmiy-texnika siyosatini amalga oshirish, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vositalar bilan Davlat tomonidan tartibga solinishi belgilab qo‘yilgan.

Shahar yo‘lovchilar transportining davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat organlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi maxsus vakolat bergan shahar yo‘lovchilar transportini boshqarish organi tomonidan amalga oshiriladi (10-modda).

Qonunda shahar yo‘lovchilar transporti faoliyatini tartibga solish va boshqarish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari (11-modda), shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari hamda shahar yo‘lovchilar transportini



boshqarish organlarining vakolatlari (12,13-moddalar) belgilab berilgan.

Shuningdek, qonunda shahar yo'lovchilar transporti ishini tashkil etishdagi bir qator huquqiy masalalarga e'tibor qaratilgan. Jumladan, shahar yo'lovchilar transporti faoliyatini litsenziyalash; shahar yo'lovchilar transporti faoliyatini moliyalash; yo'l haqi to'lash; soliq va imtiyozlar; shahar yo'lovchilar transporti vositalarini boshqarish huquqi; yo'nalishlarni tashkil etish; shahar yo'lovchilar transporti vositalariga qo'yiladigan talablar hamda ushbu qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlik.

#### **1.4. «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni**

«Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1999-yil 19-avgustda kuchga kirgan bo'lib, uning asosiy maqsadi yo'l harakati xavfsizligi sohasida yuzaga keluvchi munosabatlarni tartibga solish hamda fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini muhofaza etishni ta'minlash, ularning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini, shuningdek, atrof-muhitni himoya etishning huquqiy asoslarini belgilab berishdan iborat.

Qonunda yo'l harakati xavfsizligi tashkil etishda qo'llaniladigan bir qator asosiy tushunchalar: yo'l; yo'l harakati; yo'l harakati qatnashchisi; yo'l harakati xavfsizligi; yo'l transport hodisasi; yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash; yo'l harakatini tashkil etish; transport vositasi hamda transport vositasining egasi tushunchalariga ta'rif berilgan (2-modda).

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlariga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi;
- O'zbekiston avtomobil yo'llari qurish va ulardan foydalanish davlat-aksionerlik konserni;

– O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat avtomobil nazorati inspeksiyasi (4-modda).

Qonunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining, O‘zbekiston avtomobil yo‘llari qurish va ulardan foydalanish davlat-aksionerlik konsernining hamda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining, Davlat avtomobil nazorati inspeksiyasining yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi vakolatlari belgilab berilgan (5–9-moddalar).

Qonun hujjatlariga asosan transport vositalari egalariga yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash borasida quyidagi majburiyatlar yuklatilgan:

- texnik soz transport vositalaridan foydalanishlari;
- transport vositalarini tegishli malakasi bo‘lgan va tibbiy ko‘rikdan o‘tgan shaxslar boshqarishlariga ijozat etishlari;
- yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga va ekologiya normalari talablariga rioya etishlari shart.

Transport vositalari konstruksiyalarini tayyorlashda, transport vositalarining texnik holati va uskunalariga doir hamda transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ta‘mirlashda qo‘yiladigan talablar hamda transport vositalaridan foydalanishni taqiqlash shartlari ham Qonunda o‘z ifodasini topgan (12–15-moddalar).

Shuningdek, Qonunda yo‘l harakati xavfsizligini tashkil etishdagi bir qator huquqiy masalalarga e‘tibor qaratilgan. Jumladan, yo‘l harakati xavfsizligini tibbiy jihatdan ta‘minlash; yo‘l harakati xavfsizligini tashkil etish; yo‘l harakati qatnashchilarining huquqlari va majburiyatlari; transport vositalarini boshqarish huquqi; transport vositalari haydovchilarini tayyorlashga doir talablar; transport vositalarini boshqarish huquqini bekor qilinishi hamda yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlik.

### **1.5. Avtomobil transporti faoliyatini tashkil etishdagi boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlar**

Avtomobil transporti faoliyatini tashkil etishda yuqorida keltirib o‘tilgan qonunlar va Fuqarolik kodeksidan tashqari yana bir qator huquqiy-me‘yoriy hujjatlardan foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-iyundagi PF-2871 «Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish va boshqaruvni takomillashtirish to'g'risi»dagi Farmoni. Farmon avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish jarayonlarini chuqurlashtirish, bozor munosabatlarini shakllantirish va transport xizmatlari bozorida raqobat muhitini yaratish, avtomobil va daryo transporti boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, unda avtomobil va daryo transporti sohasida boshqaruvni takomillashtirish va monopoliyadan chiqarishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

Shuningdek, farmonda avtomobilda yo'lovchilar va yuk tashish sohasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarining asosiy vazifalari hamda avtomobilda tashuvchilarning hududiy uyushmalarining asosiy vazifalari va funksiyalari belgilab berilgan.

Farmonda «O'zavtotrans» davlat aksionerlik korporatsiyasi tuzatilishi munosabati bilan O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligiga bir qator vazifalar yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi 482-sonli «O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga doir talablarni tasdiqlash haqida»gi qarori. Ushbu qaror «Avtomobil transporti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini bajarish yuzasidan, O'zbekiston Respublikasida avtomobil transporti faoliyatining huquqiy asoslarini yanada shakllantirish maqsadida qabul qilingan bo'lib, ushbu qaror asosida «O'zbekiston Respublikasida Avtomobil transportida yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalari» va «O'zbekiston Respublikasida Avtobuslarda yo'lovchi tashish xavfsizligini ta'minlashga doir talablar» tasdiqlangan.

«O'zbekiston Respublikasida Avtomobil transportida yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalari» da quyidagilar ko'zda tutilgan:

–yo'lovchi va bagaj tashish: asosiy tushunchalar; tashishlarning turlari va ularni tashkil etish, yo'lovchilar tashuvchi transport vositalariga qo'yiladigan talablar; yo'lovchilarni tashuvchi haydovchilarga qo'yiladigan talablar hamda yo'lovchilar tashuvchi avtotransport vositalari ishini hisobga oluvchi asosiy hujjatlar;

– *shahardagi yo'nalishlarda yo'lovchilar va bagaj tashish*: umumiy qoidalar, yo'l haqini yo'lkira kartochnalari bilan to'lash, transportda yurish shartlari, qo'l yuki va bagajni tashish;

– *shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchilar hamda bagajni tashish*: umumiy qoidalar, yo'l haqi to'lash, avtotransportda yurish shartlari, qo'l yuki va bagajni tashish, bagaj mashinalarida bagajni tashish, yo'lovchilar tomonidan unitilgan buyumlarni saqlashga topshirishni rasmiylashtirish, yo'lovchilar avtovokzallari (avtostansiyalari);

– *jismoniy va yuridik shaxslarning buyurtmanomalari (buyurtmalari) yoki boshqa tashish shartnomalari bo'yicha ularga beriladigan avtobuslar va yengil avtomobillarda yo'lovchilar tashish*: umumiy qoidalar, yo'l haqi to'lash;

– *yo'nalishsiz taksilarda yo'lovchilar va bagajni tashish*: umumiy qoidalar, yo'l haqi to'lash, transportda yurish shartlari, qo'l yuki va bagajni tashish;

– *avtomobil transportida harbiy yo'lovchilarni tashish*;

– *avtotransportda imtiyozli yoki bepul yo'l yurish huquqidan foydalanuvchi yo'lovchilar uchun umumiy qoidalar*;

– *tashuvchilarning, yo'lovchilarning va buyurtmanoma (buyurtma) bergan yoki boshqa tashish shartnomasini tuzgan shaxslarning javobgarligi, e'tirozlar va da'volar*: tashuvchining javobgarligi; yo'lovchilarning va buyurtmanoma (buyurtma) bergan yoki boshqa tashish shartnomasini tuzgan shaxslarning javobgarligi, e'tirozlar, da'volar.

«O'zbekiston Respublikasida avtobuslarda yo'lovchi tashish xavfsizligini ta'minlashga doir talablar» avtobuslarda yo'lovchilar tashishda harakatlanish xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu talablar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

– umumiy qoidalar;

– avtobusda yo'lovchilar tashishni tashkil etishda haydovchilarga qo'yiladigan talablar;

– avtobuslarning texnik holati va ulardan foydalanish;

– yo'lovchilar tashishni tashkil etish;

– sayohat-ekskursiya, maxsus tashishlar va bir martalik buyurtmalar bo'yicha tashishlar;

- bolalarni tashish;
- avtobus yo‘nalishlaridagi avtomobil yo‘llari, ko‘chalar, sun‘iy inshootlar, temiryo‘ldan o‘tish joylari, paromlar, bekatlar va boshqa inshootlar;

- yo‘llarni tekshirish;

- umumfoydalaniladigan avtobus yo‘nalishlarini ochish va yopish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 10-martdagi 118-sonli «O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. Ushbu qaror O‘zbekiston Prezidentining «Respublika davlat boshqaruvchi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida» 2003-yil 9-dekabrda PF-3358-son Farmonini bajarish yuzasidan hamda avtomobil va daryo transporti faoliyatini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan. Qarorda O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining asosiy vazifalari belgilab berilishi bilan birgalikda agentlikning tashkiliy tuzilmasi, markaziy apparat tuzilmasi va agentlik hududiy bo‘limlarining namunaviy tuzilmasi, shuningdek, O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlangan. Ushbu Nizomda agentlikning maqomi, vazifalari va funksiyalari, agentlikning huquqlari va javobgarligi hamda agentlik faoliyatini tashkil etish masalalari yoritib berilgan.

O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining 2003-yil 6-dekabrda 158-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 30-yanvar kuni 1305-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan «Yo‘lovchilar avtovokzallari, avtostansiyalar to‘g‘risida» nizom. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalari hamda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta‘minlashga doir talablarni tasdiqlash haqida» 2003-yil 4-noyabrda 482-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan. Nizomning asosiy maqsadi aholiga tashish xizmatlari ko‘rsatish madaniyati, sifati va xavfsizligini oshirish, avtobuslarning haydovchilari va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar uchun ish sharoitlarini yaxshilashdan iborat.

Nizom 13 ta bo'lim hamda 60 ta banddan iborat bo'lib, ularda quyidagi masalalar yoritib berilgan:

- Nizomda qo'llaniladigan tushunchalar va atamalar;
- avtovokzal, avtostansiya pasporti;
- avtovokzallarning toifalari va avtostansiyalarning darajalari;
- avtovokzallar, avtostansiyalarning funksiyalari;
- avtovokzallar, avtostansiyalarning tuzilmasi, shtatlari;
- avtovokzallar, avtostansiyalarning ish rejimi va texnologik jayroni;
- avtotransport vositalari harakatini tashkil etish va yo'lovchilarga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish;
- avtovokzallar, avtostansiyalarning axborot xizmatini tashkil etish;
- chipta sotadigan kassalar ishini tashkil etish;
- bagaj va qo'l yuklarini saqlash xonalari ishini tashkil etish;
- shahar, shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda band bo'lgan avtotransport vositalari ishini dispetcher orqali boshqarish;
- avtovokzallar, avtostansiyalarning jihozlanishi hamda binolar va hududni tozalash ishlarining tashkil etilishi;
- avtovokzal, avtostansiya rahbarlarining javobgarligi.

Avtomobil transporti faoliyatini tashkil etishda yana bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlardan foydalaniladi:

–«Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (1998-yil 24-dekabrda tasdiqlangan)

–«Avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 14-iyuldagi 138-son qarori;

–O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining 2004-yil 22-martdagi 44-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yilning 21-may kuni 1363-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «Avtomobil transportida shaharda, shahar

atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish yo'nalishlarini ochish (yopish) tartibi to'g'risida»gi Nizom;

– O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining 2004-yil 26-apreldagi 65-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yilning 28-iyun kuni 1377-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «Avtomobil transportida yo'lovchilar va yuk tashish bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslarning xodimlariga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga qo'yiladigan malaka talablari to'g'risida»gi Nizom;

–O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining 2004-yil 3-iyundagi 83-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yilning 2-iyul kuni 1382-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «Tashuvchilarning yuk avtomobillari uchun yo'l varaqalari, tovar-transport nakladnoylarini tayyorlash, hisobga olish, to'ldirish va qayta ishlash bo'yicha» yo'riqnoma va huquqiy-me'yoriy hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining transport faoliyatini tartibga soluvchi qarorlari va buyruqlari, xalqaro konvensiyalar va bitimlar ham transport huquqining muhim manbalari hisoblanadi.

### Nazorat uchun savollar

1. Transportning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini.
2. Huquq tushunchasi.
3. Fuqarolik huquqi deganda nimani tushunasiz?
4. Huquqiy munosabatlar deganda nimani tushunasiz?
5. Huquq manbalariga qanday hujjatlar kiradi?
6. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining «Yo'lovchi, bagaj va yuk tashish» deb nomlangan 39-bobida qanday huquqiy munosabatlar keltirilgan?
7. O'zbekiston Respublikasida avtotransport xizmatini tashkil etish bo'yicha qanday normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan?
8. «Avtomobil transporti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini izohlang.
9. «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining tuzilishi va qo'llanilishi.

10. «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-iyundagi PF-2871 «Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish va boshqaruvni takomillashtirish to'g'risi»dagi Farmoni.

12. «O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalari»da nimalar ko'zda tutilgan?

13. O'zbekiston Respublikasida avtobuslarda yo'lovchi tashish xavfsizligini ta'minlashga doir talablarni izohlang.



## **II BOB.**

### **AVTOMOBIL TRANSPORTINI BOSHQARISHNING HUQUQIY TASHKIL QILINISHI**

#### **2.1. Avtotransport korxonalari va birlashmalarining huquqiy holati**

Avtomobil va daryo transporti boshqarishni tashkil etish darajasini oshirish va bu faoliyat ustidan nazoratni kuchaytirish, avtotransport xizmatlari ko'rsatish bozorida raqobatni rivojlantirish, harakat xavfsizligi va ekologik talablarni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 11-iyuldagi «O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligini tashkil etish to'g'risida»gi 296-son qarori asosida O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi tashkil etilgan.

O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi, o'z tizimiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy bo'limlarni oladi.

O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlarga ular tomonidan avtomobil va daryo transportida yuk va yo'lovchilar tashish faoliyati amalga oshirilishi uchun maxsus ruxsatnomalar (litsenziyalar) berish huquqiga ega.

O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o'z vakolatlari doirasida chiqaradigan normativ hujjatlari, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, avtomobil va daryo transporti xizmatlari ko'rsatuvchi yoki ulardan foydalanuvchi barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Avtomobil transporti faoliyatini Davlat tomonidan tartibga solish sertifikatlash, litsenziyalash, soliqqa tortish, ijtimoiy ahamiyatga ega

bo'lgan tashuvlar uchun tariflarni shakllantirish, yagona ilmiy-texnik siyosat yuritish, shuningdek, qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Avtomobil transportini Davlat tomonidan boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan avtomobil transportini boshqarish vakolati berilgan organ, shuningdek, joylardagi mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi avtomobil va daryo transporti sohasida tashkiliy va institutsional o'zgarishlarni hal etish, xizmatlar bozorini shakllantirish va rivojlantirishda hamkorlik qilish va tashuvlar xavfsizligi bo'yicha maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

Avtomobil transportini boshqaruvchi davlat organining asosiy vakolatlari quyidagilardan iborat:

- avtomobil transportida yuk va yo'lovchilar tashishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish;

- avtomobil va transportini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur konsensiyasini ishlab chiqish;

- respublika va aholining tashuvlarga bo'lgan davlat ehtiyojlari taxminini ishlab chiqish;

- avtomobil transporti sohasida yagona sarmoyaviy, ilmiy-texnik va ijtimoiy siyosat shakllantirish va o'tkazish;

- avtotransport xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirishda hamkorlik qilish;

- avtomobil transportida yo'lovchilar, bagaj va yuklarni tashishni litsenziyalashni tashkil etish va takomillashtirish;

- tashuvchilar va mijozlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish;

- avtomobil transporti sohasida kadrlarni o'qitish va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

- avtomobil transporti to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish;

- avtomobil transporti sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

Agentlik o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) avtomobil va daryo transportida yuk va yo'lovchilar tashishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy baza shakllantirilishini ta'minlash sohasida:

– avtomobil va daryo transportida yuk va yo'lovchilar tashishni tashkil etish va uning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, boshqaruv organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– avtomobil va daryo transportidan foydalanish sohasida xalqaro shartnomalarni ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi nomidan qatnashadi;

– agentlik vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqa davlatlar ma'muriyatlari va tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

– avtomobil va daryo transporti faoliyatining normativ bazasini takomillashtirish, amaldagi xalqaro avtomobil yo'laklaridan samarali foydalanish va ularning yangilarini barpo etish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun davlat organlariga kiritadi;

– vazirliklar va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari, dasturlar, shuningdek, tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha boshqa hujjatlar loyihalarining agentlik faoliyatiga oid qismini ekspert baholaydi va ularga rozilik beradi;

b) iqtisodiyot tarmoqlari va aholining yuk va yo'lovchilar tashishga ehtiyojlarini hisobga olgan holda avtomobil va daryo transportini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida:

– avtomobil va daryo transportini rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi;

– jamoat avtomobil va daryo transporti faoliyatini muvofiqlashtiradi;

– O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari takliflari asosida ishlab chiqilgan yo'lovchilar tashishning xalqaro va viloyatlararo yo'nalishlarini tasdiqlaydi;

v) Avtomobil va daryo transporti xizmatlari bozorida bozor munosabatlarini va raqobat muhitini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash sohasida:

– tashish yo'nalishlarini tender asosida realizatsiya qilish mexanizmlarini joriy etadi, tender tashkilotchilari ishlarini muvofiqlashtiradi;

– yo'lovchilar tashish bo'yicha shaharlararo-viloyatlararo va xalqaro yo'nalishlarni joylashtirish yuzasidan ochiq tenderlarni tashkil etadi va o'tkazadi;

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda avtomobil va daryo transporti xizmatlari uchun tarif siyosatini shakllantiradi;

g) yagona texnika siyosatini o'tkazish sohasida:

– xalqaro normalarni hisobga olgan holda avtomobilda va daryolarda tashishlar bo'yicha faoliyatni tartibga solish standartlari, qoidalari, shakllari va usullari yuzasidan ma'lumotlarning yagona axborot bazasini shakllantiradi, ilmiy-texnik ishlarni olib boradi;

– suvda kishilarning hayoti qo'riqlanishini va kemalar suzishi xavfsizligini ta'minlaydigan kemalar va suzib yuruvchi qurilmalarni loyihalashtirish, ulardan foydalanish, ularni ta'mirlash va qayta jihozlash talablari bajarilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nazorat qilishni tashkil etadi va amalga oshiradi;

– foydalanilayotgan kemalar va suzib yuruvchi qurilmalarni hisobga oladi, tasniflaydi, ro'yxatdan o'tkazadi, Registr qoidalari va shuningdek, kemalar va suzib yuruvchi qurilmalarni ta'mirlashga doir boshqa normativ hujjatlar qoidalari bajarilishini nazorat qiladi;

– kemalarga va suzish vositalariga kema guvohnomalari, malaka guvohnomalari, suzishga yaroqlilik to'g'risidagi guvohnomani, neft, oqova suvlar va axlat bilan ifloslanishning oldini olish to'g'risidagi guvohnomani hamda Registr qoidalari nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni beradi;

– avtomobil va daryo transportida xavfli yuklar, qurol-yarog', harbiy texnika, harbiy mol-mulk, portlovchi moddalar va buyumlar, shuningdek, harbiy kontingentlar tranziti amalga oshirilganda xulosalar beradi;

d) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Avtomobil va daryo transportida faoliyatni litsenziyalashni, litsenziatlar tomonidan litsen-

ziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, litsenziyalar reestrini yuritadi;

e) avtomobil va daryo transportida kadrlarni o'qitish va ularning malakasini oshirishni tashkil etish sohasida ommaviy kasblarga, shu jumladan haydovchilikka tayyorlash va qayta tayyorlash hamda tarmoq kadrlari malakasini oshirish bo'yicha bazaviy o'quv dasturlarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

Avtomobil transporti sohasini boshqaruvchi davlat organi qonunchilik doirasida boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining avtomobil transporti sohasidagi asosiy vakolatlari quyidagilardan iborat:

– avtomobil transportini rivojlantirishning kompleks mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– avtotransport xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirish, mulkchilikning barcha shakllaridagi avtomobilda tashuvchilar uchun teng shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha hamkorlik qilish;

– avtomobil transportining moddiy-texnik va ijtimoiy bazasini mustahkamlashda hamkorlik qilish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari avtomobil transporti sohasida qonunchilik doirasida boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Avtotransport vositalari xavfsizlik, mehnat muhofazasi, ekologiya talablariga, shuningdek, standartlar va texnik shartlarga, tibbiy-sanitar hamda yong'inga qarshi me'yorlarga mosligi to'g'risidagi sertifikatlariga ega bo'lishi kerak.

Avtotransport vositalarini standartlash, metrologiyasini amalga oshirish va sertifikatlashga doir ishlarni tashkil etish, muvofiqlashtirish va ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi O'zbekiston Davlat standartlash, metrologiya va sertifikatlash markazi hamda qonunchilik doirasidagi boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sertifikatlanmagan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan avtotransport vositalari foydalanishga qo'yilmaydi.

Tashuvchilar tomonidan avtomobil tashuvlari maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosida amalga oshiriladi.

Avtomobilda tashuvlarni amalga oshirish uchun litsenziya berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan bel-

gilanadi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 14- iyuldagi «Avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 138-sonli qarori).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-iyundagi «Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish va boshqaruvni takomillashtirish to'g'risida»gi PF-2871-son farmoni asosida avtomobil va daryo transporti sohasida boshqaruvni takomillashtirish va monopoliyadan chiqarishni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

PF-2871 ga asosan avtomobil va daryo transporti sohasida boshqaruvni takomillashtirish va monopoliyadan chiqarishni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagi yo'nalishlar belgilab berildi:

– avtotransportda yo'lovchilar va yuk tashish sohasida bozor munosabatlari va raqobat muhitini yanada rivojlantirish, avtomobil transporti tashkilotlari va korxonalarini keng xususiyashtirish, xususiy avtomobil tashuvchilar faoliyati sohasini kengaytirish, transport xizmatlari bozorida mulkchilikning barcha shakllaridagi avtomobilda tashuvchilar uchun teng shart-sharoitlar yaratish;

– avtomobil va daryo transportida yuk va yo'lovchilar tashishni boshqarishning ortiqcha bo'g'inlarini tugatish, boshqaruvning bir va ikki bo'g'inli tizimiga o'tish;

– avtomobil transportida boshqarishni markazlashtirishdan chiqarish va avtomobilda yo'lovchilar tashuvchi, yuklarni viloyat ichida tashuvchi, transport-foydalanish va axborot xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish, avtomobilda yo'lovchilar va yuk tashish sohasida kadrlarni qayta tayyorlash funksiyalarini bevosita Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ixtiyoriga berish;

– yo'lovchilar tashish xavfsizligi chora-tadbirlarini mustahkamlash, avtomobilda yo'lovchilar va yuk tashish sohasida iste'molchilarning huquqlari himoya qilinishining kuchli tizimini yaratish, transport xizmatlari tizimida sug'urtaning mustaqil bozorini rivojlantirish.

PF-2871 ga asosan avtomobil tashuvchilarning hududiy uyushmalariga quyidagi asosiy vazifalar va funksiyalar yuklatilgan:

– avtomobil transporti sohasida bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, avtotransport korxonalarini xususiylashtirish va aksiyalashtirish jarayonlarini rivojlantirish;

– yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish madaniyati va sifatini oshirish, avtotransport xizmatlari servisini kengaytirish;

– zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, ta‘mirlash bazasini rivojlantirish va zamonaviylashtirish, harakat vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha investitsiya dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish;

– yo‘lovchilar va yuklarni shaharlarda, shaharlararo, viloyatlararo tashishni ta‘minlash yuzasidan avtotransport korxonalarini faoliyatini muvofiqlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasining «Avtomobil transporti to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 9-dekabr-dagi «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 10-martdagi «O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 118-sonli qarori talablaridan kelib chiqqan holda O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining markaziy apparat va hududiy bo‘limlardan iborat tarkibiy tizimi tashkil etilgan (1 va 2-rasmlar).

Hududiy bo‘lim O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining 2004-yil 15-apreldagi 63-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi hududiy bo‘limi to‘g‘risida»gi Nizom asosida faoliyat ko‘rsatadi. Hududiy bo‘limning boshqaruvi ijro etuvchi apparatining namunaviy tuzilmasi 3 va 4-rasmlarda keltirilgan.

#### **Hududiy bo‘limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**


– avtomobil va daryo transportida yuk va yo‘lovchilar tashishni tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy baza shakllantirishni ta‘minlash va boshqaruv organlari va xo‘jalik subyektlari tomonidan ularga rioya etilishini nazorat qilish;

– iqtisodiyot tarmoqlari va aholining yuk va yo‘lovchilar tashishga ehtiyojlarini hisobga olgan holda avtomobil va daryo transportini

rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, jamoat avtomobil va daryo transporti faoliyatini muvofiqlashtirish;

– avtomobil va daryo transporti xizmatlari bozorida bozor munosabatlarini va raqobat muhitini rivojlantirish uchun qulay shart - sharoitlarni ta'minlash;

– avtomobil va daryo transporti sohasida yagona texnika siyosatini o'tkazish;



**2.1-rasm. Avtomobil va daryo transportini boshqarishning tashkiliy tuzilmasi<sup>1</sup>**

–avtomobil va daryo transportida yuk va yo'lovchilar tashishni litsenziyalashni tashkil etish, litsenziatlar tomonidan litsenziya talablari va shartlari bajarilishini nazorat qilish;

–shahar va shahar atrofida tashuvlarni amalga oshirishda qatnashayotgan kadrlarni o'qitish va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

–bo'lim ishini takomillashtirish maqsadida boshqa hududiy bo'limlar bilan tajriba almashish;

–agentlik markaziy apparatiga o'z vaqtida va sifatli hisobot hujjatlarini taqdim etish (agentlik tomonidan belgilangan muddatlarda va shakllarda);


<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 10-martdagi 118-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan.



–kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishni amalga oshirish, kadrlar zaxirasini tayyorlash;


–mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Favqulodda vaziyatlar vazirligiga safarbarlik vaziyatida va favqulodda vaziyatlarda avtomobil transporti maxsus bo‘linmalari faoliyatini muvofiqlashtirishda ko‘maklashish;

–xodimlar mehnatini va dam olishini to‘g‘ri tashkil etish, texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi va ijtimoiy himoyalashni ta‘minlash.




## 2.2-rasm. O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi markaziy apparati tuzilmasi<sup>1</sup>

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 10-martdagi 118-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan.



**2.3-rasm. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi hududiy bo'limining namunaviy tuzilmasi<sup>1</sup>**



**2.4-rasm. Avtomobilda yuk va yo'lovchilar tashish hududiy uyushma boshqaruvi ijro etuvchi apparatining namunaviy tuzilmasi<sup>2</sup>**

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 10-martdagi 118-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 5-iyundagi 245-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan.

Hududiy bo'lim o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) avtomobil va daryo transportida yuk va yo'lovchilar tashishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy baza shakllantirilishini ta'minlash sohasida:

– avtomobil va daryo transportida yuk va yo'lovchilar tashishni tashkil etish va uning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi, boshqaruv organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– avtomobil va daryo transportidan foydalanish sohasida xalqaro shartnomalarni ishlab chiqishda qatnashadi;

– agentlik vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqa davlatlar ma'muriyatlari va tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlik qilishda ishtirok etadi;

–avtomobil va daryo transporti faoliyatining normativ bazasini takomillashtirish, amaldagi xalqaro avtomobil yo'laklaridan samarali foydalanish va ularning yangilarini barpo etish bo'yicha takliflarni kiritishda qatnashadi;

– vazirliklar va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari, dasturlar, shuningdek, tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha boshqa hujjatlar loyihalarining agentlik faoliyatiga oid qismini ekspert baholashda ishtirok etadi;

b) iqtisodiyot tarmoqlari va aholining yuk va yo'lovchilar tashishga ehtiyojlarini hisobga olgan holda avtomobil va daryo transportini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida:

–avtomobil va daryo transportini rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi;

– jamoat avtomobil va daryo transporti faoliyatini muvofiqlashtiradi;

–avtomobil va daryo transporti sohasida davlat tomonidan boshqarish va tartibga solish, nazorat qilishga taalluqli bo'lgan vazifalar va funksiyalar yuzasidan yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, avtomobil va daryo transportini rivojlantirish kontsepsiyalari va kompleks dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

– shahar yo‘lovchi transportini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishdagi masalalarni hal etadi;

– avtomobil va daryo transportida faoliyat ko‘rsatish uchun litsenziyalar berish, davlat boji, yig‘imlar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa mablag‘larning kelib tushishi bo‘yicha joriy va uzoq muddatli istiqbol rejalarini ishlab chiqadi;

v) avtomobil va daryo transporti xizmatlari bozorida bozor munosabatlarini va raqobat muhitini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta‘minlash sohasida:

– tashish yo‘nalishlarini tender asosida joylashtirish mexanizmlarini joriy etadi, tender tashkilotchilari ishlarini muvofiqlashtiradi;

– tashuvchilarning tashish yo‘nalishlaridagi faoliyatini, tender shartnomalari bajarilishini, yo‘l harakati xavfsizligini nazorat qiladi;

– davlat hokimiyatining mahalliy organlaridan va aholidan shahar, shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo‘lovchi tashish yo‘nalishlari bo‘yicha takliflarni yig‘adi, tashish yo‘nalishlarini tasdiqlash uchun hujjatlarni tayyorlaydi;

– shahar yo‘lovchi transporti bo‘yicha Jahon banki loyihasining «D» komponentini amalga oshirishda yordam beradi;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining joylardagi moliya bo‘limlari bilan birgalikda avtomobil va daryo transporti xizmatlari uchun tarif siyosatini shakllantiradi;

g) yagona texnika siyosatini o‘tkazish sohasida:

– xalqaro normalarni hisobga olgan holda avtomobilda va daryolar-da tashishlar bo‘yicha faoliyatni tartibga solish standartlari, qoidalari, shakllari va usullari yuzasidan ma‘lumotlarning yagona axborot bazasini shakllantirishda, ilmiy-texnik ishlarni olib borishda ishtirok etadi;

– avtomobil va daryo transportida xavfli yuklar, qurol-yarog‘, harbiy texnika, harbiy mol-mulk, portlovchi moddalar va buyumlar, shuningdek, harbiy kontingentlar tranziti amalga oshirilganda ekspert xulosalar berishda ishtirok etadi;

d) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda avtomobil va daryo transportida faoliyatni litsenziyalashni, litsenziatlar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazoratni tashkil etadi, litsenziyalar reestrini yuritadi;

e) avtomobil va daryo transportida kadrlarni o'qitish va ularning malakasini oshirishni tashkil etishda qatnashadi va amalga oshiradi.

### **Hududiy bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:**

– o'zining vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan avtomobil va daryo transporti sohasidagi axborotni, yuridik va jismoniy shaxslardan so'rash va olish;

– litsenziatlar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rejali va rejadan tashqari tekshirish;

– litsenziyalash to'g'risidagi qonunchilikni bajarish uchun choralar ko'rishga, aniqlangan litsenziya talablari va shartlarining buzilishlarini bartaraf etishga litsenziatlarni majbur qiluvchi qarorlarni qabul qilish, kamchiliklarni bartaraf etish muddatlarini belgilash;

– tekshirish natijalari asosida, litsenziya talablari va shartlari buzilishlari ko'rsatilgan holda, dalolatnomalar tuzish;

– shahar va shahar atrofi yo'nalishlari bo'yicha tashish huquqini beruvchi litsenziyalarning amal qilinishini to'xtatib turish, to'xtatish va bekor qilish;

– shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish huquqini beruvchi litsenziyalarning amal qilinishini to'xtatib turish, to'xtatish va bekor qilish bo'yicha agentlikka takliflar kiritish;

– viloyat avtomobil va daryo transporti faoliyatiga tegishli masalalar yuzasidan mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga, xo'jalik boshqaruvi organlariga, shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga murojat qilish;

– avtomobil va daryo transportida faoliyat ko'rsatish uchun beriladigan litsenziyalar bilan tashuvchilarni to'liq qamrab olishni tashkil etishda ko'maklashish uchun mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga murojat qilish;

– bo'lim faoliyatini takomillashtirish maqsadida boshqa hududiy bo'limlarning ko'rsatkichlari va ish uslublari haqida ma'lumotlarni so'rab olish;

– yo'lovchilar tashishni tashkil etuvchi hududiy komissiyalarga, tender shartnomalari shartlarini bajarmayotgan ayrim tashuvchilarni,

tashuv yo'nalishida ishlash huquqidan mahrum etish to'g'risida takliflar kiritish;

– avtomobil va daryo transportidan foydalanish qoidalari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka tortish to'g'risida davlat organlariga takliflar kiritish;

– avtomobil va daryo transporti faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini tahlil etish va takomillashtirish masalalari bo'yicha mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb etish;

– xorijiy va milliy yuk va yo'lovchilar tashuvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasining avtomobil va daryo transporti sohasidagi xalqaro shartnomalari asosiy shartlari va qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Hududiy bo'lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Hududiy bo'lim o'ziga yuklangan vazifalarning samarali bajarilishi uchun javob beradi.

Respublikamizda avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish jarayonlarini chuqurlashtirish, bozor munosabatlarini shakllantirish va transport xizmatlari bozorida raqobat muhitini yaratish, avtomobil va daryo transporti boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

## 2.2. Yuridik shaxs tushunchasi va uning belgilari

**Yuridik shaxs** – fuqarolik huquqi subyekti, fuqarolik-huquqiy munosabatlari ishtirokchisi. Yuridik shaxs tushunchasiga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 39-moddasida: «O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan davlat va jamoat tashkilotlari yuridik shaxs hisoblanadi»—deb ta'rif berilgan.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq, foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan

tashkilot (tijoratchi bo'lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxonalar va qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin.

Tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin.

Yuridik shaxslarning huquq layoqati va muomalaga layoqatliligi maxsus xususiyatga ega. Yuridik shaxs faqat o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi. Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati uning ustavi, nizomi yoki qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Yuridik shaxs qonunda ro'yxati belgilab qo'yilgan ayrim faoliyat turlari bilan faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosidagina shug'ullanishi mumkin.

Yuridik shaxsning huquqlari qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina cheklanishi mumkin. Yuridik shaxsning huquqlarini cheklash haqidagi qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Yuridik shaxsni ro'yxatga olish talab etilmaydigan bir qancha davlatlardan farqli o'laroq, yuridik shaxs huquq layoqati O'zbekistonda ular ta'sis etilgan paytdan emas, balki adliya organlarida davlat ro'yxatiga olingan paytdan boshlab vujudga keladi. Yuridik shaxsning huquq layoqati uni tugatish yakunlangan paytdan e'tiboran tugatiladi. Qonunga muvofiq, «davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga tegishli yozuvlarni kiritib qo'ygan paytdan e'tiboran» yuridik shaxsni tugatish yakunlangan, yuridik shaxs esa faoliyatini tugatgan hisoblanadi.

Yuridik shaxs faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olish talab etilgan hollarda huquq layoqati bunday litsenziya olingan paytdan yoki unda ko'rsatilgan sanadan boshlab vujudga keladi va agar qonunda yoki boshqa huquqiy hujjatlarda o'zgacha qoida belgilangan bo'lmasa, litsenziyaning amal qilish muddati tamom bo'lganidan keyin tugatiladi.

Har bir mamlakatda yuridik shaxsni tashkil etish va ularning faoliyatini amalga oshirishning o'z tartibi hamda huquq subyektlari –

yuridik shaxsning o'z turlari mavjud. Ular jamiyat hayotining muayyan sharoitlari, iqtisodiy va boshqa aloqalarning xususiyati va rivojlanish darajasi bilan bog'liq.

Yuridik shaxslar mulkdor yoki u vakil qilgan shaxs tomonidan yoxud vakolatli organning farmoyishi asosida, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tashkil etiladi.

Mulkdorlar, xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi subyektlari yoxud ular vakil qilgan shaxslar yuridik shaxslarning muassislari hisoblanadi.

Yuridik shaxs ustav asosida yoki ta'sis shartnomasi va ustav asosida yohud faqat ta'sis shartnomasi asosida ish olib boradi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs shu turdagi tashkilotlar haqidagi nizom asosida ish olib borishi mumkin.

Yuridik shaxsning ta'sis shartnomasi uning muassislari tomonidan tuziladi, ustavi esa tasdiqlanadi.

Qonun hujjatlariga muvofiq bir muassis tomonidan tashkil etilgan yuridik shaxs shu muassis tasdiqlagan ustav asosida ish olib boradi.

Yuridik shaxsning ustavi va boshqa ta'sis hujjatlarida yuridik shaxsning nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili), yuridik shaxs faoliyatini boshqarish tartibi belgilab qo'yilishi, shuningdek, ularda tegishli turdagi yuridik shaxslar to'g'risida qonunda nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlar bo'lishi kerak. Tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar va unitar korxonalarining, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, boshqa tijoratchi tashkilotlarning ham ta'sis hujjatlarida yuridik shaxs faoliyatining sohasi va maqsadlari belgilab qo'yilgan bo'lishi kerak.

Yuridik shaxs qonunlarga va ta'sis hujjatlariga muvofiq ish olib boradigan o'z organlari orqali fuqarolik huquqlariga ega bo'ladi va o'z zimmasiga fuqarolik burchlarini oladi. Yuridik shaxs organlarini tayinlash yoki saylash tartibi qonun hujjatlari va ta'sis hujjatlari bilan belgilanadi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik shaxs o'z ishtirokchilari orqali fuqarolik huquqlariga ega bo'lishi va fuqarolik burchlarini o'z zimmasiga olishi mumkin.

Qonunga yoki yuridik shaxsning ta'sis hujjatlariga muvofiq yuridik shaxs nomidan ish olib boradigan shaxs o'zi vakili bo'lgan yuridik



shaxs manfaatlari yo'lida halol va oqilona ish olib borishi kerak. U yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari, a'zolari) talabi bilan, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, yuridik shaxsga yetkazgan zararini to'lashi shart.

Yuridik shaxs o'zining tashkiliy-huquqiy shaklini bildiradigan nomiga ega bo'ladi. Tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar, unitar korxonalarining nomlari, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa – boshqa tijoratchi tashkilotlarning ham nomlari yuridik shaxs faoliyatining xususiyatini ko'rsatishi kerak.

Yuridik shaxsning nomiga to'la yoki qisqartirilgan rasmiy nomni (davlatning nomini) kiritishga, yuridik shaxs hujjatlarining rekvizitlariga yoki reklama materiallariga ana shunday nomni yohud davlat ramzlari elementlarini qo'shishga O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan tartibda yo'l qo'yiladi.

Yuridik shaxsning joylashgan yeri, agar qonunga muvofiq yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy bilan belgilanadi.

Yuridik shaxs o'zi bilan bo'ladigan aloqa amalga oshiriladigan pochta manziliga ega bo'lishi lozim hamda o'zining pochta manzili o'z-garganligi to'g'risida vakolatli davlat organlarini xabardor etishi shart.

Yuridik shaxsning nomi va joylashgan yeri (pochta manzili) uning ta'sis hujjatlarida ko'rsatiladi.

Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs o'z firma nomiga ega bo'lishi lozim.

Yuridik shaxs o'z firmasining nomidan mutlaq foydalanish huquqiga egadir.

O'zga firma nomidan g'ayriqonuniy suratda foydalanayotgan shaxs firma nomiga egalik qilish huquqi bo'lgan shaxsning talabi bilan undan foydalanishni to'xtatishi hamda yetkazilgan zararlarni to'lashi lozim.

Yuridik shaxs o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi.

Yuridik shaxs muassisi (ishtirokchisi) yoki uning mol-mulkinging egasi yuridik shaxsning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, yuridik shaxs esa muassis (ishtirokchi) yoki mulkdorning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, ushbu Fuqarolik kodeksda yoki yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Agar yuridik shaxsning nochorligi (bankrotligi) shu yuridik shaxs uchun majburiy ko'rsatmalarni berish huquqiga ega bo'lgan muassis (ishtirokchi) sifatidagi shaxsning yoki yuridik shaxs mol-mulki mulkdorining g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga keltirilgan bo'lsa, yuridik shaxsning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda bunday shaxs zimmasiga uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin.

Muassis (ishtirokchi) yoki yuridik shaxs mol-mulkining mulkdori shu yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan taqdiridagina majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega.

Yuridik shaxs uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan muassis (ishtirokchi) yoki mulkdor yuridik shaxsning muayyan harakatni amalga oshirishi oqibatida nochor (bankrot) bo'lib qolishini oldindan bilib, o'z huquqidan uning ana shunday harakatni amalga oshirishini ko'zlab foydalangan holdagina yuridik shaxsning nochorligi (bankrotligi) ular tomonidan vujudga keltirilgan deb hisoblanadi.

Yuridik shaxsni qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) uning muassislari (ishtirokchilari) yoki ta'sis hujjatlarida shunga vakil qilingan yuridik shaxs organi qaroriga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Qonunda belgilangan hollarda yuridik shaxsni bo'lish yoki uning tarkibidan bir yohud bir necha yuridik shaxsni ajratib chiqarish shaklida uni qayta tashkil etish vakil qilingan davlat organlarining qarori bilan yohud sud qarori bilan amalga oshiriladi.

Qonunda belgilangan hollarda yuridik shaxslarni qo'shib yuborish, qo'shib olish yoki o'zgartirish shaklida qaytadan tashkil etish vakolatli davlat organlarining roziligi bilangina amalga oshirilishi mumkin.

Qo'shib olish shaklida qayta tashkil etish hollarini istisno qilganda, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs qayta tashkil etilgan hisoblanadi.

Yuridik shaxs unga boshqa yuridik shaxsni qo'shib olish shaklida qayta tashkil etilganida qo'shib olingan yuridik shaxsning faoliyati to'xtatilgani haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga kiritilgan paytdan boshlab yuridik shaxs qayta tashkil etilgan hisoblanadi.

Yuridik shaxslar qo‘shib yuborilganida ulardan har birining huquq va burchlari topshirish hujjatiga muvofiq yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o‘tadi.

Yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsga qo‘shilganida, bu yuridik shaxsga qo‘shilgan yuridik shaxsning huquq va burchlari topshirish hujjatiga muvofiq o‘tadi.

Yuridik shaxs bo‘lingan taqdirda uning huquq va burchlari taqsimlash balansiga muvofiq yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarga o‘tadi.

Yuridik shaxs tarkibidan bir yoki bir necha yuridik shaxs ajralib chiqqanida qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquq va burchlari taqsimlash balansiga muvofiq ularning har biriga o‘tadi.

Bir turdagi yuridik shaxs boshqa turdagi yuridik shaxsga aylantirilganida (tashkiliy-huquqiy shakli o‘zgartirilganida), qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquq va burchlari topshirish hujjatiga muvofiq yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o‘tadi.

Yuridik shaxsni tugatish uning huquq va burchlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxsga o‘tmasdan bekor qilinishiga olib keladi.

Yuridik shaxs quyidagi hollarda tugatilishi mumkin:

– uning muassislari (ishtirokchilari)ning yoki ta‘sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq, shu jumladan yuridik shaxsning amal qilish muddati tugashi, uni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsadga erishilganligi munosabati bilan yoki yuridik shaxsni tashkil qilish chog‘ida qonun hujjatlari buzilishiga yo‘l qo‘yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni bartaraf etib bo‘lmasa, sud yuridik shaxsni ro‘yxatdan o‘tkazishni haqiqiy emas deb topganida;

– faoliyat ruxsatnomasiz (litsenziyasiz) amalga oshirilgan yoki qonun tomonidan taqiqlangan faoliyat amalga oshirilgan yohud olti oy mobaynida (savdo va savdo-vositachilik korxonasi esa — uch oy mobaynida) bank hisobvaraqlari bo‘yicha pul operatsiyalarini o‘tkazish bilan bog‘liq moliya-xo‘jalik faoliyati amalga oshirilmagan, dehqon va fermer xo‘jaliklari bundan mustasno, va (yoki) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e‘tiboran bir yil ichida ustav fondi ta‘sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorda shakllantirilmagan taqdirda, qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, shuningdek, ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa hollarda sudning qaroriga muvofiq.

Sudning yuridik shaxsni tugatish to'g'risidagi qarorida uning muassislari (ishtirokchilari) yohud yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari bilan uni tugatishga vakil qilingan organ zimmasiga yuridik shaxsni tugatishni amalga oshirish vazifasi yuklatilishi mumkin.

Yuridik shaxsni tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) yoki organ bu haqda yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organga darhol yozma xabar berishlari kerak, davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ yuridik shaxs tugatish jarayonida ekanligi haqidagi ma'lumotlarni yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga kiritib qo'yadi.

Tugatuvchi ommaviy axborot vositalarida yuridik shaxsning tugatilishi haqida, shuningdek, uning kreditorlari tomonidan talablarni bayon etish tartibi va muddati to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda e'lon beradi. Bu muddat tugatish haqida xabar e'lon qilingan paytdan boshlab ikki oydan kam bo'lishi mumkin emas.

Tugatuvchi kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzini olish choralari ko'radi, shuningdek, kreditorlarni yuridik shaxs tugatilishi haqida yozma ravishda xabardor qiladi.

Kreditorlar tomonidan talablarni qo'yish uchun belgilangan muddat tamom bo'lganidan keyin tugatuvchi oraliq tugatish balansini tuzadi, bu balans tugatilayotgan yuridik shaxs mol-mulkining tarkibi, kreditorlar qo'ygan talablar ro'yxati, shuningdek, ularni qarab chiqish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Agar tugatilayotgan yuridik shaxs (muassasalardan tashqari) ixtiyoridagi pul mablag'lari kreditorlarning talablarini qondirish uchun yetarli bo'lmasa, tugatuvchi yuridik shaxsning mol-mulkini kimoshdi savdosi orqali sud qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda sotadi.

Tugatilayotgan davlat korxonasining mol-mulki, tugatilayotgan muassasaning esa – pul mablag'lari kreditorlarning talablarini qondirish uchun yetarli bo'lmasa, kreditorlar o'z talablarining qolgan qismini ushbu korxonaga yoki muassasa mulkdori hisobidan qondirish to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat qilish huquqiga egadirlar.

Yuridik shaxsning tugatilishi haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga kiritib qo'yilganidan so'ng yuridik

shaxsni tugatish tamomlangan, yuridik shaxsning faoliyati esa tugagan hisoblanadi.

Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs, davlat korxonasidan tashqari, shuningdek, matlubot kooperativi yoki ijtimoiy fond shaklida ish olib borayotgan yuridik shaxsning kreditorlar talablarini qondirishga qurbi yetmasa, sudning qaroriga muvofiq u nochor (bankrot) deb hisoblanishi mumkin.

Yuridik shaxsning bankrot deb hisoblanishi uning tugatilishiga olib keladi.

### **2.3. Avtomobil transporti faoliyatini nazorat qilish**

Avtomobil va daryo transportini davlat tomonidan nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrda 717-I-son «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi Qonuni talablari asosida amalga oshiriladi. Ushbu Qonun xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

Avtomobil transporti faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga ushbu qonundan tashqari quyidagilarni ham kiritish mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 19-noyabrda PF-2114-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 15-noyabrda 393-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy nazorat-taftish boshqarmalari to'g'risida»gi Nizom;

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrda 414-son qarori bilan tasdiqlangan Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibi;

«Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan, tadbirkorlik subyektlari–yuridikshaxslarfaoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish tartibi to'g'risida»gi Nizom.

Agar avtomobil transporti faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish

to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Avtomobil transporti faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishga qonun hujjatlari bilan vakolat berilgan O'zbekiston avtomobil va daryo transport agentligi va idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

Avtomobil transporti faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- tekshirish, shu jumladan taftish, muqobil tekshirish, nazorat tartibida tekshirish;

- statistika axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish;

- idora qaramog'idagi organlarni tekshirishdan o'tkazish.

Statistika axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish orqali davlat tomonidan nazorat qilish, shuningdek, idora qaramog'idagi organlarni tekshirishdan o'tkazish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

#### **Davlat tomonidan nazorat qilishning asosiy prinsiplari:**

- nazorat qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylik, xolislik va oshkoralik;

- yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga aralashmaslik.

**Tekshirishlar davriyligi.** Xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini tekshirishlar maxsus vakolatli organning qaroriga binoan rejali tartibda ko'pi bilan yiliga bir marta amalga oshirilishi mumkin, xususi korxonalar bundan mustasno.

Belgilangan normalar va qoidalarga o'z vaqtida hamda to'la hajmda rioya etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini tekshirishlar nazorat qiluvchi organlar tomonidan ko'pi bilan ikki yilda bir marta amalga oshiriladi.

Xususi korxonalar faoliyatini tekshirishlar nazorat qiluvchi organlar tomonidan ko'pi bilan ikki yilda bir marta, belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

**Tekshiruvlar muddatlari.** Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish muddatlari o'ttiz kalendar kunidan oshmasligi

lozim. Alohida hollarda maxsus vakolatli organning qaroriga binoan bu muddat uzaytirilishi mumkin.

**Rejadan tashqari tekshiruv.** Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rejadan tashqari tekshirish uchun maxsus vakolatli organning tekshirilayotgan obyekt nomini, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, tekshiruv o'tkazish maqsadi, muddatlari hamda uni o'tkazish sabablarining asosliligi ko'rsatilgan holda rejadan tashqari tekshirish o'tkazish to'g'risida chiqargan qarori, shuningdek, tekshirishni amalga oshiruvchi tegishli mansabdor shaxslar tarkibi va tekshiruvni o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan buyrug'i asos bo'lib xizmat qiladi.

Rejadan tashqari tekshirishlar nazorat qiluvchi organlar tomonidan quyidagi hollarda o'tkaziladi:

– tekshiruvlarni o'tkazish zarurati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlaridan kelib chiqqanda;

– nazorat qiluvchi organga xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan qonunlar va boshqa qonun hujjatlari buzilganligi to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar kelib tushganda;

– favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishining oldi olinayotganda;

– sanitariya-epidemiologiya vaziyati murakkablashganda, shuningdek, qo'shni davlatlardan yuqumli kasalliklar kirib kelishi va tarqalishi ehtimoli vujudga kelganda.

**Tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar quyidagi huquqlarga ega:**

– o'z faoliyatlari tekshirilishi to'g'risidagi tegishli axborotga ega bo'lish;

– nazorat qiluvchi organlarning tekshiruvchi mansabdor shaxslaridan maxsus vakolatli organ yoki uning hududiy bo'linmalari qarorini, tekshirish o'tkazish uchun asos hisoblanuvchi boshqa hujjatlarni talab qilish, tekshiruvchilarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bilan tanishish;

– tekshirish o'tkazish uchun asosga ega bo'lmagan shaxslarning tekshirish o'tkazishiga yo'l qo'ymaslik;

– nazorat qiluvchi organlarning tekshiruvchi mansabdor shaxslarining vakolatiga kirmaydigan masalalarga oid talablarni bajarmaslik va tekshirish predmetiga taalluqli bo'lmagan materiallar bilan ularni tanishtirmaslik;

– nazorat qiluvchi organlarning tekshiruvchi mansabdor shaxslaridan tekshirish tugaganidan so'ng o'n kun muddat ichida tekshirish natijalarini aks ettiruvchi hujjatning bir nusxasini olish;

– qonunda belgilangan tartibda tekshirish natijalari ustidan shikoyat qilish.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tekshiruvchilarning qonuniy talabiga binoan tekshirish o'tkazish uchun zarur bo'lgan materiallar va hujjatlarni taqdim etishga, ularni tekshirish obyektlariga kiritishga, tekshiruvchilarga o'z vazifalarini bajarishlari uchun ko'maklashishga majburdirlar.

**Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish chog'ida o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:**

– tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlardan tekshirish o'tkazish bilan bevosita bog'liq bo'lgan zarur hujjatlar va boshqa axborotlarni talab qilish;

– tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;

– tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar mulkdorlari oldiga aybdor shaxslarning javobgarligi to'g'risidagi masalani qo'yish;

– tekshiruvga auditorlik tashkilotlarini va (yoki) ekspertlarni belgilangan tartibda shartnoma asosida jalb etish;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda moliyaviy yoki ma'muriy jazo choralarini qo'llash;

– rejali tekshirishlarni o'tkazish muddatini ko'chirish to'g'risida, basharti bunga obyektiv asoslar bo'lsa, maxsus vakolatli organga taqdimnoma kiritish.

Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining qonuniy talablari tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarish uchun majburiydir.

Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish chog'ida o'z vakolatlari doirasida quyidagilarni bajarishga majburdirlar:



- tekshirilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga tekshirish o‘tkazish huquqini beruvchi zarur hujjatlarni ko‘rsatish;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlar ishlashiga xalal bermaslik;
- tekshirishlarni qayd etish daftariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yozib qo‘yish;
- davlat siri, tijorat yoki boshqa sirlar saqlanishini ta‘minlash;
- tekshiruv natijalarini dalolatnoma (ma‘lumotnoma) bilan rasmiy-lashtirib, uning bir nusxasini tekshirilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoldirish;
- huquqbuzarlik hollari aniqlangan taqdirda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko‘rish.

Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari xo‘jalik yurituvchi subyektlarning qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Agar nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatida qonun hujjatlari buzilganligini aniqlasalar, ular o‘zlariga berilgan vakolat doirasida va muayyan qoidabuzarlikni bartaraf etish bilan bevosita bog‘liq chora-tadbirlarni ko‘rishlari mumkin. Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari qoidabuzarlik holati mavjudligidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning boshqa qonuniy faoliyatiga aralashish yoki uni cheklash uchun asos sifatida foydalanishga haqli emas.

Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining noqonuniy qarorlari yoki boshqa harakatlari natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektga yetkazilgan zararlar, shu jumladan boy berilgan foyda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining harakatlari va qarorlari ustidan bevosita sudga yoki bo‘ysunish tartibida yuqori turuvchi organga yohud mansabdor shaxsga shikoyat qilinishi mumkin.

Shikoyatni berish nazorat qiluvchi organ mansabdor shaxsining harakatlarini to‘xtatib qo‘ymaydi. Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining harakatlari va qarorlari ustidan qilingan shikoyatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqiladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Mansabdor shaxslar tomonidan qonunchilik buzilish hollarini oldini olish va barham berish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishda qonuniylikni ta'minlash bo'yicha ko'rsatma qabul qilingan.

**Avtomobil yo'llari qurish uchun yer uchatkasini ajratish.** Avtomobil yo'llari qurish uchun yer uchatkalari ajratish O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda 598-I-son bilan tasdiqlangan Yer kodeksi asosida amalga oshiriladi. Yer kodeksining 8-bobi «Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar» deb nomlanib, transport maqsadlariga mo'ljallangan yerlar jumlasiga temiryo'l, ichki suv transporti, avtomobil, havo va truboprovod transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga transport inshootlari, qurilmalari va boshqa obyektlaridan foydalanish, saqlash, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, takomillashtirish va rivojlantirish sohasida ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun doimiy foydalanishga berilgan yerlar kiradi (69-modda).

Transport maqsadlariga mo'ljallangan yerlarga, kabel, radiorele va aloqa havo liniyalari va elektr uzatish liniyalari o'tgan yerlarga tutash yerlarda qonun hujjatlari bilan belgilanadigan tartibda muhofaza zonalarini o'rnatiladi.

Transport va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlardan foydalanish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Transport, aloqa va boshqa yo'nalishdagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga foydalanish uchun yer berish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ma'lumki, keyingi yillarda respublikamizda O'zbekiston Milliy avtomagistralini qurish va yo'l infratuzilmasini yanada takomillashtirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan 2009-yil 22-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston milliy avtomagistrali bo'ylab yo'l infratuzilmasi va servisini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 277-son qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2009–2014-yillarda O'zbekiston milliy avtomagistralini rekonstruksiya qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2009-yil 22 apreldagi PQ–1103-son qaroriga muvofiq hamda O'zbekiston milliy avtomagistrali bo'ylab harakatlanish qatnashchilari uchun xalqaro standartlarga javob beradigan shart-sharoitlar yaratish, yangi ish o'rinlari shakllantirish, shuningdek, avtomagistral yonidagi yer uchastkalaridan oqilona va samarali foydalanilishini ta'minlash maqsadida qabul qilingan bo'lib, qarorda obyektlar qurish uchun yer uchastkasi tanlash tartibi atroflicha yoritib berilgan.

#### **2.4. Avtomobil yo'llari turlari va yo'llarda harakatni tashkil etish**

Avtomobil transporti yaxshi yo'llarga muhtojdir. Yo'llar avtomobillarining uzluksiz, xavf-xatarsiz va maksimal harakat tezligi bilan va transport vositasini tejimli ishlashini ta'minlashi zarur.

Yuk ko'taruvchanligi yuqori bo'lgan va ko'p o'rinli avtobuslarni kundan kunga ko'payib borishi takomillashtirilgan qoplamali magistral yo'llarni yanada keng sur'atlar bilan taraqqiy ettirishni taqozo etadi. Mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish rejalarida qattiq qoplamali va takomillashtirilgan yo'l shahobchalarini kengaytirishga katta ahamiyat berish lozim.

O'zbekiston Respublikasining «Avtomobil yo'llari to'g'risida»gi Qonunining «Avtomobil yo'llarini tasniflash» nomli 3-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasida avtomobil yo'llari quyidagicha tasniflanadi:

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari;
- shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko'chalari;
- xo'jalik avtomobil yo'llari.

**Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari** davlat mulki bo'lib, avtomobil yo'llaridan foydalanuvchilar uchun ochiqdir. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari aholi ehtiyojlarini, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va mudofaa ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun shaharlar hamda boshqa aholi punktlari o'rtasida yuklar va yo'lovchilar tashishni ta'minlaydi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatga molik avtomobil yo'llariga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq xalqaro avtomobil yo'llari tarmog'iga kiradigan yo'llar xalqaro ahamiyatga molik avtomobil yo'llari jumlasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi viloyatlari va tumanlarining ma'muriy markazlari, viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar, madaniyat hamda sanoat markazlari o'rtasida transport qatnovini ta'minlaydigan, mazkur markazlarni esa, xalqaro ahamiyatga molik yo'llar bilan, aeroportlar, temiryo'l stansiyalari, portlar va kema to'xtash joylari, shuningdek, qo'shni davlatlar bilan bog'laydigan yo'llar davlat ahamiyatiga molik avtomobil yo'llari jumlasiga kiradi.

Tumanlarning ma'muriy markazlarini shaharchalar, qishloqlar va ovullar bilan, shuningdek, davlat ahamiyatiga molik yo'llar bilan bog'laydigan yo'llar mahalliy ahamiyatga molik avtomobil yo'llari jumlasiga kiradi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari maxsus vakolatli organ ixtiyorida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari ro'yxati belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

**Shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko'chalari** shaharlar, shahar posyolkalari, qishloqlar va ovullar doirasida o'tadi, mazkur ko'chalarning O'zbekiston Respublikasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari ro'yxatiga belgilangan tartibda kiritilgan uchastkalari bundan mustasno.

Shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko'chalari davlat mulki bo'lib, mahalliy davlat hokimiyati organlari ixtiyorida bo'ladi.

**Xo'jalik avtomobil yo'llari** davlat yoki yuridik va jismoniy shaxslarning mulkidir. Texnologik maqsadlarga xizmat qiladigan yo'llar, shoxobcha, xizmat, patrul va boshqa shunga o'xshash avtomobil yo'llari xo'jalik avtomobil yo'llari jumlasiga kiradi.

Umum foydalanish avtomobil yo'llari viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, shahar, o'lka, tuman markazlari, temiryo'l transporti bekatlari, aeroportlar, Amudaryo suv pristanlari va boshqa joylarni o'zaro birlashtiradi. Avtomobil yo'llari davlat tasnifiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

a) umumdavlat va respublika ahamiyatidagi yo'llar. Ular qo'shni davlatlar markazlari, Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasi markazi, yirik sanoat va davlat madaniyat markazlarini o'zaro birlashtiradilar. Bunday yo'llar qatoriga kurort joylariga boruvchi yo'llar ham kiradi;

b) O'lka (Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasi) va viloyatlar ahamiyatidagi yo'llar. Bunday yo'llar o'zaro tuman markazlarini va ularni viloyat (o'lka) markazlari yoki umumdavlat va respublika ahamiyatdagi magistrallar, yirik temiryo'l transporti bekatlari, aeroportlar, suv pristanlari va boshqalarni o'zaro birlashtirish bilan bog'liqdir;

v) mahalliy ahamiyatdagi yo'llar. Bunday yo'llar tarkibiga tuman va xo'jaliklar ichi yo'llari kiradi.

**Avtomobil yo'llarining toifalari.** Avtomobil yo'llari texnik vazifasiga ko'ra qonun hujjatlarida belgilangan tartibda toifalarga bo'linadi.

Texnik tasnifga binoan avtomobil yo'llari beshta texnik kategoriyaga bo'linadi. Har qaysi kategoriyadagi yo'llar qurilishida ulardan sutka davomida o'tish imkoniyatiga ega bo'lgan avtomobillar soni, avtomobillarning bunday yo'llardagi hisobiy tezliklari e'tiborga olinadi. Ushbu kategoriyalarga binoan yo'l qoplamalari takomillashtirilgan kapital, yengillashtirilgan va o'tkinchi bo'lishlari mumkin. Yuqorida ko'rsatilganlarga ko'ra ko'pgina avtomobil transporti vositasidan unumli foydalanish, binobarin, avtomobil transporti vositasi va yo'llardan samarali foydalanish, ko'p jihatdan yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlarga bog'liqdir.

Asosiy yo'l yuzalarining eng kichik hisobiy ko'rinuv masofasi yo'l kategoriyalariga binoan 250 metrdan 75 metrgacha belgilanadi; bunday masofa yo'llarning og'ir kesimli (ya'ni past-u baland) joylarida 175 metrdan 50 metrgacha, tog'li yerlarning murakkab qismlarida esa 100 metrdan 40 metrgacha bo'lishi zarur. Qarama-qarshi yo'nalishdagi avtomobillarning ko'rinish masofalari II-IV kategoriyali yo'llarning murakkab kesimli joylarida 350 metrdan 150 metrgacha, tog'li yerlarning murakkab bo'laklarida esa 150 metrdan 80 metrgacha bo'lishi ta'minlanishi zarur (2.1-jadval). yo'lni ishlash sharoitini baholashda harakat jadalligi asos qilib olinadi. Avtomobil yo'llari og'ir va yengil avtomobillar harakatlanganligi sababli ularning tezliklari ham har xil bo'ladi. Og'ir va yengil avtomobillarni bir tizimga keltirish uc-

hun keltirilgan koeffitsienti degan tushuncha kiritiladi. Keltirish koeffitsientlari orqali og'ir avtomobillar yengil avtomobillar soniga keltiriladi.

Turli transport vositalarining harakat miqdorini yengil avtomobilga keltirish koeffitsienti quyidagicha:

Yengil avtomobillar – 1,0

Mototsikl va mopedlar – 0,5 – 0,75

Yuk avtomobillari – 1,5 – 3,5

Avtopoezdlar – 3,5 – 6,0

G'ildirakli traktor poezdlari – 3,0–9,0.

Yo'lining haqiqiy harakat jadalligi yilning va kunning har xil vaqtida o'lchash natijasida topiladi. Bu yo'llarga hisoblagichlar qo'yish bilan yoki sekundomer yordamida aniqlanadi.

Avtomobil yo'llaridan hamda ularga ajratilgan mintaqalardan foydalanish tartibi. Ushbu tartib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrda 342-sonli «O'zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo'llari xavfsizligini ta'minlash va tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan tasdiqlangan bo'lib, avtomobil yo'llaridan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar, avtomobil yo'llari mintaqasida yer osti va ustidan o'tuvchi hamda boshqa inshootlar va kommunikatsiyalarni quruvchi yoki ta'mirlovchi tashkilotlarning ushbu tartibga amal qilishi majburiydir.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari uchun xavfsizlik mintaqasi (qizil chiziqqacha bo'lgan masofa) yo'llarning toifalari bo'yicha qurilish uchun ajratilgan yer tasmasi chegarasidan quyidagicha belgilanadi:

1 va 2 – toifadagi avtomobil yo'llarida – 25 metr;

3 – toifadagi avtomobil yo'llarida – 20 metr;

4 va 5 – toifadagi avtomobil yo'llarida – 15 metr.

Avtomobil yo'llari qurilishi uchun ajratilgan yer tasmasi chegarasi tegishli qurilish me'yorlari va qoidalarida belgilangan.

Shahar ko'chalari uchun xavfsizlik mintaqasi (qizil chiziqqacha bo'lgan masofa) shaharsozlik normalari va qoidalarida belgilangan.

Yuridik va jismoniy shaxslar yo'l qoplamalari va yo'l inshootlariga ziyon yetkazmaydigan, harakat xavfsizligi talablariga javob beradigan, texnik jihatdan soz mexanik transport hamda transport vositalaridan foydalanishi shart.

O'qiga tushadigan yuklama va to'liq vazni amaldagi me'yoriy hujjatlarda belgilangandan yuqori bo'lmagan transport vositalariga, o'ziyurar mashinalar va mexanizmlarga avtomobil yo'llarida harakatlanishga ruxsat etiladi.

Avtomobil yo'llari va ularning xavfsizlik mintaqalarida quyidagilar taqiqlanadi:

– avtomobil yo'llari va ko'chalarni, ulardagi sun'iy inshootlarni saqlashga va harakat xavfsizligini ta'minlashga taalluqli bo'lmagan boshqa bino va inshootlarni qurish;

– yo'llarga, yo'l inshootlari, yo'l belgilari va ko'rsatkichlariga, harakatlanishni tashkil etuvchi va boshqaruvchi vositalarga hamda yo'lga taalluqli boshqa narsalarga ziyon yetkazish;

– harakatlanish vaqtincha to'xtatilgan yo'l qismlaridan transport vositasida maxsus ruxsatnemasiz o'tish;

– qattiq va kuchaytirilgan qoplamali yo'llarda zanjirli transport vositalarining maxsus himoyalovchi boshmoqlarsiz harakatlanishi, shuningdek, katta hajmli va og'ir vaznli yuklarni tashish;

– podalarni haydab o'tish, ularni boqish (podalarni faqat belgilangan va tegishli yo'l belgisi qo'yilgan joydan haydab o'tishga ruxsat etiladi);

– qatnov qismi va yo'l chetini, ko'priklarni, quvurlarni, ariqchalarni, suv qochirish inshooti (drenaj) qurilmalarini ifloslantirish, yo'llarga va ajratilgan mintaqaga to'kilib-sochiladigan yuklarni belgilangan idishlarga joylashtirmasdan tashish;

– yo'nalishlarni ajratuvchi tasmaga barcha turdagi transport vositalarining chiqishi;

– yo'l va yo'l inshootlarini har qanday elementlar bilan, aravalar, texnikalar, materiallar va boshqalar bilan to'sib qo'yish, arkalar, shlagbaumlardan va boshqa inshootlar qurish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini quritish, har xil materiallarni taxlab qo'yish, chiqindi va qorlarni uyib qo'yish;

– transport vositalarini ta'mirlash va moylash, yonilg'i-moylash materiallarini quyish, yuk ortish, yuk tushirish, yukni boshqa texnikaga ortish va mahkamlash, tozalash va yuvish (ilojsiz holatlarda ular yo'ldan chiqib, ajratilgan tasma hududida amalga oshirilishi mumkin, biroq haydovchi yoki transport vositasi egasi shu joyni darhol tozalab qo'yishi shart);

– ajratilgan mintaqada hamda ko‘priklardan, yo‘l o‘tkazgichlardan va estakadalardan 200 metrgacha bo‘lgan masofalarda lagerlar, palatkali shaharchalar barpo etish va olov yoqish;

– daryolar va anhorlarning ko‘priklari ostida qayiqalar stansiyasi, qayiqalar to‘xtash joyi va boshqa inshootlar qurish;

– daryolardagi ko‘priklardan o‘zan bo‘ylab yuqoriga va pastga qarab 2,5 km.gacha bo‘lgan masofada qum va toshlar olish uchun karyerlar barpo etish;

– yer sho‘rini yuvish, yo‘l chetidagi ariqchalardan sug‘orish uchun foydalanish, madaniy qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orish, yashil mintaqani sug‘orish kabi ishlarda avtomobil yo‘llarini suvga bostirish, ajratilgan mintaqani balchiqlantirish;

– suv qochiruvchi inshootlarga va zaxira yerlarga kanalizatsiya, ishlatilgan melioratsiya va oqova suvlarni oqizish;

– yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlarining avtomobil yo‘llarini kesib o‘tish joylarini elektr simi uzilib yo‘l qismiga tushishiga qarshi xavfsizlikni ta‘minlovchi himoya qurilmalarisiz qurish.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarida maxsus vakolatli organ bilan kelishmasdan quyidagilarni amalga oshirish taqiqlanadi:

– avtomobil yo‘llarini kanallar, aloqa va elektr energiyasi uzatuvchi tarmoqlar, neft va gaz o‘tkazuvchi quvurlar hamda temiryo‘llar bilan kesib o‘tish;

– avtomobil yo‘llariga qo‘shiluvchi va shoxobcha yo‘llar qurish;

– ko‘priklar va suv quvurlari yaqinida melioratsiya hamda boshqa maqsadlar uchun daryolar va zovurlarning o‘zanlarini chuqurlashtirish;

– avtomobil yo‘liga qo‘shilib ketgan shlyuzlar, to‘g‘onlar va boshqa melioratsiya hamda gidrotexnika inshootlarini ta‘mirlash;

– ajratilgan mintaqada yo‘l axborotiga aloqasi bo‘lmagan reklama peshtaxtalari, peshlavhalar, e‘lonlar o‘rnatish va joylashtirish;

– avtomobil yo‘llarining chetlarida, yo‘l ko‘tarmalari yoki o‘ymalari qiyaliklarida joylashgan foydalanishdagi aloqa va elektr energiyasi uzatish tarmoqlarini ta‘mirlash;

– ajratilgan mintaqada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini olib borish (yo‘l tashkilotlari bundan mustasno);



– daryolar va kanallardagi ko‘priklar osti qirg‘oqlarda turib o‘lchov va boshqa ishlarni tashkil qilish;

– avtomobil yo‘llarida sport musobaqalari va ommaviy tadbirlar o‘tkazish;

– avtomobil yo‘llaridan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va quritish maqsadlarida foydalanish;

– katta hajmli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish.

Avtomobil yo‘llarida transport vositalarining xavfsiz harakatlanishini ta‘minlash maqsadida yo‘l va obodonlashtirish tashkilotlari quyidagilarni amalga oshirishi shart:

– yo‘llarni va yo‘l inshootlarini soz holda saqlash, qishda qisqa vaqtda qordan tozalash va muzlamalarning oldini olish uchun tegishli choralar ko‘rish;

– yo‘l belgilarini amaldagi davlat standartlariga asosan o‘rnatish, harakatlanish uchun xavfli bo‘lgan uchastkalarini zarur to‘siqlar va qurilmalar bilan jihozlash;

– yo‘llarda ta‘mirlash ishlari amalga oshirilayotganda ushbu uchastkalarining talab darajasida jihozlanishini, kechasi va kunduzi yaxshi ko‘rinadigan to‘siqlar, yo‘l belgilari va ko‘rsatkichlarining o‘rnatilishini ta‘minlash, zarur hollarda aylanib o‘tuvchi yo‘llarni tashkil etish;

– yo‘llarning qatnov qismini qurilish materiallari bilan to‘silib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik, ishlamayotgan yo‘l mashinalari va mexanizmlarini o‘z vaqtida yo‘ldan chetga chiqarib qo‘yish;

– avtobus bekatlarida yo‘lovchilarni chiqarish va tushirish maydonchalari bo‘lishini ta‘minlash, zarur hollarda avtopavilonlar qurish;

– haydovchilarning dam olishi uchun belgilangan joylarda transport vositalari turishi uchun tegishli shart-sharoitlar bo‘lgan maydonchalar tashkil etish;

– yo‘l sharoiti bilan bog‘liq holda sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisalarining sabablarini doimiy ravishda o‘rganib borish va Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati bilan uzviy hamkorlikda harakat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilash.

Avtomobil yo'liga tutash yer uchastkalarining mulkdorlari, egalari va ulardan foydalanuvchilar:

- avtomobil yo'liga qo'shiladigan va shoxobcha yo'llarni texnikaviy jihatdan soz holatda saqlashi;

- trotuarlar va piyodalar yo'lkalarining qor va chiqindilardan tozalab turilishini amalga oshirishi;

- ajratilgan mintaqadagi dov-daraxtlarni asrashi va saqlashi;

- yo'l bilan tutash bo'lgan to'siqlar hamda qurilishlarni soz va bo'yalgan holda saqlashi;

- avtomobil yo'liga tutash butalarni parvarish qilishi va imoratlarni soz holatda saqlashi;

- avtomobil yo'li o'qidan ellik metrdan kam bo'lgan masofada toshlar, shox-shabba, konstruksiyalar va boshqa materiallar to'planishiga yo'l qo'ymasligi shart.

Yo'l harakati ishtirokchilari avtomobil yo'llarida va yo'l inshootlarida harakat xavfsizligiga zid nosozliklar va buzilishlarni ko'rishganda, bu haqda yaqindagi yo'l tashkilotlari yoki ichki ishlar organlariga zudlik bilan xabar berishlari zarur.

Amaldagi texnik me'yorlarga asosan avtomobil yo'llari bilan bir sathda kesishgan temiryo'l kesishmalarini saqlash, shuningdek, barcha turdagi shlagbaumlar va kesishmalarni qo'riqlash temiryo'l organlari tomonidan amalga oshiriladi. Temiryo'llar ustidan umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarini o'tkazish uchun qurilgan yo'l o'tkazgichlarini soz holatda saqlash va ulardan belgilangan tartibda foydalanishni ta'minlash yo'l tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatga ega yo'llar bilan tashuvchi va kesib o'tuvchi barcha yo'llar asosiy yo'ldan ikkala tarafda 100 metr masofagacha qattiq qoplamali bo'lishi shart.

Birinchi va ikkinchi toifali hamda kelajakda qayta ta'mirlanib yuqori toifaga o'tkazilishi rejalashtirilgan uchinchi toifali avtomobil yo'llarining ikkala tarafida ham yaqin masofalarda imoratlar qurish taqiqlanadi.

Avtomobil yo'llarining bir tarafidan quyidagi hollarda, tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlari (hududlarni me'moriy rejalashtirishni tashkil

etish loyihalari, bosh rejalari va batafsil rejalashtirish loyihalari) asosida qishloq xo'jaligi yerlariga imoratlar qurilishi, Hukumat qarorlarida belgilangan hollarda belgilangan tartibda obyektlar: yo'lning qatnov qismi chetidan:

ochiq joylarda – 200 metr uzoqlikda;

aholi yashash joylarida, avtomobil yo'llarining aholi punktlari chegaralari tutashgan tarafida – 100 metr uzoqlikda joylashtirilishi mumkin.

yer osti va yer ustidan o'tuvchi muhandislik kommunikatsiyalari me'yoriy hujjatlar asosida rivojlanishni hisobga olgan holda belgilangan xavfsizlik mintaqasidan tashqarida o'tishi kerak.

Birorta kommunikatsiya tarmoqlarining to'g'ridan to'g'ri yo'l to'shasida joylashtirilishi taqiqlanadi.

Avtomobil yo'llarida ta'mirlash ishlarini olib boruvchi tashkilotlar kelishilgan tartibga rioya etishlari, bajariladigan ishlarni o'z vaqtida sifatli tugallashlari, shuningdek, transport vositalarining xavfsiz harakatlanishini ta'minlashi shart.

Mazkur tashkilotlarning mas'ul xodimi ta'mirlash ishlari boshlanishidan oldin, texnologik jarayon, ishlarni boshlash va tugallash vaqti ko'rsatilgan hujjatlarni bosh pudratchi tashkilotlardan olishi kerak.

Avtomobil yo'llari mintaqalarida servis va infratuzilma obyektlarini joylashtirish belgilangan tartibda tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar bilan kelishilgandan hamda yer ajratish komissiyalaridan o'tgandan keyin amalga oshiriladi.

yo'l bo'yida amaldagi me'yoriy hujjatlar talablari asosida joylashgan bozorlar va boshqa tashkilotlar, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari bo'lsa, ulardan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar transport vositalari uchun barcha qulayliklarga ega, kirish va chiqish yo'llari bo'lgan maydonlar hamda transport vositalarini vaqtincha saqlash joylari bo'lishini belgilangan tartibda ta'minlashi shart.

Tabiiy ofatlar ro'y berganda, favqulodda holatlar yuzaga kelganda yoki ta'mirlash-qurilish ishlari amalga oshirilganda yo'l tashkilotlarining mas'ul xodimlari yo'l qismida «Harakatlanish taqiqlanadi» yo'l belgisini o'rnatib, transport vositalari harakatini to'xtatish

huquqiga egadirlar. Bunday holatlarda birinchi navbatda Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati organlariga xabar berilishi kerak.

Ommaviy tadbirlar o‘tkazish paytida esa yo‘llarda harakatlanishni vaqtincha chegaralash yoki to‘xtatish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlarining farmoyishi bo‘lishi lozim.

Avtomobil yo‘llarida harakatlanishni vaqtincha chegaralash yoki to‘xtatish tegishli yo‘l tashkilotlari tomonidan, Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati organlari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

2.1-jadval.

**Avtomobil yo‘llarining texnik toifalash haqida ma’lumot**

Avtomobil yo‘lining toifasi	Kelajakdagi hisobiy harakat miqdori, avt.sut.		
	Yengil avtomobilga keltirilgan	Transport birligida	
		Jami	Jumladan, gildirakli traktorlar
I – a	18000 dan yuqori	9000dan yuqori	–
I – b	14000dan yuqori	7000dan yuqori	–
II-a	6000–14000	3000–7000	–
II-b	6000–14000	3000–7000	150 va ortiq
III-a	2000–6000	1000–3000	–
III-b	2000–6000	1000–3000	150 va ortiq
IV-a	1600–2000	800–1000	20 dan ko‘p
IV-b	400–1600	200–800	20 dan ko‘p
V	400 gacha	200 gacha	20 dan ko‘p

Respublikamiz mustaqillikni qo‘lga kiritishi asosida eski totalitar tizimning barham topishi, eng avvalo, mamlakatimiz hududi bo‘ylab, qolaversa, jahonning turli nuqtalari bilan tutashtiruvchi, qulay, samarali va, eng muhimi, ishonchli avtomobil yo‘llar tizimining barpo etilishini taqozo etar edi. Shunga ko‘ra, hozirda yuqori darajadagi xalqaro standartlarga javob beradigan, mamlakatimizning barcha hududlarini o‘zaro ishonchli bog‘laydigan va mintaqaviy hamda jahon bozorlariga chiqishni ta‘minlaydigan O‘zbekiston milliy avtomagistralini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli dastur amalga


oshirilmoqda. Buning natijasida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining uzunligi 42530 kilometrga yetdi (2.2-jadval).

2.2-jadval.

**O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari tarmog'ining umumiy uzunligi**

Yo'l turlari	Uzunligi, km
Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari	42654
Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko'chalari	61664
Xo'jalik avtomobil yo'llari	79367
shu jumladan:	
– ichki xo'jalik yo'llari	67274
– korxonalariga qarashli yo'llar	12093

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining 51 foizi mahalliy ahamiyatdagi, 40 foizi davlat ahamiyatidagi va 9 foizi xalqaro ahamiyatdagi yo'llar hisoblanadi (2.5-rasm).



**2.5-rasm. O'zbekistonda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari tarmog'i, km.**

O'tgan yillar davomida xalqaro va davlat ahamiyatiga molik bo'lgan 4050 kilometrga yaqin yangi yo'llar qurildi va tubdan rekonstruksiya qilindi. Natija shuni ko'rsatmoqdaki, 1991-yilga qaraganda bugungi kunda sement-beton qoplamali yo'llarning uzunligi 75

km.ga, asfalt-beton qoplamali yo'llar – 1902 km.ga, qora qoplamali yo'llar – 542 km.ga, tosh-shag'al qoplamali yo'llar esa – 421 km.ga oshdi. Ayni kunga qadar umumiy uzunligi 6645 pogon-metrdan iborat 175 ta ko'prik, 3938 pm.ni tashkil etuvchi 19 ta yo'l o'tkazgich va transport yechimlari qurildi va ta'mirdan chiqarildi.

O'tgan yil davomida O'zbekistonning barcha hududlari bo'ylab 1506 km avtomobil yo'llari yangidan qurildi va ta'mirlandi. Shu jumladan, «O'zbek milliy avtomagistrali» tarkibiga kiruvchi 302,5 km avtomobil yo'li qurildi va rekonstruksiya qilindi, 329,5 km umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, 764 km ichki xo'jalik yo'llari, 68 km namunaviy uy-joy massivlariga olib boradigan hamda 42 km shahar ko'chalari ta'mirlandi. Bu ishlarning barchasi uchun 572,0 milliard so'm mablag' o'zlashtirildi. Bundan tashqari o'tgan 2011-yilning o'zida «O'zbek milliy avtomagistrali» tarkibiga kiruvchi yo'llar bo'ylab 95 ta yo'l-servis obyektlari qurilib, foydalanishga topshirildi.

Joriy 2012-yilda ham investitsiya dasturiga muvofiq 517 km avtomobil yo'li (jumladan 165 km sement-beton qoplamali yo'llar) va 544 pm yo'l o'tkazgichlar qurish mo'ljallangan. Bundan tashqari shu yilning o'zida 204 km uzunlikdagi yo'llarni mukammal ta'mirlash, 3500 km yo'lni joriy ta'mirdan chiqarish, 5 ta yo'l xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish bazalarini modernizatsiya qilish, bu ishlar bo'yicha 111 dona yo'l qurilish ta'mirlash uchun zarur bo'ladigan zamonaviy texnika va mexanizmlarni xarid qilish ko'zda tutilgan.

2.3-jadval.

**O'zbekiston Respublikasi umumiy foydalanishdagi Avtomobil yo'llarida  
2009-yil yakuni bo'yicha qurish va ta'mirlash ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	Hajmi, mlrd.so'm	2008-yilga nisbatan, %
Jami bajarilgan ishlar	370,6	118,7
Investitsiya dasturi	114,4	104,8
Mukammal va o'rta ta'mirlash	177,2	126,1
Joriy ta'mirlash va saqlash ishlari	63,2	117,3
Yo'l ta'mirlash texnikalari va jihozlar xarid qilish	15,8	160,9

### *Izohlar:*

1. Yakka avtomobillar (yuktortgichlar) uchun to'liq massasi 30 tonnadan ortishiga ruxsat etilmaydi.

2. Avtotransport vositalari to'liq massasining chegaraviy miqdorlari o'qlar bo'yicha bir tekis taqsimlanganda o'qlarga tushadigan og'irliklar foizi 35% dan ortiq bo'lmasa, oldingi o'q uchun esa 40% dan oshmasa ruxsat etiladi.

Avtomobillar va yo'llarni tez yeyilishining oldini olish maqsadida yo'l sharoitlarini hisobga oluvchi avtomobillar ishlab chiqilishi magistral yo'llarni qurishda esa hozirgi zamon tez yurar avtomobillarini nazarda tutilishi lozim, chunki ular eng kam summar yo'l qarshiligini ta'minlash bilan birga avtomobillar harakat xavfsizligini ham ta'minlaydilar.

Avtomobil transporti bilan yo'lovchilar tashishni tashkil etishda avtomobil yo'llari va shahar yo'l aloqalarining ahamiyati katta. Bunday yo'llarni takomillashtirish darajalari va ularni jihozlash bilan harakat xavfsizligi, yo'lovchilar qatnovi qulayligi, natijada esa haydovchilar va boshqa xodimlarning unumdorligi chambarchas bog'liqdir. Yo'l sharoiti va uning holatiga ko'ra avtotransport korxonalaridagi mehnat unumdorligi ko'p jihatdan bog'liqdir.

Har qanday yangi avtobus marshrutini ochish ham yengil avtomobil taksilarda yo'lovchilarni tashishni tashkil qilish oldindan yo'l sharoitlarini sinchkovlik bilan o'rganishni talab etadi. Yo'l holatiga ko'ra transport vositalarini marshrutda ishlash reglamenti belgilanadi. Transport vositalarining sinishi va avariylarning oldini olish maqsadida avtotransport korxonalari ekspluatatsiya xizmati va yo'l xodimlari tizimli ravishda yo'l sharoitlarini o'rganishlari lozim. Yo'lovchilar tashuvchi avtotransport korxonalarining ekspluatatsiya xizmati xodimlari yo'llarga nisbatan qo'yiladigan talablarni yaxshi bilishlari lozim.

Avtomobil yo'llari va shahar aloqa yo'llari murakkab muhandislik inshootlari kompleksi bo'lib, ular transport vositalarining tez harakatlanishini va harakat xavfsizligini ta'minlashlari lozim. Yo'llar konstruksiyasi va muhandislik inshootlari tarkiblari ular uchun belgilangan harakat tezligi va jadalligi hamda mahalliy iqlim sharoitlari va tabiat o'zgarishlari bilan uzluksiz bog'liqdir. Yo'l belgi, signallar va boshqa harakatni tartibga soluvchi jihozlar shahar yo'llarining ajralmas qismi hisoblanadi.

## **Avtomobil yo'llarida harakatni vaqtincha to'xtash yoki cheklash.**

Noqulay ob-havo iqlim sharoitlarida, tabiiy ofatlar, yong'inlar yuz berganda, avtomobil yo'li ko'tarish qobiliyatini yo'qotganda va boshqa shunga o'xshash hollarda, shuningdek, ta'mirlash-qurilish ishlari olib borilayotganda yo'l tashkilotlari mahalliy davlat hokimiyat organlariga bu haqda bildirgan, avtomobil yo'llaridan foydalanuvchilarni ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilish bilan xabardor qilgan hamda tegishli belgilar o'rnatgan holda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati va O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bo'linmalari bilan birgalikda transport vositalari harakatini cheklash yoki taqiqlash huquqiga ega (O'zbekiston Respublikasining «Avtomobil yo'llari to'g'risida»gi Qonuni 16-modda).

Avtomobil yo'llari qaysi yuridik va jismoniy shaxslar ixtiyorida bo'lsa, o'sha yuridik va jismoniy shaxslar ajratilgan mintaqada ish olib borilayotganda ham, agar bunday ishlar transport vositalari hamda piyodalarning harakat xavfsizligiga tahdid qilsa, avtomobil yo'llaridagi yoki ularning ayrim uchastkalaridagi harakatlanishni cheklash yohud taqiqlashga haqli.

Ishlar olib borish uchun avtomobil yo'llaridagi yoki ularning ayrim uchastkalaridagi harakatlanishni cheklash yoki taqiqlash avtomobil yo'llari qaysi yuridik va jismoniy shaxslar ixtiyorida bo'lsa, o'sha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan berilgan ruxsatnomalar asosida amalga oshiriladi.

Shoshilinch, kechiktirib bo'lmaydigan hollarda avtomobil yo'llarida harakatlanishni cheklash yoki taqiqlash ishlari olib borish uchun oldindan ruxsatnoma olmagan holda joriy etilishi mumkin, biroq bunda avtomobil yo'llari qaysi yuridik va jismoniy shaxslar ixtiyorida bo'lsa, o'sha yuridik va jismoniy shaxslar hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati bo'linmalari bu haqda xabardor qilinishi shart.

Avtobus va trolleybus marshrutlari tashkil etilgan avtomobil yo'llari, shahar va aholi yashovchi poselka ko'chalari harakat xavfsizligini muntazam ta'minlash, transport vositalaridan samarali foydalanish va haydovchilar ishi uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo'lishlari shart.



Agar yuqorida keltirilgan shartlar bajarilmasa yo'lovchilar tashuvchi transport vositalari harakati to'xtatib qo'yilishi mumkin.

Yo'lovchilar tashuvchi transport vositalari harakati quyidagi sharoitlarda butunlay to'xtatilishi yoki qisman chegaralanishi mumkin:

- vaqtinchalik, harakatga xavf tug'diruvchi favquloddagi hollarda yoki yo'l-iqlim sharoitining keskin o'zgarishi natijasida xavf tug'lsa;

- butunlay to'xtatiladi, agar marshrutdagi yo'l sharoitlari keskin yomonlashsa va harakat xavfsizligiga qaratilgan choralar ko'rish imkoni bo'lmasa hamda yo'l sharoitlarini tekshiruv dalolatnomasida ko'rsatilgan harakat xavfsizligini tug'diruvchi holatlarni belgilangan muddatda bajarilmasa. Keyingi holatda harakatning to'xtatilishi to'g'risida yuqori tashkilotlarga va hokimiyatlarga hamda yo'l-ekspluatatsiyasi va DAN xizmatlariga axborot beriladi;

- yo'l va ko'cha bo'laklaridan foydalanish harakat xavfsizligiga javob bermasa, davlat avtomobil nazorati yo'l xizmati tavsiyasiga binoan butunlay yoki chegaralangan holda harakat to'xtatiladi.

## **2.5. Avtomobil yo'llarida harakatni huquqiy boshqarish**

Avtomobil yo'llari sohasida davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari sohasidagi maxsus vakolatli organ «O'zavtoyol» DAK, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

«O'zavtoyol» DAK quyidagi vakolatlarga ega:

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

- avtomobil yo'llari tarmoqlarini rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari belgilaydi;

- avtomobil yo'llari sohasida yagona texnika siyosatini olib boradi;

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini loyihalash sohasidagi normalar va standartlarga rioya etilishini ta'minlaydi;

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlash sifati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari davlat kadastrini yuritadi;

– O‘zbekiston Respublikasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari ro‘yxati bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va ularni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

– avtomobil yo‘llari sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini amalga oshiradi;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

**Avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga ega:**

– umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llaridan, shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko‘chalaridan, shuningdek, boshqa shaxslar foydalanishi uchun ochiq bo‘lgan xo‘jalik avtomobil yo‘llaridan o‘tish;

– muttasil, yil davomida, xavfsiz va qulay sharoitlarda harakatlanish;

– harakatlanishning yo‘l sharoitlari to‘g‘risida tezkor axborot olish;

– avtomobil yo‘lidagi nosozliklar tufayli yetkazilgan zararni belgilangan tartibda undirib olish.

Avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

**Avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilarning majburiyatlari:**

– harakat xavfsizligini va avtomobil yo‘llarini saqlashni ta‘minlay oladigan holatdagi transport vositalaridan foydalanishlari;

– ajratilgan mintaqani ifloslantirmasliklari;

– avtomobil yo‘llarining shikastlanish hollariga yo‘l qo‘ymasliklari shart.

Avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilarning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

**Avtomobil yo‘llaridan foydalanish tartibi.** Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llaridan foydalanish tartibi «O‘zavtoyol» DAK tomonidan belgilanadi.

Shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko‘chalaridan, shuningdek, xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llaridan foydalanish tartibi mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilanadi.

Xo'jalik avtomobil yo'llaridan foydalanish tartibi mazkur avtomobil yo'llari qaysi yuridik va jismoniy shaxslar ixtiyorida bo'lsa, o'sha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan belgilanadi.

Avtomobil yo'llaridan o'qiga tushadigan yuk va og'irligi belgilangan normalardan ortiq bo'lmagan transport vositalari, o'ziyurar mashinalar hamda mexanizmlarning o'tishiga ruxsat beriladi.

O'qiga tushadigan yuk va o'lchamlari muayyan avtomobil yo'li uchun belgilangan normalardan ortiq bo'lgan transport vositalarining o'tishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda haq undiriladi. Avtomobil yo'li elementlari shikastlangan taqdirda, avtomobil yo'lidan foydalanish uchun ruxsat berilganligi bunday transport vositalari egalarini javobgarlikdan ozod etmaydi.

Chet davlatlar transport vositalarining avtomobil yo'llaridan o'tishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Avtomobil yo'llarida harakatni tartibga solish va boshqarish O'zbekiston Respublikasining «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi qonuni asosida amalga oshiriladi.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlariga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi;
- Avtomobil yo'llari qurish va foydalanish davlat-aksiyadorlik kompaniyasi;
- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi vazifalari quyidagilardan iborat:

- yo'l harakati xavfsizligi standartlari, qoidalari va normalarini ishlab chiqadi;
- yo'l harakati qatnashchilarining ushbu Qonunga, yo'l harakati qoidalariga hamda boshqa qonun hujjatlarining yo'l harakati xavf-

sizligini ta'minlashga oid qismiga rioya etishi ustidan nazorat olib boradi;

– jamoat transportining, shuningdek, og'ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli va maxsus yuklarni tashuvchi transport vositalarining qatnov yo'nalishlarini belgilashda ishtirok etadi;

– yo'llarni, temiryo'l kesishuvi joylarini, avtomobil yonilg'isi quyish tarmoqlarini, transport vositalarining konstruksiyalarini qurish, rekonstruksiya qilish loyihalariga rozilik beradi;

– foydalanishdagi transport vositalarining texnik holati ustidan nazorat olib boradi, transport vositalarining texnik ko'rigini o'tkazadi;

– yo'llar va temiryo'ldan o'tish joylarining saqlanishi, ularning yo'l harakatini boshqarish vositalari bilan jihozlanishi ustidan nazorat olib boradi;

– yo'l harakati xavfsizligi standartlari, qoidalari va normalariga muvofiq bo'lmagan yo'llar va temiryo'l kesishuvi joylaridan foydalanishni taqiqlaydi;

– transport vositalari, yo'l harakati qoidalarining buzilishi hollari va yo'l-transport hodisalari hisobini va ro'yxatini yuritadi;

– transport vositalarini boshqarish huquqiga doir guvohnomalar beradi;

– qonun hujjatlariga muvofiq uning vakolat doirasiga berilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'radi;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Transport vositalari egalarining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash borasidagi majburiyatlari:

– texnik jihatdan soz transport vositalaridan foydalanishlari;

– transport vositalarini tegishli malakasi bo'lgan va tibbiy ko'rikdan o'tgan shaxslar boshqarishiga ijozat etishlari;

– yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi qonun hujjatlariga va ekologiya normalari talablariga rioya etishlari shart.

Yo'llarni saqlash va ta'mirlash yo'llarni boshqaruvchi organlar tomonidan yo'l harakati xavfsizligining belgilangan standartlari, qoidalari va normalariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Yo'llarni boshqaruvchi organlar zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi oqibatida, yo'l sharoitlariga ko'ra sodir bo'lgan

yo'l-transport hodisalari tufayli yetkazilgan zarar mazkur organlar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanmog'i kerak (11-modda).

Faoliyati transport vositalaridan foydalanish bilan bog'liq yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bir qator talablar qo'yiladi:

– transport vositalari haydovchilarining ishini yo'l harakati xavfsizligini ta'minlovchi talablarga muvofiq ravishda tashkil etadi;

– haydovchilarning qonun hujjatlarida belgilangan mehnat qilish va dam olish rejimiga rioya etadi;

– haydovchilarning malakasini oshirish uchun zarur sharoitlar yaratib beradi;

– yo'l harakati xavfsizligiga tahdid soluvchi texnik nosozliklar mavjud bo'lgan taqdirda transport vositalaridan foydalanishga yo'l qo'ymaydi;

– transport vositalarining saqlanishini ta'minlaydi.

Avtomobilida yoki yer usti shahar elektr transportida yo'lovchilar, bagaj va yuklarni tashish faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik shaxslar yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash maqsadida yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi qonun hujjatlari doirasida, tashishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda maxsus qoidalar belgilashi hamda transport vositalarining haydovchilariga qo'shimcha talablar qo'yishi mumkin.

**Yo'l harakati xavfsizligini tibbiy jihatdan ta'minlash** transport vositalarining haydovchilarini dastlabki tarzda majburiy va keyinchalik vaqti-vaqti bilan tibbiy ko'riklardan, shu jumladan yo'lga chiqish oldidan va yo'ldan qaytganidan keyin tibbiy ko'riklardan o'tkazish, shuningdek, yo'l-transport hodisalari sodir bo'lganda jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish, yo'l harakati qatnashchilariga, ichki ishlar organlarining, boshqa ixtisoslashgan bo'linmalarining mansabdor shaxslariga va aholiga yo'l-transport hodisalari sodir bo'lganda jabrlangan shaxslarga tibbiyot xodimlari yetib kelgunga qadar yordam ko'rsatish usullarini vaqti-vaqti bilan o'rgatish yo'li orqali amalga oshiriladi.

Yo'l-transport hodisalari sodir bo'lganda jabrlanganlarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan

joyning o'zida tibbiyot xodimlari yetib kelgunga qadar yordam ko'rsatishdan, shuningdek, yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan joyning o'zida, davolash-profilaktika muassasasiga olib borilayotganda va davolash-profilaktika muassasasida malakali tibbiy yordam ko'rsatishdan iborat.

Tibbiy ko'riklarni o'tkazish hamda yo'l-transport hodisalari sodir bo'lganda jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatilishini tashkil etish tartibi, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish uchun transport vositasining salonida bo'lishi shart bo'lgan zarur tibbiy ashyolar ro'yxati, shuningdek, transport vositalarini boshqarishni taqiqlovchi, tibbiyot nuqtayi nazaridan nomaqbul ko'rsatkichlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

### **Yo'l harakati qatnashchilarining huquqlari va majburiyatlari.**

Yo'l harakati qatnashchilarining yo'llardagi qatnovning xavfsiz sharoitlariga bo'lgan huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

Yo'l harakati qatnashchilarining o'z huquqlarini amalga oshirishi yo'l harakati boshqa qatnashchilarining huquqlarini cheklamasligi yoki buzmasligi kerak.

### **Yo'l harakati qatnashchilari:**

– yo'l harakati qoidalariga muvofiq yo'llar bo'ylab erkin va moneliksiz harakatlanish;

– qonun hujjatlarida belgilangan o'z huquqlarining buzilishi yoki cheklanishi sabablari to'g'risida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlarining mansabdor shaxslaridan tushuntirishlar olish;

– qatnovning xavfsiz sharoitlari to'g'risida, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq mahsulot va xizmatlar sifati haqida to'liq va ishonchli axborot olish;

– yo'l-transport hodisalari sodir bo'lganda bepul tibbiy yordam ko'rsatish, qutqaruv ishlari o'tkazish va boshqa shoshilinch yordam ko'rsatish vazifasi qonun hujjatlariga muvofiq zimmasiga yuklatilgan tashkilotlar va mansabdor shaxslardan ana shunday yordamlar olish, qutqaruv ishlari ko'rsatilishiga erishish;

– yo'l-transport hodisasi natijasida ularning o'limi, tan jarohati olishi, transport vositasi va yuklar shikastlanishi ro'y bergan hollarda

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda zararlarning o'zini qoplanishiga erishish, shuningdek, ma'naviy ziyon uchun kompensatsiya olish;

– yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida faoliyat olib borayotgan mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Yo'l harakati qatnashchilari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

#### ***Yo'l harakati qatnashchilari:***

– O'zbekiston Respublikasining «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi Qonuni, yo'l harakati qoidalari hamda yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlari talablarini bilishlari va ularga og'ishmay rioya etishlari;

– yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida maxsus vakolatli davlat organlari mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishlari;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarishlari shart.

**Transport vositalarini boshqarish huquqi.** Transport vositalarini boshqarish huquqini berishda shaxslar bir qator yoshga oid va malakaviy talablarga javob berishi lozim:

– mototsikllar, motorollerlar va boshqa mototransport vositalarini boshqarish huquqi o'n olti yoshga to'lgan shaxslarga beriladi;

– ruxsat etilgan eng ko'p og'irligi 3500 kilogrammdan hamda o'rindiqlar soni haydovchilikidan tashqari sakkiztadan oshmaydigan avtomobillarni boshqarish huquqi o'n sakkiz yoshga to'lgan shaxslarga beriladi. Taksi bundan mustasno;

– taksi tariqasida foydalaniladigan avtomobillarni, shuningdek, yo'lovchilar tashishga mo'ljallangan va haydovchilikidan tashqari sakkiztadan ortiq o'rindig'i bo'lgan avtomobillarni, tramvaylar va trolleybuslarni boshqarish huquqi yigirma bir yoshga to'lgan shaxslarga beriladi;

– transport vositalari sostavlarini boshqarish huquqi yuqorida keltirilgan ikkinchi va uchinchi talablarda ko'rsatilgan transport vositalarini boshqarish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga transport vositalarini boshqarish staji o'n ikki oydan kam bo'lmagan taqdirda beriladi.

Transport vositalarini boshqarish huquqi tibbiy ko'rikdan o'tgan va malaka imtihonlarini topshirgan shaxslarga beriladigan, belgilangan namunadagi guvoohnoma bilan tasdiqlanadi.

Malaka imtihonlarini topshirish va transport vositalarini boshqarish huquqiga doir guvoohnoma berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**Avtomobil yo'llaridan foydalanish tartibiga rioya qilmaganlik uchun yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarligi.** Avtomobil yo'llari qaysi yuridik va jismoniy shaxslar ixtiyorida bo'lsa, o'sha yuridik va jismoniy shaxslar avtomobil yo'llaridan foydalanuvchilarga avtomobil yo'lidagi nosozliklar tufayli yetkazilgan zararning o'rnini belgilangan tartibda qoplashi shart.

Avtomobil yo'lidan o'tish sharoitlarining yomonlashishiga sabab bo'ladigan ishlarni bajarayotgan yuridik va jismoniy shaxslar avtomobil yo'llaridan foydalanish tartibiga rioya etmaganlik, shuningdek, avtomobil yo'lining tegishli uchastkalarida va aylanib o'tish joylarida transport vositalarining xavfsiz harakatlanishini ta'minlamaganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Avtomobillarga yuk ortish-tushirish korxonalari (punktlari)ga borish uchun o'tish yo'laklariga, shuningdek, ixtiyoriy paytda ortish tushirish ishlarini amalga oshirish uchun soz holdagi ortish-tushirish maydonlariga ega bo'lishi, bu yo'laklarda avtomobilni xavfsiz harakatlantirish, shuningdek, erkin manyovr qilish uchun shart-sharoit yaratish, ish o'rinlari va ularga boriladigan yo'laklar ko'rish yomon bo'lganda yoritish uchun zarur yoritish jihozlari bilan ta'minlanishi lozim.

## **2.6. Yuk va yo'lovchi tashishni tashkil qilishda harakatlanuvchi tarkibning texnik holatini huquqiy tartibga solish**

Yuk va yo'lovchilar tashishni tashkil qilishda harakatlanuvchi tarkibning texnik holati O'zbekiston Respublikasining «Avtomobil transporti to'g'risida»gi Qonunga binoan xavfsizlik, mehnatni muhofaza qilish, ekologiya talablariga, shuningdek, standartlar va texnik shartlarga, tibbiy-sanitariya va yong'inga qarshi normalarga muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lishi lozim (12-modda).



Avtotransport vositalarini standartlash, metrologiya va sertifikatlash ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston davlat standartlash, metrologiya va sertifikatlash markazi hamda boshqa davlat organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Sertifikatlashdan o'tmagan va belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan avtotransport vositalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Yo'lovchilar transportini sertifikatlash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Shahar yo'lovchilar transportining salonida harakat yo'nalishi, yo'lovchi va bagaj tashish haqi to'g'risidagi ma'lumot, shuningdek, boshqa zarur axborot bo'lishi lozim.

Tashuvchi shahar yo'lovchilar transportida nogironlar va bolali yo'lovchilar uchun zarur qulayliklarni yaratadi.

Yo'nalishsiz taksilarda yo'l haqini aniqlash uchun hisoblagich (taksometr), maxsus tanib olish belgilari va boshqa yengil avtomobillardan farqlanuvchi raqam belgilari bo'lishi lozim.

Yo'nalishsiz taksilar uchun umumiy belgilar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

**Transport vositalari konstruksiyalarini tayyorlash chog'idagi talablar:** transport vositalari konstruksiyalari, qo'shimcha uskunalar, ehtiyot qismlar yo'l harakati xavfsizligi standartlari, qoidalari va normalarining talablariga mos bo'lishi hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vakolatli organlar tomonidan belgilangan tartibda majburiy sertifikatlashtirilishi kerak.

**Transport vositalarining texnik holati va uskunalariga doir talablar:** yo'l harakatida qatnashuvchi transport vositalarining texnik holati va ularning jihozlari yo'l harakati xavfsizligi standartlari talablariga, avtomobil transportining harakatdagi tarkibiga texnik xizmat ko'rsatish va uni tuzatish to'g'risidagi Nizomga, tayyorlovchi korxonalarining yo'riqnomalariga va boshqa normativ-texnik hujjatlarga muvofiq bo'lishi lozim.

Avtotransport vositalari Dst 974G'2000 O'zbekiston davlat standartiga muvofiq anjomlangan bo'lishi kerak.

I–III toifadagi avtomobil yo‘llarida barcha tur va rusumdagi avtobuslar ishlashiga ruxsat beriladi.

IV–V toifadagi avtomobil yo‘llarida o‘q nagruzkasi 6 tonnagacha bo‘lgan avtobuslar ishlashiga ruxsat beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalanishda bo‘lgan va belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi kerak.

Texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ta‘mirlash yo‘l harakati xavfsizligi talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

Transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ta‘mirlash yuzasidan ishlar bajarayotgan va xizmatlar ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar bu ishlarni (xizmatlarni) yo‘l harakati xavfsizligining belgilangan standartlari, normalari va qoidalariga muvofiq ravishda amalga oshiradilar.

Yo‘l harakati xavfsizligiga tahdid soluvchi texnik nosozliklar mavjud bo‘lgan taqdirda transport vositalaridan foydalanish taqiqlanadi.

Transport vositalarining texnik nosozliklari ro‘yxati va bunday vositalardan foydalanishni taqiqlaydigan shartlar yo‘l harakati qoidalarini bilan belgilab qo‘yiladi.

Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlash O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining shunga vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Quyidagi o‘lchamlarning birortasidan yuqori o‘lchami bilan farq qiladigan transport vositasi (yuk bilan yoki yuksiz) katta hajmli hisoblanadi:

yo‘l sathidan balandligi – 4,0 metr;

kengligi bo‘yicha – 2,55 metr (refrijeratorlar va izotermik kuzovlar uchun – 2,6 metr);

uzunligi bo‘yicha bir tirkamali yoki yarim tirkamali avtopoezdning uzunligi – 20 metrdan, 2 yoki undan ortiq tirkamali avtopoezdning uzunligi 24 – metrdan ziyod, shuningdek, ortilgan yuk transport vositasi yukxonasining orqa nuqtasidan 2 metrdan ortiq chiqib tursa. Avtotransport vositalari o‘qlariga tushadigan og‘irlik miqdoridan kelib chiqqan holda, ikki guruhga bo‘linadi:

A guruhi – I-III toifali avtomobil yo'llarida, shuningdek, yo'l qoplamasi avtomobil o'qiga tushadigan og'irlik 13 tonna bo'lgan yuklamaga moslab qurilgan IV toifali yo'llarda foydalanish uchun mo'ljallangan, eng ko'p yuklangan o'qdan yo'l qoplamasiga tushadigan og'irlik 6 tonnadan 13 tonnagacha bo'lgan avtomobil transporti;

B guruhi – barcha yo'llarda foydalanish uchun ko'zda tutilgan, eng ko'p yuklangan o'qdan yo'l qoplamasiga tushadigan og'irlik 6 tonnagacha bo'lgan avtomobil transporti.

Avtotransport vositalarining ruxsat etilgan massasi va o'q bo'yicha vazn belgilari (og'ir yuklangan yukning g'ildiraklar orqali yo'lga ko'rsatadigan ta'siri) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrda 342-sonli «O'zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo'llari xavfsizligini ta'minlash va tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan tasdiqlangan qoidalar asosida belgilanadi (2.3 va 2.4-jadvallarda keltirilgan ko'rsatkichlardan oshmasligi kerak).

2.3-jadval.

**Avtotransport vositalarining ruxsat etilgan massasi**

№	Avtotransport vositalarining turlari	Guruhlar bo'yicha to'liq massasi, tn	
		A	B
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
1	<b>Yuk avtomobillari:</b>		
	ikki o'qli	18	12
	uch o'qli	24	16
	havoli yoki unga ekvivalent podveska bilan jihozlangan, ikki juft g'ildirakli yetakchi o'qi bo'lgan uch o'qli	25	16
	to'rt o'qli	30	22
	har biri 2 juft g'ildirakdan iborat va havoli yoki unga ekvivalent podveska bilan jihozlangan 2 ta yetakchi o'qi bo'lgan 4 o'qli	32	24

2	<b>Aralash transport vositalarining qismini tashkil etuvchi transport vositalari:</b>		
	ikki o'qli tirkama	18	12
	uch o'qli tirkama	24	16
3	<b>Aralash transport vositalari:</b>		
	og'ir avtopoezdlar, bir o'qli yarim tirkamali ikki o'qli yuktortgich	28	18
	o'qlari orasidagi masofa 1,3 metrdan 1,8 metrgacha bo'lgan ikki o'qli yarim tirkamali ikki o'qli yuktortgich	36	23
	o'qlari orasidagi masofa 1,8 metrdan oshadigan ikki o'qli yarim tirkamali ikki o'qli yuktortgich (agar avtopoezd 18 tonnali yuk avtomobili va 20 tonnali yarim tirkamadan iborat bo'lsa va yetakchi o'qi qo'sh g'ildirakli va havoli yoki unga ekvivalent podveska bilan jihozlangan bo'lsa, ruxsat etilgan og'irlik 2 tonnaga oshirishi mumkin)	38	24
	uch o'qli yarim tirkamali ikki o'qli yuktortgich	40	28,5
	ikki o'qli yarim tirkamali uch o'qli yuktortgich		
	uch o'qli yarim tirkamali uch o'qli yuktortgich		
40 futli ISO konteynerni tashuvchi uch o'qli yarim tirkamali uch o'qli yuktortgich	44	32	
4	<b>Tirkamali avtopoezdlar:</b>		
	ikki o'qli tirkamali ikki o'qli yuk avtomobili	36	24
	uch o'qli tirkamali ikki o'qli yuk avtomobili	42	30
	ikki o'qli tirkamali uch o'qli yuk avtomobili	42	30
	uch o'qli tirkamali uch o'qli yuk avtomobili	44	32
5	<b>Avtobuslar:</b>		
	ikki o'qli	18	12
	uch o'qli	24	16
	shamirli ulangan uch o'qli	28	-
	shamirli ulangan to'rt o'qli	28	-

### *Izohlar:*

1. Yakka avtomobillar (yuktortgichlar) uchun to'liq massasi 30 tonnadan ortishiga ruxsat etilmaydi.

2. Avtotransport vositalari to'liq massasining chegaraviy miqdorlari o'qlar bo'yicha bir tekis taqsimlanganda o'qlarga tushadigan og'irliklar foizi 35% dan ortiq bo'lmasa, oldingi o'q uchun esa 40% dan oshmasa ruxsat etiladi.

*2.4-jadval.*

**O'q bo'yicha vazn belgilari (og'ir yuklangan yukning g'ildiraklar orqali yo'lga ko'rsatadigan ta'siri)**

Oraliq o'qlar orasidagi masofa, metr	O'qqa tushuvchi og'irlik, tonna	
	A guruhi	B guruhi
2,5 va undan ortiq	13,0	6,0
1,39 dan 2,5 gacha	9,0	5,5
1,25 dan 1,39 gacha	8,0	5,0
1,0 dan 1,25 gacha	7,0	4,5

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2012-yil 4-apreldagi 53-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Texnik ko'rikdan o'tkazishda davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati (DYXXX) organlari tomonidan nosoz deb topilgan, shuningdek, belgilangan muddatlarda texnik ko'rikdan o'tmagan yoki tegishli ruxsatnomasiz qayta jihozlangan transport vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami belgilarini yechib olish tartibi to'g'risida»gi Nizom transport vositasining davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami belgilarini yechib olish tartibini belgilaydi.

**Texnik nosoz transport vositasi** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 31-yanvardagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq texnik ko'rikdan o'tkazishda DYXXX organlari tomonidan nosoz deb topilgan transport vositasi.

**Ruxsatnomasiz qayta jihozlangan transport vositasi** – mazkur Nizomning ilovasida ko'rsatib o'tilgan qayta jihozlanishlar bilan transport vositasini qayd etish guvohnomasida aks ettirilmadan qayta jihozlangan transport vositasi.

**Belgilangan muddatlarda texnik ko'rikdan o'tmagan transport vositasi** — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 31-yanvardagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida»gi Nizomda belgilangan muddatda texnik ko'rikdan o'tmagan transport vositasi.

«Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo'yicha xavfsizligiga doir yagona talablar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 4-iyuldagi 191-sonli «Avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo'yicha xavfsizligi to'g'risida»gi reglamentni tasdiqlash haqida» gi qarori asosida tasdiqlangan.

#### **Nazorat savollari:**

1. Avtomobil transportini boshqaruvchi davlat organining asosiy vakolatlari nimalardan iborat?

2. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi qanday vazifalarni bajaradi?

3. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining avtomobil transporti sohasidagi asosiy vakolatlarni aytib bering.

4. Avtomobil va daryo transporti sohasida boshqaruvni takomillashtirish va monopoliyadan chiqarishni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlarini ayting.

5. Avtomobil va daryo transporti agentligi hududiy bo'limining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

6. Avtomobil va daryo transportini boshqarishning tashkiliy tuzilmasini izohlang.

7. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi markaziy apparati tuzilmasini izohlang.

8. Hududiy bo'limining namunaviy tuzilmasida qanday shu'ba va bo'limlar bo'lishi ko'zda tutilgan?

9. Hududiy bo'lim qanday huquqlarga ega?

10. Yuridik shaxs tushunchasiga izoh bering.

11. Yuridik shaxsni tashkil etish tartibini tushuntiring.

12. Yuridik shaxs qanday hollarda tugatilishi mumkin?

13. Avtomobil yo'llari qurish uchun yer uchatkasi ajratish tartibini aytib bering.

14. Avtomobil yo'llari davlat tasnifiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

15. Avtomobil yo'llarida harakatni vaqtincha to'xtatish yoki cheklash shartlari.

16. Avtomobil yo'llaridan foydalanuvchilar huquq va majburiyatlari.

17. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlarini aytib bering.

18. Transport vositalarini boshqarish huquqi.

19. Avtomobil yo'llaridan foydalanish tartibiga rioya qilmaganlik uchun yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarligi.

20. Yuk va yo'lovchi tashishni tashkil qilishda harakatlanuvchi tarkibning texnik holatini huquqiy tartibga solish qanday amalga oshiriladi?

### **III BOB.**

## **AVTOMOBIL TRANSPORTIDA YUK TASHISH SHARTNOMASI**

### **3.1. Yuk tashish shartnomasi**

**Yuk tashish shartnomasi tushunchasi.** Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi.

Shartnomalarga O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining (quyida FK deb yuritiladi) 9-bobi «Bitimlar»da nazarda tutilgan ikki va ko'p taraf lama bitimlar to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi.

Shartnomadan kelib chiqqan majburiyatlarga, agar ushbu bobning qoidalarida va ushbu kodeksda shartnomalarning ayrim turlari to'g'risida bayon etilgan qoidalarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, majburiyatlar to'g'risidagi umumiy qoidalar (FKning 234-352-moddalari) qo'llaniladi.

Ikkitadan ortiq taraf lar tuzadigan shartnomalarga, bunday shartnomalarning ko'ptaraf lamalik xususiyatiga zid bo'lmasa, shartnoma to'g'risidagi umumiy qoidalar qo'llaniladi.

Avtomobil transportida yuk tashish boshqa turdagi transportlardagi kabi yuk tashish shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Bu haqda bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlarda e'tirof etilgan. Jumladan, FKning 709-moddasida «Yo'lovchi, bagaj va yuk tashish (quyida tashish deb yuritiladi) tashish shartnomasi asosida amalga oshiriladi», – deyilgan.

Shuningdek, «Avtomobil transporti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasida «Yo'lovchilar, bagaj va yuklar tashish shartlari va tomonlarning javobgarligini nazarda tutuvchi tashish shartnomasi asosida tashiladi», – deb ta'kidlangan.

Avtomobil transportida yuk tashish shartnomalarini shartli ravishda 2 guruhga ajratiladi: uzoq muddatli shartnomalar (odatda yillik



shartnomalar) va qisqa muddatli shartnomalar (bir martalik buyurtma asosida amalga oshiriladigan). Yillik yuk tashish shartnomalari avtotransport korxonasi va o'z mahsulotini doimiy tashish zaruriyati bo'lgan yuk jo'natuvchi (mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki ulgurji savdogar) o'rtasida tuziladi. Yuk tashishni tashkil etish shartnomasida tashiladigan yuk hajmi, tashib berish muddati va transport vositalarini yuk tashishga berish va yukni tashish uchun taqdim etishdagi shartlar bajarilgan ish uchun haq to'lash, shuningdek, yuk tashishning boshqa shart-sharoitlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Oddiy (bir martalik) yuk tashish shartnomalari yuk tashuvchiga taqdim etiladigan buyurtmanoma (transport nakladnoy) asosida tuziladi.

Yuk tashish shartnomasi tuzishga yuk tashish rejasi asos bo'ladi.

Avtomobil transportida yuk tashishning yillik shartnomasida shartnoma tuzuvchi tomonlarning yuridik nomlanishi va manzili bilan bir qatorda, quyidagilar o'z aksini topadi:

– shartnoma predmeti – avtotransport korxonasi tomonidan tashib beriladigan va yuk jo'natuvchi tomonidan taqdim etilishi lozim bo'ladigan yillik reja (t va t.km hisobida), yuk tashib berishning oylar bo'yicha rejasini taqdim etilishi hamda shartnomaning umumiy qiymati;

– tashish sharoitlari – mijoz tomonidan tashishga buyurtma berish shartlari, avtotransport korxonasining majburiyatlari, mijozning majburiyatlari va qo'shimcha sharoitlar keltiriladi;

– tashishga haq to'lash – bajarilgan transport ishiga haq to'lash tartibi, qaysi hujjatlar (tovar-transport hujjati, dalolatnoma, yo'l varaqasi) asosida haq to'lanishi keltiriladi;

– tomonlarning majburiyatlari – avtotransport korxonasi va mijoz o'z majburiyatlarini bajarmaganda yoki kelgusida bajara olmasligi holatlaridagi majburiyatlari keltiriladi;

– shartnomaning amal qilish muddati va tomonlarning yuridik manzillari – shartnomani amal qilish muddati va tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari imzo va muhr bilan tasdiqlab keltiriladi.

Yuk tashish shartnomasida, shuningdek, qabul qilingan buyurtmada ko'rsatilgan o'rtacha yuk tashish masofasi asosida hisoblangan yuk aylanmasi ko'rsatiladi. Yuk jo'natuvchilar bir yukni qarama-qarshi

yo'nalishda tashish va samarasiz tashishlarga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini qo'llashni o'z zimmasiga oladilar.

Avtotransport korxonasi va yuk jo'natuvchi doimiy xo'jalik yuritish aloqalariga ega bo'lganda shartnomaning amal qilish muddatini keyingi yilga uzaytirish mumkin.

Yuk tashish shartnomasini avtotransport korxonasi yuk jo'natuvchi bilan tuzadi. Agar yuk tashish shartnomasi predmeti yuklarni temiryo'l stansiyalaridan, portlar (pristanlar)dan va aeroportlardan tashib chiqish bo'lsa yoki qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xomashyolarni tayyorlov yoki qayta ishlovchi korxonalariga tayyorlov yoki qayta ishlovchi korxonalariga yoxud uzoq muddat saqlash joylariga (omborxonalariga) tashish talab etilsa, bunday hollarda avtotransport korxonasi yukni qabul qiluvchi bilan shartnoma tuzadi. Shartnoma yuk qabul qiluvchi bilan tuzilganda, shuningdek, yuk qabul qiluvchidan bir martalik buyurtma qabul qilinganda yuk qabul qiluvchi bir qator huquqlardan foydalanadi hamda majburiyat va javobgarliklarni o'z zimmasiga oladi (yuk jo'natuvchi bilan tuzilgan shartnomadagi yuk jo'natuvchining huquq, majburiyat va javobgarligi).

Tashish rejası bajarilishni nazorat qilish avtotransport korxonasining ishlab chiqarish dasturini o'z vaqtida va eng samarali tarzda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Barcha tashish ishlari (mijoz kimligi va tashish ishlari qachon bajarilishidan qat'i nazar) tashish rejasiga muvofiq o'zaro tuzilgan shartnoma majburiyatlari asosida amalga oshirilishi lozim.

Shartnoma avtotransport korxonasini mijoz bilan o'zaro munosabatlarining asosiy shaklidir. Shartnoma tomonlar o'rtasidagi xizmat aloqalarini belgilab beradi, tashishda ishtirok etuvchi barcha tomonlarni aniqlaydi va moliyaviy munosabatlarni mustahkamlaydi va yuk tashish shartnomasi joriy asosiy hujjatlardan (oylik, kvartal) biri bo'lib tezkor (kunlik) rejalarni tuzishda xizmat qiladi.

Umumfoydalanadigan avtotransport korxonalarida yuk tashishning namunaviy shartnomasiga amal qiladi. Shartnomada, (shartnoma amal qiladigan muddatlarda) tomonlarning majburiyatlari aks ettirilgan bo'ladi. Shartnoma tuzgandan so'ng avtotransport korxonasi shartnomada ko'rsatilgan hajmdagi yukni tashish majburiyatini oladi. Yuk tashishga № 13-01-04 «Avtomobil transportida yuk tashishga haq to'lashning yagona tariflari» preyskuranti bo'yicha haq to'lanadi.

Mijoz avtotransport korxonasi bilan shartnoma tuzgandan so'ng yuk jo'natuvchi yoki yukni qabul qiluvchi nomini oladi. Yukni tashish uchun topshiradigan tashkilot yoki shaxs yuk jo'natuvchi deb hisoblanadi. Yuk jo'natuvchiga bevosita tegishli bo'lishi shart emas. O'z manzillariga yuborilgan yuklarni qabul qiluvchi tashkilot va shaxslar yukni qabul qiluvchi deyiladi.

Yukni jo'natgan tashkilot yoki shaxs yoxud boshqa uchinchi tashkilot yoki shaxs bo'lganda yuk tashish shartnomasini tuzishga yukni qabul qiluvchi jalb etiladi. Shartnoma tuzishda yukni qabul qiluvchi (uchinchi tashkilot yoki shaxs) bevosita ishtirok etmasa-da, o'z manziliga olib kelingan yuklarni qabul qilishda o'z huquq majburiyatlariga ega bo'ladi.

Shartnoma yozma ko'rinishda (tomonlar o'rtasidagi kelishuvning me'yoriy ko'rinishi) yoki bir martalik buyurtma ko'rinishida tuziladi. Bir martalik buyurtma ko'rinishida shartnoma rejadan tashqari tashish amalga oshirilganda tuziladi. Bunda yuk tashish uchun qabul qilingan buyurtmalar ahamiyat jihatidan shartnoma bilan teng kuchli kelishuv deb hisoblanadi.

Shartnoma tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi (har ikki tomon qabul qilgan) shartnoma, shuningdek, bu shartlarni bajarish tartibidan iborat bo'ladi.

Shartnomada quyidagilar aks etadi:

- a) shartnoma tuzishga mas'ul tashkilot va javobgar shaxs;
- b) yuk turi bo'yicha (tonnalarda) tashish miqdori va xarakteri ko'rsatilgan shartnoma predmeti;
- v) tashish rejasida ko'zda tutilgan yukni taqdim etish tartibi, tashish masrofasi, ortish-tushirish ishlarini bajarish tartibi va bunda foydalaniladigan vositalar, buyurtmalarni (oylik, o'n kunlik) berish muddati va ularni rasmiylashtirish tartibi va shu kabi shartlar;
- g) shartnoma tuzishda ishtirok etuvchi tomonlarning majburiyat-lari;
- d) tomonlarni shartnoma bajarilishidan kelib chiquvchi shikoyat-larini ko'rib chiqish tartibi; tomonlar manzili, bankdagi hisob raqami; pul o'tkazish tartibi va jarima; pena va ushlandiqlarni ushlab qolish va boshqalar.

Shartnoma shartlarini bajarmaganligi uchun tomonlar jarima va ushlandiq ko'rinishdagi material javobgarlikka tortiladilar.

Bir tomonning shartnoma shartlarini bajarishdan bosh tortishi yoki uni o'zgartirishi qat'iy man etiladi. Shartnoma shartlarining bajarilishi faqat shartnoma tuzuvchi tomonlarga bog'liq bo'lmagan uzrli sabablarga asosan to'xtatilishi mumkin. Masalan, avtotransport korxonasi shartnomani amal qilishini yoki tashishni davlat organlari ko'rsatmasiga muvofiq, shuningdek, tabiiy ofat ro'y berganda, hamda yuk egalari o'z majburiyatlarini qo'pol ravishda buzganlarida to'xtatilishi mumkin. Mijoz ham shartnomani yoki alohida hollardagi tashish bajarilishini davlat organlari ko'rsatmasiga binoan, shuningdek, avtotransport korxonasi o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajaranda bekor qilishi mumkin.

Avtomobil transportida yuk tashish rejasiga binoan avtotransport korxonasi va yuk junatuvchilar (yuk qabul qiluvchilar) o'rtasida yuk tashish bo'yicha tuziladigan yillik shartnoma joriy joriy yillikning 15-martiga qadar tuzilishi lozim.

Yillik shartnoma avtotransport korxonasi bilan yuk jo'natuvchi yoki yuk qabul qiluvchi bo'lmagan ta'minot va boshqa turdagi tashkilotlar o'rtasida tuzilishi mumkin. Bunda shartnomaga binoan yuk jo'natuvchi va yuk qabul qiluvchilarga tegishli huquqlardan foydalanish va majburiyat hamda javobgarliklarga rioya qilishi lozim.

Shartnoma loyihasi yuk tashishni amalga oshiruvchi avtotransport korxonasi tomonidan ishlab chiqiladi.

Vazirlik va muayyan idoralarga qarashli korxonalar va tashkilotlar bo'yicha yuk tashishning yillik rejasini yuqorida turuvchi tashkilotlar tomonidan tasdiqlangandan so'ng avtotransport korxonasi (korxonasi tomonidan tasdiqlangan) yuk tashish yillik shartnomasini 10 kun muddat ichida ikki nusxada buyurtmachi tashkilotga yuborishi lozim. Buyurtmachi (odatda, yuk jo'natuvchi) shartnoma loyihasini olgandan so'ng 10 kun ichida shartnomani imzolashi va bir nusxasini avtotransport korxonasiga qaytarib yuborishga majbur.

Agar yuk jo'natuvchi shartnoma loyihasining qaysidir shartlariga rozi bo'lmasa ham 10 kun muddat ichida shartnomani imzolashga majburdir. Faqat bunda yuk jo'natuvchi shartnomada ko'rsatilgan qaysidir bandlar uni qisqarmasligi bo'yicha norozilik bayonnamasi-

ni tuzadi va bu bayonnomani (2-nusxada) imzolangan shartnomaga qo'shib avtotransport korxonasiga yuboradi. Norozilik bayonnomasi—bu hujjat bo'lib, unda avtotransport korxonasi tomonidan taklif etilgan shartnoma sharti va yuk jo'natuvchi tomonidan kiritish taklif etilayotgan o'zgartirish aks ettiriladi. Norozilik bayonnomasida yuk jo'natuvchi shartnomaga kiritish taklif etilayotgan o'zgarishlarni asoslab berishi maqsadga muvofiq.

Avtotransport korxonasi yuk jo'natuvchi tomonidan tasdiqlangan shartnomani norozilik bayonnomasi ilova qilingan holda olingandan so'ng yuk jo'natuvchi takliflarini ko'rib chiqadi. Agar shartnomaga kiritilishi taklif etilayotgan o'zgartirishlar amaldagi qonunlarga zid bo'lmasa, avtotransport korxonasi ularni qabul qiladi va bu haqda yuk jo'natuvchiga yozma ravishda xabar beradi. Agar avtotransport korxonasi yuk jo'natuvchi takliflariga rozi bo'lmasa, u holda kelishmovchilikni birgalikda ko'rib chiqish kuni belgilanadi. avtotransport korxonasi kelishmovchiliklarni birgalikda ko'rib chiqish to'g'risidagi xabarni norozilik bayonnomasini olgandan so'ng 10 kun muddat ichida yuk jo'natuvchiga yetkazishi lozim. Shuni e'tiborga olish kerakki, bu xabarni olgandan keyin kelishmovchilarni birgalikda ko'rib chiqish begilangan kungacha yuk jo'natuvchi ixtiyorida kamida 10 kun muhlat bo'lishi lozim.

Avtotransport korxonasi va yuk jo'natuvchi tashkilot o'rtasidagi kelishmovchilikni bartaraf etishda (shartnoma loyahasini ishlab chiqqan tomon sifatida) tashabbus ko'rsatish avtotransport korxonasining birinchi navbatdagi majburiyatidir. Vujudga kelgan kelishmovchiliklarni birgalikda ko'rib chiqish natijalari bo'yicha bayonnoma tuziladi.

Zarur chora-tadbirlar ko'rilgandan keyin ham bartaraf etilmagan kelishmovchiliklar 10 kun muddat ichida arbitraj sudiga tegishli tartibda taqdim etiladi. Sud hukmiga ko'ra yuk jo'natuvchining takliflari qabul qilinishi mumkin.

Arbitraj tegishli arizani qabul qilishda kelishmovchilarni bartaraf etish uchun tomonlar zarur chora-tadbirlarni ko'rganliklarini tekshiradi. Agar tomonlar zarur chora-tadbirlarni ko'rmaganliklari aniqlansa, u holda munozara materiallari ko'rib chiqilmaydi va avtotransport korxonasiga qaytarib yuboriladi.

Avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha-yillik namunaviy

shartnoma tegishli vazirliklar va idoralar ishtirokida ishlab chiqiladi va avtomobil transporti bo'yicha vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadi.

Avtotransport korxonasi va yuk jo'natuvchi tashkilot doimiy ravishda xo'jalik aloqalari olib borganda shartnoma tuzish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Bunday holda tomonlar o'zaro kelishuvchi asosida yangi yil uchun yangi shartnoma tuzmay, balki amaldagi yillik shartnoma muddatini uzaytirishi mumkin. Shartnoma muddatini uzaytirishda ba'zi shartlar (masalan, tashish hajmi va shu kabilar) qaytadan ko'rib chiqiladi.

Yo'lovchi, bagaj va yuk tashish shartnomasini tuzishda fuqarolar va yuridik shaxslar erkindirlar.

Shartnoma tuzishga majbur qilishga yo'l qo'yilmaydi, shartnoma tuzish burchi ushbu FKda, boshqa qonunda yoki olingan majburiyatda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Taraflar turli shartnomalarning elementlarini o'z ichiga oladigan shartnoma (aralash shartnoma) tuzishlari mumkin. Aralash shartnoma bo'yicha taraflarning munosabatlariga, agar taraflarning kelishuvidan yoki aralash shartnomaning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, elementlari aralash shartnomada bo'lgan shartnomalar to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi.

Shartnomaning shartlari taraflarning xohishi bilan belgilanadi, tegishli shartning mazmuni qonun hujjatlarida ko'rsatib qo'yilgan hollar bundan mustasno.

FKning 709-moddasida «Transportning ayrim turlarida yo'lovchi, bagaj va yuk tashish shartlari, shuningdek, taraflarning ularni tashish bo'yicha javobgarligi, agar ushbu kodeksda, transport ustavlari va kodekslarida, boshqa qonunlarda va ularga muvofiq chiqarilgan qoidalarda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi» – deb ta'kidlangan.

Yuk tashish shartnomasida tomonlarning majburiyatlari FKning «Yuk tashish shartnomasi» deb nomlangan 711-moddasida keltirilgan bo'lib: «Yuk tashish shartnomasi bo'yicha yuk tashuvchi yuk jo'natuvchi tomonidan o'ziga ishonib topshirilgan yukni belgilangan manzilga yetkazib berish va uni olishga vakolat berilgan shaxsga (oluvchiga) topshirish, yuk jo'natuvchi esa yukni tashib berganlik uchun belgilangan haqni to'lash majburiyatini oladi.

Yuk tashish shartnomasi tuzilganligi tegishli transport ustavi yoki kodeksida nazarda tutilgan hujjat (transport yukxati, konosament yoki yukka doir boshqa hujjat)ni tuzish va uni yuk jo'natuvchiga topshirish yo'li bilan tasdiqlanadi», – deyilgan.

Yuk tashish shartnomasining taraflari transport sohasida xo'jalik yurituvchi subyektlar va yuk jo'natuvchilar bo'ladi.

Yuk tashuvchi sifatida mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida avtotransport vositasiga ega bo'lgan, tijorat asosida yuklar tashish xizmatini ko'rsatadigan hamda bunga maxsus ruxsatnomasi (litsenziyasi) bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxslar qatnashadilar.

Yukni oluvchi yuk jo'natuvchining o'zi bo'lmasdan, balki boshqa shaxs bo'lganida yuk tashish shartnomasida qatnashuvchi taraflar bilan bir qatorda bunday shaxs ham yuk tashuvchiga nisbatan shartnomadan kelib chiqadigan huquq va burchlarni bevosita oluvchi bo'ladi.

Shartnoma bo'yicha taraf o'z burchlarini bajarganligi uchun haq olishi yoki unga boshqa muqobil to'lov to'lanishi lozim bo'lsa, bunday shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma bo'ladi.

Shartnoma bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafga undan haq yoki boshqa muqobil to'lov olmasdan biron narsani berish majburiyatini olsa, bunday shartnoma tekinga tuzilgan shartnoma hisoblanadi.

Agar qonun hujjatlaridan, shartnomaning mazmuni yoki mohiyatidan boshqacha hol anglashilmasa, shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma hisoblanadi.

Yuk jo'natuvchi har qanday yuk tashilgani uchun kira haqini va boshqa qo'shimcha yig'implarni yukni topshirish chog'ida to'lashga majbur. Kira haqining va qo'shimcha yig'implarning miqdori belgilangan tartibda tasdiqlangan tariflarda ko'rsatilgan. Yuk tashish shartnomasi muayyan hujjatlarni, transport yukxati yoki yukka doir boshqa hujjatlarni to'lg'azish yo'li bilan yozma ravishda tuziladi.

Shartnoma tuzilgan paytidan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo'lib qoladi.

Taraflar o'zlari tuzgan shartnomaning shartlarini ularning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga nisbatan qo'llaniladi deb belgilab qo'yishga haqlidirlar.

Qonunda yoki shartnomada shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarning shartnoma bo'yicha majburiyatlari bekor bo'lishiga olib keladi, deb belgilanishi mumkin.

Bunday shart yozib qo'yilmagan shartnoma taraflar majburiyatni bajarishining shartnomada belgilab qo'yilgan oxirgi muddatigacha amal qiladi, deb hisoblanadi.

Shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Tijorat tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan tashish, agar qonun hujjatlaridan yoki ushbu tashkilotga berilgan ruxsatnomadan (litsenziyadan) uning har qanday fuqaro yoki yuridik shaxs murojaatiga muvofiq yo'lovchi, bagaj va (yoki) yuk tashishi shartligi anglashilsa, umumiy foydalanishdagi transportda tashish deb e'tirof etiladi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil transportda tashish shartnomasi ommaviy shartnoma bo'lganligi sababli, shartnoma tuzishda FKning 358-moddasi «Ommaviy shartnoma» qoidalari qo'llaniladi.

Tashkilot tomonidan tuzilgan hamda uning bunday tashkilot o'z faoliyati xususiyatiga ko'ra o'ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirishi shart bo'lgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish sohasidagi vazifalarini (umumiy foydalanishdagi transportda yo'lovchi tashish, aloqa xizmati va sh.k.) belgilab qo'yadigan shartnoma ommaviy shartnoma deyiladi. Bunday tashkilot ommaviy shartnoma tuzishda bir shaxsni boshqa shaxsga nisbatan afzal ko'rishga haqli emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Ommaviy shartnoma birinchi galda iste'molchilar, fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Uning vositasida bozor munosabatlarida monopoliya holatini egallagan tadbirkorlar tomonidan o'zboshimchalik, yakkahokimlik harakatlariga mumkin qadar yo'l qo'ymaslik, bunday hollarning oldini olish masalalarini hal qilish maqsad qilib qo'yilgan.

Tovarlar, ishlar va xizmatlarning bahosi, shuningdek, ommaviy shartnomaning boshqa shartlari hamma iste'molchilar uchun bir xil qilib belgilanadi, qonun hujjatlarida iste'molchilarning ayrim toifalari uchun imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yiladigan hollar bundan mustasno.

Tashuvchi bilan yuk egasi muntazam tashishni amalga oshirish zarur bo'lganida tashishni tashkil etish haqida uzoq muddatli shartnomalar tuzishlari mumkin.



Yuk tashishni tashkil etish shartnomasi bo'yicha tashuvchi shartlashilgan hajmdagi yuklarni belgilangan muddatlarda qabul qilib olish, yuk egasi esa topshirish majburiyatini oladilar. Yuk tashishni tashkil etish shartnomasida tashish uchun beriladigan transport vositalarining va topshiriladigan yuklarning hajmi, ularni topshirish muddatlari va boshqa shartlari, hisob-kitob qilish tartibi, shuningdek, tashishni tashkil etishning boshqa shartlari belgilab qo'yiladi.

Tashish shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarmagan yoki tegishli darajada bajarmagan taqdirda, tomonlar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

FKning 20-bobida majburiyat tushunchasi va taraflari asoslari berilgan bo'lib, bunda majburiyat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan. «Majburiyat – fuqarolik huquqiy munosobati bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi, mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishini talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

Majburiyatlar shartnomadan, ziyon yetkazish natijasida hamda ushbu kodeksda ko'rsatilgan boshqa asoslardan kelib chiqadi» (FK 234-modda).

Majburiyatning taraflari – kreditor yoki qarzdor sifatida bir yoki bir paytning o'zida bir necha shaxs ishtirok etishi mumkin.

Masalan, yuk tashishda yuk jo'natuvchi yukni transportga topshirishda, kira haqini to'lashda qarzdorga o'xshasa, tashuvchi bergan transport vositalarini tegishli yukni ortish uchun qabul qilib olishida esa kreditorga o'xshaydi; xuddi shuningdek, tashuvchi yukni qabul qilib olishda va kira haqini olishda kreditorga o'xshasa, yuk ortish uchun munosib transport vositasini berishda qarzdorga o'xshaydi.

Qabul qilingan buyurtmanomani, uning bevosita ijrochilariga–avtotransport korxonasiga hamda yuk jo'natuvchiga yetkazish ular o'rtasida huquqiy munosabatlarni paydo qiladi, ya'ni ular o'rtasida fuqarolik huquqlarini keltirib chiqaradi. Avtomobil transporti korxonasi va yuk jo'natuvchi fuqarolik huquqiy majburiyatlarini bajarmasalar bir-birlari oldida mulkiy javobgarlikka tortiladilar. Qabul qilingan buyurtmanomadan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishi taraf-

larning yuk tashish shartnomasiga kirishlarini bildiradi. Qabul qilingan buyurtmanomaning bajarilishi yuk tashish shartnomasi tuzilishi bilan amalga oshadi.

Agar qonun hujjatlarida boshqa hol nazarda tutilgan bo'lsa, yuk tashiganlik uchun taraflar kelishuvi bilan belgilangan miqdorda haq olinadi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida yuk tashiganlik uchun olinadigan haq transport ustavlari va kodekslarida belgilangan tartibda tasdiqlanadigan tariflar asosida joriy etiladi.

Tashuvchi tomonidan yuk egasining talabi bilan bajariladigan va tariflarda nazarda tutilmagan ish va xizmatlar uchun taraflarning kelishuviga muvofiq haq to'lanadi.

Agar qonun hujjatlarida, tashish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lsa yoki u majburiyat mohiyatidan kelib chiqmasa, tashuvchi tashish uchun topshirilgan yuklarni o'ziga tegishli kira haqini va tashish bo'yicha boshqa to'lovlarni ta'minlash maqsadida ushlab turish huquqiga ega.

Yuk tashish bo'yicha umumiy huquqiy munosabatlar strukturasini anchagina murakkabdir. U qabul qilingan buyurtmanomadan bevosita paydo bo'ladigan majburiyatlarning, uning tarkibiy qismi hisoblangan, yuk tashish shartnomasini tuzish majburiyati va yuk tashish shartnomasidan paydo bo'ladigan majburiyatlarning majmuidan iborat.

Yuk tashish shartnomasi mustaqil turdagi shartnomadir, uning predmeti transport xizmatidir, ya'ni yuklarning joyini o'zgartirish xizmatidir. Yuk tashish shartnomasining asosiy mazmuni shundan iboratki, avtotransport korxonasi yukni tayinlangan manzilga eltib berish va uni yuk oluvchiga topshirish majburiyatini oladi.

Yuk tashish shartnomasi buyurtmaga asoslangan shartnomadir, ya'ni avtotransport korxonasi va yuk jo'natuvchi uchun majburiy bo'lgan qabul qilingan buyurtmanoma topshiriqlari asosida va uni ijro etish maqsadida tuziladi. Buyurtmanomalarga asoslangan shartnomalarni tuzish, shartnoma mazmunini qabul qilingan buyurtmanoma topshiriqlariga muvofiq bo'lish tamoyillariga asoslanadi, ya'ni qabul qilingan buyurtmanomadagi ko'rsatkichlarga uni bajarilish jarayonida erishiladi. Lekin buyurtmanomaga asoslangan shartnoma qabul qilin-

gan buyurtmanoma topshiriqlarini oddiy takrorlashdan iborat emas. Tashish bo'yicha munosabatlarda buyurtmanoma qanchalik yuqori darajadagi aniqlikka yetkazilsa ham, har bir partiyadagi yukni jo'natish ta'minlansa ham, taraflarning xohishiga havola qilinadigan masalalar uchun o'rin qoladi, chunki qabul qilingan buyurtmanoma qanchalik aniq va mukammal bo'lmasin, u har qaysi bir marotabalik tashishning barcha shart sharoitlarini inobatga olmaydi. Bu masalani esa shartnoma hal qiladi.

Yuklarni tashish shart-sharoitlarga nisbatan bitimlar ramkasining cheklanganligi va shartnoma mazmunini individuallashtirish, shartnoma tuzishda belgilangan tartibga taraflar so'zsiz rioya qilishlari bilan ham ta'minlanadi. Shunday bo'lsa ham, yuk tashish bo'yicha majburiyatlarda shartnoma, uning subyektlarining huquq va majburiyatlarining kelib chiqishi va shakllanishi uchun huquqni vujudga keltiruvchi ahamiyatini yo'qotmaydi. Masalan, shartnoma yuk jo'natuvchi uchun: kira haqini va boshqa yig'img'irlarini to'lash majburiyatini; tayinlangan punktda yuk oluvchi mavjud bo'lmaganida yuk bilan qanday yo'sinda ish tutish kerakligi haqida ko'rsatma berish majburiyatini yuklaydi. Yuk tashuvchi uchun esa: yuklarni to'la asrash majburiyatini; tayinlangan manzilga yuklarni belgilangan muddatlarda yetkazib berish majburiyatini; yukni olishga vakolat berilgan shaxsga (oluvchiga) topshirish kabi majburiyatlarini vujudga keltiradi va yuk tashish bo'yicha majburiyatlarning ajralmas tarkibiy qismini tashkil etadi. Qabul qilingan buyurtmanoma esa bunday majburiyatlarni vujudga keltirmaydi.

Yuk tashish shartnomasi haqqoniydir. Uni tuzish uchun avtotransport korxonasi va yuk jo'natuvchining bitimi yetarli bo'lmay, balki jo'natuvchi yukni harakatdagi tarkibga ortish uchun topshirishi kerak, chunki yuk tashuvchi o'ziga ishonib topshirilgan yukni tayinlangan manzilga yetkazib berishni o'z zimmasiga oladi. Shuning uchun yuk tashuvchi yukni tashishga qabul qilib olgan paytdan boshlab, shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Jo'natuvchi yukni topshirishi va tashuvchi uni qabul qilib olish harakatlari tashish shartnomasi tuzilganligi haqida guvohlik beradi. Tashuvchi yukni qabul qilib olgan paytdan boshlab yukning yo'qolishi, kam chiqishi, buzilishi, shikastlanishi va yetkazib berilishi muddati kechiktirilganligi uchun, yuk jo'natuvchi esa kira

haqini o'z vaqtida to'lamaganligi va tashishga taqdim etilgan yukni noto'g'ri nomlash uchun javobgar bo'ladi.

Yuk tashish shartnomasi muddatlidir, ya'ni uning faoliyat muddati, yuk tashish majburiyatlarini ijro etish muddati bilan aniqlanadi. Yuklarni yetkazib berish muddati avtomobil transportida yuk tashish shartnomasining majburiy shartlaridan hisoblanadi. Chunki tashish majburiyatlarini ijro etish yukni topshirish bilan tugaydi. Tashish shartnomasini ijro etish muddati o'zida, yukni yetkazib berish muddatidan tashqari, uni tayinlangan punktga topshirish uchun kerakli bo'lgan vaqtni ham qamrab oladi. Yuklarni eltib berish muddati taraflarning bitimi bilan emas, balki me'yoriy hujjatlar asosida aniqlanadi.

yuk tashish shartnomasi haq evaziga tuziladigan shartnomalar turiga kiradi, chunki shartnomani tuzuvchi taraflar o'zining ma'lum mulkiy manfaatlarini qanoatlantirishini nazarda tutadilar. Yuk jo'natuvchi ko'rsatilgan transport xizmati uchun belgilangan tarifga muvofiq yuk tashish kira haqlarini to'laydi.

Bundan tashqari, yuk tashish shartnomasi o'zarodir, chunki shartnomaning har bir tarafi ma'lum huquqlarga va majburiyatlarga ega bo'lib, o'zining har bir harakatiga, boshqa tarafning ma'lum harakatlari talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Avtotransport korxonasi yukni yetkazib berish majburiyatini oladi, yuk jo'natuvchi esa buning uchun yuk tashish xaqini to'lashni o'z zimmasiga oladi.

### **3.2. Yuk tashish shartnomasining taraflari va ishtirokchilari**

yuk tashish shartnomasidagi taraflar yuk jo'natuvchi va avtotransport korxonasidir.

Yukni ortib jo'natishni kim amalga oshirishidan qat'i nazar, yuk jo'natuvchi deb barcha holatlarda qabul qilingan buyurtmanoma me'yorlari belgilangan tashkilot e'tirof etiladi. Yukni ortib jo'natishni esa qabul qilingan buyurtmanoma me'yorlari belgilangan xo'jalik idorasi yoki boshqa transport ekspeditsiyasi xizmati ko'rsatish tashkiloti amalga oshirishi mumkin. Bu majburiyatlarning ikkinchi tarafi tashuv-

chining qabul qilingan buyurtmanoma adresati bo'lib, yuk jo'natish punktidagi transport tashkiloti e'tirof etiladi, chunki yukni tashishga topshirish, binobarin, yuk tashish jarayonining boshlanishi ana shu yuk jo'natish punktidagi transport tashkilotida amalga oshiriladi.

Tashish – bu alohida moddiy ne'matlar ishlab chiqarish sohasi – transport sanoatining mahsulotidir. Tashish jarayonining o'ziga xosligi shundan iboratki, u muomala jarayoni doirasidagi ishlab chiqarish jarayonining davom etishi hisoblanadi. Shuning uchun ishlab chiqarish jarayonida tashuvchi bo'lib faqat umumiy foydalanish transport tashkilotlari qatnasha oladilar, qaysiki ular uchun tashish – tovarlarni ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga joyini o'zgartirish, alohida faoliyat bo'lib, ularning huquqiy layoqatining tarkibiy qismini tashkil etadi.

Tashish bo'yicha majburiyatlarning shartnomaviy bosqichi shundan iboratki, shartnoma tuzilishi bilan uning yangi ishtirokchilari (qatnashchilari) paydo bo'ladi (tashuvchi tarafida – oraliq va oxirgi transport tashkilotlari). Bundan tashqari, tashishda boshqa turdagi transportlar ishtirok etsa ham asosan tashish shartnomasi faqat jo'natish punktidagi transport tashkiloti bilan tuziladi. Buning oqibatida qabul qilingan buyurtmanomadagi tashuvchi – shartnomadagiga, shartnomadagi esa asosiy tashuvchi bilan to'g'ri kelmaydi. Boshqa tarafdin esa yuk jo'natuvchi sifatida qabul qilingan buyurtmanoma me'yorlari belgilangan tashkilot emas, balki maxsus shartnoma asosida boshqa tashkilot ishtirok etishi mumkin. Buning oqibatida qabul qilingan buyurtmanomadagi yuk jo'natuvchi har doim ham shartnomadagi bilan, shartnomadagi esa asosiy yuk jo'natuvchi bilan to'g'ri kelmaydi. Shundan ma'lum bo'ladiki, tashish shartnomasidagi bog'lanishlar tuzilmasi oddiy (shartnoma subyektlari uning ijrochilari bilan to'g'ri kelganida) yoki murakkab (shartnoma subyektlari uning ijrochilari bilan to'la yoki qisman to'g'ri kelmaganida) bo'lishi mumkin.

Yukni jo'natish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni transport ekspeditsiyasi tashkilotlari ham amalga oshirishlari, qaysiki ular mijozlarning nomidan va o'zlarining shaxsiy nomlaridan ishtirok etishlari mumkin.

**Yuk oluvchining yuk tashish shartnomasidagi o'rni.** Yuk tashish shartnomasining o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ikki shaxs–

yuk jo'natuvchi va avtotransport korxonasi tuzgan shartnomadan kelib chiqadigan yuk tashish huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi (qatnashchisi), uchinchi shaxs – yuk oluvchi bo'lib qoladi, qaysiki unga yuk tashuvchi yukni topshirishi kerak bo'ladi. Yuk oluvchini belgilamasdan tashish shartnomasini tuzib bo'lmaydi, aks holda tashish shartnomasidan kelib chiqadigan yuk tashuvchining majburiyatlaridan biri – vakolatli shaxsga yukni topshirish imkoniyati bo'lmaydi.

Yuk oluvchining (uchinchi shaxsning) huquqi yuk jo'natuvchi uning foydasiga tuzgan tashish shartnomasidan kelib chiqadi. Uchinchi shaxsning huquqiy munosabatlari ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi. Uchinchi shaxs tashish shartnomasida o'zi uchun belgilangan huquqlardan foydalanishga rozilik berish bilan bir qatorda, ma'lum majburiyatlarni qabul qilishi ham kerak bo'ladi.

Tashish shartnomasi yuk jo'natuvchilar va yuk oluvchilar uchun boshqa shartnomalardan (yetkazib berish, oldi-sotdi kabi) kelib chiqadigan majburiyatlarni ijro etish vositasidir. Ushbu shartnomalarni tuzishda mahsulot xaridori (keyinchalik tashish shartnomasi bo'yicha yuk oluvchi) mahsulotni qabul qilib olish majburiyatini o'ziga oladi, shartnomada esa mahsulotni oluvchiga yetkazib berish usullari belgilanadi. Shunday ekan buyurtma berilgan mahsulotni bo'lg'usi oluvchisi tegishli (yetkazib berish, oldi-sotdi) shartnomani tuzishda yuk tashish shartnomasini tuzish uchun rozilik beradi va faqatgina transport tashkilotidan yukni qabul qilib olish majburiyatini olibgina qolmay, balki tashish shartnomasidan kelib chiqadigan boshqa harakatlarni ham amalga oshirish majburiyatini oladi. Shunday qilib, yuk oluvchining transport tashkilotidan yukni qabul qilib olish majburiyati, bu uning boshqa shartnoma subyekti oldidagi majburiyatidir. Bu majburiyat yuk oluvchining va yuk jo'natuvchining yuk tashish huquqiy munosabatlari doirasi tashqarisidagi munosabatlardan kelib chiqadi. Tashish shartnomasi uni haqqoniy bajarilishini ta'minlaydi. Shunday qilib, yuk oluvchining yuk tashish munosabatlarida uchinchi shaxs sifatida ishtirok etishi, yuk jo'natuvchi uning foydasiga tashish shartnomasini tuzishdagi harakatlariga hamda umumiy qoidalar bo'yicha, yuk oluvchining yuk jo'natuvchi bilan yetkazib berish shartnomasini yoki boshqa shartnomani tuzishda ifodalangan o'z xohishlarini erkin izhor etishga asoslanadi. Ammo bu tashish shartnomasini ko'p tarafdama

shartnoma deb ta'riflashga va uni uch shaxs bitimi deb hisoblashga asos bo'la olmaydi.

Tashish shartnomasi faqat uning o'ziga aloqador bo'lgan qator o'ziga xos xarakterli xususiyatlarga ega. Tashish shartnomasi hamma shartnomalarga o'xshab ikki shaxsning – avtotransport korxonasining va yuk jo'natuvchining o'rtasida tuziladi. Lekin, tashish shartnomasi uchinchi shaxs – yuk oluvchining foydasiga tuziladi, chunki yuk tashish uning manfaati uchun amalga oshiriladi va yuk uning adresiga yetkazib beriladi. Bu uchinchi shaxs tashish shartnomasidan manfaatdor shaxs hisoblanadi. Shartnoma tuzish paytida va uni ijro etish jarayonida yuk oluvchi hozir bo'lmaydi. Va, nihoyat, bu uchinchi shaxs tashish shartnomasini ijro etilishidan manfaatdor bo'lsa-da, ammo shartnoma shartlariga ta'sir o'tkaza olmaydi, chunki kira haqi va qo'shimcha yig'imlar miqdori, hamda tashishni bajarishni ta'minlash tartiblari tashish qoidalari asosida amalga oshiriladi va bu qoidalarni hatto foydasiga tashish shartnomasi bajarilayotgan shaxsning xohishi bilan ham o'zgartirish mumkin emas.

Shunday qilib, tashish shartnomasi tashuvchi va yuk jo'natuvchi o'rtasida, uni tuzishda hozir bo'lmagan va ishtirok etmagan yuk oluvchi foydasiga tuziladi, ya'ni uchinchi shaxs uchun ma'lum huquqlar va majburiyatlar vujudga keltiriladi.

Avtotransport korxonasi va yuk jo'natuvchi tashish shartnomasini tuzgan paytidan boshlab yuk oluvchida huquq vujudga keladi, ya'ni mana shu paytdan e'tiboran yukni tayinlangan yuk tushirish punktiga yetkazib berilishini talab qiluvchi huquq vujudga keladi. Yuk tashuvchi mazkur yuk oluvchi adresiga yukni yetkazib berish bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganida yoki lozim darajada bajarmaganida, yuk oluvchi yukning yo'qolishini, kam chiqishini, shikastlanishini, buzilishini yoki yetkazib berilishi kechiktirilishi sabablari bo'yicha talablar qo'yishga haqli bo'ladi. Bundan tashqari, yuk oluvchi yuk tashuvchiga tashish shartnomasidan kelib chiqadigan boshqa talablarni ham qo'yishi mumkin.

Yuk tashish shartnomasi bo'yicha yuk oluvchi faqatgina huquqqa ega bo'libgina qolmay, balki yuk tayinlangan punktga yetib kelgach, uning zimmasiga ma'lum bir majburiyatlar yuklatiladi.

Agar yuk tashuvchi yukni yukxatida ko'rsatilgan yuk oluvchiga topshirish imkoniyatini topa olmasa, tashuvchi yuk jo'natuvchining ko'rsatmasiga muvofiq yuk bilan ish tutadi, buning uchun esa yuk jo'natuvchi xabar olgan kundan e'tiboran uch sutka muddatida qanday yo'sinda ish tutish kerakligi haqida ma'lumot berishi kerak.

Yuk oluvchining yukni qabul qilib olishga roziligi bormi-yo'qmi bundan qat'i nazar uning majburiyatlari vujudga keladi. Agar yuk, yuk oluvchining manziliga uning buyurtmasisiz kelgan bo'lsa ham, u bari bir yukni qabul qilib olishga majbur.

Agarda yukning sifati buzilishi yoki shikastlanishi natijasida shu darajada o'zgarib ketisa, yukdan to'liq yoki qisman foydalanish imkoniyati bo'lmasa, istisno hollarda yuk oluvchi yukni qabul qilib olishni rad qilishi mumkin.

### **3.3. Harakatlanuvchi tarkiblarga yukni ortish va tushirish, yuklash-tushirish vaqtlari**

Har qanday yuk tashish transport jarayonini amalga oshirishda yuklarni transport vositasiga ortish bilan bog'liq sermehnat, ba'zida esa jismonan og'ir ish bajarishga to'g'ri keladi. Tashish nihoyasiga yetganda esa yuklarni tushirish zarur bo'ladi. Yuklarni tushirish ham sermehnat hamda jismonan og'ir ishlardan biridir.

Ortish-tushirish ishlari asosiy va qo'shimcha operatsiyalardan iborat bo'ladi. Asosiy operatsiyalarga quyidagilar kiradi: shtabellar yoki boshqa saqlash joylaridan yuklarni olish; ortish joyiga keltirish; transport vositasiga ortish; tushirishda shu operatsiyalarning aksi bajariladi. Qo'shimcha operatsiyalarga quyidagilar kiradi: yuklarni taraga joylash va zaruriyatga ko'ra markirovkalash; tarozidan o'tkazish (hajmini o'lchash); hujjatlarni tayyorlash; yuklarni bog'lab mahkamlash yoki bog'lovdan bo'shatish, ustini brezent bilan yopish va boshqalar.

Amaliyotda avtomobillarni ortish-tushirish operatsiyalarida bekor turish vaqti ularning liniya (ish)da bo'lish vaqtlarining uchdan biriga to'g'ri keladi. Avtomobil transporti uchun xarakterli bo'lgan qisqa



masofalarga yuk tashishda ba'zi yuklar uchun avtomobillarning ortish-tushirish operatsiyalarida bo'lish vaqti ulushi 50 va undan ham ortiq foizlarni tashkil etadi.

Shularga ko'ra, transport vositalaridan foydalanish samaradorligi o'zgarib turadi. Ortish-tushirish ishlarini to'g'ri tashkil etish va ularni zaruriyatga ko'ra mexanizatsiyalash avtomobillarning bo'sh turish vaqtlarini hamda tashish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Avtomobillarda yuk tashishni tashkil etish amaliyotida yuk ortish-tushirish joylarida avtomobillarning barcha bekor turish (sababidan qat'i nazar) vaqtlari ortish-tushirish vaqtiga kiritiladi.

Ortish-tushirish vaqti quyidagi elementlardan iborat: kutib qolish vaqti; avtomobilning manyovr qilishiga sarflangan vaqt; ortish-tushirishning o'ziga sarflangan vaqt; hujjatlarni rasmiylashtirishga sarflangan vaqt.

Mexanizatsiyalashtirilmagan ortish-tushirish ishlarida barcha operatsiyalar ishchilarning qo'l mehnati bilan bajariladi. Mexanizatsiyalashtirilgan ortish-tushirish ishlarida esa barcha operatsiyalar turli mashina va mexanizmlar yordamida bajariladi. Mexanizatsiyalashtirilgan ortish-tushirish usulini qo'llash transport vositalarining ayni operatsiyalarni bajarishda bekor turib qolishini kamaytiribgina qolmay, og'ir va sermehnat operatsiyalarni bajarishni yengillashtiradi. Yuk ortish-tushirish ishlarini bajarishda 16 yoshdan kichik bo'lgan shaxslarni ishlatish qat'iy man etiladi.

Avtomobillarda yuk tashishni tashkil etish va tezkor rejalashtirishda, ekspluatatsion hisoblarni bajarishda hamda avtotransport korxonasi yuk egalari bilan shartnomalar tuzishda avtomobil (avtopoezdlar) ning ortish va tushirish punktlarida turish vaqti muayyan me'yor darajasida bo'lishiga erishish lozim. Ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatadiki, ortish-tushirish ishlarini bajarishda avtomobillarning ayni operatsiyalarda bekor turish vaqtlari mexanizatsiyalashtirilgan yoki mexanizatsiyalashtirilmagan usullar uchun defferentsiallangan bo'lishi lozim.

Avtomobillarga yuk ortish-tushirish vaqt me'yorlari 1-klassli yuklar uchun qabul qilingan (3.1 va 3.2-jadvallar).

**Mexanizatsiyalashgan usulda avtomobillarga yuk ortish-tushirishda vaqt me'yorlai (minutlarda)**

Avtomobilning yuk ko'taruvchanligi	Yuk ortish		Yuk tushirish	
	Donabay yuklar uchun (har bir donasi uchun)	Uyumli yuklar uchun	Donabay yuklar uchun (har bir donasi uchun)	Uyumli yuklar uchun
1,5 t gacha	9	4	9	4
1,5 t dan 2,5 t gacha	10	5	10	5
2,5 t dan 4 t gacha	12	6	12	6
4 t dan 7 t gacha	15	7	15	7
7 t dan 10 t gacha	20	8	20	8
10 t dan 15 t gacha	25	10	25	10
15 t dan 20 t gacha	30	15	30	15

**Mexanizatsiyalashmagan usulda avtomobillarga yuk ortish-tushirishda vaqt me'yorlai (minutlarda)**

Avtomobilning yuk ko'taruvchanligi	Yuk ortish		Yuk tushirish	
	Donabay yuklar uchun (har bir donasi uchun)	Uyumli yuklar uchun	Donabay yuklar uchun (har bir donasi uchun)	Uyumli yuklar uchun
1,5 t gacha	19	14	13	8
1,5 t dan 2,5 t gacha	20	15	15	10
2,5 t dan 4 t gacha	24	18	18	12
4 t dan 7 t gacha	29	21	22	14
7 t dan 10 t gacha	37	25	28	16
10 t dan 15 t gacha	45	30	31	19
15 t dan 20 t gacha	52	37	40	25

2, 3 va 4-klassli yuklarni avtomobillarga ortish-tushirish vaqt me'yorlari 1-klassdagi yuklarni ortish-tushirish vaqt me'yorlariga nisbatan to'g'rilash koeffitsientlari orqali aniqlanadi:

- 2-klassdagi yuklar uchun – 1,25
- 3-klassdagi yuklar uchun – 1,66
- 4-klassdagi yuklar uchun – 2,00.

3.1. va 3.2 jadvallarda keltirilgan vaqt me'yorlari quyidagi hollarda oshiriladi:

a) agar yuk furgon tipidagi avtomobillarga ortilganda yoki tushirilganda vaqt me'yori 10 foizga oshiriladi;

b) ortish-tushirish ishlarini bajarish alohida e'tibor talab etadigan oziq-ovqat va sanoat tovarlari (oyna, chinni buyumlar, shisha idishdagi turli xil suyuqliklar, musiqa asbob-uskunalari, televizorlar, radiotovarlar, jihozlar, mebel), shuningdek, uyum holida yoki mayda o'lchamli qadoqlangan va qayta sanashni talab qiladigan (belyo, oyoq kiyimi, bosh kiyimi, attorlik buyumlari, kiyim-bosh, trikotaj, turli xil matolar, kitoblar, bolalar o'yinchoqlari, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut mahsulotlari) yuklarni ortish-tushirishda vaqt me'yori 25 foizga oshiriladi.

### **3.4. Tovar-transport hujjati, uning vazifalari va uni rasmiylashtirish tartibi**

Tovar-transport hujjatlari – yuridik hujjatlar turkumiga kirib, ular asosida:

1) yukni qabul qilish, berish, tashish va topshirish;

2) bajarilgan avtotransport ishlari va xizmatlari bo'yicha xo'jalik operatsiyalari rasmiylashtiriladi va ular hisobi yuritiladi, shuningdek, avtotransport ishlari va xizmatlari uchun hisob-kitob qilishda tasdiqlovchi birlamchi hisobga olish hujjati bo'lib xizmat qiladi.

Tovar-transport nakladnoyi – transport jarayonining barcha qatnashchilari uchun yagona bo'lgan birlamchi hujjat shakli, u tovar-transport boyliklarining yo'lda umumtransport ahamiyatiga ega bo'lgan avtomobillarga qayta joylashtirishdagi harakatini hisobga olish uchun mo'ljallangan. Tovar-transport nakladnoyi tovar-transport hujjatlarining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tovar-transport nakladnoylari va yo'l varaqalari blankalari qat'iy hisob beriladigan hujjatlar hisoblanadi va yuk tashiydigan avtotransport vositalarining ishini tavsiflaydi.

Blankalar tashuvchilarning ularga bo'lgan ehtiyojini qondiradigan miqdordagi buyurtmalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bosmaxonalari tayyorlanadi.

Tovar-transport nakladnoylari va yo'l varaqalari blankalari hisobga olish seriyasiga va tartib raqamiga ega bo'lishi kerak.

Tovar-transport nakladnoylari va yo'l varaqalari blankalari tashuvchining omborlarida boshqa qat'iy hisobot beriladigan blankalar bilan birgalikda saqlanadi va zaruriyatga ko'ra buxgalteriya tomonidan avtotransport vositasidan foydalanilishi uchun mas'ul bo'lgan shaxsga (garaj mudiri, foydalanish bo'limi boshlig'i, dispetcherga) tilxat ostida beriladi.

Tashuvchilar tovar-transport nakladnoylari va yo'l varaqalari blankalaridan foydalanilishi ustidan nazorat qilishlari va qat'iy hisobot beriladigan blankalardan foydalanishni hisobga olish tartibi to'g'risidagi amaldagi yo'riqnomalarga muvofiq ularning hisobini yuritishlari kerak.

Shahar va shahar atrofida tashish bilan shug'ullanadigan tashuvchilar hamda o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun yuk tashiydigan tashuvchilar tovar-transport nakladnoylari va yo'l varaqalarini №1-t namunaviy shaklga binoan rasmiylashtiradilar.

Yuklarni shaharlararo tashish №2-tm namunaviy shaklga binoan, xalqaro tashish esa SMR namunaviy shakliga binoan rasmiylashtirilgan tovar-transport nakladnoylari mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Yukni avtomobil transportida tashish uchun tovar-transport nakladnoyi belgilangan tartibda yuk jo'natuvchi tomonidan har bir safar uchun alohida to'rt nusxadan har bir yuk oluvchining nomiga tuziladi, ulardan:

- birinchi nusxasi yuk jo'natuvchida qoladi va tovar-moddiy boyliklarni hisobdan chiqarishga mo'ljallanadi;

- ikkinchi nusxasi tovar moddiy boyliklarning yuk oluvchida kirim qilishga mo'ljallangan va haydovchi tomonidan yuk oluvchiga topshiriladi;

- yuk oluvchining imzolari va muhrlari (shtamplari) bilan tasdiqlangan uchinchi va to'rtinchi nusxalari tashuvchiga topshiriladi. Uchinchi nusxasi to'lovchi-avtotransport buyurtmachisi bilan hisob-kitob qilish uchun asos bo'lib hisoblanadi va tashish uchun schyotga ilova qilinadi. To'rtinchi nusxasi transport ishini hisobga olish, haydovchiga ish haqi yozish uchun asos bo'lib hisoblanadi va yo'l varaqasiga ilova qilinadi.

Tovar xususiyatiga ega bo'lmagan, ya'ni tovar-moddiy boyliklarning omborxonasi hisobi yuritilmaydigan, biroq o'lchash va tarozida tortish yo'li bilan hisobga olinadigan yuklar bo'yicha tovar-transport nakladnoyi uch nusxada yoziladi:

- birinchi nusxasi schyotga ilova qilinadi va tashuvchining yuk jo'natuvchi bilan hisob-kitob qilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi;
- ikkinchi nusxasi transport ishlarini hisobga olish uchun asos bo'lib hisoblanadi va yo'l varaqasiga ilova qilinadi;
- uchinchi nusxasi yuk jo'natuvchida qoladi va bajariladigan tashish hajmlarini hisobga olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bir xildagi yuklar aynan bitta yuk jo'natuvchidan aynan bir yuk oluvchiga aynan bir xil masofada (yukning saqlanishi ta'minlanishi sharti bilan) tashilgan taqdirda avtomobil tomonidan bir smena mobaynida bajariladigan butun ish bitta tovar-transport nakladnoyi bilan rasmiylashtirilishi mumkin.

Avtomobil transportida yuklarni naqd hisob-kitob qilish evaziga tashish yo'l varaqasi bo'yicha amalga oshiriladi, unga transport xizmatlariga haq to'langanligi to'g'risidagi kvitansiya (kirim orderi) ilova qilinadi.

Yuk avtotransporti tomonidan bajariladigan yuk tashishlarning barcha turlarida (uning ishi uchun haq to'lash shartlaridan qat'i nazar) yuk jo'natuvchining tovar-transport nakladnoyi rasmiylashtirilmagan yuklarni taqdim etishi, tashuvchilarning esa uni tashish uchun qabul qilib olishi taqiqlanadi.

Yuklarni avtomobil transportida tashish uchun tovar-transport nakladnoyi yuk jo'natuvchi tomonidan, avtotransport ishini to'liq va to'g'ri hisob-kitob qilish uchun zarur bo'lgan barcha rekvizitlar to'ldirilgan holda, avtomobilning har bir qatnashiga har bir yuk oluvchi uchun alohida tuziladi.

№ 1-t va № 2-tm shakllaridagi tovar-transport nakladnoyining «Yuk to'g'risidagi ma'lumotlar» bo'limida qatorlar yetarli bo'lmagan taqdirda berilayotgan tovar-moddiy boyliklarning katta miqdordagi nomlari va tavsiflarini to'ldirish uchun tovar-transport nakladnoyiga qo'shimcha ravishda birlamchi hisobga olish hujjatlari (schyot-faktura, tovar nakladnoyi yoki boshqa shakllar) ilova qilinadi.

Bunday hollarda tovar-transport nakladnoyining ushbu bo'limida ilova qilinadigan hujjatlarning nomi, tartib raqami va sanasi ko'rsatiladi, ularsiz tovar-transport nakladnoy haqiqiy hisoblanmaydi.

Yo'l varaqalari to'rt turga bo'linadi, ulardan:

a) 4-s namunaviy shakl (ishbay) – yuklarni tashish haydovchi ishiga yuklarni avtomobil transportida tashish shartnomaviy taraflarining ishbay narxlari bo'yicha haq to'lash shartlariga binoan amalga oshirilganda qo'llaniladi;

b) 4-p namunaviy shakl (soatbay) – yuklarni avtomobilda tashish avtomobil ishiga soatbay shartnomaviy tariflar bo'yicha haq to'lash shartlariga binoan bajarilganda qo'llaniladi;

v) 4-m shakl (shaharlararo) – yuklarni shaharlararo tashish yuklarni avtomobilda shaharlararo tashishni tashkil etish to'g'risidagi qoidalar bo'yicha yuk avtomobilida bajarilganda qo'llaniladi.

Ushbu shakldagi yo'l varaqasining old tomonida qizil rangda bosmaxona usulida «shaharlararo tashishlar» yozuvi qayd etiladi;

g) 1-shakl (xalqaro) – yuklarni xalqaro qatnovda tashish ishlari yuk avtomobillarida bajarilganda qo'llaniladi.

Yo'l varaqalari haydovchiga u oldingi ish kunining yo'l varaqasini topshirgandan so'ng vakolatli shaxs tomonidan tilxat ostida beriladi.

Shaharlararo va xalqaro tashishlarda tashish haydovchi tomonidan bir sutkadan ortiq muddat davomida bajarilgan taqdirda 4-m va 1-shakllardagi yo'l varaqalari bundan uzoqroq muddatga ham beriladi. Beriladigan yo'l varaqasida avtomobil tegishli bo'lgan tashkilotning shtampi va muhri bo'lishi shart.

Tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'iy nazar tashuvchilarning yuk avtomobillarini tasdiqlangan shakldagi yo'l varaqasiz liniyaga chiqishlari qat'iy taqiqlanadi.

Tovar-transport nakladnoyi va yo'l varaqalari rasmiylashtirilishi uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar ushbu hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchiligi uchun shaxsan javob beradilar va blankalar sarfi to'g'risidagi oylik hisobotni buxgalteriyaga topshiradilar.

Tovar-transport nakladnoyi va yo'l varaqalarida tuzatishlar qilinishiga va o'chirib-yozishlarga yo'l qo'yilmaydi.

Ma'lumotlar buzilishi natijasida korxonaga zarar yetkazilishida aybdor bo'lgan xodimlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

№ 1-t shakldagi tovar-transport nakladnoyi yuk jo'natuvchida:

– yukni berish uchun mas'ul bo'lgan shaxs (sotish bo'limining xodimi, ta'minot bo'limining xodimi);

– tovarlarni berayotgan moddiy javobgar shaxs (ombor mudiri, omborchi);

– narxlar va tovar-transport nakladnoyi tovar bo'limining boshqa moliyaviy ma'lumotlari to'g'riligi uchun javob beradigan xodim tomonidan to'ldiriladi.

Yuk yuk oluvchiga yetkazib berilgandan keyin haydovchi-ekspektor uch nusxadagi tovar-transport nakladnoyini yuk qabul qilib olinishi uchun mas'ul bo'lgan yuk oluvchi tashkilotning vakiliga topshiradi, u nusxa ko'paytiradigan qog'oz qo'ygan holda tovar-transport nakladnoyi transport bo'limining tegishli rekvizitlarini to'rtinchi, uchunchi, ikkinchi nusxalar izchilligida to'ldirishi shart.

Tovar-transport nakladnoyining yuk jo'natuvchi va yuk oluchining imzolari va muhrlari bilan tasdiqlangan uchunchi va to'rtinchi nusxalari yo'l varaqasi bilan birgalikda tashuvchining dispetcheriga topshiriladi.

Yuklar shaharlararo tashilganda yuk jo'natuvchi 2-tm shakldagi tovar-transport nakladnoyini besh nusxada to'ldiradi, bunda rekvizitlarning sarlavha qismi va 4-m shakldagi yo'l varaqasi buyurtma yoki yukni tashishga bir martalik talabnoma asosida to'ldiriladi.

Tovar-transport nakladnoyini bundan keyin to'ldirish 1-t shakldagi tovar-transport nakladnoyini to'ldirish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tovar-transport nakladnoylari va yo'l varaqalarini qayta ishlash quyidagi ikki usulda amalga oshiriladi:

– kompyuter qo'llanilgan holda avtomatlashtirilgan usul;

– qo'lda.

Haydovchiga ish haqi yo'l varaqasiga ilova qilingan barcha tovar-transport nakladnoylarining «Taksirovka»sida aks ettirilgan ma'lumotlar asosida ko'rsatiladi.

### **3.5. Shaharlararo markazlashgan yuk tashish**

Shaharlararo tashishlar jumlasiga shahar yoki shahar posyolkasi chegaralari doirasidan ellik kilometrdan oshiq masofada amalga

oshiriladigan tashishlar, shuningdek, yo'nalish masofasidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasining ikki yoki undan ortiq viloyati hududida amalga oshiriladigan tashishlar kiradi (O'zbekiston Respublikasining «Avtomobil transporti to'g'risida»gi Qonuni 7-moddasi).

Shaharlararo yuk tashishga qo'yiladigan asosiy talablar: tashish ishlarini tashkil etishning muntazam bo'lishi va yuklarni kichik partiyalab jo'natish imkoni mavjudligi.

Shaharlararo yuk tashishni amalga oshirishda yuk egalari, yukni jo'natuvchilar korxonasining majburiyatlari belgilab olinishi lozim.

Yuk egalari yuklarni tashish uchun qabul qilinishi va belgilangan muddatlarda to'la saqlangan holda yetkazib berilishini kafolatlashi lozim.

Shaharlararo yuk tashish jarayonida ishtirok etuvchilarning faoliyati markazlashtirilgan holda boshqariladi, bunda asosiy tayanch punkti bo'lib, yuk avtomobil bekatlari (YuAB) xizmat qiladi. YuAB yirik shaharlar va sanoat markazlarida, shaharlararo muntazam marshrut uzellari, temiryo'l stansiyalari, dengiz va daryo bekat hamda portlari oldida joylashadi.

YuABning asosiy vazifasi yuklarni shaharlararo muntazam tashishni tashkil qilish; konteynerlarda kam miqdorli yuklarni yetkazib berish va jo'natish; transport ekspeditsion va ombor ishlarini bajarish; o'z omborlarida ortish-tushirish ishlarini bajarish; temiryo'llarda qisqa masofalarga tashiladigan yuklarni avtomobil transporti zimmasiga o'tkazish; yuk egalari bilan yuklarni qabul qilib olish va ularni yo'nalishlariga moslab yiriklab qayta to'plash; yuklarni egalari yetkazib berish; harakatdagi tarkiblarni o'z maydonchalarida qisqa vaqt davomida yuk bilan birga saqlash; kuzovlarni yuvish va tozalash; konteyner va yarim tirkamalarni joriy tuzatish; shaharlararo qatnaydigan haydovchilarning hordiq chiqarishini ta'minlash; harakatdagi tarkibning harakat jadvalini nazorat qilish; tashilgan yuk uchun jo'natuvchilar bilan hisob-kitob qilish va hokazo.

YuAB tashiladigan yuklarni shartnomalar va buyurtmalar asosida qabul qiladi. Kam miqdorli yuklar yig'ilib, YuAB omborxonalariga keltiriladi va yo'nalishlar bo'yicha harakatdagi tarkiblar bo'lmaydi. Kam miqdorli yuklarni yig'ib keltirish va egalari topshirish, shu-



ningdek, shaharlararo yuk tashish ishlarini bajarish uchun YuAB buyurtmasiga muvofiq umum foydalaniladigan avtomobil transporti korxonasidan harakatdagi tarkiblar beriladi.

YuAB ixtiyorida harakatdagi tarkiblar ishini nazorat qilib turish va uning muntazam ishlashini ta'minlash uchun telefon, teletayp yoki radioaloqa vositalari bo'lishi kerak.

YuABni tashkil qilish – ko'p yuk ko'taradigan harakatdagi tarkiblardan foydalanish, ishning ilg'or shakllarini qo'llagan holda ulardan umumli foydalanish imkoniyatini beradi.

Yuk egasi va YuAB o'rtasidagi munosabat muntazam amalga oshirilganda shartnoma ko'rinishida, bir marta yuk tashish uchun buyurtma ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

Shartomaga binoan avtotransport korxonasi o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

- barcha yuk ortish punktlariga buyurtmada ko'rsatilgan muddatlarda zarur turdagi va miqdordagi transport vositalarini yuborish;

- yukni ortish uchun yuborilgan transport vositalari soz bo'lishi, tashilishi lozim bo'lgan yuk turiga mos bo'lishi va sanitariya talablariga javob berishi lozim;

- shartnoma yoki buyurtmada ko'rsatilgan yukni tashish jarayonida uning miqdori va sifati, saqlanishini ta'minlash;

- tashish uchun qabul qilingan yukni belgilangan punktga yetkazib berish va yukni qabul qilib olishga mas'ul bo'lgan tashkilot yoki shaxsga topshirish;

- yukni shartnomada yoki buyurtmada ko'rsatilgan grafik bo'yicha va belgilangan muddatlarda yetkazib berish.

Shartnomaga binoan buyurtmachilar yuk egalari va yukni qabul qiluvchilar quyidagi majburiyatlarni oladilar:

- transport vositasi yuk ortish punktiga yetib kelguniga qadar yukni tashishga tayyorlash – yukni taralarga joylashtirish va markalash, yuklarni yo'nalishlar va yukni qabul qiluvchilar bo'yicha guruhlarga ajratish, yukni tashish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni rasmiylashtirish;

- yuk ortishga qadar transport vositasini va konteynerlarni ushbu turdagi yukni tashishga yaroqliligini tekshirish;

– transport vositalariga yuk ortish va yukni tushirib olish o‘z kuch va vositalari yordamida amalga oshirish, bunda ortish-tushirish ishlarini imkoniyat qadar to‘la mexanizatsiyalashtirish lozim;

– ortish-tushirish punktlariga boriish uchun o‘tish yo‘laklariga, shuningdek, ixtiyoriy paytda ortish-tushirish ishlarini amalga oshirish uchun soz holdagi ortish-tushirish maydonlariga ega bo‘lishi, bu bo‘laklarda avtomobilni xavfsiz harakatlantirish, shuningdek, erkin manyovr qilish uchun shart-sharoit yaratish, ish o‘rinlari va ularga boriladigan yo‘laklar ko‘rish yomon bo‘lganda yoritish uchun zarur yoritish jihozlari bilan ta‘minlanishi lozim;

– mahsulot-transport hujjatlari va yo‘l varaqalari belgilangan tartibda va o‘z vaqtida rasmiylashtirilishini ta‘minlash, tushirish punktlariga yetib kelishini haqiqiy vaqti belgilanishi lozim;

– ortish va tushirish punktida haydovchilar va avtotransport xodimlari xizmat maqsadlarida foydalanishlari uchun telefon aloqasi bo‘lishi;

Yuk avtomobili bekatlari yukni yetkazib berish muddatiga qat‘iy rioya qilishi shart: 200 km gacha masofaga yuk tashilganda 2-sutkagacha, 200-400 km masofa uchun 3-sutkagacha, har bir to‘la va to‘la bo‘lmagan 25 km uchun bir sutka qo‘shib beriladi.

Avtotransport korxonasi yukni yuk qabul qiluvchilarga naryad-nakladnoyda ko‘rsatilgan punktda topshiradi. Yukni qabul qilinganligi mas‘ul shaxs va yuk qabul qiluvchi o‘zining adresiga kelgan yukni qabul qilishdan voz kechsa va bunda yuABning aybi bo‘lmasa, yukni jo‘natuvchi tashkilot yukni boshqa punktga belgilangan tartibda yetkazib berish bo‘yicha avtotransport korxonasiga ko‘rsatma beradi. Yukni jo‘natuvchi tashkilot tomonidan tegishli ko‘rsatma berilmasa, shuningdek, yukni yuk jo‘natuvchi tashkilot ko‘rsatmasida qayd etilgan yangi tashkilotga yetkazib berish imkoni bo‘lmasa ogohlantirilgandan so‘ng yuk yuk jo‘natuvchi tashkilotga qaytariladi. Bunday hollarda tez buziladigan yuklarni ishlatish uchun boshqa tashkilotga topshirilishi mumkin. Yukni yangi manzilga yetkazib berilishi va ishltilishi (tashish, transport vositasining bekor turishi, yukni saqlash) bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlarni yuk jo‘natuvchi tashkilot to‘laydi.

Konteyner va furgonlarda tashiladigan yuklar yuk jo‘natuvchining tamg‘asi ostida qabul qilinadi va topshiriladi. Bunda YuAB va

avtotransport korxonasi yukning miqdori va sifati saqlanishiga faqat tamg'a buzilgandagina javobgardir. Tamg'a buzilgan har bir hol uchun tijorat dalolatnomasi tuziladi.

### **3.6. Qishloq xo'jalik mahsulotlari tashishning o'ziga xos xususiyatlari**

Qishloq xo'jaligidagi tashish ishlariga quyidagilar kiradi: ekin maydonlarida yetkazilgan hosilni tashib chiqish, ekin maydoniga ekish materiallari mineral o'g'itlarni olib borish, qishloq xo'jalik texnikasi uchun yonilg'i yetkazib berish, qishloqqa qurilish materiallarini yetkazib berish, isitish tarmoqlari uchun yoqilg'i va keng iste'moldagi sanoat mollarini yetkazib berish, shuningdek, xo'jalik ichidagi tashish ishlarini bajarish.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi yuklarini avtomobil transportida tashish umumiy tashish ishlarida salmoqli o'ringa ega, bunga asosiy sabab, respublikamizda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yil sayin ortib borayotganligidir.

Qishloq xo'jaligi yuklarini tashish o'zining ommaviyligi, mavsumiyliги, yukni bir yo'nalishda tashilish va yuk hosil qiluvchi punktlarning o'zgarib turishi va iste'mol punktlarining doimiyliги bilan xarakterlanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashishda kuzovi yuklarni tarasiz tashishga moslangan avtomobillardan foydalaniladi. Tashish asosan tuproqli va vaqtinchalik tashkil etilgan yo'llar orqali amalga oshiriladi.

Yonilg'i, o'g'it, urug' va turli materiallarni ekin ekish mavsumi davrida tashish o'zining mavsumiyliги va yuk oqimining bir yo'nalishda bo'lishi, bunda yuk hosil qiluvchi punktlarning doimiyliги va iste'mol punktlarining o'zgarib turishi bilan xarakterlanadi. Avtomobillar harakatdagi tarkibdan foydalanish samaradorligini past bo'lishiga sabab bo'luvchi og'ir yo'l sharoitida ishlaydi.

Xizmat inshootlari va maishiy xizmat ko'rsatish binolari qurilishi uchun zarur bo'lgan qurilish materiallari qishloq xo'jaligi qurilish rejasida ko'rsatilgan miqdorda tashib keltiriladi. Qurilish materiallarini

qurilish ishlarini amalga oshirishga tayyorgarlik chog'ida va qurilish ishlari bevosita amalga oshirilayotgan paytda tashib keltirilishi lozim, odatda qurilish materiallarini tashib keltirilish ommaviy tarzda qishloq xo'jaligi ekinlarini yig'ishtirib olish mavsumiga to'g'ri kelmasligi lozim.

Avtomobil transporti qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlov punktlariga yetkazib beradi, tayyorlov punktidagi yuklarni esa qayta ishlash zavodlari – elevatorlarga, paxta tozalash, qand zavodlariga, temiryo'l stansiyalariga va pristanlarga yetkazib beradi. Mahsulotlarni tashishni tashkil etishda har bir hudud o'ziga xoslikka ega bo'ladi.

Yuk tashish rejasini tuzishda quyidagi mezonlar e'tiborga olinadi: ish olib boriladigan hududni belgilashda hosil yig'ishtirilib olinadigan maydon o'lchami, yuk hosil qiluvchi va iste'mol punktlarining joylashgan o'rni, yuk tashish yo'nalishi va yo'l tarmog'ining xarakteri aniqlanadi; yuk hosil qiluvchi punktlar guruhi yoki alohida punktlarning yuk aylanmasini belgilash; ish davrlari bo'yicha yuk oqimi sxemasini (bunda yuk tashishning nisbatan tig'iz bo'lgan davrlaridagi yuk oqimlari alohida ajratib ko'rsatiladi) ishlab chiqish. Yuk oqimi loyihasini bosqichma-bosqich ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Qishloq xo'jaligi yuklarini juda qisqa muddatlarda tashib olish zarurligini nazarda tutib, yuk ortish va yuk tushirish ishlarini mumkin qadar ko'proq mexanizatsiyalashtirish kerak. Buning uchun lavlagi yuklagich, ag'dargich avtomobil, mashina belkurak, don yuklagichlar, transporter, elevator va hokazolardan foydalanish zarur.

### **3.7. Oziq-ovqat va savdo yuklarini tashishning xususiyatlari**

Avtomobil transporti o'zning yuqori manyovrchanlikka egaligi tufayli iste'mochilarga mahsulotlarni qisqa vaqtlarda yetkazib berish bilan birga aholining ta'minot rejasini bajarishni va shuningdek, yuk aylanmasini tezlashtirishni ta'minlaydi.

Savdo tarmoqlariga va umumovqatlanish muassasalariga yuk tashish ikki turga bo'linadi: yuklarni ulgurji bazalarga tashish va yuklarni savdo rastalariga yoki umumovqatlanish muassasalariga tashish.

Ulgurji bazalar yuk hosil qiluvchi va yukni iste'mol qiluvchi punktlar bo'lib, yuklarni yetkazib berishni ta'minlash omborxonalaridagi mahsulotlarning doimiy zaxirasiga, shuningdek, ularni olib kelish va tarqatish bir maromda bo'lishiga bog'liq. Yuk aylanmasi strukturasidek tashishning mavsumiyligiga bog'liq.

Ulgurji savdo bazalarini mahsulotlar bilan ta'minlashda yuk tashish yukni iste'mol qiluvchi punktlarning doimiylikiga yuk hosil qiluvchi punktlarning o'zgarib turishi, yuk oqimining bir tekis emasligiga (ko'pchilik hollarda bir tomonlamaligini), harakatdagi tarkiblarni ishlatish paytida ularning yuk ko'taruvchanligidan foydalanish samaradorligi bir xil emasligi, sutka davomida uzluksiz ishlash ehtimoli borligi bilan xarakterlanadi.

Savdo tarmoqlariga va umuovqatlanish muassasalariga mahsulotlarni tarqatish esa tarqatilishi lozim bo'lgan yuklar kichik partiyali yoki yig'ma yuklardan iboratligi, harakat marshrutining o'zgarib turishi, harakatdagi tarkib ish rejimining doimiy emasligi va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari nisbatan past bo'lishi bilan farqlanadi.

Savdo tarmog'i yuk aylanmasi ikki turdagi yuklardan iborat bo'ladi: oziq-ovqat (60% atrofida) va keng iste'molda sanoat mollari (40% atrofida). Bu har ikki yuk guruhi o'z ichida katta miqdordagi va turli tuman nomdagi mahsulotlarni oladi.

Oziq-ovqatlarni tashishning yuk aylanmasi o'z ichiga quyidagilarni oladi: ommaviy yuklarni kichik va katta partiyalab tashishni tashkil etish, yuklarni zudlik bilan belgilangan muddatlarda yetkazib berish, yuk sifatini saqlash, savdo rastalarini hudud bo'ylab tarqoq joylashganligi.

Turli nomdagi yuklardan iborat kichik partiyali yuklarni tashish bu kichik do'konlar va ko'chalarda joylashgan kichik savdo shoxobchalari uchun xosdir; katta partiyali yuklarni (ko'pchilik hollarda bir nomdagi) tashish o'zining omborxonalariga ega bo'lgan yirik do'konlar uchun xosdir.

Yukni isrof bo'lishini oldini olish yukning fizikaviy xossalariga, is-siqlik ta'siriga va boshqa turli xil shartlarga bog'liq, ammo yuk tashishda maxsus kuzovli avtomobillardan foydalanish nisbatan samaralidir.

Harakatdagi tarkibning ish hajmini hisoblashda tashishning qayta amalga oshirilishi va yuk oqimining yo'nalishdoshligini e'tiborga olish lozim:

–mahsulotning sifati va tashqi ko‘rinishini yaxshi holda saqlash. Shunga ko‘ra, odatda, ba’zi bir yuklarni tashishda maxsus jihozlar (shamollatish, sovutish, isitish va boshqalar) o‘rnatilgan yopiq kuzovli avtomobillardan foydalaniladi;

–avtomobilning yuk ko‘taruvchanligidan imkoniyat qadar yaxshiroq foydalanish. Kuzov hajmi kattalashtirilgan bo‘lishi kerak;

–bir qator yuklarni ortish va tushirishni mexanizatsiyalashtirishga imkoniyat borligi;

–yuklarni muhrlangan holda va zarur bo‘lganda alohida seksiyalarda tashishga imkoniyat mavjudligi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini tashish, ortish va tushirish ishlari bilan shug‘ullanuvchi shaxslar xalat kiyib ishlashlari lozim.

### **3.8. Tashilayotgan yukka zarar yetkazilgandagi javobgarlik, zararni qoplash tartibi va miqdori**

Tashilayotgan yukka zarar yetkazilgandagi javobgarlik, zararni qoplash tartibi va miqdori O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 1993-yil 3-iyundagi 17-sonli «Mahsulotlar, tovarlar yetkazib berishda kamomad chiqishi bilan bog‘liq nizolarni hal etish amaliyoti to‘g‘risida»gi qarori (Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2007-yil 28-dekabrda 176-sonli qarori asosida kiritilgan o‘zgartirishlar bilan) asosida belgilanadi.

Tashish va yuklarni o‘z vaqtida yetkazib berish mijozlarni yuklarni jo‘natishga va qabul qilishga bo‘lgan talablarni o‘z vaqtida bajarilishi bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, sabzavot mahsulotlarini qishloq xo‘jaligida ular saqlash joylariga va boshqa joylarga tashish yil faslining aniq vaqtida bajariladi. Bunday shartni bajarmaslik ularning buzilishiga, tashishni maqsadsizlikka olib keladi. Tashishni o‘z vaqtida bajarish shartnomada yoki rejada belgilanadi.

Tashishni o‘z vaqtida bajarish yuklar xarakteri bilan bog‘liq bo‘lib, u amalda yukni jo‘natish joyidan yetkazib berish joyiga sarflangan amaldagi vaqti bilan aniqlanadi. Bu vaqtda jo‘natish joyidagi ortishni kutish, ya‘ni yuk qabul qilingandan jo‘natishgacha bo‘lgan vaqt va tushiriluvchi joydagi yuk egasiga topshirishga bo‘lgan kutish vaqtlari ham qo‘shiladi.

Yuklarni o'z vaqtida tashish va ularni o'z manziliga yetkazib berish transport ishi tashkilotchisi va mijozlar ish rejimlari to'la muvofiqlashtirish asosida bajariladi.

Yuklarni manzillariga o'z vaqtida yetkazib berish avtotransportni ekspluatatsiya qilish nihoyatda zarur omil hisoblaniladi. Ayni vaqtni kamaytirish yuk egalari va boshqa mijozni uni qabul qilib olish operatsiyalari hamda ortish-tushirish ishlarini ratsional tashkil etish va TV harakat tezliklari bilan to'la bog'liqdir. Yuklarni manzillariga o'z vaqtida yetkazib berishga transport tashkilotlari bilan birga mijozlar bir xilda aloqadordirlar. Yetkazib berish vaqtlarini tejash uchun moddiy rag'batlantirish lozim.

Yuk ular egalarga buzilmasdan, zahmat yetkazmay va miqdoran kamaytirilmasdan yetkazilishi lozim. Avtotransport korxonalari tashish jarayonida yuklarni to'la-to'kis va sifatini pasaytirmay tashib berishga to'la javob beradilar. Mabodo, yuklar qisman yoki to'la miqdorda yo'qotilsa hamda ularning sifati buzilsa, yukni egasiga topshirishda akt (dalolatnoma) tuziladi.

Avtotransport saroyi mijozga amaldagi kamomadga yoki sifati buzilganligiga jarima to'lashlari lozim. Bunday jarima miqdori tovar bahosining kamayishi yoki kamomadi miqdorida, ammo tovarning ko'rsatilgan narxidan baland bo'lmasligi kerak.

Tabiiy ofatlar yoki tashilayotgan yuk xususiyati bilan bog'liq yoki ularni ortish-tushirish shartlari mijozlar tomonidan rioya qilinmaslik natijalaridagi kamomad, sifati pasayishiga transport tashkiloti javobgar emas.

Yuklarni tashishda qisman buzilishidan saqlash, ba'zida esa to'la buzilishidan saqlash ularni transport vositasi kuzoviga to'g'ri joylashtirish bilan bog'liq bo'ladi.

Quyidagi tashishlarda yuklarni saqlab borishga avtotransport saroylari javob bermasliklari mumkin:

- tashiladigan yuklarni maxsus shaxslar qo'riqlab borishi lozim bo'lsa (qimmatbaho metall, tosh, zargarlik buyumlari va shu kabilar);
- tashiladigan yuklar yo'lda qarovni talab etsa (qora mollar, par-randalar);
- agar tashiladigan yuk nosoz taraga joylashgan bo'lsa;

– agar tashishning alohida sharoitlarini (xavfli yuklar, maxsus idishlarga joylanmagan oyna, shisha va chinni idishlar va shu kabilar) talab etsa yoki tez buziladigan yuk bo'lsa.

Mahsulotlar (tovarlar) kamomadi bo'yicha xo'jalik nizolarini hal etishda xo'jalik sudlari quyidagilarga amal qilishlari zarur:

Mahsulotlar, (tovarlar) yetkazib berishda kamomad chiqishi bilan bog'liq nizolarni hal etishda xo'jalik sudlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va mahsulotlar, tovarlar yetkazib berish hamda ularni qabul qilish qoidalarini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlarini qo'llashlari lozim.

Xo'jalik sudlarining e'tibori har bir ishni sud majlisiga puxta tayyorlash, kamomad paydo bo'lishining sabablari va joyini aniqlash uchun zarur bo'lgan hamma dalillarni taraflardan taqdim etilishini, sud majlisida nizolashayotgan taraflarning rahbarlarini yoki ular tomonidan vakil qilingan, mahsulotni yuklab jo'natish, transportda tashish va qabul qilib olish masalalaridan xabardor bo'lgan, mas'ul vakillarning ishtirokini ta'minlash lozimligiga qaratilishi lozim.

Zarur hollarda sudlar mahsulotlar, (tovarlar)ni yuklab jo'natish va qabul qilishda qatnashgan shaxslardan tushuntirishlar talab qilish yoki ularni xo'jalik sudi majlisiga chaqirish huquqiga ega. Bunday tushuntirishlar sudlar tomonidan ish bo'yicha boshqa dalillar bilan bir qatorda baholanishi zarur.

Ish bo'yicha mavjud dalillarga baho berishda quyidagilarga alohida e'tibor berilishi zarur:

a) jo'natuvchilar, mahsulot yetkazib beruvchilar tomonidan yuklarni tashish qoidalarida nazarda tutilgan yuklab jo'natilayotgan mahsulotlar, (tovarlar)ning butligini ta'minlovchi talablarga rioya qilinishi, transport hujjatlarida tovarning nuqsonlari haqidagi belgilar borligi, transport yuk xatlari va ilova qilingan hujjatlar, tafsilotli ro'yxatlar, fakturalar, yorliqlar va boshqalar, to'g'ri to'ldirilganligi hamda ularning standartlar, texnik shartlarga muvofiqligiga;

b) yukni transport organlariga topshirishda yukning og'irligi jo'natuvchi yetkazib beruvchi tomonidan aniqlanishi usuliga; yuk kimning tarozisi va tamg'asi, transport organi yoki jo'natuvchi bi-



lan jo'natilganligi hamda vagonlar, konteynerlar va boshqa tashish vositalari kimning tamg'asi bilan kelganligi, yuk qanday tashish vositalarida tamg'alangan yoki tamg'alanmaganligi tashilganligi hamda yukni jo'natuvchi yoki oluvchining kuzatuvchisi kuzatib kelgan-kelmaganligiga; transport hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilganligiga;

v) yukni yo'lda qayta yuklash yoki tushirib, boshqa transportga ortishda yuklarni tashish qoidalariga rioya qilinishi, yukning yo'lda bo'lish vaqti va uning kelish sanasi, yuk qachon va qaerda, transport vositasidanmi yoki transport organining omboridanmi oluvchiga berilganligi, transport organi tomonidan yukning og'irligi, o'rinlar soni tekshirib ko'rilib berilganligi yoki tekshirilmaganligiga. Zarurat bo'lganda tijorat dalolatnomasi tuzilgan-tuzilmaganligi, dalolatnomada barcha zarur ma'lumotlarning borligiga.

Agar yuk transport organi tomonidan og'irligi, o'rinlar soni tekshirilmasdan berilgan bo'lsa, unday holda yuk xatida tegishli transport ustavlari va kodekslarda nazarda tutilgan belgilar bor-yo'qligiga ishonch hosil qilish kerak.

Standartlar, texnik shartlar yoki boshqa majburiy qoidalar bilan mahsulotlar (tovarlar)ni miqdori bo'yicha qabul qilib olishning boshqa tartibi belgilanmagan bo'lsa, Ishlab chiqarish-texnika maqsadidagi mahsulotlarni va xalq iste'moli mollarni miqdori bo'yicha qabul qilib olish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma (P-6)da nazarda tutilgan qabul qilish tartibi qo'llaniladi.

Agar mahsulot tovarning ushbu turi uchun eslatib o'tilgan yo'riqnomadagidan boshqacha tartib belgilangan bo'lsa, oluvchilar mahsulotlar (tovarlar)ni miqdori bo'yicha qabul qilib olishni standartlar, texnik shartlar yoki tomonlar uchun majburiyat bo'lgan boshqa qoidalarga muvofiq amalga oshirishlari shart.

Tomonlar shartnomada mahsulotlar (tovarlar)ni yetkazib berishda ularning saqlanishini ta'minlashga qaratilgan miqdori bo'yicha qabul qilishning qo'shimcha shartlarini nazarda tutishlari mumkin. Bu shartlar bo'yicha kelishmovchiliklar umumiy asoslarda ko'rib chiqilishi lozim.

Standart og'irlikda o'ralgan yorma, un, qand-shakar va boshqa tovarlarni pirovard oluvchi yetarlicha asoslar mavjud bo'lgan taqdirda

yo'riqnoma (P-6)da belgilangan muddatlarda, o'rov markirovkasida ko'rsatilgan og'irlikning haqiqiy og'irlikka muvofiqligini tekshirib ko'rishga haqlidir. Bunday tekshirish faqat jo'natuvchi yetkazib beruvchi, tayyorlovchining vakili, sifat bo'yicha tegishli inspeksiya inspektori yoki tovar ekspertizasi byurosi eksperti, «O'zdavstandart» organining vakili ishtirokida amalga oshirilishi mumkin. Xaridorlar oluvchilarning standart og'irlik bilan o'ralgan yetishmovchi yorma, un, qand-shakar va boshqa tovarlar qiymatini undirish to'g'risidagi jo'natuvchilar yetkazib beruvchilarga nisbatan da'volari, bu da'volarni asoslash uchun oluvchining jamoat vakili yohud boshqa korxonaga, muassasa yoki tashkilotning vakili ishtirokida tuzilgan dalolatnoma taqdim etilganda, qondirilishi mumkin emas.

Jo'natuvchilar yetkazib beruvchilar kamomadda o'z ayblari yo'qligini asoslash uchun xo'jalik sudiga mahsulotlar (tovarlar)ni yuklab jo'natishda jamoat va boshqa tashkilotlarning vakillari ishtirokida tuzilgan nazorat yoki komission yuklab jo'natish dalolatnomalarini taqdim etgan hollarda sudlar nizolarni ko'rib chiqishda ularni ish bo'yicha taqdim etilgan boshqa dalillar bilan birgalikda baholashlari kerak.

Yuk xatida yuk transport organidan qanday holatda olinganligi to'g'risida belgi bo'lmagan hollar bilan bog'liq nizolarni hal etishda kamomad uchun javobgarlikni jo'natuvchi yetkazib beruvchiga yuklashga asos yo'q, chunki kamomad yukning tashish paytida talab darajasida saqlanmaganligi oqibatida yuz berishi mumkin. Oluvchi tomonidan shikastlanmagan tara ichida kamomad aniqlangan hollargina bundan mustasno bo'lishi mumkin.

Yukning kamomadi quyidagi hollarda tijorat dalolatnomalari bilan tasdiqlanishi mumkin:

a) transport organlari transportda amal qiluvchi qoidalarga muvofiq yukni oluvchiga og'irlikni, o'rinlar sonini va ularning holatini tekshirib bergan hollarda;

b) yukni berish vaqtida tijorat dalolatnomasi berish uchun asos bo'luvchi holatlar aniqlanganda.

Agar transport organi amaldagi qoidalarni buzgan holda yukning og'irligini, o'rinlar sonini va uning holatini tekshirmagan holda bersa yoki tijorat dalolatnomasini bermasa, yukni oluvchi bunday rad etish ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilishi, mahsulotlar

(tovarlar)ni qabul qilib olishni esa «Ishlab chiqarish-texnik maqsadlardagi mahsulotlarning va xalq iste'mol mollarining miqdori bo'yicha qabul qilish to'g'risida»gi yo'riqnomaga muvofiq amalga oshirishi lozim. Bunday holda oluvchi sudga transport organining noto'g'ri xatti-harakatini isbotlovchi dalillar va qayd etib o'tilgan yo'riqnomaga muvofiq tuzilgan miqdor bo'yicha qabul qilib olish dalolatnomasini taqdim etish kerak. Tijorat dalolatnomasi tuzilgan sana yuk berilgan sanaga muvofiq kelmagan hollarda, u haqiqatda berilgan sanani aniqlash uchun vagonlarni berish va tozalash vedomostlarini, qabul qilib oluvchi va topshiruvchining qaydnomasini, yukni tortish daftaridan ko'chirmani hamda boshqa boshlang'ich hujjatlarni so'rab olish kerak.

Tijorat dalolatnomalari va saqlanmagan yuk tashishlar to'g'risidagi dalolatnomalar kamomad uchun transport organiga ham, yukni jo'natuvchiga va yukni oluvchiga ham moddiy javobgarlik yuklash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tijorat dalolatnomasida yoki saqlanmagan yuk tashishlar to'g'risidagi dalolatnomada mahsulotlar tovarlar kamomadining miqdori aniq belgilangan hollarda, sudlar da'voni faqat yukni qabul qilib oluvchi tomonidan ishlab chiqarish-texnika maqsadlaridagi mahsulotlar va xalq iste'mol mollarining miqdori bo'yicha qabul qilib olish dalolatnomasi tuzilmaganligi sababligina rad etishga haqli emaslar.

Yuqorida aytib o'tilgan yo'riqnomada natijalari butun turkum partiyaga taalluqli bo'ladigan mahsulotlar tovarlarni oralatib qisman tekshirish shartnomada belgilab qo'yilishi mumkinligi nazarda tutilgan. Shartnoma tuzish paytida bunday tekshirishning xususiyatini belgilash to'g'risida paydo bo'ladigan nizolar xo'jalik sudlari tomonidan hal etilishi kerak.

Bu nizolarni hal etishda sudlar tekshirilishi kerak bo'lgan miqdorni shunday hajmda belgilashlari kerakki, toki u butun turkumdagi mahsulotlar (tovarlar) kamomadi to'g'risida asosli xulosa chiqarish imkonini bersin. Xaridor oluvchining olingan mahsulotlar (tovarlar) miqdorini oralatib qisman tekshirishni amalga oshirish huquqini shartnomada belgilash uchun yetarli asos mavjud bo'lmagan taqdirda shartnomaga bunday shartlarni kiritish haqidagi talabga rad javobi

berilishi kerak. Zarurat bo'lganda xo'jalik sudi vakolatli organlardan xulosa olishi mumkin.

Mahsulotlar, (tovarlar)ning miqdori bo'yicha qabul qilib olish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga muvofiq oluvchining moddiy javobgar va ularga bo'ysunuvchi shaxslari, shuningdek, moddiy boyliklarni hisobga olish, saqlash, qabul qilib olish va berish bilan bog'liq bo'lgan shaxslar oluvchi korxonaning jamoatchilik vakillari sifatida belgilanmasliklari kerak.

Qabul qilib olishda qatnashish uchun oluvchi korxonadan ajratilgan jamoat vakili moddiy javobgar shaxs yoki moddiy boyliklarni hisobga olish, saqlash yoki berish bilan bog'liq bo'lgan shaxs ekanligi yoki yo'qligi to'g'risida shubha paydo bo'lgan yoki kelishmovchiliklar yuz bergan taqdirda xo'jalik sudi bu vakilning lavozimi yo'riqnomalarini so'rab olishi va mana shu materiallarni hisobga olgan holda qaror qilishi kerak.

Oluvchi korxonaning jamoatchilik vakili yoki boshqa korxonaning vakili ushbu oluvchi korxonada mahsulotlar (tovarlar)ni qabul qilib olishda bir oyda ko'pi bilan ikki marta qatnashishi mumkin.

O'z nizomlariga muvofiq boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning faoliyati ustidan nazorat funksiyasini amalga oshirayotgan muassasa yoki tashkilotlar o'z xodimlarini o'z nazorati ostidagi xo'jalik organlariga kelayotgan mahsulotlar (tovarlar)ni miqdori bo'yicha qabul qilishda qatnashish uchun boshqa korxonalar, muassasa, tashkilotning vakillari sifatida ajratmasliklari kerak. Nazorat ostida bo'lgan xo'jalik organi ham o'zidan yuqori turuvchi muassasa, tashkilotda qabul qilib olishda qatnashish uchun o'z vakilini ajratish huquqiga ega emas.

«O'z davstandart»ning hududiy organlari va zimmalariga ayrim masalalar bo'yicha xo'jalik organlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish yuklatilgan boshqa organlar, shuningdek, bo'ysunuvchi tarmoq inspeksiyalari bundan mustasno bo'lishi mumkin.

Yuk tashishda tabiiy nobud bo'lishning belgilangan me'yorlari mahsulotlar (tovarlar)ni qabul qilib olishda mahsulotlar, (tovarlar) og'irligining haqiqatda kamomadi aniqlangan holdagina qo'llanilishi mumkin. Butun-butun o'rinlar kamomadini va ayrim shikastlangan o'rinlarda og'irlik kamomadini butun mahsulotlar (tovarlar)dan kelib

chiqib hisoblangan mahsulotlar, tovarlarning tabiiy nobud bo'lish me'yori hisobiga qoplashga yo'l qo'yilmaydi.

Jami mahsulotlar, tovarlar og'irligini tekshirishda tabiiy kamayish me'yori buzilgan o'rinlardagi mahsulotlar, tovarlar og'irligidan alohida hisoblab chiqish kerak. Tortishning aniqligi me'yori tabiiy kamayishni o'z ichiga olmaydi. U mahsulotlar, (tovarlar)ning ayrim turlari uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq qo'llanilishi kerak. Kamomad tortish aniqligi me'yoridan yuqori bo'lgan hollarda mahsulotlar, tovarlarning muayyan turi uchun tabiiy kamayish me'yori yo'q bo'lganda butun kamomad, undan ko'rsatilgan me'yor istisno qilinmasdan belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi kerak.

Agar mahsulotlar (tovarlar)ning ushbu turi uchun tabiiy kamayish me'yori belgilangan bo'lsa, unday holda tortish aniqligi me'yoridan yuqori bo'lgan kamomad aniqlanganda bu kamomaddan tabiiy kamayish me'yorini chiqarib tashlash kerak. Tabiiy kamayish me'yori chiqarib tashlangandan keyin tortish aniqligi me'yoridan yuqori bo'lmagan kamomad qolsa, u tortish aniqligi me'yori sifatida qaraladi. Agar kamomad tabiiy kamayish me'yori summasidan va tortish aniqligi me'yoridan yuqori bo'lsa, kamomaddan faqat tabiiy kamayish me'yori chiqarib tashlanadi.

Mahsulotlar (tovarlar)ni dastlabki jo'natuvchi tayyorlovchining tarasida yoki o'rash materialida qayta jo'natuvchi yetkazib beruvchilar ta'minot-sotish tashkilotlarining, ulgurji va ulgurji chakana savdo tashkilotlarining bazalari amaldagi qonunchilikka muvofiq mahsulotlar, tovarlarni qabul qilishni tara ichidagi joylarning soni bo'yicha amalga oshirishlari shart bo'lgan hollarda yetkazib beruvchi tomonidan qayta jo'natilgan mahsulotlar (tovarlar)ning tara ichki kamomadi bilan bog'liq bo'lgan oluvchi xaridorning tayyorlovchiga da'vosi uchun da'vo muddati qabul qilib olish dalolatnomasi yetkazib beruvchi tomonidan tuzilishi kerak bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi. Agar tara ichki kamomaddan kelib chiquvchi da'vo xaridor oluvchi tomonidan yetkazib beruvchiga nisbatan qo'zg'atilsa, da'vo muddati mahsulotlar (tovarlar) kamomadini belgilovchi dalolatnoma belgilangan tartibda xaridor (oluvchi) tomonidan tuzilgan yoki tuzilishi kerak bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi.

Mahsulotlar (tovarlar)ni tayyorlovchi hisoblanmagan yetkazib beruvchi u tomonidan tayyorlovchidan olingan mahsulotlar (tovarlar) miqdorni o'z omborida tekshirishga burchli bo'lmaganda, da'vo mud-dati xaridor (oluvchi) tomonidan tayyorlovchiga ham, yetkazib beru- vchiga ham da'vo qo'zg'atish uchun dalolatnoma tuzilgan kundan boshlab, agar u o'z vaqtida tuzilgan bo'lsa, yoki mana shunday dalo- latnoma tuzilishi kerak bo'lgan kundan boshlab hisoblanishi kerak.

Sudlar yuklab jo'natish, transportda tashish, qabul qilib olish qoidalarining buzilishini aniqlar ekanlar mahsulotlar (tovarlar) kamomadi hosil bo'lishiga olib kelgan sabablar va sharoitlarni puxta o'rganishlari, dalillarga baho berishga rasmiyatchilik bilan munosa- batda bo'lish hollariga yo'l qo'ymasliklari kerak. Ish materiallari mahsulotlar (tovarlar) kamomadi suiste'mollar, qo'pol ravishdagi sovuqqonlik yoki o'g'rilik natijasida hosil bo'lganligidan guvohlik bergan hollarda bunday ishlarning materiallari tergov organlariga yuborilishi kerak.

Tovar-moddiy boyliklar jo'natuvchiga yetkazib berildi, deb qayd qilingan hollarda, ularning kamomadi fakti aniqlangan, shuningdek, kamomadda jo'natuvchining aybi isbotlanmagan hollarda xo'jalik sudining qarorida tegishli jo'natuvchilar yoki oluvchilarning korxonalari, muassasalari va tashkilotlari ma'muriyatiga amaldagi qonunchilikka muvofiq yetkaziladigan zararining bunga aybdor shaxs- lardan undirib olinishi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish taklif qili- nishi mumkin.

Tashish shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarma- gan yoki tegishli darajada bajarmagan taqdirda, tomonlar qonun huj- jatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Tomonlarning qonunda belgilab qo'yilgan javobgarlikni cheklash yoki bartaraf etish haqidagi bitimi haqiqiy emas.

Agar tashuvchi yuk yoki bagajning yo'qolishi, kam chiqishi yoki shikastlanishida (buzilishida) o'zining aybi yo'qligini isbotlay olmasa, tashish uchun qabul qilib olgan yuk yoki bagaj yo'qolganligi, kam chiqqanligi yoki ularga shikast yetkazilganligi (buzilganligi) uchun javobgar bo'ladi.

Yuk yoki bagajni tashish vaqtida yetkazilgan zarar yo'qotilgan, kam chiqqan yoki shikastlangan (buzilgan) yuk yoki bagaj qiymati,

shuningdek, tashuvchi yo'qolgan, kam chiqqan yoki shikastlangan (buzilgan) yuk yoki bagajni eltib berish uchun mijozdan olgan kira haqi qiymati miqdorida, agar bu kira haqi yuk yoki bagajning bahosiga kirmasa, tashuvchi tomonidan qoplanadi.

Mijoz tashuvchidan yuk yo'qolgani, kam chiqqanligi yoki shikastlangani (buzilgani) tufayli yetkazilgan boshqa zararlar ham qoplanishini talab qilishga haqli.

Tashuvchi tashish shartnomasiga muvofiq yuk tashish uchun avtotransport vositasini bermaganligi yoki o'z vaqtida bermaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Agar avtotransport vositasini bermaganlik yoki o'z vaqtida bermaganlik yengib bo'lmas kuch, harbiy harakatlar, muayyan yo'nalishda yuk tashish to'xtatib yoki cheklab qo'yilganligi tufayli yuz bergan bo'lsa, tashuvchi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikdan ozod qilinadi.

Yuk tashish uchun tashish shartnomasiga muvofiq berilgan avtotransport vositasidan foydalanmaganlik uchun mijoz qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Agar bu yengib bo'lmas kuch, harbiy harakatlar, muayyan yo'nalishda yuk tashish to'xtatib yoki cheklab qo'yilganligi tufayli yuz bergan bo'lsa, mijoz qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikdan ozod qilinadi.

Yo'lovchilarni tashish uchun avtotransport vositasini jo'natish kechiktirilgan yoki u belgilangan manzilga kechikib kelgan taqdirda (shahar va shahar atrofida tashishlar bundan mustasno), tashuvchi, agar kechiktirish yoki kech yetib borish tashuvchiga bog'liq bo'lmagan holatlar tufayli yuz berganligini isbotlay olmasa, yo'lovchiga jarima tariqasida neustoyka to'laydi. Jarima miqdori va uni to'lash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yo'lovchiga jarima to'lash tashuvchini avtotransport vositasi kechiktirilishi yoki kech yetib borishi tufayli yo'lovchi ko'rgan zararni unga to'lashdan ozod etmaydi.

Avtotransport vositasi kechiktirilganligi sababli yo'lovchi unda jo'nashdan voz kechgan taqdirda, tashuvchi yo'lovchiga kira haqini va u qilgan boshqa xarajatlarni qaytarishi shart.

Tashuvchi tashish paytida yo'lovchining hayoti yoki sog'lig'iga shikast yetkazilganligi uchun, agar u shikast jabrlanuvchining qasdi yoki yengib bo'lmay kuch tufayli yuz berganligini isbotlay olmasa, javobgar bo'ladi.

Yo'lovchining hayoti yoki sog'lig'iga shikast yetkazilganligi uchun tashuvchining javobgarligi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Mijoz o'zining aybi bilan boshqa shaxslarga, tashuvchining va boshqa shaxslarning tashuvchi javobgar bo'lgan mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

Yuk jo'natuvchi transport hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar noto'g'riligi, noaniqligi yoki to'liq emasligi tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha zararlar uchun tashuvchi va uchinchi shaxs oldida javobgar bo'ladi.

### **3.9. Tabiiy xususiyatlariga ko'ra yuk vaznining kamayishi**

Yuk tashish jarayonida, ortish-tushirish ishlarini bajarishda va yukni omborxonalarda saqlashda yukning butligini saqlash bo'yicha barcha ehtiyotkorlik choralarini ko'rilishiga qaramay yukning bir qismi xususiyatlariga ko'ra kamayadi yoki yo'qoladi yuk vaznining tabiiy xususiyatlariga ko'ra yo'qotilishi (kamayishi) deganda yukni saqlash yoki tashishda javobgar bo'lgan kishilarga bog'liq bo'lmagan holda tabiiy ta'sirlar natijasida yukning dastlabki og'irligini o'z tabiiy xususiyatlariga ko'ra yo'qotilishi (kamayishi) tushuniladi. Tabiiy yo'qotish ko'rib kamayishi (uchuvchanlik, bug'lanish, shamollash), oqib (sirqib) chiqib ketish (sezish, erish), sochilish va ko'rinishlarda amalga oshadi.

Tashish jarayonida yuk vaznining tabiiy yo'qotilishi miqdoriga ob-havo va tashish fasli, yuk xususiyatlari, taraning sifati va holati, kuzovning holati va uni tashilayotgan yuk turiga mos kelishi, yo'lning holati, yuk tashish masofasi va harakat tezligi, yuk ortish-tushirish uslubini, yuk ortuvchilarning malakasi va shu kabi omillar ta'sir etadi.

Avtomobillarda yuk tashishda yukning tabiiy yo'qotilishining ruxsat etilgan miqdori yukning tabiiy yo'qotilishi me'yori asosida belgilab qo'yilgan. Yuk miqdorini belgilangan me'yoridan ortiq kamayib ketishi noqonuniy hisoblanadi va bunday holda albatta dalolatnom tuziladi.



Yukni talab darajasida saqlanmasligi, ortish-tushirish ishlarini yomon tashkil etilishi, yukka nisbatan ehtiyotsizlik qilish natijasida yuk miqdorining yo'qotilishi tabiiy yo'qotishlar jumlasiga kirmaydi. Yukni saqlash va tashish jarayoni talab darajasida bo'lmasligi yuk miqdorining kamayishi bilan birga uning sifatining yomonlashuviga olib keladi. Buning uchun aybdor shaxslar javobgardir.

Yo'qotishlar aniqlanib va ularning haqiqiy sabablari o'rganib chiqilgandan so'nggina yukning tabiiy yo'qotilishi me'yorlari qo'llaniladi. Zavod tomonidan maxsus idishlarga o'rab joylangan yuklar uchun tabiiy yo'qotish me'yorlari qo'llanilmaydi. Bunday yuklar yuk o'rni miqdori bo'yicha qabul qilinadi va topshiriladi (bunda yuk joylangan idishga o'ralgan g'ilof buzilmagan bo'lishi lozim).

Tabiiy yo'qotish tashilgan yukning har bir partiyasi uchun (tarali yuklar uchun esa har bir yuk o'rni uchun) hisoblanadi.

Yukni tabiiy yo'qotilishini me'yorlashtirish muhim ahamiyatga ega. Me'yor yo'qotilishi mumkin bo'lgan, ba'zan asrab qolinishi mumkin bo'lgan yuk miqdorini chegaraviy qiymatini belgilab beradi va ayni bir paytda yukning yo'qotilishiga qarshi kurash usuli hisoblanadi.

### Nazorat savollari

1. Yuk tashish shartnomasi deganda qanday hujjatni tushunasiz?
2. Yuk tashish shartnomasining mohiyati, shartnomani tuzish tartibi O'zbekiston Respublikasining qaysi normativ-huquqiy hujjatlarida izohlab berilgan?
3. Avtomobil transportida yuk tashishda qanday shartnomalardan foydalaniladi?
4. Avtomobil transportida yuk tashishni yillik shartnomasining tarkibida nimalar o'z aksini topgan?
5. Yuk tashish shartnomasini tasdiqlatish tartibini aytib bering.
6. Yuk tashish shartnomasining taraflari va ishtirokchilari.
7. Harakatlanuvchi tarkiblarga yukni ortish va tushirish vaqt me'yorlari.
8. Tovar-transport hujjati, uning vazifalari.
9. Tovar-transport nakladnoyi turlari va rasmiylashtirish tartibi.
- 10 Yo'l varaqalari turlari.
11. Shaharlararo markazlashgan yuk tashish.
12. Avtotransport korxonasining majburiyatlari.
13. Yuk egalari va yukni qabul qiluvchilarga qo'yilgan majburiyatlar.

14. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini tashishning o'ziga xos xususiyatlari.
15. Oziq-ovqat va savdo yuklarini tashishning xususiyatlari.
16. Tashilayotgan yukka zarar yetkazilgandagi javobgarlik, zararni qoplash tartibi va miqdori.
17. Tabiiy xususiyatlariga ko'ra yuk vaznining kamayishi.

## IV BOB.

# AVTOMOBIL TRANSPORTIDA YO'LOVCHI, YUK VA POCHTA TASHISH SHARTNOMASI

### 4.1. Yo'lovchi tashish shartnomasi tushunchasi

Avtomobil transportida yo'lovchilar va bagajni tashish «Avtomobil transporti to'g'risida», «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida», «Yo'llarda harakatlanish xavfsizligi to'g'risida», «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrda 482-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Avtomobil transportida yo'lovchilar va bagajni tashish» qoidalari asosida tashkil etiladi.

Yo'lovchilar transportida yo'lovchilar tashish ishi tashish shartnomasi asosida amalga oshiriladi Yo'lovchi tashish shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi.

Tashish shartnomasida quyidagi taraflar ishtirok etadilar:

– **tashuvchi** – mulk huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asosda transport vositalariga ega bo'lgan, tijorat asosida yo'lovchilar tashish xizmati ko'rsatadigan va bunga maxsus ruxsatnomasi (litsenziyasi) bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

– **yo'lovchi** – tashuvchining xizmatidan foydalanuvchi jismoniy shaxs.

Yo'lovchi tashish shartnomasi bo'yicha tashuvchi yo'lovchini, yo'lovchi bagaj topshirgan bo'lsa, bagajni ham belgilangan manzilga eltib berish hamda bagajni olishga vakolat berilgan shaxsga topshirish majburiyatini oladi. Bunda yo'lovchi belgilangan yo'l haqini, bagaj topshirgan bo'lsa, bagaj tashish haqini ham to'lash majburiyatini oladi.

Yo'lovchi va bagaj tashish shartnomasi tuzilganligi tegishli chipta va bagaj pattasi bilan tasdiqlanadi.

Yo'lovchi tegishli transport ustavida nazarda tutilgan tartibda:

– o‘zi bilan bolalarni bepul yoki boshqa imtiyozli shartlarda olib yurish;

– belgilangan miqdor doirasida o‘zi bilan bepul bagaj olib yurish;

– belgilangan miqdor doirasida bepul, miqdordan ortiqchasi uchun esa, tarif bo‘yicha haq to‘lab, tashish uchun bagaj topshirish huquqiga ega.

Tashish shartnomasi bo‘yicha tashuvchi yo‘lovchini va uning bagajini belgilangan manzilga eltib qo‘yishi shart.

Yo‘lovchi, bagaj va yuk tashish (quyida tashish deb yuritiladi) tashish shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

Tashishning umumiy shartlari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining «Avtomobil transporti to‘g‘risida», «Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida»gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta‘minlashga doir talablarini tasdiqlash haqida»gi qarori va boshqa qonunlar va ularga muvofiq chiqarilgan qoidalar bilan belgilanadi.

#### **Tashuvchining asosiy vazifalari:**

– fuqarolarning tashishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish;

– yo‘lovchilar transportining bir maromda ishlashini tashkil etish;

– yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifati va madaniyatini oshirish;

– yo‘lovchilarning hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini, transport vositalari harakatining xavfsizligini, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish talablari bajarilishini ta‘minlash.

**Yo‘lovchilar transporti tashuvchisiga bir qator majburiyatlar yuklanadi:**

– yo‘lovchilarni tashish ishlarini bajarish uchun litsenziyaga ega bo‘lishi;

– yo‘lovchilarni tashish yuzasidan belgilangan qoidalarga rioya etishi;

– yo‘lovchilarning hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta‘minlashi;

– mehnatni muhofaza qilish, yong‘indan saqlash xavfsizligi, ishlab chiqarish sanitariyasi va ekologiya talablarini bajarishi;

– harakat xavfsizligini, shahar yo‘lovchilar transportidan texnik foydalanish va uni ishlatish qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash;

- fuqarolarning ayrim toifalarini imtiyozli tashish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablarni bajarishi shart.

Tashuvchilarning belgilangan yo‘nalishdan o‘zboshimchalik bilan chetga chiqishi, harakat jadvalini buzishi hamda yo‘lovchilarga qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan biron-bir talabni qo‘yishi man etiladi.

**yo‘lovchilar transport vositalaridan foydalanishda qonun hujjatlarida belgilangan quyidagi huquqlarga ega:**

- yo‘lovchilar transportining har qanday turidan foydalanish;
- bekatlar va to‘xtab o‘tish manzillaridan foydalanish;
- o‘zlari bilan birgalikda yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bepul olib yurish;
- o‘lchamlari belgilangan kattalikdan oshmaydigan, vazni yigirma kilogrammgacha bo‘lgan qo‘l yukini bepul olib yurish;
- belgilangan tariflar bo‘yicha haq to‘lab bagaj olib yurish;
- hayoti va sog‘lig‘ini shaxsiy sug‘urta qilish haqida ixtiyoriy ravishda shartnoma tuzish;
- bekatlar va oxirgi dispetcherlik manzillari dispetcherlaridan yo‘lovchilar transportining ishi to‘g‘risida axborot olish;
- qonun hujjatlarida berilgan boshqa huquqlardan foydalanish huquqiga ega.

Yo‘lovchilar yo‘lovchi transportidan foydalanishda bir qator huquqlarga ega bo‘lishi bilan birga bir qator majburiyatlarni bajarishlari ham talab etiladi:

- yo‘lovchilarni tashish yuzasidan belgilangan qoidalarga rioya etishlari;
- yo‘l haqi va bagaj tashish haqini o‘z vaqtida to‘lashlari, chiptani manzilga yetgunga qadar saqlashlari va uni nazorat qiluvchi shaxslarning talabiga binoan ko‘rsatishlari;
- transportda imtiyozli yurish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni ko‘rsatishlari;
- yo‘lovchi transportidan foydalanganda tozalik va tartibga rioya etishlari, tashuvchilarning asbob-uskunalari va mol-mulkini ehtiyot qilishlari;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablarni bajarishlari shart.

Yo'lovchilarning tez yonuvchan, portlovchi, zaharli, radioaktiv moddalar va ashyolarni, shuningdek, g'ilofsiz o'qotar qurol, tig'li va keskir ashyolarni olib yurishlari man etiladi.

Agar qonun hujjatlarida boshqa hol nazarda tutilgan bo'lmasa, yo'lovchi, bagaj va yuk tashiganlik uchun taraflar kelishuvi bilan belgilangan miqdorda haq olinadi.

Umumiy foydalanishdagi transportda yo'lovchi, bagaj va yuk tashiganlik uchun olinadigan haq transport ustavlari va kodekslarida belgilangan tartibda tasdiqlanadigan tariflar asosida joriy etiladi.

Tashuvchi tomonidan yuk egasining talabi bilan bajariladigan va tariflarda nazarda tutilmagan ish va xizmatlar uchun taraflarning kelishuviga muvofiq haq to'lanadi.

Agar qonun hujjatlarida, tashish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa yoki u majburiyat mohiyatidan kelib chiqmasa, tashuvchi tashish uchun topshirilgan yuklarni o'ziga tegishli kira haqini va tashish bo'yicha boshqa to'lovlarni ta'minlash maqsadida ushlab turish huquqiga ega (O'zR FK 715-modda. Kira haqi).

Transportning ayrim turlarida yo'lovchi, bagaj va yuk tashish shartlari, shuningdek, taraflarning ularni tashish bo'yicha javobgarligi, agar yuqorida keltirilgan qonun hujjatlarida ularga muvofiq chiqarilgan qoidalarda, boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi.

Yuk tashish shartnomasi bo'yicha yuk tashuvchi yuk jo'natuvchi tomonidan o'ziga ishonib topshirilgan yukni belgilangan manzilga yetkazib berish va uni olishga vakolat berilgan shaxsga (oluvchiga) topshirish, yuk jo'natuvchi esa yukni tashib berganlik uchun belgilangan haqni to'lash majburiyatini oladi.

Yuk tashish shartnomasi tuzilganligi tegishli transport ustavi yoki kodeksida nazarda tutilgan hujjat (transport yukxati, konosament yoki yukka doir boshqa hujjat)ni tuzish va uni yuk jo'natuvchiga topshirish yo'li bilan tasdiqlanadi (O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 711-modda).

Har xil transportda yagona transport hujjati asosida yo'lovchi, bagaj va yuk tashilganida (bir yo'nalishda har xil transportda tashish) transport tashkilotlarining o'zaro munosabatlari, shuningdek, bunday tashishni tashkil qilish tartibi bir yo'nalishda har xil (aralash)

transportda tashishga doir qonun hujjatlariga muvofiq tegishli turdagi transport tashkilotlari o'rtasidagi kelishuv bilan belgilanadi (O'R FK 713-modda. Bir yo'nalishda har xil transportda tashish).

Tijorat tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan tashish, agar qonun hujjatlaridan yoki ushbu tashkilotga berilgan ruxsatnomadan (litsenziyadan) uning har qanday fuqaro yoki yuridik shaxs murojaatiga muvofiq yo'lovchi, bagaj va (yoki) yuk tashishi shartligi anglashilsa, umumiy foydalanishdagi transportda tashish deb e'tirof etiladi.

Umumiy foydalanishdagi transportda tashish shartnomasi ommaviy shartnomadir (O'R FK 714-modda. Umumiy foydalanishdagi transportda tashish).

Tashuvchi yuk jo'natuvchiga tegishli yukni tashishga yaroqli shay holdagi transport vositalarini jo'natuvchidan qabul qilingan talabnoma (buyurtma)da, tashish shartnomasida yoki tashishni tashkil etish to'g'risidagi shartnomada belgilangan muddatda yuk ortish uchun berishi shart.

Berilgan transport vositalari tegishli yukni tashishga yaroqsiz bo'lsa, yuk jo'natuvchi bunday transportni rad etishga haqli.

Yuk ortish (tushirish) transport tashkiloti yoki jo'natuvchi (oluvchi) tomonidan tashish shartnomasida nazarda tutilgan tartibda transport ustavlari, kodekslari hamda ularga muvofiq chiqarilgan qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Yuk jo'natuvchi (oluvchi)ning kuch va vositalari bilan amalga oshiriladigan yuk ortish (tushirish) ishlari tashish shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda, agar bunday muddatlar transport ustavlari va kodekslarida hamda ularga muvofiq chiqarilgan qoidalarda belgilab qo'yilgan bo'lmasa, bajarilishi kerak (O'zR FK 716-modda. Transport vositalarini berish, yuk ortish (tushirish)).

Tashuvchi yo'lovchi, bagaj yoki yukni belgilangan manzilga transport ustavlari, kodekslari yoki shartnomada nazarda tutilgan tartibda belgilangan muddatda, bunday muddat bo'lmagan taqdirda esa, oqilona muddatda eltib qo'yishi shart (O'zR FK 717-modda Yo'lovchi, bagaj va yukni eltib qo'yish muddati).

Tashishdan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarmagan yoki tegishli suratda bajarmagan taqdirda, taraflar ushbu O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, transport ustavlari va kodekslarida,

shuningdek, taraflarning kelishuvida belgilangan tarzda javobgar bo'ladilar.

Transport tashkilotlarining yo'lovchilar va yuk egalari bilan tashuvchining qonunda belgilab qo'yilgan javobgarligini cheklash yoki bartaft etish haqidagi kelishuvlari haqiqiy emas (O'zR FK 718-modda. Tashishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha javobgarlik).

Tashuvchi yuk tashish uchun transport vositalarini qabul qilingan talabnoma (buyurtma)ga yoki boshqa tashish shartnomasiga muvofiq bermaganligi uchun, jo'natuvchi esa yukni taqdim etmaganligi yoki berilgan transport vositalaridan boshqa sabablarga ko'ra foydalanmaganligi uchun transport ustavlari va kodekslari, shuningdek, taraflarning kelishuvlari bilan belgilangan tarzda javobgar bo'ladilar.

Agar transport vositalarini bermaslik yoki o'z vaqtida bermaslik, yoxud transport vositalaridan foydalanmaslik: yengib bo'lmas kuch yoki boshqa stixiyali hodisalar, shuningdek, harbiy harakatlar tufayli; muayyan yo'nalishlarda yuk tashish tegishli transport ustavi yoki kodeksida nazarda tutilgan tartibda to'xtatib yoki cheklab qo'yilgani tufayli yuz bergan bo'lsa, yuk tashuvchi va yuk jo'natuvchi javobgarlikdan ozod qilinadi (O'zR FK 719-modda. Tashuvchining transport vositalarini bermaganlik, jo'natuvchining esa berilgan transport vositalaridan foydalanmaganlik uchun javobgarligi).

Yo'lovchi tashish uchun transport vositasini kechiktirib jo'natganlik yoki bunday transport vositasi manzilga kechikib kelganligi uchun, shahar va shahar atrofi yo'nalishlarida tashish bundan mustasno, tashuvchi, agar kechikish yengib bo'lmas kuch yohud tashuvchiga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlar tufayli yuz berganini isbot qilib bermasa, yo'lovchiga jarima tariqasida neustoyka to'laydi. Jarima miqdori va uni to'lash tartibi transport ustavlari va kodekslari bilan belgilanadi.

Yo'lovchiga jarima to'lash tashuvchini transport vositasini jo'natish kechikkanligi yoki manzilga kechikib yetib kelganligi sababli yo'lovchi ko'rgan zararni unga to'lash majburiyatidan ozod qilmaydi.

Transport vositalarini jo'natish kechikkanligi sababli yo'lovchi ularda jo'nashdan bosh tortgan taqdirda, tashuvchi yo'lovchiga kira haqini va u qilgan boshqa xarajatlarni qaytarishi shart (O'zR FK 720-modda yo'lovchini jo'natib yuborish kechiktirilgani uchun tashuvchining javobgarligi).



Agar tashuvchi yuk yoki bagajning yo'qolishi, kam chiqishi yoki shikastlanishida (buzilishida) o'zining aybi yo'qligini isbot qilib bera olmasa, tashish uchun qabul qilib olgan yuk va bagaj yo'qolganligi, kam chiqqanligi yoki ularga shikast yetkazilganligi (buzilganligi) uchun javobgar bo'ladi.

Yuk yoki bagajni tashish vaqtida yetkazilgan zarar tashuvchi tomonidan quyidagi miqdorda to'lanadi:

– yuk yoki bagaj yo'qolgan yoxud kam chiqqan taqdirda, yo'qolgan yoki kam chiqqan yuk yoxud bagajning qiymati miqdorida;

– yuk yoki bagajga shikast yetkazilgan (buzilgan) taqdirda uning qiymati qancha pasaygan bo'lsa, shuncha summa miqdorida, shikastlangan (buzilgan) yuk yoki bagajni tiklash mumkin bo'lmaganida esa, uning qiymati miqdorida;

– bahosini e'lon qilgan holda tashishga topshirilgan yuk yoki bagaj yo'qolgan taqdirda, yuk yoki bagajning e'lon qilingan qiymati miqdorida.

Transport tashkiloti real zararni to'lash bilan birga yo'qolgan, kam chiqqan yoki shikastlangan (buzilgan) yukni tashish uchun olgan kira haqini, agar u yukning bahosiga kirmasa, jo'natuvchi (oluvchi)ga qaytarib beradi.

Jo'natuvchi tashuvchidan yuklar yo'qolishi, kam chiqishi yoki shikastlanishi (buzilishi) tufayli yetkazilgan boshqa zararni ham to'lashni talab qilishga haqli.

Yuk yo'qolganligi, kam chiqqanligi, shikastlanganligi (buzilganligi) uchun bir yo'nalishda har xil transportda tashuvchilar yuk jo'natuvchi (yuk oluvchi) oldida solidar javobgar bo'ladilar.

Agar oxirgi tashuvchi yukning kechikib kelishida tashuvchilarning aybi yo'qligini isbot qilib bera olmasa, yukning kechikib kelganligi uchun javobgar bo'ladi (O'zR FK 721-modda. Yuk yoki bagaj yo'qolganligi, kam chiqqanligi va ularga shikast yetkazilganligi (buzilganligi) uchun tashuvchining javobgarligi).

Tashuvchi bilan yuk egasi muntazam tashishni amalga oshirish zarur bo'lganida tashishni tashkil etish haqida uzoq muddatli shartnomalar tuzishlari mumkin.

Yuk tashishni tashkil etish shartnomasi bo'yicha tashuvchi shartlashilgan hajmdagi yuklarni belgilangan muddatlarda qabul qilib olish,

yuk egasi esa, topshirish majburiyatini oladilar. Yuk tashishni tashkil etish shartnomasida tashish uchun beriladigan transport vositalarining va topshiriladigan yuklarning hajmi, ularni topshirish muddatlari va boshqa shartlari, hisob-kitob qilish tartibi, shuningdek, tashishni tashkil etishning boshqa shartlari belgilab qo'yiladi (O'zR FK 722-modda. Tashishni tashkil etish shartnomalari).

Har xil transport tashkilotlari o'rtasida yuk tashishni ta'minlashga qaratilgan ishlarni tashkil etish haqida shartnomalar (asosiy kelishuvlar, yuklarni markazlashtirilgan tartibda tashib keltirish (tashib ketish) shartnomalari va boshqalar) tuzilishi mumkin. Bunday shartnomalarni tuzish tartibi transport ustavlari va kodekslari, boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi (O'zR FK 723-modda. Transport tashkilotlari o'rtasidagi shartnomalar).

Tashuvchiga nisbatan yuk tashishdan kelib chiqadigan da'voni ko'zg'atishdan oldin unga tegishli transport ustavi yoki kodeksida nazarda tutilgan tartibda talab qo'yilgan bo'lishi shart.

Agar yuk tashuvchi talabni qondirishni to'liq yoki qisman rad etsa yoki o'ttiz kunlik muddat ichida talabga javob qaytarmasa, yuk jo'natuvchi yoki yuk oluvchi tashuvchiga nisbatan da'vo ko'zg'atishi mumkin.

Yuk tashishdan kelib chiqadigan talablar bo'yicha da'vo ko'zg'atish muddati O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 154-moddasi «Da'vo muddatining o'ta boshlashi»ga muvofiq belgilanadigan paytdan boshlab bir yil qilib belgilanadi.

Ushbu moddaning qoidalari yo'lovchi yoki bagaj tashishdan kelib chiqadigan talablarga taalluqli emas (O'zR FK 724-modda. Yuk tashishga nisbatan talab va da'volar).

Yo'lovchining hayoti yoki sog'lig'iga shikast yetkazilganligi uchun tashuvchining javobgarligi, agar qonunda yoki shartnomada kuchaytirilgan javobgarlik nazarda tutilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksning 57-bobi «Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar» qoidalari bo'yicha belgilanadi (O'zR FK 725-modda Yo'lovchining hayoti yoki sog'lig'iga shikast yetkazilganligi uchun tashuvchining javobgarligi).

Yo'lovchilarni tashish quyidagi turlarga bo'linadi:

– shaharda tashish;

- shahar atrofida tashish;
- shaharlararo tashish;
- xalqaro tashish.

Yo‘lovchilar yo‘nalishli avtobuslarda, yuridik va jismoniy shaxslarga ularning buyurtmalariga yoki tashishning boshqa shartnomalari bo‘yicha beriladigan avtobus va yengil avtomobillarda, yo‘nalishsiz taksilarda va yo‘nalishli taksilarda tashiladi.

**Yo‘lovchi tashishda foydalaniladigan transport vositalariga quyidagi talablar qo‘yiladi:**

- avtotransport vositalarining texnik holati va anjomlari tegishli standartlar hamda texnik foydalanish qoidalari talablariga javob berishi kerak;

- avtotransport vositalari Dst 974G‘2000 O‘zbekiston davlat standartiga muvofiq anjomlarga ega bo‘lishi kerak.

Avtomobil transportida yo‘lovchi tashuvchi haydovchilar O‘zbekiston davlat standartlarida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarga javob berishlari kerak.

Muntazam qatnovlarni amalga oshiruvchi avtobuslar va yo‘nalishli taksilar haydovchilari yo‘nalishda ishlayotganda quyidagi hujjatlarga ega bo‘lishi kerak:

- tender kontraktiga muvofiq ushbu yo‘nalishda ishlash huquqini tasdiqlovchi guvohnoma;

- tegishli litsenziyaga (litsenziya kartochkasiga);

- yo‘nalish hujjatlariga;

- yo‘l varaqasi va chiptalarni hisobga olish varaqasiga;

- yo‘l varaqalarida yo‘lga chiqishdan oldin belgilangan tartibda o‘tkaziladigan avtotransport vositasining texnik ko‘rikdan va haydovchilarning tibbiy ko‘rikdan o‘tganligi haqidagi qaydlarga;

- qatnov jadvaliga va yo‘nalish sxemasiga (shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlarda – unda aholi yashash joylaridan o‘tish vaqti, ovqatlanish, dam olish, tungi uxlash vaqti va joyi ko‘rsatilgan holda bo‘lishi kerak).

Avtotransport vositalarining yo‘l varaqalari va chiptalarni hisobga olish varaqalari hamda buyurtmalar va boshqa shartnomalar bo‘yicha ishlashi yuzasidan topshiriqнома blankalari qat’iy hisobda turadigan

blankalarni hisobga olish va saqlash qoidalari bo'yicha hisobga olinadi va tashuvchida saqlanadi.

#### **4.2. Shahar ichi yo'nalishlarida yo'lovchilar va bagaj tashish**

Shahar ichi yo'nalishlarida yo'lovchilar va bagaj tashish O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi Qonuni asosida tashkil etiladi. Ushbu qonun Toshkent shahrida, viloyat va tuman bo'ysunuvidagi shaharlarda, shuningdek, shaharchalarda shahar yo'lovchilar transporti subyektlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Shahar yo'lovchilar transporti deganda O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatga olingan, shahar doirasida yo'lovchilar hamda bagaj tashishga mo'ljallangan avtomobil va elektr transporti tushuniladi (O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida» 3-modda).

Shahar yo'lovchilar tashish transporti yo'nalishlari quyidagi turlarga bo'linadi:

a) shahardagi oddiy, tezkor, ekspres va tig'iz paytlardagi qo'shimcha yo'nalishlar;

b) shahar chetidan ko'pi bilan 2 km chetga chiquvchi shaharda qatnovchi yo'nalishlar;

v) yo'nalishli taksilar.

Shahardagi yo'nalishlar shahardagi turarjoy va sanoat hududlarini madaniy-maishiy va sport-sog'lomlashtirish tashkilotlari, vokzallar, aeroportlar, avtostansiyalar, metro stansiyalari, temiryo'l platformalari, pristanlar va shu kabilar bilan transport aloqasini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Aholiga xizmat ko'rsatish xususiyatlariga muvofiq shahardagi yo'nalishlarning ish rejimi quyidagi turlarga bo'linadi:

– sutka, hafta kunlari, oyning belgilangan davri mobaynida amal qiladigan doimiy yo'nalishlar;

– dam olish hududlari, sport-sog'lomlashtirish komplekslari, yarmarkalar va shu kabi faoliyat ko'rsatadigan davrda tashkil etiladigan mavsumiy yo'nalishlar;

– maxsus yo'nalishlar;

– ko‘cha yo‘l shoxobchalarida favqulodda vaziyatlar paydo bo‘lganda, ayrim uchastkalar, transport yo‘llari va maydonlar yopilganda joriy etiladigan vaqtinchalik yo‘nalishlar.

Yo‘l kira kartochkalarini oldindan sotish maxsus tashkil etilgan sotish shoxobchalarida, shuningdek, savdo tashkilotlari va bevosita tashuvchi orqali amalga oshiriladi.

Yo‘l kira kartochkasi bagajni bepul tashish huquqini bermaydi.

Yo‘l kira kartochkalari seriyalari, transport turlari bo‘yicha bo‘linadi va yo‘lovchilarning barcha toifalari uchun, imtiyozli kartochkalar esa – pensionerlar, nogironlar, talabalar va o‘quvchilar uchun haqiqiy hisoblanadi.

Shahar transportida foydalaniladigan barcha seriya va turdagi yo‘l kartochkalari taksilar, shahar atrofidagi va shaharlararo (viloyatlararo va xalqaro) yo‘nalishlar uchun haqiqiy hisoblanmaydi.

**Transportda yurish shartlari.** Shahar yo‘lovchilar transportining harakati tashuvchi tomonidan shahar yo‘lovchilar transportini boshqarish organi tasdiqlagan harakat jadvaliga muvofiq tashkil qilinadi.

Barcha bekatlarda, oxirgi va to‘xtab o‘tish manzillarida yo‘nalishning nomi, tartib raqami va harakatning oraliq vaqti to‘g‘risidagi ma‘lumot lavhasi joylashtiriladi.

Yo‘lovchilarni transportga chiqarish va undan tushirish faqat to‘xtab o‘tish manzillarida amalga oshirilishi mumkin. Yo‘nalishda «talabga ko‘ra» to‘xtash joylari mavjud bo‘lganda yo‘lovchi haydovchiga avtotransport vositasini to‘xtatish zarurligi to‘g‘risida oldindan ma‘lum qilishi kerak.

Yo‘nalishli yoki yo‘nalishsiz taksilar yo‘lovchilarini chiqarish va tushirish yo‘lovchilar talabiga ko‘ra, yo‘llarda harakatlanish xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Yo‘l kartochkasi yoxud avtobusda yurish huquqini tasdiqlovchi boshqa hujjati bo‘lgan yo‘lovchi uni avtobusga chiqish vaqtida ko‘rsatishi shart.

Shahardagi avtobus yo‘nalishlarida yo‘lovchi yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni o‘zi bilan birga bepul olib yurish huquqiga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolali yo‘lovchilar, homilador ayollar, nogironlar va keksa fuqarolar uchun avtobus salonida, uning yo‘lovchi

sig'imiga qarab, 6 ta oldingi joylar ajratiladi. Ushbu joylarni egallagan boshqa yo'lovchilar ularni mazkur shaxslar uchun bo'shatib berishlari kerak.

Haydovchi avtobusni to'xtash joyidan faqat eshiklarni yopgan holda, yo'lovchilar to'liq tushirib va chiqarib bo'lingandan so'ng yurgizishi, bekatlarni aniq va to'g'ri e'lon qilishi, qatnov yo'nalishi o'zgargan taqdirda esa bu to'g'rida har qaysi bekatda e'lon qilishi shart. Avtobus salonini avtobusning muayyan turi uchun belgilangan umumiy sig'imidan ortiqcha to'ldirishga yo'l qo'yilmaydi.

**Qo'l yuki va bagaj tashish** Yo'lovchi hajmi 60sm x 40 sm x 20 sm va og'irligi 20 kilogrammdan ortiq bo'lmagan qo'l yuki hamda musiqa asbobini, 150 santimetrgacha uzunlikdagi buyumlarni, shuningdek, qafasga solingan mayda hayvonlar va parrandalarni, aravachani (bolalar, nogironlar va boshqalarning aravachalarini), mayda bog'dorchilik inventari, bolalar chanalarini o'zi bilan birga bepul olib yurish huquqiga ega.

Hajmi 60sm x 40 sm x 20 sm dan 100sm x 50 sm x 30 sm gacha bo'lgan va uzunligi 150 santimetrdan 200 santimetrgacha bo'lgan buyumlarni, shuningdek, o'lchamidan qat'i nazar og'irligi 20 kilogrammdan ortiq bo'lgan bagajni olib yurish tarifga muvofiq haq to'lagan holda amalga oshiriladi.

O'lchami yuqorida ko'rsatilgan eng katta hajmlarning hatto bit-tasidan ortiq bo'lgan bagaj belgilangan parametrlarga nomuvofiq hisoblanadi.

Bagajning joylanishi va tashilishi yo'lovchilarga va avtotransport vositasiga biron-bir zarar yetkazish imkoniyatini to'liq istisno qilishi kerak.

Bagajni olib yurish qiymati yo'lovchining yo'l haqi qiymati kabi tartibda belgilanadi.

**Yo'l haqi to'lash.** Shahar yo'lovchilar transportida yo'lovchilar va bagaj tashish haqini to'lash Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlari tomonidan yo'l qo'yiladigan doirada belgilangan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

Shahar yo'lovchilar transportida yo'lovchilar va bagaj tashishning yo'l qo'yiladigan doiradagi tariflari darajasi iqtisodiy asoslangan ta-

shish xarajatlaridan va yo'lovchilar tashish xizmatlariga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib belgilanadi (O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida» 16-modda).

Yo'nalishsiz taksilarda bagaj tashish haqi olinmaydi.

Chiptalarni, yo'l varaqalarini va shahar yo'lovchilar transportida imtiyozli yurish huquqini beradigan hujjatlarni qalbakilashtirganlik uchun javobgarlik qonunda belgilab qo'yiladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 228-modda).

**Shahar yo'lovchilar transporti vositalariga qo'yiladigan talablar.** Shahar yo'lovchilar transporti vositalari xavfsizlik, mehnatni muhofaza qilish, ekologiya talablariga, shuningdek, standartlar va texnikaviy shartlarga, tibbiy-sanitariya va yong'inga qarshi normalarga muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lishi lozim. Transport vositalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lishi kerak.

Sertifikatlashdan o'tmagan va belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan transport vositalari foydalanishga qo'yilmaydi.

Yo'lovchilar transportini sertifikatlash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Shahar yo'lovchilar transportining salonida harakat yo'nalishi, yo'lovchi va bagaj tashish haqi to'g'risidagi ma'lumot, shuningdek, boshqa zarur axborot bo'lishi lozim.

Tashuvchi shahar yo'lovchilar transportida nogironlar va bolali yo'lovchilar uchun zarur qulayliklarni yaratadi.

Yo'nalishsiz taksilarda yo'l haqini aniqlash uchun hisoblagich (taksometr), maxsus tanib olish belgilari va boshqa yengil avtomobillardan farqlanuvchi raqam belgilari bo'lishi lozim.

Yo'nalishsiz taksilar uchun umumiy belgilar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

### **4.3. Shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchilar va bagaj tashish**

Aholiga xizmat ko'rsatish xususiyatiga muvofiq shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar quyidagi bir necha ish rejimiga ega bo'lishi mumkin:

– sutka, hafta kunlari, oylarning belgilangan davri mobaynida amal qiladigan doimiy yo'nalishlar;

– dam olish zonalarini, sport-sogʻlomlashtirish komplekslari, yarmarkalar va shu kabilar faoliyat koʻrsatadigan davrda tashkil etiladigan mavsumiy yoʻnalishlar;

– ishchilar, mutaxassislar va xizmatchilarni ish joyiga va uyga tashish uchun tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan maxsus yoʻnalishlar.

Shahar atrofi yoʻnalishlaridagi bekatlar yoʻlovchilarning u yerga xavfsiz va qulay kelishini taʼminlashni hamda qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda joylashtirilishi va ular quyidagilarga ega boʻlishi kerak:

– pavilonni joylashtirish uchun asfaltlangan maydonchalar va yoʻlovchilarning bekatga kelishi uchun asfaltlangan yoʻlaklar;

– yoʻlovchilarning yomgʻir, qor, shamoldan bekinishi uchun pavilon;

– bekatning nomi yozilgan koʻrsatkich;

– yoʻnalishlar koʻrsatkichi, unda quyidagilar koʻrsatiladi: yoʻnalishlarning tartib raqami, ularning oxirgi manzili nomi (qatnov yoʻnalishlari boʻyicha), harakatlanish oraligʻi 30 minutdan ortiq boʻlganda ushbu manzildan avtobusning joʻnash jadvali Yoʻnalishda avtobuslar qatnovi oraligʻi 30 minutdan kam boʻlganda jadval oʻrniga qatnovlar oraligʻi jadvali koʻrsatilishi mumkin. Unda avtobuslarning birinchi va oxirgi joʻnash vaqti hamda sutka davrlari boʻyicha qatnov oraliqlari vaqti koʻrsatilgan boʻladi.

Shahar atrofi yoʻnalishlarida toʻxtab oʻtish manzillari yoʻlovchilar uchun eng qulay joylarda boʻlishi kerak. Toʻxtab oʻtish manzillarini joylashtirishda quyidagilarni eʼtiborga olish lozim:

– shahar atrofi yoʻnalishlarining shahardagi soʻnggi bekatlari yoʻlovchilar gavjum boʻladigan yirik manzillar (temiryoʻl vokzallari va stansiyalari, daryo portlari, bozorlar, metropolitenning oxirgi bekatlari va shu kabilar) yonida boʻlishi kerak;

– shaharda shahar atrofi yoʻnalishlarining toʻxtab oʻtish manzillari shahar yoʻlovchi tashish transporti yoʻnalishlari toʻxtab oʻtish manzillari bilan bir joyda boʻlishi va shaharning transportni boshqarish boʻyicha vakolatli organlari bilan kelishilgan boʻlishi lozim;

– aholi yashash joylari chegaralarida joylashgan shahar atrofi yoʻnalishlari toʻxtab oʻtish manzillari oraligʻidagi masofa 1,0 km atrofida, qolgan hollarda – oʻrtacha 1,5 km boʻlishi kerak;



– shahar atrofidagi bekatlar yo‘nalish trassasida joylashgan har bir aholi yashash joyida bo‘lishi kerak.

Chiptalar kassalar orqali sotiladigan shaharlararo (xalqaro) yo‘nalishlar to‘xtab o‘tish manzillarida (yuqorida keltirilgan shartlarning dastlabki ikkitasidan tashqari) quyidagilar bo‘lishi lozim:

- ish tartibi ko‘rsatilgan holda chipta sotish kassalari;
- to‘xtab o‘tish manzili zonasida yo‘lovchilarning transportga chiqishi-tushishi uchun supacha;
- avtotransport vositalarining to‘xtab turishi uchun maydonchalar;
- yo‘l haqi, bagaj tashish haqi bahosi jadvallari;
- yo‘nalishlar sxemasi;
- shaharlararo (xalqaro) avtotransport vositalarining qatnov jadvali;
- sanitariya uzeli.

Chipta sotish kassasi bo‘lmagan pavilonlarda va shaharlararo (xalqaro) yo‘nalishlarning to‘xtab o‘tish manzillarida ushbu to‘xtab o‘tish manzili orqali o‘tadigan avtotransport vositalarining qatnov jadvali osib qo‘yiladi.

**Yo‘l haqi to‘lash.** Shahar atrofi yo‘nalishlarida yo‘lovchi tashishda yo‘l haqi to‘lash shahar ichi yo‘nalishlarda yo‘lovchi tashishda yo‘l haqi to‘lashdan birmuncha farqlanadi.

*Shahar atrofi yo‘nalishlarida yo‘l haqi to‘lash.* Shahar atrofi yo‘nalishlaridagi avtobuslarda yurish chiptalari haydovchilar (mavjud bo‘lganda – konduktorlar) tomonidan, chipta sotish kassalari tashkil etilgan yo‘nalishlarning to‘xtab o‘tish manzillarida esa kassalar tomonidan sotiladi.

Avtobusdagi yo‘lovchi yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni o‘zi bilan birga bepul olib yurish huquqiga ega.

Yo‘lovchi tomonidan shahar atrofi yo‘nalishlariga joriy sotish kassalaridan sotib olingan chiptalar, agar chiptani sotib olish chog‘ida va chiptada o‘zgacha hol aytilmagan va ko‘rsatilmagan bo‘lsa, avtobus jo‘nashiga 5 minut qolgunga qadar qaytarib berilishi mumkin.

*Shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlarda yo‘l haqi to‘lash* Yo‘lovchi avtotransport vositasida yurish uchun chiptalarni quyidagi ko‘rinishlarda sotib olish huquqiga ega:

- joriy kungi reysslarga – shaharlararo (xalqaro) yo‘nalishlarning boshlang‘ich manzillaridagi kassalardan avtobus jo‘naydigan kunda;
- oraliq manzillardagi kassalardan – avtobusda bo‘sh o‘rinlar mavjudligi to‘g‘risida ma‘lumot olingan vaqtdan boshlab;
- kassalar orqali chiptalar sotish tashkil etilmagan to‘xtab o‘tish manzilida avtobus jo‘nagungacha unga chiqish vaqtida – haydovchidan;

- oldindan chipta sotish kassalaridan (boshlang‘ich va oxirgi manzillarda, shuningdek, transport-ekspeditorlik va boshqa manfaatdor tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan manzillarda) – oldindan chipta sotish jo‘nash kuni arafasida to‘xtatilgan holda, avtotransport vositasi jo‘nashidan 10 sutka oldin.

Boshlang‘ich va oraliq manzillardagi kassalarda joriy kungi qatnovlarga chiptalar sotish avtobus jo‘nashidan 5 minut oldin to‘xtatiladi.

Yo‘lovchidan, shu jumladan imtiyozli yurish huquqiga ega bo‘lgan yo‘lovchidan chiptalarni oldindan band qilib qo‘yganligi uchun chipta bahosiga qo‘shiladigan to‘lov undirilishi mumkin.

Avtovokzal (avtostansiya) yoki tashuvchi o‘z hohishiga ko‘ra sotish joyida yoki avtotransport vositasi salonida chegirma shartlari va miqdori to‘g‘risidagi e‘lon majburiy ko‘rsatilishi sharti bilan oldindan sotib olish muddatiga qarab chiptalar oldindan sotish kassalaridan sotib olinganligi uchun chegirma qilishi mumkin.

Chiptalarga pochta otkritkasi, telegramma, telefon, elektron pochta yoki Internet orqali oldindan buyurtma berilishi mumkin.

Buyurtmada buyurtmachining familiyasi, jo‘nash sanasi va vaqti, boriladigan joy, chiptalar soni, olish usuli (uyga eltib berish yoki eltib bermasdan) ko‘rsatiladi. Uyga eltib berish sharti bilan chiptaga buyurtma berilganda buyurtmachining manzili, xizmat yoki uy telefoni raqami (agar mavjud bo‘lsa) ko‘rsatiladi.

Chipta sotib olish qonun hujjatlariga muvofiq elektron usulda ham tashkil etilishi mumkin.

Buyurtma berilgan chiptalarni buyurtmachiga (buyurtmada ko‘rsatilgan manzilga) eltib berganlik uchun yo‘lovchidan to‘lov undiriladi, to‘lovning tasdig‘i sifatida yo‘lovchiga kvitansiya beriladi, kvitansiyada transport tashkilotining nomi va kvitansiya berilgan sana

ko'rstiladi Yozuvlar aniq holda qayd etiladi, berilgan sana esa kompyuter yoki shtamp bilan qo'yiladi.

Yo'lovchi buyurtma bergan va haqi to'langan chiptalar oldindan chipta sotish kassasida uni yo'lovchi talab qilib olgungacha saqlanadi.

Yo'lovchi tomonidan buyurtma berilgan, lekin haqi to'lanmagan chiptalar oldindan chipta sotish kassasida saqlanadi va yo'lovchi tomonidan avtobus jo'nashidan kamida bir soat oldin talab qilib olinishi zarur. Talab qilib olinmagan chiptalar sotish uchun joriy sotish kassasiga beriladi.

Yo'lovchi o'zi bilan birga besh yoshgacha bo'lgan bir bolani bepul – alohida o'rinsiz, besh yoshdan o'n yoshgacha bo'lgan bir bolani chiptaning to'liq bahosi 50 foiz chegirilgan holda – alohida o'rin berilgan holda olib yurish huquqiga egadir, o'n yoshgacha bo'lgan ikki nafar va undan ortiq bolalar olib yurilganda ulardan bittasi bepul, qolganlari – chipta to'liq bahosining 50 foizi chegirilib, alohida o'rin berilgan holda olib yuriladi.

**Avtotransportda yurish shartlari** Yo'lovchilarning shahar atrofi yo'nalishlarida avtotransport vositalarida yurishi shahardagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish kabi amalga oshiriladi.

Shaharlararo yo'nalishlarda tashishda avtotransport vositasidagi yo'lovchilar soni o'rindiqlar sonidan oshmasligi kerak.

Haydovchining ish vaqti davomiyligi 9 soatdan ortiq yoki yo'nalish masofasi 400 km va undan ko'p bo'lganda yo'lovchilar tashilayotgan avtobusda haydovchining dam olishi uchun joy jihozlangan bo'lishi va qatnovga ikki nafar haydovchi chiqarilishi kerak.

Avtotransport vositasi haydovchisi qatnov jadvalida nazarda tutilgan avtovokzallar (avtostansiyalar)dagi nazorat shoxobchalarida va avtokassalarda yohud oxirgi manzillarda chiptalarni hisobga olish varaqasida kelish va ketish vaqti, shuningdek, sotilgan chiptalar soni to'g'risida belgi qo'ydirishi shart.

Shaharlararo yo'nalishlarda tashish yo'lovchilarni majburiy ravishda chiptalar bilan ta'minlangan holda avtovokzallar (avtostansiyalar) yoki tashuvchilar tomonidan maxsus tashkil etilgan jo'nash va kelish manzillari orqali amalga oshiriladi.

Shaharlararo va xalqaro avtobus yo'nalishlarda yo'lovchilar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy ravishda sug'urta qilinadilar.

Tashish avtovokzallar (avtostansiyalar) orqali amalga oshiriladigan tashuvchi quyidagilarga majbur:

- avtobuslarni ularning jo'nashidan kechi bilan 20 daqiqa oldin avtovokzal (avtostansiya)ga chiqarish;

- navbatchi dispetcherga haydovchilarning avtobusni boshqarish huquqiga egaligi to'g'risidagi guvohnomani, yo'l va chiptalarni hisobga olish varaqalarini, qatnov jadvalini va yo'nalish sxemasini ko'rsatish;

- ishda foydalaniladigan avtotransport vositasiga litsenziya kar-tochkasi mavjud bo'lishini ta'minlash.

Avtovokzal (avtostansiya)ning navbatchi dispetcheri haydovchi hujjatlarini tegishlicha tekshirgandan keyin quyidagilarga ko'rsatma berishi lozim:

- kassirlarga – transport vositasiga chiptalar sotish to'g'risida;

- diktorga – yo'lovchilarga zarur axborotlarni xabar qilish to'g'ri-sida;

- supacha bo'yicha navbatchigalarga – yo'lovchilarni chiqarish uchun joylarni tayyorlash to'g'risida;

- maxsus qatnov yo'nalishi, jo'natilayotgan yo'lovchilar soni va qatnovga chiptalar sotishdan jami tushum summasini ko'rsatgan holda daftarda haydovchi(lar) va avtotransport vositasi to'g'risidagi ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazishi shart.

Tashuvchi avtovokzal (avtostansiya)dan chiqqandan so'ng yo'nalish sxemasiga amal qilishi va tezlik rejimiga rioya etishi, qatnov jadvallar-ida nazarda tutilgan oraliqdagi avtovokzal (avtostansiya)larga hamda avtokassalarga majburiy ravishda kirib o'tishi shart.

Qatnov tugallanganidan so'ng haydovchi tunash uchun tashuvchi joylashgan joyga yoki qatnov jadvallarida nazarda tutilgan avtovokzal (avtostansiya)ga keladi.

Chipta sotish kassasi mavjud bo'lgan avtovokzal (avtostansiya)lar-da va to'xtab o'tish manzillarida yo'lovchilar avtotransport vositasiga faqat kassadan sotib olingan chiptalar ko'rsatilgan taqdirda chiqari-ladi. Chiptalar, agar o'zgacha hol tomonlarning kelishuvida qayd etil-magan va chiptalarni sotishda e'lon qilinmagan bo'lsa, faqat ularda ko'rsatilgan kun va avtobus qatnovi uchun haqiqiy hisoblanadi.

Avtobusga yo'lovchilarni chiqarish bo'yicha navbatchi yo'lovchilarni avtobusga chiqarish vaqtida yo'lovchilarda yo'l chip-

talari mavjudligini tekshiradi. Avtobusga yo'lovchilarni chiqarish bo'yicha navbatchi bo'lmagan punktlarda chiptalarni haydovchi tekshiradi.

Shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda, agar o'zgacha hol tomonlarning kelishuvida qayd etilmagan va chiptalarni sotishda e'lon qilinmagan bo'lsa:

a) chipta sotib olingan avtotransport vositasiga uning jo'nash vaqti-dan boshlab uch soat atrofida, kasallik yoki baxtsiz hodisa oqibatida esa – uch sutka mobaynida kechikilganda yo'lovchining xohishiga ko'ra avtobusda yurish hujjati chipta bahosining 25 foizini qo'shimcha ravishda to'latgan holda tiklanadi yoki unga chiptaning to'langan bahosi 25 foiz chegirilgan holda qaytarib beriladi.

Yo'lovchining avtobusga kasallik yoki baxtsiz hodisa oqibatida kechikkanligi davolash muassasasining ma'lumotnomasi yoki baxtsiz hodisa to'g'risidagi dalolatnoma bilan tasdiqlanishi kerak;

b) chipta avtovokzal (avtostansiya) kassasiga avtotransport vositasi jo'nashidan kechi bilan 2 soat oldin qaytarilgan taqdirda yo'lovchiga chipta bahosi uning oldindan sotish to'lovi chegirilgan holda qaytariladi. Chipta ushbu muddatdan kech, biroq avtotransport vositasi jo'nashidan oldin qaytarib berilganda, chipta bahosi uning qiymatining 15 foizi va oldindan sotilganligi uchun to'lov chegirib tashlangan holda qaytariladi;

c) avtotransport vositasining jo'nashi jadvaliga nisbatan 1 soatdan ortiqqa kechikkanda, yo'lovchiga chipta sotilganidan yuqori klassli avtotransport vositasidan joy berilganda, shuningdek, unga chiptada ko'rsatilgan joy berilmaganda, u chiptani avtotransport vositasi jo'nagunga qadar kassaga qaytarib berish va chiptaning to'liq bahosini, shu jumladan uning oldindan sotilganligi uchun to'lovni qaytarib olish huquqiga ega.

Yo'lovchi pastroq klassli avtotransport vositasida ketishga rozi bo'lganda unga to'langan summa bilan to'lanadigan yo'l haqi o'rtasidagi farq summasi qaytarib beriladi.

Pullar avtovokzal (avtostansiya), avtotransport vositalarini jo'natish punkti boshlig'i (yoki navbatchisi) ko'rstamasiga binoan qaytarib beriladi. Chipta uning teskari tomoniga «qaytarish» shtampi qo'yilgan holda qaytariladi hamda yo'lovchi uni topshirgan vaqt va qaytarilgan chiptaning qiymati ko'rsatiladi.

Pullar kassir tomonidan, chiptalarni qabul qilib olish va pullarni qaytarib berish qaydnomasidagi yo'lovchi imzosi bilan beriladi, qaydnomada qatnovning sanasi, tartib raqami, yo'nalish nomi, chiptaning raqami va bahosi ko'rsatiladi.

Qaytarib berilgan chipta va pullarni qaytarib berishga asos bo'lgan boshqa hujjatlar (oldindan sotilganligi uchun to'lov kvitansiyasi, bagaj chiptasi va hokazolar) qaydnoma bilan birga kassir hisobotiga ilova qilinadi.

Agar jadvalda belgilangan avtotransport vositasi o'rninga chiptaning bahosi yuqori bo'lgan avtotransport vositasi berilsa, u holda chiptani ushbu haqdagi e'longacha sotib olgan yo'lovchi mazkur chipta bilan, qo'shimcha to'lovsiz ketishga haqlidir. Avtobus almashgani to'g'risida e'lon qilingan vaqtdan boshlab chiptalar, yo'lovchilarni tegishli ravishda ogohlantirgan holda, belgilangan yuqoriroq tarif bo'yicha sotiladi.

Agar yo'lovchi qatnov yo'lida borayotgan avtotransport vositadan o'z aybi bilan qolib ketsa keyingi qatnovga qayta rasmiylashtirilmaydi va yurilmagan masofa uchun pullar qaytarib berilmaydi.

Tashkilotlar tomonidan ularning oldindan sotib olgan transportda yurish hujjatlari avtovokzallar (avtostansiyalar) kassalariga avtotransport vositasi jo'nashidan 3 sutka oldin qaytarib berilgan taqdirda, agar o'zgacha hol tomonlarning kelishuvida va chiptalarni sotishda e'lon qilinmagan bo'lsa, ularga yurish hujjatlari qiymati, ularning oldindan sotilgani uchun to'lovni chegirgan holda qaytariladi. Yurish hujjatlari ushbu muddatdan kechikib qaytarilganda yo'l haqi qiymatining 15 foizi ushlab qolinadi.

Avtotransport vositasining jo'nashi bekor qilinganda yoki yurish hujjatlarining qaytarilishida ularni qaytarish muddatidan qat'i nazar yo'l haqi qiymati ushlab qolinmaydi.

Qaytarib berilgan foydalanilmagan chiptalar va boshqa yurish hujjatlari qiymatini to'lash yurish hujjatlari sotib olingan joyda amalga oshiriladi.

**Qo'l yuki va bagaj tashish.** Tashishga topshiriladigan bagaj puxta o'rab-joylangan bo'lishi kerak. Tashishga qabul qilib olingan bagaj uchun bagaj chiptasi beriladi.

Avtomobilning bagaj bo'limi parametrlariga ko'ra tashuvchi, avtomobilning umumiy sig'imi va yuk ko'taruvchanligini oshirmasdan,

tashishga qabul qilib olinayotgan bagaj o'rinlari soni va og'irligini ko'paytirishga haqlidir.

*Shahar atrofi yo'nalishlarida.* Qo'l yuki olib yurish shahar ichi yo'nalishlarida bepul olib yurilishiga ruxsat etilgan me'yorlar chegarasida amalga oshiriladi (4.2-paragraf. Qo'l yuki va bagaj tashish. 37-betga qarang).

Shahar atrofida tashishlarni hamda aviayo'lovchilarni aeroportlarga va aeroportlar o'rtasida tashishlarni amalga oshiruvchi, bagaj bo'limi mavjud bo'lgan avtobuslarda yo'lovchi ikkita bagaj o'rni uchun haq to'lagan holda har birining hajmi 100 sm x 50 sm x 30 sm dan ortiq bo'lmagan va 150 dan 200 sm gacha uzunlikdagi buyumlarni o'zi bilan olib yurish huquqiga ega.

O'lchami yuqoridangi bandda ko'rsatilgan eng katta hajmlarning hatto bittasidan ortiq bo'lgan bagaj belgilangan parametrlarga nomuvofiq hisoblanadi.

Shahar atrofi yo'nalishlaridagi avtotransport vositalarida bagajni olib yurishga chiptalar haydovchilar (mavjud bo'lganda – konduktorlar) tomonidan, chipta sotish kassalari tashkil etilgan yo'nalishlarning oxirgi manzillarida esa kassirlar (perron nazoratchilari) tomonidan sotiladi.

*Shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda* Yo'lovchi shaharlararo (xalqaro) yo'nalishlardagi avtotransport vositalarida o'zi bilan birga quyidagi bagajlarni olib yurish huquqiga ega:

– hajmi 60 sm x 40 sm x 20 sm bo'lgan va og'irligi 30 kilogrammdan ortiq bo'lmagan qo'l yukini, shu jumladan qafasga solingan holdagi mayda hayvonlar va parrandalarni yoki bir juft chang'ini (bolalar chanalarini), 150 sm gacha uzunlikdagi buyumni – bepul;

– bagaj bo'limi mavjud bo'lmagan avtobuslarda – hajmi 100 sm x 50 sm x 30 sm dan ortiq bo'lmagan va og'irligi 60 kilogrammdan ko'p bo'lmagan bagajni bitta joyi uchun tarif bo'yicha haq to'lagan holda;

– bagaj bo'limi mavjud bo'lgan avtobuslarda – hajmi 100 sm x 50 sm x 20 sm dan ortiq bo'lmagan, har birining og'irligi 60 kilogrammdan ko'p bo'lmagan bagajni va 150 sm dan 200 sm gacha uzunlikdagi buyumlarni – ikkita joy uchun haq to'lagan holda olib yurish.

Bagajning o'lchami yuqoridagi bandda ko'rsatilgan eng katta o'lchamlaridan bittasining o'lchamidan oshsa, belgilangan parametrlarga nomuvofiq hisoblanadi.

**Yo'lovchilar tomonidan unutilgan buyumlarni saqlashga topshirishni rasmiylashtirish** Yo'lovchilarning unutilgan buyumlari qatnov tugashi bilan haydovchi tomonidan avtovokzal (avtostansiya) smena navbatchisiga yoki tashuvchining navbatchi dis-petcheriga, ular bo'lmaganda esa – topilmalar idorasiga topshirilishi shart.

Avtovokzal (avtostansiya) navbatchisi, tashuvchining navbatchi dis-petcheri yoki topilmalar idorasi xodimi topilgan buyumlarni olib kelgan shaxs ishtirokida unutilgan buyumlarning ro'yxati bilan ikki nusxada dalolatnoma tuzishi shart.

Dalolatnoma tuzilgandan keyin omborchidan ikki nusxaga ham tilxat olinib, bittasi tashuvchida qoldiriladi, boshqasi esa omborxonaga topshirish uchun omborchiga buyurtmalar bilan birgalikda beriladi.

Avtovokzal (avtostansiya) navbatchisi yoki tashuvchining navbatchi dis-petcheri yo'lovchining avtotransport vositasida unutilgan buyumlarni qidirishga tegishli bo'lgan savollariga tushuntirish berishi shart.

#### **4.4. Bagaj mashinalarida bagajni tashish**

Yo'lovchi, bagaj (yuk) avtomobillari harakati tashkil etilgan shaharlararo (xalqaro) yo'nalishlarda, bagaj avtomobillarida bagajni tashishga topshirish huquqiga ega.

Yo'lovchilarning bagajlari yo'l chiptalari taqdim etilganda, bagaj avtomobillariga tashish uchun qabul qilinadi. Har bir yo'l chiptasiga (to'liq yoki bolalar chiptasiga) umumiy og'irligi 150 kilogrammdan yuqori bo'lmagan bagaj qabul qilinishi mumkin. Tashuvchi bagaj avtomobilining parametriga bog'liq holda, tashishga qabul qilingan bagajning joyini va og'irligini ko'paytirish huquqiga ega.

Tashish uchun topshirilayotgan bagaj o'zining o'lchamlari, o'rami hamda xususiyatlari bo'yicha bagaj avtomobiliga yuklash va joylashtirishda qiyinchiliklar tug'dirmasligi, shuningdek, boshqa yo'lovchilarning bagajiga zarar yetkazmasligi kerak. Butun tashish vaqtida bagajning idish va o'rami butunligini va saqlanganligini ta'minlashi lozim.



Bagaj o'ralganda bagajni yo'qotish xavfi yoki buzulishi mumkin bo'lgan kamchiliklar bo'lganda, bu kamchiliklar to'g'risida tashish hujjatlarida belgi qo'yilib, bagaj qabul qilinishi mumkin.

Bagaj avtomobilida bagajni jo'natishni xohlagan yo'lovchi, yukni oldindan topshirishi, lekin bagaj avtomobilining jo'nash vaqtiga 20 minut qolgunga qadar taqdim etishi lozim.

Bagajni tashish uchun qabul qilishning tasdig'i sifatida yo'lovchiga belgilangan namunadagi bagaj kvitansiyasi beriladi.

Yo'lovchi bagajni tashish uchun topshirganda, belgilangan tarif to'lovi bilan topshirilayotgan bagajning qiymatiga qarab, uning bahosini e'lon qilish huquqiga ega.

Bagaj belgilangan joyga yetib kelganda bagaj kvitansiyasini taqdim etuvchiga beriladi.

Yo'lovchidan alohida tashish uchun qabul qilingan bagaj yo'lovchi belgilangan joyga jadval bo'yicha yetib kelish kunidan kechikmasdan ushbu manzilga yetkazilishi kerak.

Yo'lovchi tomonidan talab qilib olinmagan bagaj avtovokzalda yoki belgilangan yetkazib berish manzilida tashuvchi tomonidan yetkazib berishning nazarda tutilgan muddatidan keyin 30 kun mobaynida saqlanadi. Bagaj saqlanganligi uchun tarif bo'yicha to'lov undiriladi.

Belgilangan yetkazib berish muddatidan 30 kun o'tgandan keyin talab qilib olinmagan bagaj sotilishi, sotishdan tushgan mablag' esa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqsimlanishi mumkin.

#### 4.5 Yo'lovchilarni imtiyozli tashish

**Avtomobil transportida harbiy yo'lovchilarni tashish.** Harbiy yo'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mitaning harbiylarni tashish hujjatlari bo'yicha transportda yurishi rasmiylashtirilgan shaxslar hamda ushbu hujjatlarda yozilgan ularning oila a'zolari kiradi.

Harbiy yo'lovchilarni tashish buning uchun keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki orqali markazlashtirilgan tartibda tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar

vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati hamda Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mita tomonidan harbiylarni tashish hujjatlari bo'yicha hisob-kitob qilingan holda bajariladi.

Harbiylarni tashish umumiy belgilangan tartibda Markaziy bankning limitlangan daftarchalaridan cheklar, banklar tomonidan akseptlangan to'lov topshiriqnomalari orqali yoki naqd pul bilan to'lanishi mumkin.

Harbiylarni tashish hujjatlari O'zbekiston Respublikasi hududida barcha avtovakzallarda (avtostansiyalarda) qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati hamda Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mitaning harbiy qismlari va muassasalari tomonidan tashishga rasmiylashtirilgan harbiylarni tashish hujjatlarida, ularning tegishli vazirlik va idoraga aloqadorligini aniqlovchi ajratib turadigan belgilari bo'lishi kerak.

Harbiylarni tashish hujjatlari avtomobil transportida shahar atrofida, viloyat ichida, viloyatlararo va xalqaro qatnovlarda yo'lovchilarning manzilga borishi va bagajni tashishga chiptalar olish uchun mo'ljallangan.

Harbiylarni tashish hujjatlariga quyidagilar kiradi:

– avtomobil transportida harbiy yuklarni va uy buyumlarini tashish uchun – talabnoma;

– avtomobil transportida viloyat ichi va viloyatlararo qatnovlarda manzilga borish uchun bir kishiga yoki soni ikki kishidan ziyod bo'lgan harbiy komandaga chiptalar olish uchun – talabnoma;

– bagajni tashish uchun – bagaj taloni. Bagaj talonlari jo'nash avtovokzallari (avtostansiyalari) kassalarida bagaj chiptalariga yoki kvitansiyalariga almashtiriladi. Barcha turdagi harbiylarni tashish hujjatlari jo'nash shoxobchasi chipta kassalarida umumiy shakldagi chiptalarga, bagaj chiptalariga yoki kvitansiyalarga almashtiriladi.

**Avtotransportda imtiyozli yoki bepul yo'l yurish huquqidan foydalanuvchi yo'lovchilar.** Shahar yo'lovchi transportidan yo'lovchilarni bepul foydalanishlari tartibi O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustdagi «Shahar yo'lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to'g'risida»gi Qonun asosida belgilab qo'yilgan. Ushbu qonunga muvofiq shahar yo'lovchilar transportidan

(taksidan tashqari) bepul foydalanish huquqi faqat quyidagi toifadagi kishilarga taqdim etiladi:

– 1941–1945-yillardagi urush qatnashchilari jumlasidan bo‘lmish harbiy xizmatchilar;

– 1941–1945-yillardagi urush nogironlari va urushning I guruh nogironiga hamrohlik qiluvchi shaxs;

– 1941–1945-yillardagi urush davrida front ortida fidokorona mehnati va benuqson harbiy xizmati uchun orden va medallar bilan taqdirlangan shaxslar;

– Afg‘oniston Respublikasida va boshqa mamlakatlarning hududidagi jangovar harakatlarda qatnashgan sobiq baynalminalchi jangchilar jumlasidan bo‘lmish fuqarolar;

– haqiqiy muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilar va kontrakt bo‘yicha oddiy askarlar hamda serjantlar tarkibidagi harbiy xizmatchilar;

– Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshdan kechirgan shaxslar;

– ko‘zi ojiz nogironlar va ko‘zi ojiz nogironga hamrohlik qiluvchi shaxs.

Avtotransportda bepul yoki imtiyozli yurish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarga, mansubligi yoki mulkchilik shaklidan qat‘i nazar yo‘nalishli avtobuslarda bepul va imtiyozli yurishga ruxsat beriladi.

Avtomobil transportida bepul yuruvchi, shuningdek, imtiyozli yurishdan foydalanuvchi yo‘lovchilar uchun avtomobil transportida yo‘lovchi tashishning amal qiladigan qoida va shartlari majburiydir.

Avtobuslarda bepul yoki imtiyozli yurish huquqiga ega bo‘lgan yo‘lovchilar tomonidan bagajni tashish va xizmatlar ko‘rsatish uchun to‘lovlar umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

#### **4.6. Jismoniy va yuridik shaxslarning buyurtmanomalari (buyurtmalari) yoki boshqa tashish shartnomalari bo‘yicha ularga beriladigan avtobuslar va yengil avtomobillarda yo‘lovchilar tashish**

Tashuvchi jismoniy va yuridik shaxslarga ularning buyurtmanomalari (buyurtmalari) yoki boshqa tashish shartnomalari bo‘yicha avtobuslar va yengil avtomobillar beradi.

Avtobuslar va yengil avtomobillar shahar tashqarisiga buyurtmanomalar (buyurtmalar) yoki boshqa tashish shartnomalari bo'yicha tashuvchining amaldagi yo'nalishlar tarmog'i yo'nalishi bo'yicha beriladi, amaldagi yo'nalishlarga mos kelmaydigan boshqa yo'nalishlar bo'yicha haydovchilarga oldindan harakat xavfsizligi bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatilgandan keyin beriladi.

Belgilangan yo'nalish bo'yicha qatnashishdan og'ishish, harakat tezligini oshirish, avtotransport vositasida belgilangan sig'ish normasidan ortiq yo'lovchi tashish, haydovchilarning mehnat tartibini va dam olishini buzish qat'iy man qilinadi.

Buyurtmanomada (buyurtmada), tashish shartnomasida buyurtmachi borish joyini, qatnash yo'nalishini, to'xtab o'tish joyini, tashilayotgan yo'lovchilar sonini, tashish uchun mas'ul shaxsning (guruh rahbari, ekskursionovod) familiyasi, ismi, otasining ismini, avtotransport vositasining buyurtmachi ixtiyorida bo'lish muddati ko'rsatilishi lozim.

Bolalarni tashishni tashkil etishga buyurtmanomalar tashuvchilar tomonidan guruhlarini o'qituvchilarning yoki maxsus belgilangan katta yoshdagi kishilarning (bitta katta yoshdagi kishiga 15 boladan ko'p bo'lmagan) kuzatib borish shartlari bajarilganda qabul qilinadi. Maktab yoshidagi bolalar guruhlarini tashishda ularga hamrohlik qilish uchun tibbiyot xodimlari ajratiladi.

Bolalarni ommaviy ravishda tashishda yo'l harakati qoidalarida belgilangan bolalar xavfsizligi bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ko'riladi.

Buyurtmanomalar (buyurtmalar) yoki boshqa tashish shartnomalari bo'yicha beriladigan avtobuslar va yengil avtomobillarda yo'lovchilar va bagajni tashishga tariflar miqdorini tashuvchi bilan mijoz o'rtasidagi shartnoma asosida belgilanadi. Ajratilayotgan avtobuslar va yengil avtomobillar ishlariga to'lov vaqtbay yoki ishbay tariflar bo'yicha belgilanishi mumkin.

Avtobus va yengil avtomobillardan foydalanish vaqti, uning garajdan chiqish vaqtidan garajga qaytish vaqtigacha haydovchining dam olish vaqti chiqarib tashlangan holda, buyurtmanomalar (buyurtmalar) ni yoki boshqa tashish shartnomalarini rasmiylashtirishda hisoblab chiqiladi.

#### 4.7. Taksilarda yo'lovchilar va bagaj tashish

Yo'nalishsiz taksilarda yo'lovchilar va bagaj tashish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 18-maydagi 139-son «Yo'nalishsiz taksilar faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan tasdiqlangan «Yo'nalishsiz taksilar uchun yagona tanish belgilari va ularning ishlarini tashkil etishga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Yo'nalishsiz taksilar yakka tartibda foydalanish tartibida shahar, shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro tashish bo'yicha xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan.

Yo'lovchilarni taksilarga chiqarish va tushirish quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi: taksilarning maxsus jihozlangan to'xtash joylarida; tegishli harakatlanish tarkibining to'xtashi ruxsat etilgan ko'cha-yo'l tarmog'i uchastkalarida; yo'lovchilarning buyurtmasi bo'yicha taksilarni yo'lga chiqarish joylarida.

Taksilarning yo'lovchilarni tashish va bagajni tashish tariflari miqdori tashuvchi tomonidan belgilanadi.

Yo'l haqi yo'lovchi tomonidan safar tugagandan keyin va bagaj tushirilgandan keyin u bilan kelgan yo'lovchilar hamda tashib keltirilgan bagaj sonidan qat'i nazar taksometr ko'rsatkichi bo'yicha to'lanadi. Haydovchi bilan hisob-kitob naqd pul bilan amalga oshiriladi.

Taksi bir necha yo'lovchilar (navbatda turgan birinchi yo'lovchining roziligi bilan) tomonidan to'xtash joyida yollangan yoki taksini yollagan yo'lovchi roziligi bilan yo'li bir bo'lgan yo'lovchi chiqarilgan taqdirda, yo'l haqiga to'lovning umumiy summasi yo'lovchilar o'rtasida har bir yo'lovchining bosib o'tgan masofasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Taksiga yo'lovchilarni chiqarishda haydovchi bagajni joylashtirishda yordam ko'rsatishi, safar tugaganda esa yo'lovchiga uning buyumlarini va bagajni tushirish to'g'risida eslatishi shart.

Taksiga buyurtma berilganda haydovchi avtomobil bilan naryadda ko'rsatilgan vaqtda kelishi shart.

Taksilar belgilangan to'xtash joylarida umumiy navbat tartibida yollanadi.

Shahar chetiga taksilarni yo'lga chiqarishga buyurtmalar dispetcher tomonidan telefon orqali va shaxsan yo'lovchidan qabul qilinadi.

Taksini yo'lga chiqarish qiymati buyurtmachi tomonidan buyurtma bo'yicha belgilangan tarifga muvofiq taksometr ko'rsatkichi bo'yicha to'lanadi.

Taksi yo'lovchining iltimosiga ko'ra tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida alohida to'lov evaziga yo'lovchini kutib turadi.

Taksilarning bagaj bo'limlarida bagajni tashish faqat yopiq bagajxona bo'lganda ruxsat beriladi.

Yo'nalishsiz taksilarning salonida avtomobil eshigi orqali bemalol sig'adigan, salon qoplamasini va uning uskunalarini buzmaydigan va iflos qilmaydigan, haydovchining avtomobilni boshqarishiga hamda orqani ko'rish ko'zgisidan foydalanishiga xalaqit bermaydigan har xil buyumlar va ashyolarni tashishiga ruxsat beriladi.

Mushuklar, itlarni tizgin va to'shagi mavjud bo'lganda tumshuqbog'larda, kichik jonivorlarni savatlarda, sumkalarda hamda qushlarni qafaslarda tashishga ruxsat etiladi.

**Yo'nalishsiz taksilarga qo'yiladigan talablar** Yo'nalishsiz taksi sifatida foydalaniladigan har bir avtotransport vositasi texnik jihatdan soz holatda bo'lishi va avtomobil transportida yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalarida belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi, shuningdek, quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- yagona tanish belgilarining mavjud bo'lishi;
- soz holatdagi plombalangan spidometr jihozlarining, belgilangan tartibda davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan nazorat-kassa mashinasining, shuningdek, to'lovlarni bank plastik kartochkalaridan qabul qilib olish uchun hisob-kitob terminalining mavjud bo'lishi;
- yo'nalishsiz taksi texnik holati va jihozlarining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishi.

Yo'nalishsiz taksi belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan taqdir-da ushbu avtotransport vositasi uchun litsenziya kartochkasining amal qilishini to'xtatish tarzidagi ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanadi.


**Yo'nalishsiz taksilar haydovchilariga qo'yiladigan talablar** Yo'lovchilar tashish uchun mo'ljallangan yo'nalishsiz taksilar-

ni boshqarishga haydovchilik guvohnomasida «V» ruxsat belgisi bo'lgan, 21 yoshga to'lgan, tibbiy ko'rikdan o'tgan va kamida uch yillik haydovchi stajiga ega bo'lgan shaxslar qo'yiladi.

Yo'nalishsiz taksilarning haydovchilari yo'nalishda ishlayotganda tegishli litsenziya kartochkasiga hamda yo'lga chiqishdan oldin avtotransport vositasining belgilangan tartibda texnik ko'rikdan va haydovchilarning tibbiy ko'rikdan o'tkazilganligi to'g'risida belgilar qo'yilgan yo'l varaqasiga ega bo'lishi kerak.


Haydovchi yo'lovchilarni yo'nalishsiz taksiga o'tqazishni va undan tushirishni yo'nalishsiz taksilarning maxsus jihozlangan to'xtash joylarida, tegishli harakatdagi tarkibning to'xtashiga ruxsat berilgan ko'cha-yo'l shoxobchalari uchastkalarida hamda yo'nalishsiz taksilar yo'lovchilar buyurtmalari bo'yicha beriladigan joylarda amalga oshiradi.

Yo'nalishsiz taksi haydovchisining belgilangan talablarga nomuvofiqi aniqlangan hollarda haydovchiga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan intizomiy yoki ma'muriy ta'sir ko'rsatish choralari qo'llaniladi.



4.1.-rasm. «TAXI» tanish belgisining tasviri va o'lchamlari (mm)

To'q sariq rangli fonar standartlarga yoki texnik shartlarga muvofiq belgilangan tartibda tayyorlanadi.



4.2.-rasm.Yo'nalishsiz taksilarning oldingi eshiklariga chiziladigan qora kvadratlar va «T» harfidan iborat kompozitsiyaning tasviri va o'lchamlari (mm).

#### 4.7.Tashuvchilarning, yo'lovchilarning va buyurtmanoma (buyurtma) bergan yoki boshqa tashish shartnomasini tuzgan shaxslarning javobgarligi, e'tirozlar va da'volar

**Tashuvchining javobgarligi** Yo'lovchilarni va bagajni tashish shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarilmagan yoki zarur darajada bajarilmagan taqdirda, tashuvchilar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi 482-son qarori bilan tasdiqlangan «Avtomobil transportida yo'lovchilar va bagajni tashish Qoidalari»da va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda moddiy javob beradilar.

Tashish uchun qabul qilingan bagajning yo'qolishi, kamomadi, buzilganligi yoki shikastlanganligi uchun, agar tashuvchilar yo'qolish, kamomad, buzilish yoki shikastlanish ularning aybi bilan bo'lmaganligini isbotlay olmasalar moddiy javob beradilar va zararlarni to'laydilar.

Bagajni tashishda yetkazilgan zarar tashuvchi tomonidan quyidagi miqdorda to'lanadi:



– bagaj yo‘qolgan yoki kamomadga yo‘l qo‘yilgan taqdirda – yuk yoki bagajning yo‘qolgan yoki yetmagan qiymati miqdorida;

– bagajga zarar yetgan (buzilgan) taqdirda – uning qiymati kamaygan summa miqdorida, shikastlangan (buzilgan) bagajni tiklash imkoniyati bo‘lmaganda esa, uning qiymati miqdorida;

– qiymati e‘lon qilingan holda tashish uchun topshirilgan bagaj yo‘qolganda – bagajning e‘lon qilingan miqdorida.

Ishiga vaqtbay tarif bo‘yicha haq to‘lanadigan avtobuslar va yengil avtomobillar tashuvchi tomonidan buyurtmanoma (buyurtma) yoki boshqa tashish shartnomalari bo‘yicha bajarish uchun qabul qilingan miqdorda yetkazib berilmaganda yoki ushbu avtobuslar va yengil avtomobillarni chiqarish kechiktirilganda, tashuvchi, agar tomonlarning kelishuvchida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, buyurmachiga buyurmanomada (buyurtmada) yoki shartnomada ko‘rsatilgan foydalanish vaqtidan kelib chiqqan holda avtobuslar va yengil avtomobillardan foydalanish qiymatining 10 foizini to‘laydi.

Shahar yo‘nalishlarida yo‘lovchilar tashishdan tashqari yo‘lovchilarni tashish uchun avtotransport vositasini jo‘natish kechikkanligi yoki belgilangan manzilga kechikib kelganligi uchun tashuvchi, agar kechikishlar yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari yoki tashuvchiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa sabablar oqibatida yuz berganligini isbotlab bera olmasa, yo‘lovchiga jarima shaklida neustoyka to‘laydi.

Yo‘lovchilarni tashish uchun avtotransport vositasini jo‘natish kechikkanligi yoki belgilangan manzilga kechikib kelganligi holati yuzasidan avtovokzal (avtostansiya)ning navbatchi dispetcheri tomonidan dalolatnoma tuziladi. Dalolatnomada avtotransport vositasining tasdiqlangan jadval bo‘yicha jo‘nash (yetib kelish) vaqti va haqiqatda jo‘nagan (yetib kelgan) vaqti ko‘rsatiladi. Dalolatnoma navbatchi dispetcher va ikki yo‘lovchi tomonidan imzolanadi. Avtovokzalda (avtostansiyada) navbatchi bo‘lmagan taqdirda, dalolatnoma kamida uchta yo‘lovchi tomonidan imzolanadi.

Avtotransport vositasining jo‘nashi (yetib kelishi) kechiktirilganligi uchun yo‘lovchiga to‘lanadigan jarima miqdori – jo‘nashi (yetib kelishi) kechikkanligining birinchi to‘liq soati uchun (60 minut) chip-ta bahosining 10 foizi hisobidan uning davomiyligiga bog‘liq holda, jo‘nash (kelish) kechikishining har bir keyingi 15 minuti uchun esa

chipta bahosining 3 foizi hisobidan aniqlanadi. Jarima umumiy summasi chipta bahosining 50 foizidan ortiq bo'lmazligi kerak.

Yo'lovchiga jarima tashuvchi tomonidan yoki avtovokzal (avtostansiya) boshlig'ining yozma ko'rsatmasi bo'yicha to'lanadi.

Yo'lovchiga to'langan jarima, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq avtotransport vositasining jo'nashga kechikkanligi yoki uning belgilangan manzilga yetib kelishi kechikkanligi oqibatida yetkazilgan zararni unga to'lash majburiyatidan ozod qilmaydi. Avtotransport vositasining jo'nashi kechikkanligi sababi bo'yicha yo'lovchi tashishni rad etgan taqdirda, tashuvchi yo'lovchiga yo'l haqi to'lovini hamda u tomonidan ko'rilgan boshqa xarajatlarni qaytarishi shart.

Tashuvchi yo'lovchining hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

**Yo'lovchilarning va buyurtmanoma (buyurtma) bergan yoki boshqa tashish shartnomasini tuzgan shaxslarning javobgarligi**  
Yo'lovchilar qonun hujjatlariga muvofiq avtotransport vositalari uskunasi va inventarlarining buzilishi yoki shikastlanishi uchun javob beradilar.

Ushbu avtotransport vositasida yurish yoki bagaj tashish huquqini bermaydigan chiptani yoki guvohnomani nazorat vaqtida ko'rsatgan shaxslar chiptasiz yo'lovchilar toifasiga kiradi. Qalbaki, noto'g'ri rasmiylashtirilgan yo'l chiptalari va guvohnomalar nazorat qiluvchi shaxs tomonidan olib qo'yilishi kerak.

Jarimalar O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan tartibda avtomobil transporti yoki ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan solinadi.

Yo'lovchi tomonidan jarima to'langanda, unga undirilgan summa ko'rsatilgan holda belgilangan shakldagi kvitansiya beriladi. Yo'lovchi tomonidan jarima to'lanishi, yo'lovchini yo'l chiptasi sotib olish yoki bagaj tashish to'lovidan ozod qilmaydi.

Avtotransportda yurishga va bagajni tashishga chiptasi bo'lmagan yo'lovchining avtotransportga chiqqan manzilini aniqlash imkoni bo'lmaganda, uning yurish va bagajini tashish qiymati jo'nash manzili-dan yetib kelish manziligacha bo'lgan masofa bo'yicha hisoblanadi.

Buyurtmanoma (buyurtma) bergan yoki boshqa tashish shartnomasi tuzgan shaxslar avtobuslar va yengil avtomobillardan foydalanishni

to'liq yoki qisman rad etganda ularning ishiga buyurtmanomada (buyurtma) yoki shartnomada ko'rsatilgan miqdorda vaqtbay tarif bo'yicha haq to'lanadi, ko'rsatilgan shaxslar tashuvchiga buyurtmanomada (buyurtmada) yoki shartnomada ko'rsatilgan foydalanish vaqtidan kelib chiqqan holda, avtobuslar va yengil avtomobillardan foydalanish qiymatining 10 foizini to'laydi.

Transport vositalarining ichki jihozlariga mijozlar tomonidan shikast yetkazilganda O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (O'zR MJTK)ning 121-moddasi asosida quyidagi miqdorlarda jarima solinishiga sabab bo'ladi:

– barcha turdagi maxsus transportlarning oynalari va ichki jihozlariga shikast yetkazish – eng kam ish haqining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi;

– avtobuslarning, taksilarning, marshrut taksilarning oynalari va ichki jihozlariga shikast yetkazish – eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Shahar ichida, shahar atrofiga, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda qatnaydigan avtobuslarda chekish, shuningdek, taksilarda, marshrut taksilarda chekish – eng kam ish haqining yigirmadan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTK 122-moddasi).

Avtomobil transportidan axlat yoki boshqa narsalarni tashlab yuborish – eng kam ish haqining o'ndan bir qismidan ikkidan bir qismigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTK 123-moddasi).

Transportda belgilangan yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish, fuqarolarga eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTK 124-moddasi).

**E'tirozlar, da'volar** Yo'lovchilar va bagajni tashish jarayonida paydo bo'ladigan e'tirozlar tashuvchiga jo'nash yoki yetib kelish manzilida e'tiroz bildiruvchining xohishi bo'yicha berilishi mumkin.

E'tiroz arizalarga e'tirozni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerak.

Tashuvchiga e'tirozlar 6 oy mobaynida, jarimalar to'lash to'g'risidagi e'tirozlar esa 45 kun mobaynida berilishi mumkin.

E'tirozlarni taqdim etish muddatlari quyidagicha belgilangan: bagajning buzilganligi, shikastlanganligi yoki kamomadi uchun

to'lovlar to'g'risidagi e'tirozlar bo'yicha – bagaj berilgan kundan; bagaj yo'qolganligi uchun zararni qoplash to'g'risidagi e'tirozlar bo'yicha – bagaj yetkazib berilgan muddatlar tugagandan 10 kundan keyin; qolgan barcha hollarda – e'tiroz bildirish uchun asos bo'ladigan voqealar bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi.

Tashuvchi e'tiroz olingan kundan boshlab quyidagi muddatlarda bildirilgan e'tirozni ko'rib chiqishi va uning qanoatlantirilishi to'g'risida arizachiga xabar berishi shart: avtomobil qatnovidagi tashishlardan paydo bo'ladigan e'tirozlar bo'yicha – 3 oy mobaynida; to'g'ri, aralash qatnovlarda paydo bo'ladigan e'tirozlar bo'yicha – 6 oy mobaynida; jarima to'g'risidagi e'tirozlar bo'yicha – 45 kun mobaynida.

E'tirozlar qisman qanoatlantirilganda yoki rad etilganda, tashuvchi bu haqdagi bildirishnomada qabul qilingan qarorning sababini ko'rsatishi hamda e'tirozlarga ilova qilingan hujjatlarni ariza beruvchiga qaytarishi kerak.

E'tirozlar to'liq summada qanoatlantirilganda arizaga ilova qilingan hujjatlar qaytarilmaydi.

Yo'lovchilar va bagajni tashishdan kelib chiqadigan da'volar sudga berilishi mumkin.

#### **4.8.Pochta tashish shartnomasi**

Pochta aloqasida transport vositalaridan foydalanish «Pochta aloqasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 20-moddasi «Pochta aloqasining transport vositalaridan foydalanish» asosida tashkil etiladi.

Pochta aloqasi operatorlari va provayderlarining pochta, kuryerlik jo'natmalari va pul mablag'larini tashish uchun o'zlariga tegishli transport vositalari: pochta vagonlaridan, avtomobillardan, shuningdek, shartnoma asosida yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalaridan foydalanadi.

Pochta aloqasi operatorlari va provayderlarining pochta, kuryerlik jo'natmalari va pul mablag'larini tashish uchun foydalaniladigan transport vositalari maxsus vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadigan maxsus farqlash belgilariga ega bo'lishi kerak.

Pochta aloqasi operatorlari va provayderlarining pochta, kuryerlik jo'natmalari va pul mablag'larini tashish uchun foydalaniladigan transport vositalari boshqa ishlarni bajarish uchun ularning roziligisiz foydalanilishi va olib qo'yilishi mumkin emas.

Shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchi hamda yuklarni muntazam tashuvchi avtomobil transportining xo'jalik yurituvchi subyektlari pochta aloqasi operatorlari bilan pochta, kuryerlik jo'natmalari va pul mablag'larini tashish shartnomalarini tuzishni rad etishga haqli emas.

Pochta aloqasi operatorlari va provayderlarining pochta, kuryerlik jo'natmalari va pul mablag'larini tashish uchun foydalaniladigan transport vositalari shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning ko'chalari bo'ylab, avtomobil yo'llarida to'siqsiz yurish hamda avtomobil, temiryo'l vokzallari va aeroportlar qoshida joylashgan pochta aloqasi obyektlariga, yuk (bagaj) majmualariga to'siqsiz kirish huquqiga ega.

Avtomobil transportidan aloqa tarmog'i yuklarini, shu jumladan asosan pochta yuklarini tashishda keng ko'lamda foydalaniladi. Avtomobil transporti yordamida aloqa tarmog'i yuklarining 65% dan ortig'i tashiladi.

Pochta yuklarini tashish deganda posilka, ro'znomalar, oynomalar turli xil maktublarni yig'ishtirish tushuniladi.

Pochta orqali jo'natilgan yuklarni doimiy ravishda, tez va sifatini saqlagan holda o'z egalariga yetkazib berilishi tufayli aholi yashaydigan punktlar o'rtasidagi va shahar ichidagi aloqalarni uzluksiz bo'lishi ta'minlanadi.

Shaharlarda avtomobillar aloqa bo'limlari va yirik davlat muassasalari, temiryo'l stansiyalari, aeroportlar, pristanlar o'rtasida yuk tashiydi, pochta qutilaridan yig'ishtirilgan xatlarni aloqa bo'limlariga olib keladi va posilkalarni tarqatadi, ro'znomalar va oynomalarni matbuot do'konlariga yetkazib beradi.

Shahardan tashqari avtomobillar pochta yuklarini aloqa tarmog'iga qarashli avtokorxonalar o'rtasida viloyatlararo, shaharlararo, tumanlararo va mahalliy pochta magistrallarida, shuningdek, temiryo'l stansiyasi, aeroport, pristan joylashgan yo'nalishlarda tashiydi.

Pochta yuklarini tashishni tashkil etish oqimning jadalligi va yo'nalishi hamda yukni yetkazish muddatlarining tig'izligi bilan xarakterlanadi. Viloyat, tumanlararo, mahalliy va shahar pochta oqimlari avtoyo'l pochta tarmog'ini vujudga keltiradi. Pochta yuklari oqimi uch ko'rinishda bo'ladi: maktab, davriy nashr, posilka (og'ir pochta). Bu oqimlarning har biri notekisligi bilan farqlanadi.

Pochta tarmog'ining konfiguratsiyasi yuk jo'natuvchi va yukni qabul qiluvchi punkt vazifasini bajaruvchi aloqa korxonalarining hududiy joylashuviga bog'liq bo'ladi.

Hududning iqtisodiy siyosiy-ma'muriy va madaniy-maishiy xarakterga ko'ra uzunligi to'rt turga bo'linadi: tumanlararo, viloyat ichidagi, mahalliy va shahar ichidagi.

Pochta xabarlarini tashkil etiladigan shahar tashqarisidagi yo'llar pochta magistral yo'llari deb ataladi. Pochta yo'l magistrallarini tanlashda yukni yetkazish tezligi, tashishda sarflanadigan xarajatlar va harakatdagi tarkibdan foydalanish darajasi hisobga olinadi.

Pochta yuklarini tashishda radial va aylanma marshrutlardan foydalaniladi. Radial marshrutlarda ikki tomonlama mayatniksimon harakat tashkil etiladi. Pochta yuklarini tashishda avtomobil transportining asosiy vazifasi yukning miqdori qancha bo'lishidan qat'i nazar zudlik bilan yetkazib berish bo'lganligi tufayli avtomobilning bajargan ishi avtomobilning bosib o'tgan masofasi asosida aniqlanadi, ya'ni avtomobilning bajargan ishining o'lchov birligi kilometrdan iborat bo'ladi. Harakatdagi tarkibning biror bir vaqt oralig'ida bosib o'tgan umumiy masofasi magistral, o'tish yo'llari yoki shahar ichidan aylanib o'tish yo'llarining uzunligi, shuningdek, yo'llardagi harakat chastotasiga bog'liq. Harakat chastotasi sutka davomida yoki ma'lum bir vaqt oralig'ida (hafta, oy va boshqalar) turlicha bo'lishi mumkin.

Harakatdagi tarkibning yillik bosib o'tgan masofasi korxonaning yil davomida uzluksiz yoki mavsumiy ishlashini e'tiborga olgan holda yo'l va iqlim sharoitlariga bog'liq holda radial va aylanma marshrutlar uchun alohida-alohida hisoblanadi. Sutka davomida uzluksiz ishlaganda bosib o'tilgan masofa tumanlararo va mahalliy magistrallar, o'tish yo'laklari va shahar marshrutlari uchun alohida-alohida aniqlanadi.

Barcha yo'nalishlar bo'yicha yuk tashish masofasini harakat chastotasiga nisbati harakatdagi tarkibning kilometrlarda ifodalangan

shartli ish hajmini aks ettiradi. Harakatdagi tarkibning barcha yo'nalishlar bo'yicha bajarigan ishlar hajmini tashkil etadi. Aloqa muassasalariga xizmat ko'rsatuvchi avtomobil transporti uchun ikkita tezlik – texnik va ekspluatatsion tezliklar belgilangan. Ekspluatatsion tezlik tahliliy ma'lumotlar asosida aniqlanadi va shaharlararo magistrallarda 20 km/soatni (pochta yuklarini jo'natish operatsiyalarini bajarishga ketgan vaqtni hisobga olgan holda), shahar marshrutlarida esa 15 km/soatni tashkil etadi.

Pochta yuklarini tashish yillik, oylik va kunlik rejalar hamda yukli bosib o'tiladigan masofa harakat chastotasi va umumiy bosib o'tiladigan masofa hisobga olinadigan soatbay harakat jadvali asosida tashkil etiladi.

Avtomobil transportini qat'iy grafik asosida harakatlanishini tashkil etish pochta yuklarini uzluksiz yetkazib berishning majburiy shartidir. Harakat grafigi «Viloyatlararo, shaharlararo, tumanlararo, mahalliy magistrallar, o'tish yo'laklari va shaharlarni aylanib o'tishni hisobga olish pasporti» ma'lumotlari asosida tuziladi. Pasportda boshlang'ich punktidan oxirgi punktga tomon harakatlanganda uchraydigan punktlarning nomlanishi, yo'l sharoiti, magistral yoki uning uchastkalarining ish vaqti, yuk almashish punktlari orasidagi masofa, hafta davomidagi harakat chastotasi, transport turi ko'rsatilgan bo'ladi.

Barcha grafik va jadvallarni tuzishda (shahardan tashqari marshrutda) sharoiti tufayli vujudga keladigan uzilishlar (tanaffuslar) hisobga olinadi.

Shaharlararo magistral yo'llarda uch turdagi harakat qabul qilingan: to'g'ridan to'g'ri, qarama-qarshi va estofetali to'g'ridan to'g'ri harakatlanish usuli bosib o'tiladigan masofa unchalik uzoq bo'lmagan magistrallarda tashkil etiladi. Bunda harakatdagi tarkib yuk jo'natish va yukni qabul qilish punktlari o'rtasida har ikki yo'nalish bo'yicha harakatlanadi. Shaharlararo magistrallarda olis masofaga yuk tashilganda qarama-qarshi harakat tashkil qilinadi. Bunda harakatdagi tarkib butun ish sxemasi davomida magistralning qarama-qarshi tomondagi pochta yuklarini almashish punktiga yetib boradi. Estafetali harakat ham shaharlararo magistral yo'l bir nechta uchastkaga bo'linadi va har bir uchastka uchun alohida harakatdagi tarkib birlashtiriladi. Pochta

yuklari har bir uchastkaning chegarasida joylashgan ma'lum punktlarda bir harakatdagi tarkibdan ikkinchisiga uzatiladi, ya'ni tashish yo'lda bir necha marta ortish-tushirish ishlari amalga oshirilgan holda tashkil etiladi.

Shahar sharoitida grafik va harakat jadvali shahardagi hayot tarziga va boshqa turdagi transportlarning harakatlanishiga qarab tuziladi.

Pochta qutilaridagi maktublarni yig'ishtirish markazlashgan va markazlashmagan usulda amalga oshirilishi mumkin. Bitta avtomobil 40–50 ta pochta qutisiga xizmat ko'rsatishi mumkin, shu me'yorga ko'ra avtomobilning harakatlanish grafigi va jadvali tuziladi.

Bitta avtomobilning bir yillik o'rtacha bosib o'tadigan masofasi shahar sharoitida 30 ming km gacha, magistral yo'llarida 40 ming km gacha deb qabul qilinadi. Avtomobillarga bo'lgan ehtiyoj shaharlararo, tumanlararo, mahalliy va shahar marshrutlari uchun alohida-alohida aniqlanadi va shundan so'ng olingan ma'lumotlar jamlanib, avtomobillarning zaruriy miqdori aniqlanadi.

### Nazorat savollari

1. Avtomobil transportida yo'lovchilar va bagajni tashish qanday normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etiladi?
2. Tashuvchining asosiy vazifa va majburiyatlari nimalardan iborat?
3. Yo'lovchilar transport vositalaridan foydalanishda qanday huquqlarga ega?
4. Yo'lovchilarning majburiyatlari.
5. Yo'lovchilarni tashish qanday turlarga bo'linadi?
6. Yo'lovchi tashishda foydalaniladigan transport vositalariga qo'yiladigan talablar.
7. Shahar yo'lovchilar tashish transporti turlari.
8. Qo'l yuki va bagaj tashish qoidalari.
9. Shahar yo'lovchilar transporti vositalariga qanday talablar qo'yiladi?
10. Shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarida yo'lovchilar va bagaj tashish.
11. Yo'lovchi tashishda yo'l haqi to'lash tizimi.
12. Yo'lovchilar tomonidan unutilgan buyumlarni saqlashga topshirishni rasmiylashtirish tartibi.
13. Bagaj mashinalarida bagajni tashish.
14. Avtomobil transportida harbiy yo'lovchilarni tashishda ularga qanday imtiyozlar beriladi?
15. Avtotransportda kimlar imtiyozli yoki bepul yo'l yurish huquqidan foydalanuvchi yo'lovchilar jumlasiga kiradi?



16. Jismoniy va yuridik shaxslarning buyurtmanomalari (buyurtmalari) yoki boshqa tashish shartnomalari bo'yicha ularga beriladigan avtobuslar va yengil avtomobillarda yo'lovchilar tashishning o'ziga xos xususiyatlari.

17. Taksilarda yo'lovchilar va bagaj tashish.

18. Tashuvchilarning, yo'lovchilarning va buyurtmanoma (buyurtma) bergan yoki boshqa tashish shartnomasini tuzgan shaxslarning javobgarligi.

19. E'tirozlar va da'volar.

20. Pochta tashish shartnomasi.

## **V BOB.**

### **ARALASH, TO'G'RIDAN TO'G'RI QATNOVDA YUKLARNI TASHISH SHARTNOMALARI**

#### **5.1. To'g'ri, aralash usulda yuk, yo'lovchi va yuk tashishni huquqiy tartibga solish**

Avtomobil transporti to'g'ri va aralash usulda yuk tashish jarayonini amalga oshirishda boshqa turdagi transport vositalari – temiryo'l, havo, daryo va dengiz transportlari bilan uzviy aloqadorlikda faoliyat ko'rsatadi.

Agar tashish jarayoni bir turdagi transportlarning bir necha korxonalar vositalari yordamida bajarilsa, bunday tashishlarni to'g'ri tashish tizimi deyiladi.

Agar tashish jarayoni yagona transport tizimining bir necha (ikki yoki uch) turida bajarilsa, bunday tashishlarni aralash tizimi deb ataladi. Aralash tashish tizimi yuklarni bir transportdan ikkinchisiga o'tkazishda tannarxining oshishiga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, avtomobil-temiryo'l transporti, avtomobil-suv transporti, avtomobil-suv-temiryo'l transporti, avtomobil-havo transporti ko'rinishidagi to'g'ri aralash tizimlari tashkil etiladi. Respublikamizda aksariyat holatlarda avtomobil-temiryo'l transporti tizimidan foydalaniladi.

To'g'ri aralash tashishning o'ziga xosligi shundan iboratki, bunda yuk butun tashish marshruti bo'ylab yagona transport hujjati asosida amalga oshiriladi. Bunda yukni yetkazib berish muddati avtomobil va boshqa turdagi transportni yetkazib berish muddatlari yig'indisi ko'rinishida aniqlanadi.

Avtomobil transportida aralash usulda yuk tashish avtomobil transporti qonunchiligi va yuklarni to'g'ri aralash tashish qoidalari asosida tartibga solinadi. Biror turdagi transport vositasida to'g'ri, aralash usulda yuk tashishda, tegishli transport faoliyatini tartibga solishga oid nizomlar, kodekslar va qoidalardan foydalaniladi.

To'g'ri, aralash yuk tashish aloqalariga quyidagilar kiradi:

- avtotransport korxonasi;
- temiryo'llarining barcha stansiyalari;
- dengiz portlari;
- daryo portlari va pristanlar;
- aeroportlar.

Shaharlararo muntazam yuk tashish transport vositalarining aniq tizimli harakatlanishi va haydovchilarning aniq ish rejimilari asosida amalga oshiriladi. Odatda shaharlararo muntazam yuk tashishda asosan ikki usulda yuk jo'natiladigan shaharlardan yuk qabul qilinadigan shaharlargacha qayta tushirilib ortmay qatnash, ya'ni to'g'ri tashish usuli va hududiy usuldan foydalaniladi.

To'g'ri tashish usulida avtomobil (avtopoezd) yukni qayta ortish tushirishsiz yuk jo'natuvchi punktidan yetkazib beradi.

Yuk tashishning hududiy usulida yuk tashiladigan marshrut bir nechta hududga ajratiladi. Yuk avtomobillarida faqat bir hudud chegarasida tashiladi va hudud chegarasida yuk boshqa transport vositasiga ortiladi. Yukni bir transport vositasidan ikkinchisiga ortishda transport vositalarining kuzovlarini almashtirish, konteynerlarni yoki yukni avtomobildan ikkinchisiga ortish orqali amalga oshiriladi. Avtomobillarda to'g'ri yuk tashish usulida avtomobil uzoq muddat avtotransport korxonasida bo'lmasligiga to'g'ri keladi. Bu esa avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida o'tkazishga to'sqinlik qiladi, shu bilan birga haydovchilarning ish sharoitini sezilarli darajada murakkablashtirib yuboradi (chunki haydovchilar uzoq muddat yurishlariga to'g'ri keladi). Haydovchilarni yo'lda dam olishlari tufayli yuk tashish tezligi keskin kamayib ketadi.

Yuk tashishda hududiy usuldan foydalanish harakat tezligi ortishini ta'minlaydi, ammo bunda hududlar chegarasida yukni bir avtomobildan ikkinchisiga qayta ortish talab etiladi. Ortish-tushirish ishlari esa ko'p vaqt talab qiladi.

**Shaharlararo yuk tashish ishlari tashkil etishning aralash usuli.** Yuk tashish ishlarini tashkil etishning aralash usuli, ya'ni yagona hujjat asosida yukni bir necha turda transport vositalari yordamida tashish, shaharlararo yuk tashishda keng tarqalgan usuldir.

Buning uchun yukni qayta ortib tushirmay tashish nisbatan maqsadga muvofiq.

Yuk tashish hajmining tobora o'sib borishi barcha transport turlari o'rtasida tashish ishlarini maqsadga muvofiq taqsimlashni va shu munosabat bilan transportning ayrim turlarini yanada rivojlantirishni to'g'ri belgilashni taqozo etadi.

Barcha transport turlarini kompleks rivojlantirish va ular o'rtasidagi yuk tashishning oqliona taqsimlash transportga sarflandigan mablag'larning samaradorligini oshiradi va yuk tashish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

U yoki bu transport turida yuk tashishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq har bir transport turining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari va yuk tashishdagi ishlab chiqarish shart-sharoitlari hisobga olingan holda hal etiladi.

Temiryo'l transporti bilan avtomobil transporti o'rtasida yuk tashishini oqilona taqsimlashning asosiy tamoyili ijtimoiy mehnat sarfini iloji boricha qisqartirishdir. Ijtimoiy mehnat sarfi iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi bo'yicha aniqlanadi va unga faqat yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar qiymatigina kirib qolmay natural ko'rsatkichlar qiymati (masalan, amortizatsiya xarajati) ham kiradi. Lekin qiymat ko'rsatkichlar muhimroq hisoblanadi, chunki ular aniq hisobga olinadi va muayyan ishlab chiqarish (yuk tashish) sharoitida transportning qaysi bir turini ishlatish afzalroq ekanligini aniqlash imkonini beradi.

Ba'zan ma'lum bir transport turidan foydalanishni baholashda qiymat ko'rsatkichlar yetarli bo'lmay qoladi. Bunday hollarda qo'shimcha ravishda natural ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Bularga, masalan, sarflangan yonilg'i miqdori, tashishda band bo'lgan ishchilar miqdorlari kabilar kiradi. Taqqoslanadigan qiymat ko'rsatkichlari yetarli bo'lmay qolganda natural ko'rsatkichlar transportning u yoki bu turini tanlashda yordam berishi mumkin.

Avtomobil va temiryo'l transportining oqilona tashish masofasini yuk tashishning qiymat ko'rsatkichi bo'yicha aniqlashda yuk tashish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni, ya'ni yukni magistral transport vositalarigacha olib kelish va undan tashib chiqish hamda ortish-tushirish ishlarini hisobga olish zarur. Yukni to'g'ri avtomobil transportida tashish xarajatlariga tashish xarajatlarining o'zi, ortish-

tushirish ishlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar; ombor ishlari xarajatlari; shuningdek, tashish tannarxini hisoblashda ishtirok etuvchi yo'l xarajatlari (bunday xarajatlar yo'l tipiga va undagi harakat tezligiga bog'liq) kiradi.

Tez buziladigan yuklarni tashishda ularni yetkazib berish tezligi boshqacha ahamiyat kasb etadi. Yuk tashish masofasi osha borishi bilan tez buziladigan yuklar sifati pasayadi; undan ko'riladigan ziyon orta boradi. Shu sababli transportning u yoki bu turini tanlashda tashalayotgan yuk sifatining pasayishi va undan ko'riladigan ziyon nazarda tutilishi lozim.

Eng samarali transport turini tashlashda yuk tashish tarif xarajatlari ko'rsatkichi bilan birga yuk tashish tezligi ko'rsatkichi ham katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida avtomobil transporti va temiryo'l transportining hozirgi shart-sharoitida barcha turdagi yuklarni 100 km masofagacha avtomobil transporti bilan tashishga o'tkazish maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Yuklarning ayrim turlari uchun bu masofa yanada kattadir. Jumladan:

Qum, shag'al, tosh, ko'mir, ruda – 125–130 km;

G'isht, sement, metall, un, don, qand lavlagi – 165–175 km;

Gazmol, poyabzal, konditer mahsulotlari – 230–240 km;

Meva, sabzavot, tirik qoramol, sut va sut mahsulotlari – 350–400 km;

Paxta xomashyosi (qop-qonasiz) – 500–550 km.

Yo'lovchi tashishda ham yuk tashishni tashkil etishdagi kabi transport turlari ishini muvofiqlashtirish va yo'lovchilar tashishda zaruriyatiga qarab aralash transport tizimi qo'llanishi juda katta ahamiyatga ega. Yo'lovchilarni aralash transport tizimi bilan tashishni tashkil qilishdan asosiy maqsad yo'lovchilarning safardagi vaqtini tejash va kira haqini arzonlashtirishdir. Bunga harakat tezligini oshirish, transport vositasini takomillashtirish va yo'l sharoitini yaxshilash, harakat muntazamligini ta'minlash, yo'lovchilar uchun maksimal qulaylik va shinamliklar yaratish bilan erishiladi. Yo'lovchilarning safardagi vaqtini tejash maqsadida poyezd va samolyotlar harakat grafiklariga avtobuslar grafiklari moslashtirib tuziladi. O'z navbatida, poyezdlar harakat grafiklariga samolyotlar harakat grafiklari moslanib

tuzilgan bo'lishi kerak. Turli xil transport vositalarida yo'lovchilarni aralash tashishda yo'l kira tariflari kelishilib belgilanadi. Yo'lovchi tashish tezligini oshirish samaradorligini aniqlash ancha murakkabdir. Shuning uchun ko'p hollarda yo'lovchilar tashish tezligini oshirish yo'lovchi-soat hisobidagi tejamini hisoblash bilan tugallanadi.

Ko'p hollarda harakatni tezlatish, ayrim qulaylik va shinamliklarni oshirish tashish tannaxlarining oshishiga sabab bo'ladi va bu tashish tarifi oshirilishini taqozo etadi. Agar harakat tezligini oshirish va shinamlikni yaxshilash bilan birga transport vositalari sig'imini ham keskin ko'paytirib bo'lsa, tashish tannaxlari oshmasligi ham mumkin.

Har bir transport turida ham yo'lovchilar tashishning muhim iqtisodiy xususiyatlaridan biri qo'llaniladigan tashish tariflarining ko'p hollarda tashish miqdoriga, transport vositasi foydalanish va rentabellik darajalariga bog'liqdir. Bir xil shart-sharoitlarda tashish tariflarining birmuncha arzon bo'lishi shu transport turiga qo'shimcha yo'lovchilarni jalb qilib, tashish tannaxini kamaytirishga olib keladi va, aksincha, tashish tarifining qimmat bo'lishi yo'lovchilar kamayishiga sabab bo'lib, tashish tannaxi qimmatlashishiga olib keladi. Demak, yo'lovchi transportlarida tashish tariflarining optimal darajasini belgilash qilingan xarajatlar samaradorligini hisoblashning muhim tomonlaridan biridir.

Aralash tashish tizimi qo'llanilganda yuklarni ishlab chiqarishdan iste'molchilarga yetkazishda bir transport turidan ikkinchisiga o'tkazish bilan bog'liq qayta ortish-tushirish tufayli transport vositalari ko'p turib qolmasligi keraklini hisobga olib, ularni katta taralarda, masalan, konteynerlarda yoki tagliklarda paketlab tashish maqsadga muvofiqdir. Aks holda yuklarni qayta ortish-tushirish ishlari ortishi natijasida xarajatlar ko'payib ketishi mumkin.

Yuklarni to'g'ri tashish tizimi qayta ortish-tushirishlarni kam ishlatish bilan birga tashish tezligini oshirish, sarf-xarajatlarni tejash imkoniyatini ham beradi. Lekin ayrim hollarda uzoq manzillarga yuk jo'natishda aralash yoki to'g'ri tashish tizimlari qo'llanishining texnik-iqtisodiy hisoblar bilan sinchiklab tekshirib turilishi zarur. Chunki to'g'ri tashish tizimida qo'llaniladigan transport vositalari (ko'p hollarda avtomobil transport)dan foydalanish umumiy xarajatlarni oshirib yuborishi mumkin. Bunga asosiy sabab avtomobil transportida

tashish tannarxining kattaligidir. Aralash tashish tizimi qo'llanishda tashkiliy va operativ boshqarishni tashkil etish ancha murakkab ko'rinishga ega.

Yuk va yo'lovchilar tashish jarayonida turli xil (kamida ikki turli magistral) transportlar tutashadigan joy transport uzeli deyiladi. Bunday transport turlari tutashadigan joylar va katta shaharlar, aholi yashaydigan punktlar, sanoat va sayohlik markazlari hamda dengiz, daryo portlari, avtomobil va temiryo'l bekatlarida bo'ladi. Mamlakat yagona transport tizimida transport uzellarining asosiy vazifasi magistral, sanoat va shahar transportlari tashish ishlarini o'zaro muvofiqlashtirishdan iborat bo'lib, ularning bu faoliyati xo'jalik ishlarini yuritish uchun juda katta ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Transport uzellarida quyidagi asosiy ishlar boshqariladi: tranzit yuk va yo'lovchilar oqimini bir yo'nalishdan yoki bir transport turidan ikkinchisiga o'tkazish; mazkur uzelda sanoat korxonalari va aholiga turli transportlar bilan xizmat ko'rsatish; magistral transportlarda keltirilgan yuklarni temiryo'l va avtomobil yuk bekatlari, portlar, ta'minot bazalari va yirik korxonalarining ortish-tushirish punktlariga yoki aksincha bunday punktlardan jo'natiluvchi yuklarni magistral transportigacha keltirish; yuklarni is'temolchilarga yetkazib berish uchun transportning tashqi turlaridan ichki yuk transportiga (yoki aksincha) o'tkazish; turli xil transport vositalarini qabul qilish, jo'natish, sortirovka qilish, texnik ta'minlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish va boshqalar.

## **5.2. Avtomobil transportidan boshqa transportlarga yukni topshirish yoki qabul qilish tartibi**

Yuk yukni qabul qilib oluvchiga tovar-transport nakladnoyida belgilangan punktda topshiriladi. Yukni qabul qilib oluvchi yukni yuk jo'natuvchidan qabul qilib olish va belgilangan manzilga yetkazib borilgandan so'ng yukni avtomobildan tushirish majburiyatini oladi.

Yuk tushirilgandan so'ng avtomobil kuzovi va konteynerlar yuk qoldiqlaridan va axlatlardan tozalanadi, qoramol, qushlar, tez buziluvchan yuklar tashilganda harakatdagi tarkib kuzovi yuvib tozalanadi va zaruriyatga qarab dezinfeksiya qilinadi.

Yuk belgilangan manzilga yetkazib kelinganda, uni yuk qabul qiluvchiga yuk jo'natuvchidan qaysi o'lchov birligida qabul qilingan bo'lsa (og'irligi, hajmi, o'rinlar soni bo'yicha), o'sha o'lchov birligida topshiriladi.

Yuklar temiryo'l stansiyalari, portlar va aeroportlardan markazlashgan holda tashilganda avtotransport korxonasi yukni qabul qilish va topshirishda mos ravishda temiryo'l, suv va havo transportiga tegishli qoidalarga asoslanadi.

Avtomobillar, tirkamalar, avtomobilning alohida seksiyalari, konteynerlar va sisternalarda yuk jo'natuvchining plombasiga shikast yetkazmay kelingan yuklar yukni qabul qiluvchiga uning vazni, yukning holati va yuk o'rinlari sonini tekshirmay topshiriladi.

Yukni qabul qiluvchi punktda avtomobilni tortish tarozilari bo'lmagan hollarda uyumli yuklarni, ularda yetishmaslik holatlari sezilmaganda yuk vaznini tekshirmay qabul qilinadi.

Yukni qabul qilish punktida yukning vazni tortilganda uning vazni yuk jo'natuvchi tomonidan rasmiylashtirilgan tovar-transport nakladnoyida ko'rsatilgan miqdordan kam chiqqanda, quyidagi hollada yuk tashuvchi material javobgarlikka tortilmaydi:

a) yuk vaznining tabiiy kamayishi normasi doirasida;

b) tarozilar ko'rsatkichi aniqligi o'rtasidagi farq me'yori yoki tortish aniqligi me'yori normasi doirasida bo'lganda.

Yuk tashish jarayonida, ortish-tushirish ishlarini bajarishda va yukni omborxonalarda saqlashda yukning butligini saqlash bo'yicha barcha ehtiyotkorlik choralari ko'rilishiga qaramay yukning bir qismi tabiiy xususiyatlariga ko'ra kamayadi yoki yo'qoladi.

**Yuk vaznining tabiiy xususiyatlariga ko'ra yo'qotilishi (kamayishi)**, deganda yukni saqlash yoki tashishda javobgar bo'lgan kishilarga bog'liq bo'lmagan holda tabiiy ta'sirlar natijasida yukning dastlabki og'irligini o'z tabiiy xususiyatlariga ko'ra yo'qotilishi (kamayishi) tushuniladi. Tabiiy yo'qotish qurib kamayishi (uchuvchanlik, bug'lanish, shamollash), oqib (sirqib) chiqib ketish (sizish, erish), sochilish va boshqa ko'rinishlarda amalga oshadi.

Tashish jarayonida yuk vaznining tabiiy yo'qotilishi miqdoriga ob-havo va tashish fasli, yuk xususiyatlari, taraning sifati va holati, kuzovning holati va uni tashilyotgan yuk turiga mos kelishi, yo'lning



holati, yuk tashish masofasi va harakat tezligi, yuk ortish-tushirish uslubini, yuk ortuvchilarning malakasi va shu kabi omillar ta'sir etadi.

Avtomobillarda yuk tashishda yukning tabiiy yo'qolishining ruxsat etilgan miqdori yukning tabiiy yo'qotilishi me'yori asosida belgilab qo'yilgan. Yuk miqdorini belgilangan me'yordan ortiq kamayib ketishi noqonuniy hisoblanadi va bunday holda albatta dalolatnoma tuziladi.

Yukni talab darajasida saqlanmasligi, ortish-tushirish ishlarini yomon tashkil etilishi, yukka nisbatan ehtiyotsizlik qilish natijasida yuk miqdorining yo'qotilishi tabiiy yo'qotishlar jumlasiga kirmaydi. Yukni saqlash va tashish jarayoni talab darajasida bo'lmasligi yuk miqdorining kamayishi bilan birga uning sifatining yomonlashuviga olib keladi. Buning uchun aybdor shaxslar javobgardir.

Yo'qotishlar aniqlanib va ularni haqiqiy sabablari o'rganib chiqilgandan so'nggina yukning tabiiy yo'qotilishi me'yori qo'llaniladi. Zavod tomonidan maxsus idishlarga o'rab joylangan yuklar uchun tabiiy yo'qotish me'yori qo'llanilmaydi. Bunday yuklar yuk o'rni miqdori bo'yicha qabul qilinadi va topshiriladi (bunda yuk joylangan idishga o'ralgan g'ilof buzilmagan bo'lishi lozim).

Tabiiy yo'qotish tashilgan yukning har bir partiyasi uchun (tarali yuklar uchun esa har bir yuk o'rni uchun) hisoblanadi.

Yukning tabiiy yo'qotilishini me'yorlashtirish muhim ahamiyatga ega. Me'yor yo'qotilishi mumkin bo'lgan, ba'zan asrab qolinishi mumkin bo'lgan yuk miqdorini chegaraviy qiymatini belgilab beradi va ayni bir paytda yukning yo'qotilishiga qarshi kurash usuli hisoblanadi.

Yuk miqdori yukning tabiiy yo'qotilish me'yoridan ortiq miqdorda kam chiqqan hollarda tashuvchi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 721-moddasi «Yuk yoki bagaj yo'qolganligi, kam chiqqanligi va ularga shikast yetkazilganligi (buzilganligi) uchun tashuvchining javobgarligi» bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Agar tashuvchi yuk yoki bagajning yo'qolishi, kam chiqishi yoki shikastlanishida (buzilishida) o'zining aybi yo'qligini isbot qilib bera olmasa, tashish uchun qabul qilib olgan yuk va bagaj yo'qolganligi, kam chiqqanligi yoki ularga shikast yetkazilganligi (buzilganligi) uchun javobgar bo'ladi.

Yuk yoki bagajni tashish vaqtida yetkazilgan zarar tashuvchi tomonidan quyidagi miqdorda to'lanadi:

– yuk yoki bagaj yo‘qolgan yoxud kam chiqqan taqdirda yo‘qolgan yoki kam chiqqan yuk yohud bagajning qiymati miqdorida;

– yuk yoki bagajga shikast yetkazilgan (buzilgan) taqdirda uning qiymati qancha pasaygan bo‘lsa, shuncha summa miqdorida, shikastlangan (buzilgan) yuk yoki bagajni tiklash mumkin bo‘lmaganida esa, uning qiymati miqdorida;

– bahosini e‘lon qilgan holda tashishga topshirilgan yuk yoki bagaj yo‘qolgan taqdirda yuk yoki bagajning e‘lon qilingan qiymati miqdorida.

Transport tashkiloti real zararni to‘lash bilan birga yo‘qolgan, kam chiqqan yoki shikastlangan (buzilgan) yukni tashish uchun olgan kira haqini, agar u yukning bahosiga kirmasa, jo‘natuvchi (oluvchi)ga qaytarib beradi.

Jo‘natuvchi tashuvchidan yuklar yo‘qolishi, kam chiqishi yoki shikastlanishi (buzilishi) tufayli yetkazilgan boshqa zararni ham to‘lashni talab qilishga haqli.

Yuk yo‘qolganligi, kam chiqqanligi, shikastlanganligi (buzilganligi) uchun bir yo‘nalishda har xil transportda tashuvchilar yuk jo‘natuvchi (yuk oluvchi) oldida solidar javobgar bo‘ladilar.

Agar oxirgi tashuvchi yukning kechikib kelishida tashuvchilarning aybi yo‘qligini isbot qilib bera olmasa, yukning kechikib kelganligi uchun javobgar bo‘ladi.

Quyidagi tashishlarda yuklarni saqlab borishga avtotransport korxonalarini javob bermasliklari mumkin:

– tashiladigan yuklarni maxsus shaxslar qo‘riqlab borishi lozim bo‘lsa (qimmatbaho metall, tosh, zargarlik buyumlari va shu kabilar);

– tashiladigan yuklar yo‘lda qarovni talab etsa (qora mollar, parandalar);

– agar tashilayotgan yuk taralari buzuq bo‘lsa;

– tashiladigan yuklar alohida sharoit talab etsa (xavfli yuklar, maxsus upakovka etilmagan shisha va farfor buyumlar va h.k.) yoki xususiyatiga ko‘ra buziluvchi yuklar.

Transport vositasini ma‘lum yuk uchun soz va yaroqli deb uni shunday holati tushuniladiki, bunda yuklarni asramay tashish umuman istisno etiladi. Agar ortish uchun ajratilgan transport vositasi (konteyner, sistema, tirkama) o‘zining texnik holati bilan tashishda

yuklarni asrashni ta'minlarnas ekan, yuk jo'nativchi transport vositasi va konteynerlarga yuk ortishni rad qilishi kerak.

Bunday talablarga yuk jo'nativchi rioya qilmaganida harakatdagi tarkibning nosozligi yoki yaroqsizligi oqibatida yuklarning yo'qolishi, kam chiqishi, buzilishi yoki shikastlanishi uchun javobgarlik yuk jo'nativchi zimmasiga yuklanadi. Lekin, harakatdagi tarkibning nosozligi pinhona (yashirin) xarakterda bo'lsa yoki yo'l safarida vujudga kelsa, asramay yuk tashish uchun javobgarlik yuk tashuvchi (avtotransport korxonasi) zimmasiga yuklanishi kerak.

Yuk ortish avtomobil transporti vositalarida amalga oshirilganida, harakatdagi tarkibning texnik nosozligi oqibatida vujudga kelgan yuklarning yo'qolishi, kam chiqishi, buzilishi yoki shikastlanishi kabi holatlar uchun javobgarlik avtotransport korxonasi zimmasiga yuklanadi. Transport vositalarining yoki konteynerlarning pinhona nosozligi yoki tashish paytida vujudga kelgan nosozligi bilan bir qatorda, yuk jo'nativchi yukni ortishgacha aniqlashi lozim bo'lgan oshkora nosozlik uchun javobgarlik avtotransport korxonasi va yuk jo'nativchi zimmasiga yuklanishi kerak (aralash javobgarlik).

Uyub tashiladigan boshqoli don ekinlari yuklarini, moyli va loviya ekinlari urug'larini, omixta yemlari og'irligini yuk jo'nativchining qabul qiluvchi-topshiruvchisi tarozida aniqlaydi va yukxatida uning imzosi bilan tasdiqlanadi, yuk jo'nativchida transport vositalarini yoki elevator tarozilari mavjud bo'lmasa, yukning og'irligini yuk jo'nativchi punktning transport vositalarini tortish tarozilarida yukni qabul qiluvchi-topshiruvchisi bilan birgalikda aniqlaydilar va yukxatida o'z imzolari bilan tasdiqlaydilar.

Tez buziluvchan yuklarni tashishdagi nobudgarchilikdan xalos bo'lishi uchun, yuk jo'nativchi punktlar sifat haqidagi guvohnomada yoki sertifikatda ko'rsatilgan transportabellik muddatini qoida asosida aniqlangan yukni yetkazib berish muddatiga muvofiq ekanligiga qat'iy nazorat o'rnatishlari kerak.

Yuk jo'nativchi tez buziluvchan yuklarni qabul qilib olishda tashish muddati chegarasini inobatga olishi lozim. Ular ba'zi bir yuklar uchun yil fasllari, harakatdagi tarkiblarning turi muvofiqiligida belgilangan. Agar yukning yetkazib berish muddati uning tashish muddati chegarasidan ortiq bo'lsa, bunday yuklar tashishga qabul qilinmaydi.

Nozik, tez buziluvchan o'simliklar va yangi uzilgan gullar tashish paytida maxsus parvarishni talab etadi. Shuning uchun ular faqat yuk jo'natuvchining kuzatuvchisi nazorati ostida tashiladi.

Yuklar topshirilganidan so'ng, jo'natuvchidan oluvchigacha bo'lgan yuk tashish jarayoni tugaydi. Yuk topshirishni amalga oshirib tashuvchi yuk tashish shartnomasidan kelib chiqadigan o'zining majburiyatlarini bajaradi.

Yukni tashishga qabul qilishda va uni yo'l safaridagi tashishda qilingan hamma xato va kamchiliklar, yukni topshirishda ochiq - oydin namoyon bo'ladi. Shuning bilan bir qatorda yuk topshirishni lozim darajada bajarmaslik uni asramay tashish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha zararlarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

### **5.3. Bevosita to'g'ri va bevosita to'g'ri aralash qatnovlarda yuk tashish huquqiy munosabatlari**

To'g'ri, aralash usulda yuk, yo'lovchi va yuk tashishni huquqiy tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining «Avtomobil transporti to'g'risida»gi, «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonunlari, Fuqarolik va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksilari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan foydalaniladi

Avtomobil transportida yo'lovchilar, bagaj va yuklarni temiryo'l, dengiz, daryo, havo transporti va transportning boshqa turlari bilan o'zaro hamkorlikda tashish yagona transport hujjatidan hamda shunday tashishni tashkil etish tartibidan foydalangan holda amalga oshirilayotgan paytda yuzaga keladigan munosabatlar tashuvchilar o'rtasidagi bitim bilan tartibga solinadi (O'RQ «Avtomobil transporti to'g'risida» 15-modda).

**Transport tashkilotlari o'rtasidagi shartnomalar.** Har xil transport tashkilotlari o'rtasida yuk tashishni ta'minlashga qaratilgan ishlarni tashkil etish haqida shartnomalar (asosiy kelishuvlar, yuklarni markazlashtirilgan tartibda tashib keltirish (tashib ketish) shartnomalari va boshqalar) tuzilishi mumkin. Bunday shartnomalarni tuzish tartibi transport ustavleri va kodekslari, boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi (O'R FK 723-modda).

Avtomobilida tashish «Avtomobil transporti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasida ta'kidlab o'tilganidek «Avtomobilida tashishlar shahardagi, shahar atrofidagi, shaharlararo va xalqaro tashishlarga bo'linadi». Ammo tashish shartnomasi ishtirokchilari faqatgina avtotransport korxonasi bo'libgina qolmay, balki boshqa turdagi transport tashkilotlari ham bo'lishi mumkin. Bu holatda bir yo'nalishda har xil transportda (aniqrog'i – bevosita to'g'ri aralash qatnovda) tashish yuzaga keladi. FKning «Bir yo'nalishda har xil transportda tashish» deb nomlangan 713-moddasida bunday tashishlarni transportning barcha turlari uchun umumiy bo'lgan ta'rifi berilgan, ya'ni «Har xil transportda yagona transport hujjati asosida yo'lovchi, bagaj va yuk tashilganida (bir yo'nalishda har xil transportda tashish) transport tashkilotlarining o'zaro munosabatlari, shuningdek, bunday tashishning tashkil qilish tartibi bir yo'nalishda har xil (aralash) transportda tashishga doir qonun hujjatlariga muvofiq tegishli turdagi transport tashkilotlari o'rtasidagi kelishuv bilan belgilanadi».

Bevosita to'g'ri aralash qatnovda tashish butun yo'l safariga tuzilgan yagona transport hujjati asosida amalga oshiriladi. Ushbu holatda yuk tashishning murakkab huquqiy munosabatlari vujudga kelib, qaysiki uning ishtirokchilari yukning yo'l safarida joylashgan barcha turdagi transportning tashkilotlaridir. Bevosita to'g'ri aralash qatnovlardagi huquqiy munosabatlar, jo'natish punktida joylashgan transport tashkiloti bilan yuk jo'natuvchi yoki yo'lovchi tuzgan yagona shartnoma asosida vujudga keladi. Fuqarolik huquqlaridagi hukm surayotgan mulohazaga ko'ra bevosita to'g'ri aralash qatnovda shartnoma bo'yicha yuk jo'natuvchiga qarama-qarshi turadigan taraf tashish jarayoning barcha ishtirokchilari hisoblanadi. Yuk jo'natish punktidagi transport tashkiloti va barcha keyingi transport tashkilotlari tashish ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydigan huquqiy shakl – vakillik hisoblanadi. Yuk jo'natish punktidagi transport tashkiloti tashish shartnomasini tuzishda, o'zining nomidan va tashish bo'yicha majburiyatlarni bajarishda ishtirok etuvchi barcha transport tashkilotlari nomidan ularning qonuniy vakili bo'lib qatnashadi.

Bevosita to'g'ri va bevosita to'g'ri aralash qatnovlarda yuk tashish shartnomasini tuzishda ko'p sonli qarzdor– tashuvchilar o'rtasidagi majburiy huquqiy munosabatlar vujudga keladiki, ularning har biri

o'zidan oldingi transport tashkilotidan yukni qabul qilib, munosib yuk safari uchastkasida tashish bo'yicha o'zining, dastlabki transport tashkiloti tuzgan shartnomadan kelib chiqqan, majburiyatlarni bajarishi kerak bo'ladi.

Boshqa transport tashkiloti nomidan tashish shartnomasini tuzishdagi dastlabki transport tashkilotining vakolati, transport muassasalari avtostansiyalarini, temiryo'l stansiyalarini, daryo va dengiz portlarini, pristanlarini, zarur holatlarda esa aeroportlarni tashish shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini tashkil qiluvchi operatsiyalarni bajarish uchun ochish va ularni mazkur turdagi yo'nalishga kiritish haqida nashr etilgan, maxsus me'yoriy aktlarga asoslanadi.

Shuning uchun yukni yo'l safarida faoliyat ko'rsatadigan barcha transport tashkilotlari yukni tashish shartnomasining ishtirokchilari bo'ladilar. Tashish shartnomasida ularning ishtirok etishiga, yukning yo'l safarida va uni bir transportdan ikkinchisiga qayta ortish punktlari ko'rsatilgan yuk tashish hujjatlariga yuk jo'natuvchi imzo chekish yo'li bilan o'zining roziligini bildiradi. Yuk jo'natish punktidagi transport tashkiloti bevosita to'g'ri va bevosita to'g'ri aralash qatnovda yuk tashish shartnomasiga kira turib, uni faqat o'zi uchun emas, balki yukning yo'l safarida joylashgan barcha transport tashkilotlarining qonuniy vakili sifatida ular uchun ham tuzadi. Har bir navbatdagi transport yukni yukxati bilan birgalikda qabul qila turib, tashish shartnomasining tarafi sifatida shartnoma shartlariga muvofiq tashishni davom ettiradi va yukni qo'shni transport tashkilotiga topshirgunga qadar yukning harakat yo'nalishidagi o'zining uchastkasida shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun javob beradi. Lekin tashish shartnomasi majburiyatlari bajarilmaganida yoki lozim darajada bajarilmaganida, yuk jo'natuvchining yoki yuk oluvchining oldida bevosita ayrim transport tashkiloti emas, balki tashishda ishtirok etgan har bir transport turining barcha transport tashkilotlari javobgar bo'ladilar. Bunday holatlarda har bir transport nomidan tayinlangan punktdagi transport tashkiloti ishtirok etadi. Yuk jo'natuvchining yoki yuk oluvchining tegishli talablari qanoatlantirilganidan so'ng tayinlangan punktdagi transport tashkiloti zararni mazkur transport turidagi aybdor transport tashkilotining zimmasiga o'zaro hisob-kitob tartibida yuklaydi.

Bevosita to'g'ri va bevosita to'g'ri aralash qatnovlarda yuk tashish jarayoni murakkabligi va unda har turli transport tashkilotlari ishtirok

etishi sababli amaldagi qonunchilikda tashish shartnomasi majburiyatlarini tashuvchilar bajarmaganida yoki lozim darajada bajarmaganida kelib chiqadigan talablarni yuk tayinlangan punktdagi transport tashkilotiga qo'yiladi.

Yuk jo'natuvchiga (yukni qabul qiluvchiga) qaerda va qaysi transport tashkilotida tashish shartnomasi buzilishi sodir etilganligini aniqlash majburiyatini yuklash va buning asosida aybdorga talab (da'vo) qo'yish (qo'zg'atish) mutlaqo umidsiz ish bo'lib, befoyda vaqt va mablag' sovurishga olib keladi; haqiqatda esa, yuk egasiga yetkazilgan zararni qoplash (tashuvchiga talab qo'yishni va da'vo qo'zg'atishni belgilangan muddatlari qisqaligi inobatga olinsa) katta shubha ostida qoladi. Aksincha, hamma transport tashkilotlari-tashish ishtirokchilari esa, tashish jarayonining yagonaligi bois o'zaro bog'lanishdadir, ya'ni har bir transport tashkiloti o'zining uchastkasida yuk tashishni tugatib va uni boshqa transport tashkilotiga tashish uchun topshira turib, bu topshirishlarni lozim darajada rasmiylashtiradi, tegishli holatlarda esa o'zining uchastkasida sodir bo'lgan tashish shartlarini barcha buzilishlarini qayd qilib qo'yadi. Shu sababli, ular uchun tashish shartlarining buzilishi qachon va qaerda sodir bo'lganligini aniqlash katta qiyinchilik tug'dirmaydi (keltirib chiqarmaydi).

Shunday qilib, barcha transport tashkilotlari-tashish ishtirokchilari yuk jo'natuvchi (yuk oluvchi) oldida yagona tashuvchidek bo'lib turishini, tashish shartlari buzilishi yoki yukni yetib kelmaslik faktlari haqida esa faqat tashish jarayoni tayinlangan punktda tugallanganidan so'ng ma'lum bo'lishi inobatga olinsa, nima uchun dastlabki tegishli talab (da'vo) yuk tayinlangan punktdagi transport tashkilotiga qo'yilishi (qo'zg'atilishi) tushunarli bo'ladi. Ammo, bu tashishda qatnashgan boshqa transport tashkiloti yuk egasi oldida umuman javob bermaydi degan ma'noni bildirmaydi. Agar bevosita to'g'ri aralash qatnovda yuk tashishda oxirgi tashuvchiga yuk egasining qo'ygan talabiga, qayta yuklash punktidagi transport tashkiloti javobgar bo'lsa, bunday holatda oxirgi tashuvchi talabni ana shu javobgar transport tashkilotiga yuboradi va bu haqida talab qo'yuvchini ogohlantiradi. Bunda qayta ortish punktidagi talabni olgan transport tashkiloti, qo'yilgan talabga javobni to'g'ridan to'g'ri arz qiluvchiga bermaydi (jo'natmaydi), balki oxirgi tashuvchi orqali beradi. Agar talab inobatga olingan bo'lsa, le-

kin uning qarori arz qiluvchini qanoatlantirmasa, yuk egasi to'g'ridan to'g'ri ushbu tashkilotga da'vo qo'zg'atishi mumkin. Qachonki qayta yuklash punktidagi transport tashkiloti talabni rad etganligi sababli tayinlangan punktdagi transport tashkilotiga da'vo qo'zg'atilganida ham, qayta yuklash punktidagi transport tashkiloti javobgarlikdan ozod etilmaydi.

### **Nazorat savollari**

1. Avtomobil transporti to'g'ri va aralash usulda yuk tashish jarayonini amalga oshirish tartibi.
2. Shaharlararo yuk tashish ishlari tashkil etishning aralash usulining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Yuk va yo'lovchilar tashish jarayonida turli xil transportlar tutashadigan uzellarning ahamiyati.
4. Avtomobil transportidan boshqa transportlarga yukni topshirish yoki qabul qilish tartibi.
5. Yuk vaznining tabiiy xususiyatlariga ko'ra yo'qotilishi (kamayishi) deganda nimani tushunasiz?
6. Yuk yoki bagajni tashish vaqtida yetkazilgan zarar tashuvchi tomonidan qanday miqdorda to'lanadi?
7. Yuk miqdori yukning tabiiy yo'qotilish me'yoridan ortiq miqdorda kam chiqqan hollarda tashuvchi qaysi normativ-huquqiy hujjat bo'yicha javobgarlikka tortiladi?
8. Avtotransport korxonalari tashishlarda qanday hollarda yuklarni saqlab borishga javob bermasliklari mumkin?
9. To'g'ri, aralash usulda yuk, yo'lovchi va yuk tashishni huquqiy tartibga solishda qaysi normativ-huquqiy hujjatlardan foydalaniladi?
10. Transport tashkilotlari o'rtasidagi shartnomalarning xususiyatlari.



## VI BOB.

### TRANSPORT-EKSPEDITSIYA XIZMATI KO'RSATISH

#### 6.1. Korxonalar va tashkilotlarga transport-ekspeditsiya xizmati ko'rsatish

Yukni yuk jo'natuvchining omborxonasidan qabul qilib olib yukni qabul qiluvchining omborxonasiga yetkazib berishda yukni siljitish va siljitishni tashkil etish bilan bog'liq bajariladigan barcha operatsiyalar majmuasi transport-ekspeditsiya xizmati ko'rsatish deyiladi.

**Ekspeditor** – transport ekspeditsiyasi shartnomasi tomoni – tovarlarni tashishni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs, bunda u temiryo'l, suv, avtomobil transportida yuklarni tashish, shuningdek, yuklarni, tavakkalchiliklarni, transport vositalarini sug'urtalash, yuklar va hujjatlarni rasmiylashtirish, joylashtirish, saqlash, ishlov berish, deklaratsiyalash va bojxona tartibotlari, transport-ekspeditorlik xizmati ko'rsatish shartnomasida nazarda tutilgan boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha keng va turli ishlar kompleksini bajaradi, shuningdek, ushbu tashishlarni amalga oshirish ustidan nazoratni ta'minlaydi va mijozning transport korxonalarini oldidagi manfaatlarini himoya qiladi.

**Ekspeditorlik xizmatlari** – bu ekspeditor shartnomaga muvofiq xizmat ko'rsatishni o'ziga olgan vositachilik va yordamchi-texnologiya xizmatlari kompleksidir.

**Transport-ekspeditorlik xizmati** – yukni jo'natish va qabul qilib olish jarayonini tashkil etish, shuningdek, transport ekspeditsiyasi shartnomasiga muvofiq yuk tashishga aloqasi bo'lgan boshqa ish turlarini bajarish bilan bog'liq transport xizmati turi.

**Transport-ekspeditorlik xizmatlari:**

– yukni jo'natish joyidan belgilangan joygacha tashishni tashkil etishni;

– mijozning shart-sharoitlariga ko‘ra yuklarni tashishning maqbul sxemasini tanlashni;

– yuk jo‘natuvchining ombori (terminali)dan yuklarni qabul qilib olish, yuk qabul qiluvchining ombori (terminali)ga yetkazib berish, unga va tashuvchiga topshirishni;

– yuklarni o‘rash-joylash (qadoqlash), markalash, bog‘lash, navlarga ajratish va saqlashni;

– yukni sug‘urtalashni;

– yuk jo‘natilganligi, turgan joyi va belgilangan joyga kelganligi (yukning harakati dispozitsiyasi) haqida xabardor qilishni;

– boshqa ekspeditorlar xizmatlarining turlari, tariflari va ish rejimlari to‘g‘risidagi axborotni hamda boshqa tezkor axborotni;

– transport-ekspeditorlik faoliyati bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha maslahatlarni;

– bojxona tartibotlarini bajarishni;

– yuk tashilganligi uchun tashuvchi bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishni va yuk tashish bilan bog‘liq boshqa xizmatlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

**Transport-ekspeditorlik faoliyati** – transport-ekspeditorlik korxonasi tomonidan amalga oshiriladigan transport-ekspeditorlik xizmatlarini bajarishga doir faoliyat.

Transport-ekspeditsiya xizmati ko‘rsatishda bajariladigan operatsiyalar bir qator qo‘shimcha ishlarni amalga oshirish uchun zarur. Jumladan, yukni tashish uchun tayyorlash – idishlarga joylash, markirovkalash, yo‘nalish bo‘yicha kichik guruhlariga ajratish; yukni qabul qilish va uni harakatdagi tarkibga ortish; yukni kuzatib borish va tashish jarayonida yuk sifati va miqdori saqlanishini ta‘minlash; yukni belgilangan punktda transport vositasidan tushirish va yukni qabul qiluvchiga og‘irlik yoki hajm birligi bo‘yicha topshirish (to‘g‘ridan to‘g‘ri tashishda) yoki yukni boshqa turdagi transport vositasiga topshirish (aralash tashishda); tovar-transport hujjatlarini rasmiylashtirish va boshqalar. Bu ishlarni transport-ekspeditsiya xizmati ko‘rsatuvchi korxonasi tomonidan amalga oshirilishi yuk egalari ularning ish faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan transport jarayonini tashkil etish ishidan ozod qiladi.

Transport-ekspeditsion operatsiyalar quyidagi turlarga bo‘linadi: bevosita transport bilan bog‘liq bo‘lgan – yuklarni tashish; ortish-

tushirish – yuk jo‘natish punktida yukni harakatdagi tarkibga ortish va yukni yuk qabul qiluvchi punktida harakatdagi tarkibdan tushirish; ekspeditsion – yukni qabul qilish, kuzatish, tashish jarayonida yuk sifati va miqdori saqlanishini ta‘minlash, tovar-transport hujjatlari va bajarilgan transport ishiga haq to‘lash va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish.

Bajariladigan ishlar operatsiyalarni bajarilish joyi va transport-ekspeditsiya xizmati ko‘rsatish ko‘lamiga bog‘liq holda: kompleks – yukni yuk jo‘natuvchidan tashish uchun qabul qilishdan to‘ yukni qabul qiluvchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan barcha turdagi xizmatlarni qamrab oluvchi va mahalliy – yukni jo‘natish bilan yoki yukni yetib kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarga bo‘linadi.

Kompleks xizmat ko‘rsatishga quyidagilar kiradi: yukni yuk jo‘natuvchining omboxonasida qabul qilish, yukni transportga ortish uchun tayyorlash va ortish, yukni avtostansiyaga yetkazib borish (aralash tashishda temiryo‘l stansiyasi yoki portga), yukni harakatdagi tarkibdan tushirish va boshqa turdagi transportning yuk jo‘natish punktlarida transport vositasiga (vagon, kema, samolyot) ortish, yukni jo‘natish va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish hamda yukni yetib kelishida yukni jo‘natishdagiga nisabatan qarama-qarshi ishlar (boshqa turdagi transport vositasidan yukni qabul qilish, yukni avtomobil transportining harakatdagi takibiga ortish, yukni yuk qabul qiluvchiga yetkazish va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish).

Mahalliy tashishda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

– yuk jo‘natish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar: yukni yuk jo‘natuvchining omborida qabul qilish, yukni tashish uchun tayyorlash – idishlarga joylash, yukni harakatdagi tarkibga ortish; boshqa turdagi transportning yuk jo‘natish punktiga yetkazib borish va transport vositasiga (vagon, kema, samolyot) ortish, tovar-transport hujjatlarni rasmiylashtirish, yuk jo‘natuvchining ko‘rsatmasiga muvofiq haq to‘lashni amalga oshirish;

– yukni yetib kelishi bilan bog‘liq operatsiyalar: yuk egasining manziliga yukni yetib kelishini nazorat qilish, yukni yetib kelishi bilan bog‘liq ma‘lumotlar berish va yukni tushirish (vagon, kema va samolyotdan tushirish), yukni avtomobil transportiga ortish, yukni yuk qabul qiluvchiga yetkazish, tovar-transport hujjatlarni rasmiylashtirish;

– yukni kuzatib borish operatsiyalari: tashish jarayonida yuk si-fati va miqdori saqlanishini ta'minlash; yukni bir turdagi transport vositasidan ikkinchi turdagi transport vositasiga qayta ortish, tegishli hujjatlarini rasmiylashtirish va yukni topshirilganligi to'g'risida yuk egasiga ma'lumot berish.

Transport-ekspeditsion operatsiyalar jumlasiga yuqorida keltirilgan operatsiyalardan tashqari quyidagilar kiradi: yuk egasiga shartnoma asosida transport vositasi turini tanlash, yuklarni saqlash muddat-lari, haq to'lashni amalga oshirish va boshqa turdagi ishlar bo'yicha ma'lumot (maslahat) berish.

## **6.2. Aholiga transport-ekspeditsion xizmat ko'rsatish**

Avtomobil transportida aholiga transport-ekspeditsion xizmat ko'rsatish shahar ichi va shaharlararo yuk va yo'lovchi tashish-da, aralash aloqa yo'llarida yuk tashishda va sayyohlik-ekskursiya qatnovlarini bajarishda amalga oshiriladigan bir qator oddiy va mu-rakkab ekspeditsion xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Ekspeditsion xizmat ko'rsatish deganda tashish bilan bog'liq bo'lgan biror operatsiya yoki bajariladigan ish ko'rinishidagi xizmatlar nazarda tutiladi: masalan, tashish hujjatlarini rasmiylashtirish, ortish-tushirish va o'rash, joylash, yuklarni binolarning yuqori qavatlariga ko'tarish (tushirish), yuklarni vaqtinchalik saqlash, biletlarni oldindan sotish va boshqalar.

### **Aholiga ko'rsatiladigan asosiy xizmat turlari:**

– savdo shoxobchalaridan tovarlarni tashish (mebel, musiqa asboblari, ro'zg'or elektr asboblari, tele va radioapparatlar, sovg'alar va boshqalar);

– uy-ro'zg'or buyumlarini bir xonadondan ikkinchi xonadonga, dala hovliga va dala hovlidan, komission magazinlarga, ta'mirlash ustaxonalariga olib borish va qaytarib olib kelishga, eskirgan uy-ro'zg'or buyumlarini utilizatsiya punktlariga olib borish va boshqa tashishlar;

– yuklarni xalqaro aloqa yo'llarida tashish: konteynerlarni taqdim etish va ularni belgilangan joylarga (temiryo'l vokzallari,

portlar, aeroportlar) yetkazib berish, bagajlarni yetkazib berish va boshqalar;

– yoqilg‘i (ko‘mir, torf, o‘tin, ballonlardagi suyultirilgan gaz) tashish;

– maxsus magazinlardan xarid qilingan qurilish materiallarini tashish (yig‘ma uylar, yog‘och materiallari, g‘isht, qurilish yarimfabrikatlari va mahsulotlari);

– qishloq xo‘jalik yuklarini dehqon bozorlari va tayyorlov punktlariga; o‘g‘it va urug‘ni yer maydonlari va bog‘larga va boshqa tashishlar;

– yukni tashish bilan birgalikda amalga oshiriladigan mebel va uy jihozlarini maxsus tsexlarda o‘rash va yuklarni saqlash xizmatlari;

– passajir tashish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar, ya‘ni, barcha turdagi transportga chiptalarni oldindan sotish va chiptalarni buyutmachilarga yetkazib berish; barcha turdagi shahar transporti uchun abonement biletlarini sotish; buyurtma asosida yuk avtomobil-taksilarini taqdim etish; tantanali marosimlarni (nikoh, yubiley, dafn) o‘tkazish uchun yengil avtomobillarni taqdim etish; aeroportlarda qo‘lda olib yuriladigan yuklarni yumshoq matolar bilan o‘rash; bagajlarni saqlash; mexmonxonalardagi o‘rinlarni (band qilib qo‘yish) bronlash; shaxsiy transport vositalarini pulli to‘xtab turish joylarida saqlash; boshqa shaharlar, diqqatga sazovor joylar, ommaviy dam olish joylari va boshqa joylarga sayohat-ekskursiya yo‘llanmalarini sotish.

Ko‘rsatilgan xizmat uchun haq to‘lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: bosib o‘tilgan masofa uchun alohida tarif asosida to‘lov amalga oshiriladi, yuklarni ortish-tushirish, yuqori qavatlariga olib chiqish (olib tushish) ishlari uchun to‘lov har bir o‘rin soniga nisbatan aniqlanadi, alohida ehtiyotkorlik talab qilinadigan mebellarni ortish-tushirish, yuqori qavatga olib chiqish (tushish) ishlari uchun to‘lov mebelning bahosiga nisbatan foiz hisobida belgilanadi.

### **6.3. Yukni kuzatib borish, yukni avtomobildan boshqa transport turiga topshirish yoki qabul qilish**

Tashishni amalga oshirish yuk jo‘natuvchidan yukni qabul qilish va yukni qabul qiluvchilarga topshirish bo‘yicha bajariladigan operatsiyalar bilan bog‘liq.

**Tashish uchun buyurtma.** Tashish uchun buyurtma yukni tashish uchun qabul qilish va topshirish hujjatlari asosida rasmiylashtiriladi. Shartnomaga qo‘shimcha ravishda (transport vositasi va mijoz uchun zarur bo‘lgan) yuk tashishning oylik rejası tuziladi.

Yuk tashish shartnoma asosida yoki bir martalik (rejadan tashqari) buyurtma asosida amalga oshirilishidan qat‘i nazar mijoz belgilagan tartibda (1-2 kun oldin) buyurtma beradi. Buyurtma tezkor rejalashtirishda hujjat bo‘lib xizmat qiladi.

**Yukni tashish uchun qabul qilish.** Yuk tashish markazlashtirilgan usulda tashkil etilganda shartnomaga binoan yukni avtomobil haydovchisi qabul qilib oladi, markazlashtirilmagan usulda yuk tashishda esa – mijoz vakili (ekspeditor) qabul qiladi.

Tashish uchun mo‘ljallangan yuklarni yuk egalari tashishga topshirish uchun oldindan tayyorlab qo‘yadi. Idishlarga joylab tashiladigan yuklar yuk turiga mos keluvchi soz holdagi taralarga joylanishi lozim. Tarozida tortib olinishi lozim bo‘lgan yuklar og‘irligi bo‘yicha qabul qilinadi. Yuk o‘rni soni yoki o‘lchami bo‘yicha tashishga taqdim etiladigan yuklar sanash asosida yoki transport vositasini to‘la yuklanishni aniqlash uchun o‘lchab qabul qilinadi.

**Yuk qiymatini e‘lon qilish.** Yukning buzilishi yoki isrof qilinishida transport korxonasining moddiy javobgarligini aniqlab qo‘yish uchun yukning qiymati e‘lon qilinadi, bu qiymat davlat narxi yoki tovar-transport hujjatida ko‘rsatilgan mahsulot qiymatidan ortiq bo‘lmasligi lozim.

Qimmatbaho bo‘lmagan yuklar (qum, shag‘al, qumtuproq, maydalangan tosh va shu kabilar)ni qiymati e‘lon qilinmaydi.

**Yukni topshirish.** Tashib keltirilgan yuk belgilangan punkt- da transport– transport hujjatida qayd etilgan yuk qabul qiluvchiga topshiriladi. Yuk tegishli hujjatlarda qayd etilgan ma‘lumotlarga to‘la mos kelsa yukni qabul qiluvchi qabul qilishga majbur. Yukni qabul qiluvchi yukni qabul qilishdan bosh tortsa yuk mijozning ko‘rsatmasiga binoan boshqa manzilga olib boriladi.

#### **6.4.Transport-ekspeditsiyasi xizmati ko‘rsatish shartnomasi**

Transport-ekspeditsiyasi xizmati ko‘rsatish O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 40-bob «Transport ekspeditsiyasi»

(O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 726-731-moddalar) qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha ekspeditor haq evaziga va mijoz (yuk jo'natuvchi yoki yuk oluvchi) hisobidan ekspeditsiya shartnomasida belgilangan yuk tashish bilan bog'liq xizmatlarni bajarish yoki bajarishni tashkil etish majburiyatini oladi.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasida ekspeditorning ekspeditor yoki mijoz tanlagan transportda va yo'nalishda yuk tashishni tashkil etish majburiyati, mijoz yoki o'zining nomidan yuk tashish shartnomasi (shartnomalari)ni tuzish, yukning jo'natilishini va olinishini ta'minlash majburiyati, shuningdek, tashish bilan bog'liq boshqa majburiyatlari nazarda tutilishi mumkin.

Qo'shimcha xizmatlar sifatida transport ekspeditsiyasi shartnomasida eksport yoki import uchun talab qilinadigan hujjatlarni olish, bojxona rasmiyatchiliklari yoki o'zga rasmiyatchiliklarni bajarish, yukning miqdorini va holatini tekshirish, uni ortish va tushirish, mijoz zimmasiga yuklatiladigan bojlar, yig'implar va boshqa xarajatlarni to'lash, yukni saqlash, uni belgilangan manzilda olish kabi yukni yetkazib berish uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalga oshirish, shuningdek, shartnomada belgilangan boshqa operatsiyalar va xizmatlarni bajarish nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Ushbu qoidalar transport ekspeditsiyasi shartnomasiga muvofiq ekspeditorning majburiyatlarini tashuvchi bajargan hollarga ham taalluqlidir.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasini bajarish shartlari, agar transport-ekspeditsiya faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, taraflarning kelishuvi bilan aniqlanadi.

Ekspeditor bilan mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabatlar transport ekspeditsiyasi shartnomasi bilan belgilanadi.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasi yozma shaklda tuziladi va unda tashish jarayonini transportning har xil turlari, shu jumladan, aralash turlari bilan ham davlat ichidagi, ham xalqaro yo'llarda tashkil etish bilan bog'liq transport-ekspeditorlik xizmatlarining aniq ro'yxati, tomonlarning nomi va manzili, jo'natish va olib borish joyi (joylari) nomi va boshqa shartlar bo'ladi.

Yukni o'z tasarrufiga qabul qilib olgandan so'ng transport-ekspeditorlik korxonasi tashish uchun tegishli transport hujjati (konosament), transport-ekspeditorlik xizmati ko'rsatish yuk xati berishi shartdir.

Olib kelish va olib ketish maxsus ruxsatnomalar va kvotalar bo'yicha amalga oshiriladigan, aksiz solig'i olinadigan yuklarni, shuningdek, xavfli yuklar va chiqindilarni tashish uchun shartnoma tuzishga tegishli ruxsatnomalar bo'lgandagina yo'l qo'yiladi.

Ekspeditor mijoz, tashuvchi va transport jarayonida qatnashuvchi boshqa shaxslar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq transport-ekspeditorlik xizmatini amalga oshiradi. Yukni bir yoki bir necha transport turi bilan yetkazib berish va mijozning topshirig'i (buyurtmanomasi)ga ko'ra transport jarayonini tashkil etish bilan bog'liq xizmatlar ro'yxati shartnomada kelishib olinadi. Mijoz buning uchun kelishib olingan haqni to'lash majburiyatini oladi.

Ekspeditorlik topshirig'i tuzilgan shartnoma doirasida transport ekspeditsiyasi tomonidan berilishi mumkin.

**Shartnomaning shakli.** Transport ekspeditsiyasi shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Agar ekspeditorning o'z majburiyatlarini bajarishi uchun ishonchnoma zarur bo'lsa, mijoz uni berishi shart.

**Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha ekspeditorning javobgarligi.** Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi uchun ekspeditor O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 24-bobidagi «Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik» qoidalariga muvofiq belgilanadigan asoslarda va miqdorda javobgar bo'ladi.

Agar ekspeditor majburiyatning buzilishi tashish shartnomalari tegishli ravishda bajarilmaganligi tufayli kelib chiqqanini isbotlasa, ekspeditorning mijoz oldidagi javobgarligi tegishli tashuvchi ekspeditor oldida javobgar bo'ladigan qoidalarga muvofiq belgilanadi.

**Ekspeditorga beriladigan hujjatlar va boshqa axborot.** Mijoz ekspeditorga hujjatlar hamda yukning xossalari, uni tashish shartlari to'g'risidagi boshqa axborotni, shuningdek, ekspeditor transport ekspeditsiyasi shartnomasida nazarda tutilgan vazifalarni bajarishi uchun zarur bo'lgan boshqa axborotni berishi shart.



Ekspeditor olingan axborotdagi aniqlangan kamchiliklar haqida mijozga xabar qilishi, axborot to'liq bo'lmaganida esa, mijozdan zarur qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilib olishi shart.

Mijoz zarur axborotni taqdim etmagan taqdirda, ekspeditor bunday axborot taqdim etilgunga qadar tegishli majburiyatlarni ijro etishga kirishmaslikka haqli.

Mijoz axborotni taqdim etish majburiyatini buzganligi munosabati bilan ekspeditorga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

**Uchinchi shaxsning ekspeditor majburiyatini bajarishi.** Agar transport ekspeditsiyasi shartnomasidan ekspeditorning o'z majburiyatlarini shaxsan bajarishi shartligi kelib chiqmasa, ekspeditor o'z majburiyatlarini bajarishga boshqa shaxslarni jalb qilishga haqli.

Majburiyatni bajarishni uchinchi shaxs zimmasiga yuklash ekspeditorni transport ekspeditsiyasi shartnomasining bajarilishi uchun mijoz oldidagi javobgarlikdan ozod qilmaydi.

**Ekspeditsiya shartnomasidan bosh tortish.** Mijoz yoki ekspeditor o'n kun oldin boshqa tarafni ogohlantirib, transport ekspeditsiyasi shartnomasini bajarishdan bosh tortishga haqli. Transport ekspeditsiyasi shartnomasini bajarishdan bir tomonlama bosh tortilganida, bu haqda ma'lum qilgan taraf shartnomaning bekor qilinishi tufayli ko'rilgan zararni ikkinchi tarafga to'laydi.

Qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq to'g'risida shartnoma taraflarining kelishuvi bo'lmagan taqdirda, bu shartnomaga nisbatan yo'lovchi, bagaj va yuk tashish shartnomasida – tashuvchi; transport ekspeditsiyasi shartnomasida – ekspeditor asosiy faoliyat joyi bo'lgan mamlakat huquqi qo'llaniladi.

## **6.5. Avtotransport korxonalarini va fuqarolarning huquq va majburiyatlari**

Avtotransport korxonalarini tomonidan ko'rsatiladigan transport ekspeditsiya xizmati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 9-sentabrdagi 348-son qarori bilan tasdiqlangan «Transport-ekspeditorlik korxonalarini to'g'risida»gi Nizom hamda «Transport-

ekspeditorlik xizmatlari ko'rsatish tartibi» va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan transport-ekspeditorlik korxonalarini faoliyatini tartibga soladi, shuningdek, qaysi idoraga qarashliligi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, transport-ekspeditorlik korxonalarining o'zaro hamkorlik qilish tartibini, ularning huquqlarini, mijoz oldidagi majburiyatlari va mas'uliyatini, mijoz, transport ekspeditori va tashuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilab beradi.

#### **Quyidagilar ekspeditorning asosiy vazifalari hisoblanadi:**

– mijozlarning yuk tashish va transport-ekspeditorlik xizmatlariga bo'lgan talablarini qondirish;

– eng maqbul transport yo'nalishlarini ishlab chiqish va tanlash, transportda tashishlar turlarini va yuklarni yetkazib berish usullarini, shuningdek, yuklarni yetkazib berishning va ularni saqlashning ke-lishilgan muddatlarini belgilash;

– O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini rivojlantirish-ga ko'maklashish;

– transport xarajatlarini kamaytirish;

– kira qilish va kira haqini to'lash;

– yuklarni to'plash, saqlash, ishlov berish, o'rash-joylash va taqsim-lash;

– tovarlarga ilova qilinadigan hujjatlarni tayyorlash va rasmiylash-tirish;

– yordamchi va qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan, yukni deklaratsiyalash, bojxona xizmatlari ko'rsatish, yuk hujjatlarini rasmiylashtirish;

– yuklarni sug'urtalash.

**Transport-ekspeditorlik faoliyatini davlat yo'li bilan boshqa-rish.** Transport-ekspeditorlik faoliyatini davlat yo'li bilan boshqarish sertifikatlash, litsenziyalash, soliq solish va narx belgilash, transport-ekspeditorlik faoliyatini rivojlantirish masalalarida davlat siyosatini ro'yobga chiqarishning huquqiy bazasini yaratish, milliy

qonun hujjatlariga va O'zbekiston Respublikasi tomonidan tan olingan yoki tuzilgan xalqaro shartnomalar talablariga rioya qilinishini nazorat etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

### **Transport-ekspeditorlik faoliyati sohasidagi sertifikatsiyalash.**

Transport vositalari, terminallar va transport-ekspeditorlik faoliyatining boshqa obyektlari, shuningdek, transport-ekspeditorlik xizmatlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy ravishda sertifikatsiyalanishi kerak.

Transport-ekspeditorlik faoliyati sohasidagi sertifikatsiyalash vakolatli davlat organi yoki u vakil qilgan organ tomonidan amalga oshiriladi.

**Transport-ekspeditorlik faoliyatini litsenziyalash.** Ekspeditorlar transport-ekspeditorlik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha o'z faoliyatlarini litsenziya asosida amalga oshiradilar. Transport-ekspeditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilanadi.

Transport-ekspeditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining transport sohasida litsenziyalash komissiyasining qarori asosida O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan beriladi.

### **Ekspeditorlarga qo'yiladigan talablar:**

- kasb vakolati to'g'risidagi sertifikatning mavjudligi;
- transport-ekspeditorlik korxonasi bank hisob raqami va uning to'lov qobiliyati to'g'risida bank tasdiqnomasining mavjudligi;
- transport-ekspeditorlik xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq o'ziga xos operatsiyalarning bajarilishi;
- transport ekspeditsiyasi shartnomasi shartlarining sifatli bajarilishi;
- xizmat binosining mavjudligi;
- o'z funksiyalarini amalda bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatli dalillar (guvohnoma, kontraktlar, hisob raqamlari va ularga tenglashtirilgan hujjatlar)ga ega bo'lishi.

### **Ekspeditor quyidagi huquqlarga ega:**

- yuk tashuvchilar, transport korxonalari, mijozlar bilan shartnomalar tuzish;

– transport vositalarini, yo‘nalishlarni va yuk yetkazib berish usullarini erkin tanlash, agar shartnomada yetkazib berishning shartlari va usullari kelishib olinmagan bo‘lsa;

– bir tomonlama tartibda yoki mijozning topshirig‘iga ko‘ra har qanday ruxsat etilgan joyda yukni tushirish, joylashtirish uchun qaror qabul qilish, zaruriyat bo‘lganda esa yukning buzilib qolish, yo‘qolish yoki uning atrof-muhitga, aholiga yohud boshqa yukka xavfi bo‘lgan hollarda qulay usullar bilan sotib yuborish;

– yo‘qolgan yukni qidirish va mijoz tomonidan ko‘rilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi topshiriqlarni bajarish uchun jalb qilingan uchinchi shaxsga talab qo‘yish, agar yuk uchinchi shaxsning xatti-harakati yoki harakatsizligi oqibatida yo‘qolgan yoki buzilgan bo‘lsa, va ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida, bu haqda shartnomada kelishib olinmagan bo‘lsa, mijozni xabardor qilib qo‘yish;

– mijozning manfaatlari yo‘lida va uning nomidan sarf qilingan, hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar bo‘yicha vositachilik haqini mijozdan undirib olish;

– mijoz tomonidan zarur bo‘lgan axborot taqdim etilmagan hollarda, agar bu haqda shartnomada kelishib olinmagan bo‘lsa, tegishli majburiyatlarni bajarishga kirishmaslik.

**Ekspeditorning garovga oid huquqi.** Ekspeditorning garovga oid huquqi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi qatnashchisi bo‘lgan xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinadi.

#### **Ekspeditor quyidagilarga majburdir:**

– qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan tartibda hisobot taqdim etish;

– yukni transport (transportning har xil turlari) bilan ekspeditor yoki mijoz tomonidan tanlangan yo‘nalish bo‘yicha tashishni tashkil etish.

#### **Ekspeditorning javobgarliklari:**

– buzilish hollari ro‘y berganda transport-ekspeditorlik xizmati ko‘rsatish shartnomasi shartlari bajarilishi uchun javob beradi, yetkazilgan zararni qoplaydi, shuningdek, agar transport-ekspeditorlik shartnomasida yoki qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, aybona (neustoyka) to‘laydi;

– shartnomani bajarish uchun jalb qilingan uchinchi shaxs tomonidan transport-ekspeditorlik xizmati ko'rsatish shartnomasi shartlari bajarilishi uchun javob beradi. Uchinchi shaxs tomonidan yetkazilgan zarar uchun ekspeditor javob beradi. Zararlar qoplangandan so'ng ekspeditor bu uchinchi shaxsga qaytarma da'vo qilishi mumkin;

– yukning saqlanishi, uni yetkazib berishning kelishilgan muddatlariga rioya qilinishi uchun javob beradi. Shartnoma shartlari bajarilmagan taqdirda ekspeditor tomonidan tegishli ravishda transport xarajatlari, bojxona bojlari va yo'qolgan yukni tashish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar yoki hisob-fakturada ko'rsatilgan uning qimmati asosida yuk qiymati pasayishi va yukning buzilishi bilan bog'liq zararlar qoplanadi.

**O'zbekiston Respublikasi hududidagi xorijiy ekspeditorlarning majburiyatlari.** Xorijiy ekspeditorlar, shuningdek, xorijiy kompaniyalarning sho'ba korxonalari (filiallari) respublika hududida transport-ekspeditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga rioya qilishga majburdirlar.

**Ekspeditor va yuk tashuvchining o'zaro munosabatlari.** Yuk tashuvchi belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan transport-ekspeditorlik korxonasi bilan yuk tashish uchun shartnoma tuzishi mumkin.

**Hisob va hisobot.** Transport-ekspeditorlik faoliyati bo'yicha hisob va hisobot amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq yuritiladi.

**Nizolarni ko'rib chiqish.** Transport-ekspeditorlik shartnomasi yoki topshirig'ini bajarish jarayonida paydo bo'ladigan ekspeditor bilan mijoz o'rtasidagi nizolar va anglashilmovchiliklar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qatnashchisi bo'lgan xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinadi.

#### **Nazorat savollari**

1. Ekspeditor deganda kimni tushunasiz?
2. Transport-ekspeditorlik xizmatlari qanday xizmatlar? Ularning turlarini sanab bering.
3. Transport-ekspeditsiya xizmati ko'rsatishda bajariladigan operatsiyalar qanday turlarga bo'linadi?
4. Kompleks xizmat ko'rsatish deganda nimani tushunasiz?

5. Mahalliy tashishda qanday ishlar amalga oshiriladi?
5. Aholiga qaysi turdagi transport-ekspeditsion xizmatlar ko'rsatiladi?
6. Yukni tashish uchun qabul qilish tartibini aytib bering.
7. Yukni topshirish tartibini aytib bering.
8. Transport-ekspeditsiyasi xizmati ko'rsatish shartnomasi qanday bandlardan iborat bo'ladi?
9. Ekspeditorning asosiy vazifalari.
10. Transport-ekspeditorlik faoliyati sohasidagi sertifikatsiyalash.
11. Transport-ekspeditorlik faoliyatini litsenziyalash.
12. Ekspeditorlarga qo'yiladigan talablar.
13. Ekspeditor qanday huquqlarga ega?
14. Ekspeditorning majburiyati va javobgarligi.

## VII BOB.

### AVTOTRANSPORT BIRLASHMALARI VA KORXONLARNING MUNOSABATLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH YO'LOVCHI TASHISHNI TASHKIL QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI

#### 7.1. Transport-ekspeditsiya xizmatining avtotrasport korxonalari bilan munosabati

Respublikamizda hozirgi kunda avtomobil transporti bilan temiryo'l transportida juda katta miqdorda yuk tashiladi. Bu bilan bog'liq bo'lgan yordamchi transport operatsiyalarining asosiy qismini ko'p hollarda yuk oluvchilar yoki yuk yuboruvchilar bajaradi. Axborot ishlari, hujjatlarni rasmiylashtirish, yuk tashishni rejalashtirish, yuklarni komplektlash, hisoblashlar va boshqa yordamchi operatsiyalar ham ko'pincha markazlashtirilgan tartibda bajarilmaydi. Bunda yuk tashishning yagona transport jarayoni 2-3 mustaqil qismga bo'linib ketadi. Bunday sharoitda me'yorli ishlab turgan yagona transport tizimi oldida yuklarni «jo'natuvchi omboridan yuk oluvchi omborigacha» tashish operatsiyalarini yuk jo'natuvchi va oluvchi ishtirokisiz yagona hujjat bo'yicha amalga oshirilishi vazifa qilib qo'yilishi mumkin. Bunday hollarda transport jarayoni uzluksiz amalga oshirilishi bilan birga yagona transport-ekspeditsion xizmati ko'rsatish ishlari markazlashtirilgan usulda bajariladi. Barcha yordamchi ishlardan, ya'ni yuklarni temiryo'l bekatlariga, daryo portlariga avtomobil transportida olib kelish yoki, aksincha, ulardan olib ketish hamda yuklarni jo'natuvchi omboridan yuk oluvchi omborigacha eltib berish ishlaridan yuk egalari ozod qilinib, bunday ishlarni transport-ekspeditsion xizmatlarini bajaruvchi maxsus tashkilotlar bajaradi.

Hozirgi mavjud maxsus transport-ekspeditsion tashkilotlarning ish tajribasi ular faoliyati yuqori darajada samarali ekanligini ko'rsatmoqda.

Bunda ekspeditorlar va yuk ortuvchi ishchilar soni keskin qisqaradi, avtomobillardan foydalanish yaxshilanadi, ayrim hollarda yuk tashish xarajatlari 2–3 marta kamayadi, vagonlar, avtomobillar, ortish-tushirish mashina va mexanizmlarning bekor turib qolish vaqtlari sezilarli darajada qisqaradi, yuklarni bir transport turidan ikkinchisiga o'tkazishni rasmiylashtirish bilan shug'ullanadigan xodimlar soni keskin kamayadi yoki umuman kerak bo'lmay qoladi, temiryo'l bekatlari va portlardan olib ketilmagan qoldiq yuklar hajmi kamayadi.

Transport-ekspeditsion xizmatini kelajakda keng tarqatish va mam-lakat transport tizimining transport turlarini bir-biriga bog'lab turuvchi ajralmas qism bo'lib qolishi kerak.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, yuk tashib keltirish va olib ketishda hamma operatsiyalar transport-ekspeditsion xizmati bilan to'la ta'min etilganda transport xarajatlari sezilarli darajada kamayadi. Shuni qayd qilish kerakki, xarajatlarni bunday kamaytirishga qo'shimcha kapital mablag' sarflamay, faqat tashkiliy tadbirlar o'tkazish yo'li bilan eri-shiladi.

Yo'lovchilarga kompleks transport-ekspeditsion xizmati ko'rsatish ko'p hollarda transportdan foydalanuvchilarga chipta sotib olish, qo'l yuklarini va bagajlarni keltirib berish, transportning bir turidan ik-kinchisiga o'tish uchun bir qancha qulayliklar yaratadi.

Transport-ekspeditsion xizmatni tashkil qilishda barcha turdagi transportlarda ham yo'lovchilar va ularning qo'l yuklarini hamda bagajlarini tashish ishlari bir xil, chipta hujjatlari iloji boricha yagona bo'lishi talab etiladi.

Bu bir necha yo'lovchi transporti turlaridan foydalanganlarida yo'lovchilarga qulayliklar yaratadi Yo'lovchilarga qulayliklar yara-tishda chiptalarni bir necha kun ilgari sotish va yo'lovchilar bagajla-rini keltirib berish va bir transport turidan ikkinchisiga o'tishda ularga zarur xizmat ko'rsatish juda katta ahamiyatga egadir Yo'lovchilarga transport-ekspeditsion xizmati kompleks tashkil qilinganda ularga qushimcha xizmatlar ham ko'rsatish mumkin.

Masalan, alohida turistik xizmatlar ko'rsatish (mehmonxonalarga joylashtirish, kino, teatr va muzeylarga bilet sotish va h.k.) yo'lga qo'yilishi mumkin.



## **7.2. Tashishni markazlashgan usulda tashkil qilganda avtotransport korxonalarining boshqa korxonalar bilan munosabati**

**Markazlashtirilgan tashishlar.** Transport jarayonida uch tomon qatnashadi: yuk jo'natuvchi (yetkazib beruvchi) transport tashkiloti va yuk qabul qiluvchi. Ular har birining transport jarayonidagi vazifasiga ko'ra tashishlar markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan xillarga bo'linadi. Markazlashtirilgan tashishlar deyilganda, shunday tashish jarayonini tashkil etish tushiniladiki, unda transport tashkiloti yoki yuk jo'natuvchi yuklarni barcha iste'molchi talabiga binoan yetkazib beradi. Markazlashtirilmagan tashishlarning markazlashtirilgan tashishlardan farqi shundaki, har bir yuk qabul qiluvchi o'ziga zarur bo'lgan yukni tashishni hamda tashish bilan bog'liq bo'lgan ortib-tushirish va ekspeditsion ishlarni o'zi bajaradi. Buning uchun yuk qabul qiluvchi avtotransport tashkilotiga talabnoma bilan murojaat qiladi, ortish punktiga yuk ortuvchi ishchilar, ekspeditor va avtotransport tashkilotiga tegishli avtomobil bilan kelib, yukni qabul qiladi, yo'lda qarab boradi (ya'ni, ekspeditsion ishni bajaradi) va o'z omboriga tushirib oladi. Tashishni bunday tashkil etishda yuk jo'natiladigan punktda juda ko'p avtomobillar, yuklovchilar, ekspeditorlar yig'ilib qolib, yukni qabul qilishda uzoqdan uzoq kutish navbati hosil bo'ladi. Ortish operatsiyasi, odatda, qo'l kuchi bilan bajariladi, chunki yetkazib beruvchi (yuk jo'natuvchi) ortish operatsiyasini mexanizatsiyalashga qiziqmaydi va unga javob bermaydi. Avtotransport saroyi berilgan talabnomaga binoan zarur miqdordagi transport vositasini ajratib beradi, lekin tashishni tashkil etish va transport jarayonining bajarilishiga javob bermaydi. Tashishni tashkil etishning bunday tizimi yuk qabul qiluvchilarning o'z transport vositalari bo'lishiga olib kelib, transport saroylarining maydalashishiga olib keladi, yuk oqimlari ham maydalashadi. Bu esa yuklarni ratsional (oqilona) marshrutlar tashkil etib tashishga yo'l qo'ymaydi, maxsus va maxsuslashtirilgan transport vositalaridan foydalanish imkoni nihoyatda kamayib ketadi. Bularning barchasi transport ishlatish xarajatlarining ortishi hisobiga yuk tashish xarajatlarini ko'paytirib yuboradi.

Yuqorida keltirilgan kamchiliklarning ko'pchiligini yuk tashishni markazlashtirilgan usulida bartaraf etib, transport vositalarining ish unumini oshirish, tashish tannarxi va mijozlar xarajatlarini kamaytirish mumkin. Yuk tashishning markazlashtirilgan usuli yuk egalariга xizmat ko'rsatish madaniyatini ko'tarish va transport ishlarini tashkil etishni yaxshilaydi.

Yuk tashishning markazlashtirilgan usulini qo'llashda transport jarayonlarida qatnashuvchi tomonlarning o'zaro aloqalari quyidagicha bo'ladi:

- yuk jo'natuvchi yoki uning yukini yetkazib beruvchi tashkilot transport tashkilotiga talabnoma beradi;

- yuklarni avtotransport saroyi, aksariyat hollarda, umumfoydalanish avtotransport saroyi tashib beradi;

- yukni tushirib va qabul qilib olish yuk qabul qiltuvchilar zimmasida bo'ladi;

- yuklar avtotransport saroyi tomonidan kuzatib boriladi, bunda ekspeditorlik vazifasini amalda haydovchi bajaradi. Qimmatbaho tosh va metallar, topshirishda qayta sanaluvchi yoki tortib topshiriluvchi va shunga o'xshash yuklarni tashish bundan mustasno;

- tashish uchun haq va hisob-kitobni yuk jo'natuvchi ya'ni transportga talabnoma bergan tashkilot to'laydi. Yuk jo'natuvchilar xarajatlarini yuk egalari qoplab, jo'natuvchilar bilan hisob-kitob qiladi.

Shunday qilib, markazlashtirilgan yuk tashish usulida, yuk qabul qilib oluvchilar transport jarayonidagi tashishda qatnashmaydi va ular yuklarni o'z vaqtida tushirib olishgagina javob beradi.

Markazlashtirilgan yuk tashish tizimi quyidagi afzalliklarga ega:

- yukni jo'natuvchilardan ularni qabul qiluvchilarga bir maromda yetkazib berish hamda ularni yetkazib berish vaqtlarini tejash sharoitlari yaratiladi;

- transport vositalarining oldindan kelishilgan chizma asosida ishlashi ularning ortish operatsiyasida kutib turishini yo'qotish yoki kamaytirish bilan birga, bunday operatsiyalarni mezanizatsiyalash imkoni bo'ladi; yuklovchilar va ekspeditorlarga talab bo'lmaydi;

- maxsuslashtirilgan transport vositalaridan foydalanishni keng yo'lga qo'yish va yuk egalariining tashish xarajatlarini anchagina qisqartirish mumkin;

- tashish hajmiga zarur bo‘lgan transport vositalarini kamaytirish hisobiga materiallar va ishchi kuchiga bo‘lgan talab ham kamayadi;
- yuk tashish tannarxi arzonlashadi;
- transport vositalarining ish unumi va ulardan foydalanish samaradorligi oshadi;
- tezkor rejalashtirishda iqtisodiy-matematik usullar va EHMdan foydalanish imkoni yaratiladi.

Bularning barchasi birgalikda mayda ATSlarni tugatish hisobiga yiriklashtirilgan avtomobil saroyilari ulushining ko‘payishiga yordam beradi. Markazlashtirilgan yuk tashish tizimiga o‘tish yuk egalari ishini ham takomillashtirishga olib keladi.

**Markazlashtirilgan yuk tashishning tashkiliy shakllari.** Amalda markazlashtirilgan yuk tashish tizimining quyidagi: yuk jo‘natuvchilar orqali, tarmoqlar bo‘yicha, transport tashkilotlari orqali, hududiy va shaharlararo tashkiliy shakllari mavjud.

Jo‘natuvchilar tomonidan yuk tashishni markazlashtirishda yuk tashishga talabnoma berish hamda tashish va ortish ishlari jo‘natuvchilarning o‘z kuchi va vositalari orqali bajariladi. Yukni qabul qilish, tushirib olish qabul qiluvchilar zimmasida bo‘ladi. Transport bajaran ishiga yuk jo‘natuvchi, ya‘ni talabnoma beruvchi haq to‘laydi.

Bunday shaklda yuk tashishning iqtisodiy samarasi asosan jo‘natuvchi ombori oldida yuk ortishni kutib turishni bartaraf etish va ortish operatsiyasini mexanizatsiyalash hisobiga bo‘ladi. Bu esa transport vositalarining ish unumini oshirish bilan birga, ularga bo‘lgan talabni kamaytiradi.

Jo‘natuvchilar tomonidan yuk tashishni markazlashtirishning jiddiy kamchiliklari ham bor: yuk tashishni marshrutlash va ularni tashkil etish jo‘natuvchilar zimmasidadir. Jo‘natuvchilar esa faqatgina o‘z yukini vaqtida yetkazib berishga qiziqadi, transport vositasini orqa tomonga yurishida undan foydalanish bilan qiziqmagani sababli, yo‘l qatnovidan foydalanish koeffitsienti 0,5 dan oshmaydi. Agar nolinch (bo‘sh) qatnovlar hisobga olinsa, undan ham kamroq bo‘ladi.

Markazlashtirishni tarmoqlar bo‘yicha tashkil etish shakli mahsulotlarni sotuvchi idoralar bo‘lishini nazarda tutib, bunda mazkur idoralar bir xil mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarining tayyor mahsulotlarini sotish va ularni markazlashtirilgan usulda

barcha iste'molchilarga yetkazib berish ishlarini bajaradi. Bunda mahsulotlarni sotishni tashkil etuvchi idoralar, masalan, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi sanoatda bir guruh g'isht zavodlar, temir-beton kontsruksiyalari ishlab chiqaruvchi zavodlar va h.k., neft mahsulotlari, un tayyorlovchi katta tegirmonlar mahsulotini sotish va markazlashtirilgan usulda ularni barcha iste'molchilarga yetkazib berish bilan shug'ullanadi.

Transport tashkilotlari orqali yuklarni markazlashtirib tashish shakli avtotransport saroylarida yuklarni markazlashtirib tashish (marketing) xizmatini joriy etishni nazarda tutadi. Bunday xizmat barcha yuk jo'natuvchilar bilan ular yuklarini markazlashtirilgan usulda tashib berish haqida shartnoma tuzib, barcha iste'molchilar bilan yuklarni yetkazib berish chizmasini birgalikda tuzadi. Ayrim hollarda shartnoma yuk iste'molchilari bilan tuzilib, ular vakolatnomasi (ichonch qog'ozi) asosida yuklarni jo'natuvchilardan qabul qilib olib, iste'molchilarga o'z vaqtida yetkazib beradi.

Yuk tashishni markazlashtirilgan usulda tashishni tashkil etishning hududiy shakli shundan iboratki, yirik shahar yoki iqtisodiy tumanlar hududida yuk tashishni markazlashtirishning yagona markazi, ya'ni markaziy dispetcherlik xizmati (MDX) (markaziy ekspluatatsiya xizmati) tashkil etilib, mazkur hududdagi barcha ATSlarga yuk tashishda ko'maklashadi. MDX barcha yuk egalari (ko'pincha yuk jo'natuvchilar) bilan yuk tashib berib shartnomasi tuzib, ularni bajarish uchun tezkor yuk tashish rejasini ishlab chiqadi, transport vositalarini oqilona ishlatish marshrutlari va harakat chizmasini belgilaydi, transport vositalari turi va ular miqdorini aniqlaydi. Hududdagi har qaysi ATS mijozlar bilan bevosita bog'lanmaydi, ularning asosiy vazifasi MDX ixtiyoriga ertasi kuni ishga chiqariluvchi transport vositalari turi, markasi va soni bo'yicha axborot berishdan iborat bo'ladi.

### **7.3. Avtobus marshutlarini tashkil qilishning huquqiy asoslari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi 482-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida avtobuslarda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga

doir talablar» avtobuslarda yo'lovchilar tashishda harakatlanish xavfsizligini ta'minlash tartibini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

Ushbu talablar quyidagilar uchun tatbiq etiladi va majburiy kuchga ega:

– yangi avtobus yo'nalishlari ochish va ishlab turganlaridan foydalanishni davom ettirish to'g'risida qarorlar qabul qiluvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar, tumanlar hokimliklari;

– vazirliklar va idoralar, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, o'z transporti bilan avtobusda tashishlarni amalga oshiruvchi yoki o'z tizimiga kirmaydigan korxonalar (tashkilotlar) bilan tashish shartnomalari tuzgan tashuvchilar;

– O'zbekiston Respublikasining sayohat-ekskursiya tashkilotlari;

– avtomobil yo'llari, ko'chalar, sun'iy inshootlar, temiryo'ldan o'tish joylari, paromlarni qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlashni ta'minlovchi vazirliklar, idoralar;

– yo'l harakatini boshqarishning texnik vositalarini o'rnatuvchi va ulardan foydalanuvchi yo'l, kommunal tashkilotlar, boshqa tashkilotlar;

– tashuvchilar va yo'l tashkilotlarini, yo'l harakati xavfsizligi davlat xizmatlarini ob-havo sharoitlarining noqulay o'zgarishlari to'g'risida xabardor qiluvchi gidrometeorologiya tizimi tashkilotlari;

– yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida normativlar va qoidalarga rioya qilinishi ustidan nazorat qiluvchi, yo'l harakatini boshqarish va tashkil etish tadbirlarini amalga oshiruvchi yo'l harakati xavfsizligi davlat xizmati;

– haydovchilarni qatnovdan oldin va qatnovdan keyin tibbiy ko'rikdan o'tkazishni ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimi tashkilotlari;

– boshqaruv organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan avtomobilda tashish xavfsizligini tashkil etish va ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini nazorat qiluvchi O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi (uning hududiy bo'linmalari).

Avtobus yo'nalishlari o'tadigan avtomobil yo'llari, ko'chalar, sun'iy inshootlar, temiryo'ldan o'tish joylari, parom orqali o'tish

joylarining texnik holati, ularning muhandislik jihozlanishi qurilish normalari va qoidalari, avtomobil yo'llarini tuzatish va saqlashning texnik qoidalari, boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan harakat xavfsizligi talablarini qanoatlantirishi kerak.

Vaqtinchalik yo'nalishlarda yo'l harakati xavfsizligi hududiy komissiyasi ruxsati bilan normativ hujjatlar talablariga to'liq javob bermaydigan yo'llar bo'yicha avtobus harakatlarini tashkil etishga istisno tariqasida yo'l qo'yiladi. Bunday holda tegishli tashuvchilar, shuningdek, tasarrufida yo'llar bo'lgan yo'l, kommunal va boshqa tashkilotlar tomonidan avtobuslar harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilishi kerak (xavfli uchastkalar aniqlanishi va yo'nalishlar sxemasiga kiritilishi; avtobuslar to'xtash joylari belgilanishi, haydovchilar bilan instruktaj o'tkazilishi, harakat xavfsizligini ta'minlovchi tezliklar belgilanishi; xavfli joylarda to'siqlar va yo'l belgilari o'rnatilishi va boshqalar). Agar normativ hujjatlar talablariga nomuvofiqlik mavsumiy tusga va ob-havo-iqlim omillari ta'siriga bog'liq bo'lsa, unda istisno tariqasida avtobuslar harakati faqat yilning qatnov qulay paytida qatnash mumkin bo'lgan marshrutlarda tashkil etilishi mumkin.

Yo'l, kommunal tashkilotlari, boshqa tashkilotlar transport harakatini qiyinlashtiruvchi avtomobil yo'llari, ko'chalar, sun'iy inshootlar va boshqalarni qurish, rekonstruksiya qilish va tuzatish bo'yicha rejali tadbirlarni o'tkazishda:

– bu haqda 10 kundan kechikmay tegishli davlat avtomobil nazorati organlarini xabardor qilishga, ularga tuzatish-qurilish ishlarini bajarish davrida aylanib o'tishning kelishilgan variantlarini taqdim etishga;

– aylanib o'tish yo'lini yo'l harakatini tashkil etishning zarur texnik vositalari bilan jihozlab, ularni xavfsiz harakat uchun yaroqli holga keltirishga majburdir.

Avtobus yo'nalishlari o'tadigan avtomobil yo'llarini yopish bilan bog'liq tuzatish ishlari va ishlarning boshqa turlarini bajarishga ruxsatnomalar hokimliklar tomonidan beriladi. Ruxsatnoma bunday ishlarni bajarish joyi, vaqti, harakatni tartibga solishning vaqtinchalik texnik vositalarini joylashtirish davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati organlari bilan kelishilgan sxemasi mavjud bo'lgan taqdirda beriladi.

Avtobuslar muntazam harakat qiladigan avtomobil yo'llari, ko'chalarni tuzatish va saqlash yo'l, kommunal tashkilotlar va ushbu yo'llar tasarrufida bo'lgan boshqa tashkilotlar tomonidan avtomobil yo'llarini tuzatish va saqlashning texnik qoidalariga, yo'llardan foydalanish qoidalariga, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralarning normativ hujjatlariga, shuningdek, hokimliklar tomonidan belgilangan talablarga muvofiq o'tkaziladi.

Avtomobil yo'llari, ko'chalarni qishda saqlash (ularni qordan tozalash, yaxmalakka qarshi kurash) amaldagi tartibga soluvchi hujjatlar asosida ta'minlanadi.

Avtomobil yo'llarining qish davridagi holati va qatnovga yaroqliligi to'g'risida ushbu yo'llar tasarrufida bo'lgan yo'l tashkilotlari va boshqa tashkilotlar yo'l harakati qatnashchilarini tegishli yo'l belgilari o'rnatilganligi haqida o'z vaqtida xabardor qilishga majburdir.

Yo'l harakatini tartibga solishning texnik vositalarini o'rnatish va ulardan foydalanish yo'llar tasarrufida bo'lgan tegishli yo'l tashkilotlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek, ichki ishlar organlarining ixtisoslashtirilgan montaj-foydalanish bo'linmalari (shaharlarda va boshqa aholi punktlarida) tomonidan amalga oshiriladi. Boshqa hollarda bunday ish ichki ishlar organlarining ko'rsatib o'tilgan bo'linmalari tomonidan ushbu yo'llar balansida bo'lgan tashkilotlar va idoralarning mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

Tartibga solishning texnik vositalarini o'rnatish yo'l harakati xavfsizligi davlat xizmatining yozma ko'rsatmasi yoki ruxsatnomasiga ko'ra davlat standartlari talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Avtobuslarda yo'lovchilar tashishni amalga oshiruvchi tashuvchilarda haydovchilarning yo'l sharoitlarini, yo'nalishdagi harakatni tashkil etish tizimini yaxshilashga oid takliflarini ro'yxatdan o'tkazish uchun maxsus jurnallar yuritilishi kerak.

Avtobus yo'nalishlarini belgilashda yo'lning temiryo'lni kesib o'tishini istisno etuvchi yechimlar qidirilishi kerak.

Bunday yechimga kelish imkoni bo'lmagan istisno hollarda shlagbaumli va shlagbaumsiz amaldagi o'tish joylarida avtobus harakatini (doimiy yoki vaqtincha) ochishga har bir alohida holatda yo'l bo'limi boshlig'ining yoki o'tish joyi bo'ysunishida bo'lgan boshqa tashkilotning ruxsati bilan yo'l qo'yiladi. Bunda shlagbaumsiz o'tish

joylarida avtobus harakatiga ular avtomatik svetofor signalizatsiyasi bilan jihozlangandan keyin ruxsat beriladi. Shlagbaumsiz, avtomatik svetofor signalizatsiyasi o'rnatilmagan o'tish joylari bo'yicha avtobus yo'nalishlarini joriy etish taqiqlanadi.

Temiryo'ldan kesib o'tish yo'llari kesib o'tish joylarini qurish va ularga xizmat ko'rsatish yo'riqnomasiga qat'iy muvofiq holda saqlanadi va jihozlanadi.

«O'zbekiston temiryo'llari» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi temiryo'llari umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llari bilan kesishgan kesib o'tish yo'llari umumiy foydalaniladigan kesib o'tish yo'llari hisoblanadi va kompaniya mablag'lari hisobiga saqlanadi.

Idoraviy kesib o'tish temiryo'llari umumiy foydalaniladigan yo'llar yoki alohida korxonalarining yo'llari bilan kesib o'tish yo'llari kesib o'tish temiryo'llariga qarashli bo'lgan tashkilotlar hisobiga yoxud ulardan foydalanuvchi tashkilotlar hisobiga saqlanadi.

«O'zbekiston temiryo'llari» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi va uning bo'linmalari, tasarrufida temiryo'llar bo'lgan vazirliklar va idoralar avtobusda yo'lovchilar tashishni amalga oshiruvchi boshqa vazirliklarni, shuningdek, davlat avtomobil nazoratini avtobusda yo'lovchilar tashish yo'nalishlarida transport vositalari o'tishi qoidalari buzilayotgan yoki qiyinlashayotgan temiryo'lni kesib o'tish yo'llari yoki yo'llarni rekonstruksiya va tuzatish bo'yicha rejali tadbirlar to'g'risida 5 kun oldin xabardor qilishlari kerak.

Temir yo'ldan kesib o'tish yo'llari orqali yoki ularda transport vositalari o'tishi buzilganda yoki qiyinlashganda tuzatish ishlarini bajarish vaqtida ularni aylanib o'tishdagi harakat tartibi tuzatishni amalga oshiruvchi tashkilotlar, davlat avtomobil nazorati bilan o'tish joyining piyodalar yuradigan qismini tuzatishda esa tegishli yo'l tashkilotlari bilan kelishiladi. Temiryo'ldan kesib o'tish yo'llari orqali avtobuslar harakati yo'l harakati qoidalari talablarini qat'iy bajargan holda alohida ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak.

Temiryo'ldan kesib o'tish yo'llari hududida to'xtash punktlari eng yaqin temiryo'l relsidan kamida 100 m masofada joylashtirilishi, ularning texnik yechimi esa avtobus to'xtagan taqdirda transportning asosiy harakat yo'li bo'ylab to'siqsiz harakatini ta'minlashi kerak.



Avtobus yo'nalishlaridagi ko'priklar, kesishgan yo'l ustidan o'tkazilgan ko'ndalang yo'llar, estakadalar va boshqa sun'iy inshootlar qurilish normalari va qoidalari hamda boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan harakat xavfsizligi talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

#### **7.4. Maxsus marshrutlar**

Sayohat-ekskursiya, maxsus yoki bir martalik tashishlar uchun tashkilotlar, korxonalar va fuqarolarga avtobuslar ajratishga shartnomalarni va bir martalik buyurtmalarni rasmiylashtirish avtomobil transportida yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalari, boshqa normativ hujjatlarga muvofiq tashuvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Shartnomalar va buyurtmalar buyurtmachidan borish joyi, borish yo'nalishi, to'xtash joyi, tashilayotgan yo'lovchilar soni, tashish uchun mas'ul shaxs (guruh rahbari, ekskursivod) to'g'risidagi ma'lumotlar olingandan keyin rasmiylashtiriladi. Avtobusning buyurtmachida bo'lishi muddati, tashish uchun mas'ul shaxsning familiyasi yo'l varaqasiga kiritilishi kerak.

Har biriga 30 kishidan ortiq odam sig'adigan ikki yoki undan ortiq avtobuslarda, har biriga 30 kishidan kam odam sig'adigan yo'lovchilar tashilganda ularning harakati kolonna bilan amalga oshiriladi. Tashuvchi tomonidan yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalari, avtobuslardan foydalanish qoidalari, boshqa normativ hujjatlarga, harakat xavfsizligi va xavfsizlik texnikasi talablariga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan shaxs belgilanadi.

Kolonnalarni yo'llarda harakatlanish xavfsizligi davlat xizmati transport vositalari bilan kuzatib borish haqidagi qaror ichki ishlar boshqarmalari rahbarlari, harakat xavfsizligi xizmati avtomobillari bilan kuzatib borish haqidagi qaror esa – tashuvchilar tomonidan qabul qilinadi.

Tashuvchi avtobuslar harakatining tasdiqlangan yo'nalishlariga muvofiq kelmaydigan maxsus tashishlar (vaxta, mehnatkashlarni ishlab chiqarish obyektlariga, qishloq xo'jaligi ishlariga tashib borish) YHXDX (Yo'l harakati xavfsizligi Davlat xizmati) hududiy organlari ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Bir martalik tashishlarga buyurtmalar tashuvchida mo'ljallanayotgan yo'nalishning yo'l sharoitlari haqida axborot mavjud bo'lgan yoki bunday axborot buyurtmachidan olingandan keyin qabul qilindi. Buyurtmachi berilgan ma'lumotlarning ishonchliligi uchun to'liq javob beradi.

Agar yo'nalishdagi yo'l sharoitlari yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlamasa, avtobuslar ajratilmaydi.

Bir martalik buyurtmalar bo'yicha sayohat-ekskursiya tashishlarida buyurtmachi tashkilot rahbarlari:

- guruh rahbarini tanlash, tayyorlash va harakat xavfsizligi va texnika xavfsizligi masalalari bo'yicha yo'l-yo'riq berilishini;
- sayyohlar, bolalar guruhlari bilan yo'lda o'zini tutish va avtobusdan foydalanish qoidalari bo'yicha yo'l-yo'riq berilishini;
- guruh rahbarini yo'lovchilarning tasdiqlangan ro'yxati, YHXDX-ni bolalar tashilishi to'g'risidagi bildirishnoma nusxasi bilan;
- haydovchilarni joy bilan (guruh xususiy sektorda joylashtirilganda alohida xona bilan);
- avtobusni uning saqlanishini ta'minlovchi sharoitlarda to'xtash joyi bilan ta'minlashlari shart.

Ko'rsatib o'tilgan shartlar bajarilmaganda tashishlarga ruxsat berilmaydi.

Viloyat (respublika) tashqarisiga sayohat-ekskursiyalarga muntazam olib borilgan hollarda buyurtmachi tashkilot (tashuvchi) avtobusning saqlanishini, orqaga qaytishga tayyor ekanligini, boshqa viloyatlar (respublikalar) hududida avtobusga texnik xizmat ko'rsatish imkoniyatini nazarda tutishi kerak.

Guruhlarning rahbarlari avtobus harakati, unga chiqish va tushish paytida hamda bekatlarda yo'lovchilar orasida, ayniqsa, bolalar orasida zarur tartibni ta'minlashga majburdirlar.

Tashuvchi:

- haydovchilarga yo'nalish xususiyatlari to'g'risida yo'l-yo'riq berishga, harakat xavfsizligini ta'minlashga, sayohat-ekskursiyaga tashishga, shuningdek, sayohlar va ekskursiyachilarga xizmat ko'rsatish qoidalari, bolalarni tashishda bunday tashishlarni amalga oshirish qoidalari to'g'risida yo'l-yo'riq berishga, bu haqda yo'l

varaqsasi hamda haydovchilar tarkibiga yo'l-yo'riq berish jurnalida qayd etishga;

– avtobusning korxonaga qaytishining nazorat vaqtini tayinlashga, nazorat vaqti tamom bo'lgandan keyin ikki soatdan so'ng avtobus qayerda ekanligini aniqlash chora-tadbirlarini ko'rishga majburdir.

Sayohat ekskursiyalarga olib boruvchi yoki bir martalik buyurtmalar bo'yicha tashishlarni amalga oshiruvchi haydovchilar, agar ular yo'lovchilar tashish qoidalariga, yo'l harakati qoidalariga zid bo'lmasa, yo'nalish o'zgarishi bilan bog'liq bo'lmasa, tashish uchun mas'ullarning (guruh rahbarlarining) ko'rsatmalarini bajarishga majburdir.

Maxsus tashishlarni tashkil etishda tashuvchi:

– yo'nalishni tanlashga (imkoni boricha qattiq qoplamali yo'llar bo'yicha);

– buyurtmachi bilan birgalikda tashish uchun avtobus modelini tanlashga, yo'nalish masofasini belgilashga va harakat tezligini normallashtirishga, xavfsizlik ta'minlanishini, haydovchilarning mehnati va dam olishi belgilangan rejimini hisobga olgan holda avtobuslar harakati jadvalini tuzishga va tasdiqlashga;

– mazkur talablarni hisobga olgan holda tashish uchun zarur bo'lgan avtobuslar sonini aniqlashga;

– buyurtmachi bilan birgalikda yo'nalish hujjatlarini tuzishga, ularni davlat avtomobil nazorati bilan kelishishga majburdir.

**Bolalarni tashish.** Bolalarni (16 yoshgacha bo'lgan) tashishni tashkil etish avtomobil transportida yo'lovchilar va bagajni tashish qoidalariga hamda mazkur talablarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Bolalarni avtobuslarda tashish sutkaning yorug' paytida yaqin masofani yoritadigan chiroqlar yoqilgan holda amalga oshirilishi kerak. Harakat tezligi yo'l, meteorologiya va boshqa sharoitlarga ko'ra haydovchi (kuzatib borilganda – uning ta'minlanishi uchun mas'ul bo'lgan shaxs) tomonidan tanlanadi. Bunda barcha hollarda harakat tezligi soatiga 60 kilometrdan oshmasligi kerak.

Sayohat-ekskursiyalarga olib borishga va bolalarni tashishga bir martalik buyurtmalarga shartnomalar tashuvchilar tomonidan guruhga o'qituvchilar yoki maxsus tayinlangan katta yoshdagi kishilar

hamkorlik qilishi sharti bilan tuziladi. Avtobuslar kolonnasi bilan tashilayotgan bolalarga hamrohlik qilish uchun tibbiy xodimlar ajratish to'g'risidagi masala joylarda sog'liqni saqlash organlari tomonidan qabul qilinadi.

Maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni shaharlararo sayohat-ekskursiyalarga olib borish taqiqlanadi.

Qishloq joylarda muntazam ravishda bolalarni avtobuslarda tashishni tashkil etishda tashuvchilar:

*bolalarni borish joyiga o'z vaqtida yetkazishni ta'minlovchi maxsus qatnovlarni nazarda tutishga, ushbu qatnovlar ko'p bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka majburdir. Bunday tashishlar bajarilishini, avtomobil yo'llari holatini, bolalarni tushirish va chiqarish punktlarini muntazam nazorat qilishga;*

*yo'nalishlarda bolalarni tashiyotgan avtobuslarning o'tish vaqti ko'rsatilgan maxsus to'xtash belgilari o'rnatishga majburdir.*

## **7.5. Umumiy foydalaniladigan avtobus yo'nalishlarini ochish va yopish**

Yangi avtobus yo'nalishlarini ochishda yo'l harakati xavfsizligi maqsadida temiryo'ldan kesib o'tishni inkor qiluvchi yechim izlanishi kerak. Agar buning iloji bo'lmagan taqdirda avtobuslarning temiryo'l kesishmasi orqali harakatlanishiga yo'nalishni tekshiruvchi komissiya taqdimnomasiga ko'ra, temiryo'l boshlig'i yoki temiryo'llarni kesib o'tish yo'llari tasarrufida bo'lgan tashkilot rahbarining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.

Vaqtinchalik (mavsumiy) avtobus marshrutlari agar:

– past qoplamali yo'llar bo'ylab avtobus harakatini ochish talab etilsa;

– avtobuslarning og'irlik parametrlari va hajmlarining avtomobil yo'llari haqiqiy toifalariga muvofiqligini ta'minlash imkoniyati bo'lmasa;

– avtomobil yo'llari, ko'chalar uchastkalari bo'ylab, sun'iy inshoot, temiryo'ldan kesib o'tish yo'llari va parom orqali o'tish bo'yicha ularning texnik holati, muhandislik uskunalari, saqlash darajasi normativ

hujjatlar talablaridan chetga chiqilganda avtobus harakatini ochish zarur bo'lganda tashkil etilishi mumkin.

Vaqtinchalik (mavsumiy) avtobus yo'nalishini ochishda yo'nalishning amal qilish muddati (davri), shuningdek, avtobuslar harakati xavfsizligini ta'minlash maqsadida tashuvchilar, yo'l, kommunal va boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar kompleksi aniq ko'rsatilishi kerak.

Avtobus yo'nalishini yopish uning harakat xavfsizligi talablariga yoxud faoliyat ko'rsatishi maqsadga muvofiq bo'lmagan taqdirda amalga oshiriladi.

Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda (tabiiy hodisalar sababli yo'llar, yo'l inshootlari buzilishi, yo'l yoki meteorologiya sharoitlarining harakat xavfsizligi ta'minlanmaydigan darajagacha yomonlashishi, issiqlik, gaz, elektr kommunikatsiyalarida va boshqa kommunikatsiyalardagi avariya) tashuvchilar, yo'l, kommunal tashkilotlar YHXDX bo'linmalari, joylardagi davlat hokimiyati organlari yoki ular tomonidan maxsus vakolat berilgan yo'lovchi transportini boshqarish organlari avtobus harakatini darhol to'xtatish huquqiga egadirlar, ayni paytda bu haqda tegishli tashuvchilar, yo'l, kommunal tashkilotlariga, YHXDX bo'linmalariga xabar beriladi.

Avtobuslar harakatini vaqtincha to'xtatish tartibi yo'nalishlarni ochish va yopish vakolatlari berilgan organlar tomonidan belgilanadi.

Yo'l, kommunal tashkilotlar, avtokorxonalar, davlat avtomobil nazoratlari, gidrometeorologiya xizmatlari, YHXDX bo'linmalari, yo'lovchilar avtovokzallari, avtostansiyalari harakat uchun xavfli bo'lgan tabiiy ofatlar to'g'risidagi ogohlantirish olinganligi to'g'risida darhol bir-birlariga xabar qiladilar.

Dovullar to'g'risida ogohlantirish olingach tashuvchilar, avtovokzallar, avtostansiyalar tabiiy ofat mintaqasida avtobuslarda yo'lovchilar tashishni amalga oshiruvchi barcha avtokorxonalarni, xususiyl shaxslarni harakatning vaqtincha to'xtatilganligi to'g'risida zudlik bilan xabardor qilish chora-tadbirlarini ko'rishlari shart.

Yangi avtobus yo'nalishlarining ochilganligi, ishlab turganlari yopilganligi, ularning o'zgartirilganligi, avtobuslar harakati vaqtincha to'xtatib turilishi to'g'risida tashuvchilar, avtovokzallar, avtostansiyalar aholini, manfaatdor tashkilotlarni xabardor qiladi.

Avtobus yo'nalishlarini tekshirish bo'yicha komissiya tarkibi yo'nalishni ochish (yopish) huquqiga ega bo'lgan organning qarori bilan tasdiqlanadi. Qoidaga ko'ra ushbu organning vakili boshchilik qiladigan komissiya tarkibiga O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi (uning hududiy bo'linmalari), tashuvchilar, YHXDX bo'linmalari, yo'l, kommunal tashkilotlar, temiryo'l va temiryo'llar tasarrufida bo'lgan boshqa tuzilmalar vakillari kiradi.

Xalqaro avtobus yo'nalishini ochishga tayyorgarlik ko'rish ishlari hududidan yo'nalish o'tishi mo'ljallanayotgan davlatlar vakolatli organlarining shunday vakillaridan iborat tarkibda tuziladigan komissiya tomonidan bajariladi. Komissiyaga O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi boshlig'i boshchilik qiladi.

#### **7.6. Avtomobil transportida yo'lovchilarni hamda yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash**

Avtomobil transportida yo'lovchi va yuklarni tashish faoliyatini litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 14-iyuldagi 138-son qarori bilan tasdiqlangan «Avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi» Nizom asosida amalga oshiriladi.

Avtomobil transportida yo'lovchilarni hamda yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish huquqi uchun namunaviy (oddiy) litsenziyalar beriladi.

Litsenziya talabgorining arizasiga ko'ra litsenziya umuman faoliyat turiga yohud uning quyidagi qismlariga beriladi:

- a) yo'lovchilarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha avtobuslarda tashish;
- b) yo'lovchilarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha mikroavtobuslarda tashish;
- v) yo'lovchilarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha yengil avtomobillarda tashish;
- g) yo'lovchilarni shaharda avtobuslarda tashish;
- d) yo'lovchilarni shaharda mikroavtobuslarda tashish;

- e) yo'lovchilarni shaharda yengil avtomobillarda tashish;
- j) yo'lovchilarni shahar atrofida avtobuslarda tashish;
- z) yo'lovchilarni shahar atrofida mikroavtobuslarda tashish;
- i) yo'lovchilarni shahar atrofida yengil avtomobillarda tashish;
- k) yo'lovchilarni shaharlararo yo'nalishlar bo'yicha avtobuslarda tashish;
- l) yo'lovchilarni shaharlararo yo'nalishlar bo'yicha mikroavtobuslarda tashish;
- m) yo'lovchilarni shaharlararo yo'nalishlar bo'yicha yengil avtomobillarda tashish;
- n) yo'lovchilarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha avtobuslarda tashish;
- o) yo'lovchilarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha mikroavtobuslarda tashish;
- p) yo'lovchilarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha yengil avtomobillarda tashish;
- r) yuklarni avtomobil transportida shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish;
- s) yuklarni avtomobil transportida shaharda tashish;
- t) yuklarni avtomobil transportida shahar atrofida tashish;
- u) yuklarni avtomobil transportida shaharlararo yo'nalishlar bo'yicha tashish;
- f) yuklarni avtomobil transportida xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish.

Litsenziya 5 yil muddatga beriladi. Litsenziyaning amal qilishi litsenziya berilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Litsenziya bilan birga har bir avtotransport vositasiga litsenziya kartochkasi beriladi.

Har bir avtotransport vositasiga litsenziya kartochkasi litsenziyaning amal qilish muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga beriladi. Agar ashyoviy huquqlarning yoki ijara shartnomasining amal qilish muddati litsenziyaning amal qilish muddatidan kam bo'lsa, litsenziya kartochkasining amal qilish muddati ashyoviy huquqlar yoki ijara shartnomasining amal qilish muddati bilan cheklanadi. Litsenziya kartochkasining amal qilishi litsenziya kartochkasi berilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Litsenziatning litsenziya kartochkalari bilan ta'minlanmagan avtomobil transporti vositasidan foydalangan holda olgan daromadi (foydasi) noqonuniy hisoblanadi va qonun hujjatlariga muvofiq budjetga olib qo'yilishi kerak.

Quyidagilar avtomobil transportida yo'lovchilarni hamda yuklarni tashish faoliyatini amalga oshirishda litsenziya talablari va shartlari hisoblanadi:

a) litsenziat tomonidan avtotransport vositalaridan foydalanishda, ularni shaylashda qonun hujjatlariga, tashish qoidalariga majburiy rioya qilinishi, yo'l-transport hodisalarining oldini olish chora-tadbirlarining amalga oshirilishi;

b) shtatda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan, tegishli lavozimni egallash huquqi uchun agentlik tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tgan mansabdor shaxslarning mavjud bo'lishi;

v) litsenziat foydalanayotgan har bir avtotransport vositasi uchun litsenziya kartochkasi mavjud bo'lishi;

g) avtotransport vositasining belgilangan tartibda texnik ko'rikdan o'tganligini va texnik jihatdan sozligini tasdiqlovchi hujjatlarning mavjud bo'lishi;

d) avtomobil transportida yuk tashuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning va yuridik shaxs xodimlarining avtomobil transportida yo'lovchilar va yuk tashishlarni amalga oshirishda qo'yiladigan malaka talablariga muvofiqligi;

e) qonun hujjatlariga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli tashilishi;

j) tenderlar natijalari bo'yicha, vakolatli organlar bilan shartnoma asosida, shu jumladan Toshkent shahrida va Toshkent viloyati doirasida tegishli Departament bilan shartnoma asosida yo'lovchilarni avtomobilda muntazam tashish (yo'nalishli taksilardan tashqari).

z) tashish va yong'in xavfsizligi talablarini bajarish, avtotransport vositasini texnik jihatdan soz holatda saqlash, uni asrash, texnik ko'rikdan o'tkazish, texnika xavfsizligini ta'minlash, avtotransport vositalarini yo'lga chiqishdan oldin texnik ko'rikdan o'tkazish va haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish;



i) yangidan olinayotgan va to'ldirilayotgan avtotransport vositalariga litsenziatlar tomonidan qo'shimcha litsenziya kartochkalarining o'z vaqtida olinishi;

k) shaharlararo, viloyatlararo va xalqaro yo'nalishda avtomobilda tashishlarni amalga oshirayotgan avtotransport vositalarida servis ustaxonasining tamg'asi qo'yilgan nazorat priborlari (taxograflar) mavjud bo'lishi.

Litsenziya bitimida mazkur bandeda sanab o'tilganlardan aniq litsenziya talablari va shartlari nazarda tutilishi mumkin.

**Litsenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar.** Litsenziya olish uchun litsenziya talabgori quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) yuridik shaxs uchun – yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasi-ning nomi va bankdagi hisob raqami; jismoniy shaxs uchun yuk tashish huquqiga litsenziya olishda – familiyasi, ismi, otasining ismi, pasportga oid ma'lumotlar va haydovchilik guvohnomasi; faoliyatning litsenziyalanadigan turi (yohud uning bir qismi) va faoliyatning mazkur turi amalga oshiriladigan muddat ko'rsatilgan holda litsenziya berish to'g'risidagi ariza;

b) yuridik shaxs uchun – yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning tasdiqlangan nusxasi; jismoniy shaxs uchun yuk tashish huquqiga litsenziya olishda – yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;

v) mavjud avtotransport vositalarining mulk huquqi, boshqa ash-yoviy huquqlar yoki ijara shartnomalari to'g'risidagi ma'lumotlari, shuningdek, yo'l harakati xavfsizligi davlat xizmatining tegishli bo'linmasi tomonidan berilgan avtotransport vositasining texnik jihatdan soz ekanligi to'g'risida belgi qo'yilgan avtotransport vositasi texnik pasportining yoki avtotransport vositalari guruhi texnik ko'rikdan o'tkazilganligi dalolatnomasining nusxasi;

g) litsenziya talabgorida haydovchilarni tibbiy ko'rikdan va avtotransport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazish yohud litsenziya talabgorining tegishli ixtisoslikdagi tashkilot bilan unga tibbiy ko'rik va texnik ko'rikdan o'tish imkoniyati berilishi to'g'risidagi shartnomasi nusxasi mavjudligi haqidagi ma'lumotlar;

d) yuk tashish huquqiga litsenziya olishda yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs xodimlari malakasining belgilangan talablar va shartlarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari;

e) yuridik shaxslar uchun – yuridik shaxsning yo‘l harakati xavfsizligi ta‘minlanishi uchun mas‘ul bo‘lgan mansabdor shaxslarining tegishli attestatsiyadan o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari;

j) litsenziya talabgori tomonidan ariza ko‘rib chiqilganligi uchun yig‘im to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat.

Litsenziya talabgoridan mazkur Nizomda nazarda tutilmagan hujjatlar taqdim etilishini talab qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Hujjatlar litsenziyalovchi organga bevosita litsenziya talabgori tomonidan yohud ular olinganligini tasdiqlovchi bildirishnoma bilan pochta aloqasi vositasi orqali yetkazib beriladi.

Hujjatlar ro‘yxat bo‘yicha qabul qilinadi, uning nusxasi hujjatlar qabul qilib olingan sana ko‘rsatilgan holda ariza beruvchiga yuboriladi (topshiriladi).

**Arizalarni ko‘rib chiqish va litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilish.** Litsenziya talabgorining arizasi ko‘rib chiqilganligi uchun:

– jismoniy shaxslardan yuklarni tashish faoliyatini amalga oshirish huquqiga litsenziya olish uchun – eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdorida;

– o‘ntagacha avtotransport vositasidan foydalanuvchi yuridik shaxslardan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdorida, o‘nta va undan ortiq avtotransport vositalaridan foydalanuvchi yuridik shaxslardan – eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida yig‘im undiriladi.

Litsenziya talabgorining arizasi ko‘rib chiqilganligi uchun yig‘im summasi tegishli ravishda Agentlik yoki Departamentning bankdagi hisob raqamiga o‘tkaziladi. Litsenziya talabgori o‘z hujjatlari ko‘rib chiqilayotgan davrda berilgan arizadan voz kechgan taqdirda yig‘im qaytarilmaydi.

Avtomobil transportida yo‘lovchilar hamda yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha tashish faoliyatini litsenziyalash «Avtomobil transportida yo‘lovchilarni va

yuqlarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi» Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Litsenziya va litsenziya kartochkalari blankalari qat'iy hisobda turadigan hujjatlar hisoblanadi, hisobga olish seriyasiga, tartib raqamiga va himoyalani darajasiga ega bo'ladi. Litsenziya blankalari va litsenziya kartochkalari namunalari tegishli ravishda Agentlik yoki Departament tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi hamda ularning buyurtmasiga ko'ra «Davlat belgisi» davlat-ishlab chiqarish birlashmasida bosmaxona usulida tayyorlanadi. Litsenziya blankalarining hisobga olinishi, saqlanishi va ulardan maqsadli foydalanilishi uchun litsenziyalovchi organ rahbari javob beradi.

Litsenziya talabgoriga avtomobil transportida yo'lovchilarni hamda yuqlarni tashishga litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qaror litsenziya talabgorining arizasi barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda olingan kundan boshlab o'n besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda qabul qilinadi.

Litsenziyalovchi organ litsenziya talabgorini qaror qabul qilingani to'g'risida qaror qabul qilingandan keyin uch ish kuni mobaynida xabardor qiladi.

Litsenziya berishga qaror qilinganligi to'g'risidagi bildirishnoma bank hisob raqamining rekvizitlari, davlat bojini to'lash muddati ko'rsatilgan holda yozma shaklda litsenziya talabgoriga yuboriladi (topshiriladi).

Litsenziya litsenziyalovchi organ tomonidan litsenziya talabgori davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etgandan va litsenziya bitimini imzolagandan keyin ikki kun muddatda rasmiylashtiriladi.

Litsenziya litsenziyalovchi organ (uning o'rinbosari) tomonidan imzolanadi va litsenziyalarga litsenziyalovchi organ tomonidan beriladi.

Litsenziat litsenziya berish to'g'risida qaror qabul qilinganligi haqidagi bildirishnoma yuborilgan (topshirilgan) vaqtdan boshlab uch oy mobaynida litsenziyalovchi organga litsenziya berilganligi uchun davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etmagan yohud litsenziya bitimini imzolamagan taqdirda, litsenziyalovchi organ litsenziyani bekor qilishga haqlidir.

Litsenziya talabgori litsenziya berish rad etilishi to'g'risidagi qaror, shuningdek, litsenziyalovchi organ mansabdor shaxsining xatti-harakati (harakatsizligi) ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda rad etish to'g'risidagi bildirishnoma litsenziya talabgoriga rad etishning aniq sabablari va litsenziya talabgori ko'rsatib o'tilgan sabablarni bartaraf etib hujjatlarni takroran ko'rib chiqishga taqdim etishi uchun yetarli bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yozma shaklda yuboriladi (topshiriladi).

Bunda litsenziya berishni rad etishga asos bo'lgan sabablarni bartaraf etish uchun litsenziya talabgoriga 15 kun muddat beriladi.

Litsenziya talabgori tomonidan litsenziya berish rad etilishiga asos bo'lgan sabablar bartaraf etilgan taqdirda, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish litsenziya talabgorining rad etish sabablari bartaraf etilgani to'g'risidagi arizasi va rad etish sabablari bartaraf etilganini tasdiqlovchi hujjatlar olingan kundan boshlab besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

Hujjatlarni takroriy ko'rib chiqishda litsenziyalovchi organ tomonidan ariza beruvchiga ilgari yozma ravishda bayon qilinmagan rad etish sabablari ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmaydi. Rad etish sabablari bartaraf etilganini tasdiqlovchi hujjatlar bilan bog'liq bo'lgan rad etish sabablarini ko'rsatish bundan mustasno.

Litsenziya talabgorlarining arizalari takroran ko'rib chiqilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

Litsenziya berish rad etilganligi to'g'risidagi bildirishnomada ko'rsatilgan muddat o'tgandan keyin berilgan ariza yangidan berilgan ariza hisoblanadi.

**Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish.** Litsenziya talablari va shartlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirishda litsenziyalovchi organ:

– litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rejali tekshiradi;

– litsenziya talablari va shartlari litsenziat tomonidan buzilganligidan dalolat beruvchi hollar mavjud bo'lgan taqdirda litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini qonunda belgilangan tartibda rejadan tashqari tekshiradi;

– litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalar yuzasidan litsenziatdan zarur axborotni so'raydi va oladi;

– tekshirishlar natijalari asosida litsenziya talablari va shartlarining aniq buzilishini ko'rsatgan holda dalolatnomalar (ma'lumotnomalar) tuzadi;

– aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etish majburiyatini yuklovchi qarorlar chiqaradi, bunday qonun buzilishlarini bartaraf etish muddatlarini belgilaydi;

– qonun hujjatlarida belgilangan hollarda litsenziyalarning amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish yohud ularni bekor qilish masalasi bo'yicha qaror chiqaradi yoki sudga murojaat qiladi;

– avtomobil transportida yo'lovchilar hamda yuklarni tashish faoliyatini litsenziyasiz amalga oshirishning aniqlangan hollari to'g'risidagi materiallarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlar ko'rish uchun belgilangan tartibda soliq organlariga yuboradi.

**Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish, litsenziyani bekor qilish.** Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 22-moddasida nazarda tutilgan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

Bunda litsenziyalovchi organ litsenziyaning amal qilish muddatini o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga to'xtatib turadi. Litsenziyaning amal qilish muddatini o'n ish kunidan ortiq muddatga to'xtatib turish litsenziyalovchi organning arizasiga ko'ra sud tomonidan amalga oshiriladi.

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qaror sud yoki litsenziyalovchi organ tomonidan litsenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan (chiqarilgan) kundan boshlab uch ish kunidan kechikmay, litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilishiga sabab bo'lgan holatlarning litsenziat tomonidan bartaraf etish muddati ko'rsatilgan holda yetkaziladi.

Litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilishiga sabab bo'lgan holatlar litsenziat tomonidan bartaraf etilgan taqdirda litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turgan litsenziyalovchi organ yoki o'zining arizasiga ko'ra litsenziyaning amal qilishi sud tomonidan to'xtatib turil-

gan organ ko'rsatib o'tilgan holatlarning bartaraf etilgani to'g'risidagi tasdiqnoma olingan kundan boshlab besh ish kuni mobaynida uning amal qilishini tiklash yoki tiklashni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi kerak.

Litsenziyalovchi organ yoki sudning litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat berilishi mumkin.

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatish «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 23-moddasida nazarda tutilgan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

Bunda litsenziyaning amal qilishini to'xtatish to'g'risidagi qaror litsenziyalovchi organ tomonidan quyidagi hollarda:

– litsenziat litsenziyaning amal qilishini to'xtatish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganda;

– yuridik shaxs tugatilganda – tugatilgan vaqtdan boshlab yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida to'xtatilganda – qayta tashkil etish vaqtdan boshlab, uning o'zgartirilishi bundan mustasno;

– avtomobil transportida shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashishni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorning litsenziatning davlat ro'yxatidan o'tkazilgani to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi to'xtatilganda;

– avtomobil transportida shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashishni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorning – litsenziatning huquqiy muomalaga layoqatligi cheklanganda yoki u huquqiy muomalaga layoqatli emas deb e'tirof etilganda;

– litsenziyaning amal qilish muddati tugaganda qabul qilinadi.

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatish to'g'risidagi qaror faqat sud tomonidan quyidagi hollarda:

– litsenziya talablari va shartlari bir-yil mobaynida litsenziat tomonidan ikki va undan ko'p marta buzilganda, agar ushbu buzilishlar fuqarolarning huquqlariga, qonuniy manfaatlariga va sog'lig'iga, jamoat xavfsizligiga hamda atrof muhitga zarar yetkazilishiga sabab bo'lganda;

– litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlar litsenziyalovchi organ yoki sud belgilagan muddatda litsenziat tomonidan bartaraf etilmaganda;

– litsenziyalovchi organning litsenziya berish to‘g‘risidagi qarorining noqonuniyligi aniqlanganda qabul qilinadi.

Litsenziyaning amal qilishini to‘xtatish to‘g‘risidagi qaror sud yoki litsenziyalovchi organ tomonidan litsenziyatga yozma shaklda, qarorni puxta asoslagan holda qaror qabul qilingan (chiqarilgan) sanadan boshlab besh kundan kechikmay yetkaziladi. Litsenziyaning amal qilishi uni to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab to‘xtatiladi.

Litsenziyalovchi organ yoki sudning litsenziyaning amal qilishini to‘xtatish to‘g‘risidagi qarori yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat berilishi mumkin.

Litsenziyani bekor qilish «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasida nazarda tutilgan hollarda faqat sud orqali amalga oshiriladi.

Bunda litsenziyani bekor qilish to‘g‘risidagi qaror ushbu qarorni qabul qilgan sud tomonidan litsenziyatga yozma shaklda, qarorni puxta asoslagan holda uning qabul qilingan kunidan boshlab uch kundan kechikmay yetkaziladi.

Bekor qilish to‘g‘risidagi qaror litsenziya berilgan sanadan boshlab amal qiladi.

Litsenziyani bekor qilishda to‘langan davlat boji qaytarilmaydi.

### Nazorat savollari

1. Transport-ekspeditsiya xizmatining avtotrasport korxonalar bilan aloqalari.
2. Yo‘lovchilarga kompleks transport-ekspeditsion xizmati ko‘rsatish qanday qulayliklarni yaratib beradi?
3. Markazlashgan tashish dega qanday turdagi tashishni tushunasiz?
4. Yuk tashishning markazlashtirilgan usulini qo‘llashda transport jarayonlarida qatnashuvchi tomonlarning o‘zaro aloqalari.
5. Markazlashtirilgan yuk tashish tizimi qanday afzalliklarga ega?
6. Markazlashtirilgan yuk tashishning tashkiliy shakllari.
7. Avtobus marshutlarini tashkil qilishning huquqiy asoslari.
8. Nima uchun avtobus yo‘nalishlarini belgilashda yo‘lning temiryo‘l ni kesib o‘tishini istisno etuvchi yechimlar qidirish zarur?
9. Bir martalik buyurtmalar bo‘yicha sayohat-ekskursiya tashishlarida buyurtmachi tashkilot rahbarlariga qanday vazifalar yuklatiladi?
10. Maxsus tashishlarni amalga oshirishda tashuvchiga qanday vazifalar yuklatiladi?

11. Bolalarni tashishni tashkil etish.
12. Umumiy foydalaniladigan avtobus yo'nalishlarini ochish va yopish tartibi.
13. Vaqtinchalik (mavsumiy) avtobus marshrutlarini ochish tartibini aytib bering.
14. Avtomobil transportida yo'lovchilarni hamda yuklarni tashishning qanday faoliyat turlariga litsenziya beriladi?
15. Avtomobil transportida yo'lovchilarni hamda yuklarni tashish faoliyatini amalga oshirishda litsenziya talablari va shartlari.
16. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish.
17. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish, litsenziyani bekor qilish.



## **VIII BOB.**

### **XALQARO AVTOMOBIL QATNOVINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

#### **8.1. Xalqaro tashishning o'ziga xos xususiyatlari**

Iqtisodiy aloqalarni internatsionallashuvi avtomobil transportida yuk va yo'lovchi tashish bitta davlat hududida amalga oshirilmay, balki bir necha davlat (ikki va undan ortiq) hududi bo'ylab amalga oshirilishini taqozo etmoqda.

Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek, «O'zbekistonning o'ziga xos geografik o'rni, portlarga va yirik transport uzellariga chiqish imkoniyati yo'qligi tufayli transport tarmoqlari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari ustuvor, strategik, hayotiy ahamiyat kasb etmoqda»<sup>1</sup>

Ikki va undan ortiq davlatlar o'rtasida yuk va yo'lovchi tashish qonunchilik va xalqaro kelishuvlarda xalqaro tashish deb ataladi.

Respublikamizning boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalari rivojlanishi mamlakatlararo yuk tashishda avtomobil transportidan foydalanishni taqozo etadi. Bu zaruriyatni respublikamizni geografik joylashishi o'rniga qarab ham aniqlash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari va sohaga doir boshqa bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi transportda tashishga oid 150 dan ortiq, shartnomani imzolagan, 25 ta konvensiyaga va 110 dan ortiq boshqa xalqaro huquqiy hujjatlarga qo'shilgan.

Shu bilan birga, transport tarmoqlari va kommunikatsiyalarini modernizatsiya qilishda xalqaro hamkorlikni izchil rivojlantirib borish, shuningdek, mamlakatimizning o'z tranzit-transport salohiyatini ro'yobga chiqarish zarurati milliy transport qonunchiligini xorijiy

---

<sup>1</sup> «Halq so'zi» gazetasi. 2011-yil 25-fevral. 40-son 1-bet.

tajribani o'rganish asosida yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xalqaro yuklarni avtomobillarda tashish yuk tashishga qiziqishi bo'lgan mamlakatlar o'rtasida tuziladigan tegishli shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Shartnomada yo'l harakati qoidalarini, yo'l belgilari va signallarining bir xil bo'lishi, davlat chegaralarini kesib o'tish vaxorijiy davlat hududidi bo'ylab yuk tashishga ruxsatnoma borligi, bojxona va soliq to'lashdagi muammolarni bartaraf etilishi, xorijiy transport vositasiga texnika xizmati ko'rsatish bo'yicha yordam berish tartibi va boshqalar yoritilgan bo'ladi.

Avtomobillarda xalqaro yuk tashishning rivojlanishi yo'l harakati to'g'risidagi Konvensiyani hamda yo'l belgilari va signallar to'g'risidagi bayonnomani (1949) qabul qilinishiga olib keldi. Ushbu konvensiya 6 ta bo'limdan iborat bo'lib, 1-bo'limda Konvensiyani qo'llanish doirasi belgilab berilgan; 2-bo'limda haydovchilarga qo'yiladigan umumiy talablar va avtomobil yo'llari bo'ylab harakatlanish tartibi belgilab berilgan; 3-bo'lim signalizatsiyalarga bag'ishlangan; 4-bo'lim avtomobil va tirkamalarning texnik holati, nomeri va belgilariga qo'yiladigan talablar yoritilgan; 5-bo'limda xalqaro marshrutlarda harakatlanuvchi haydovchilarga qo'yiladigan talablar va ularga avtomobilni boshqarish huquqini berish tartibi yoritib berilgan; oxirgi 6-bo'lim velosipedlarda harakatlanish qoidalari keltirilgan.

1968-yil Vena shahrida yo'l harakati to'g'risidagi hamda yo'l belgilari va signallari to'g'risidagi Konvensiyalarning yangi matni tasdiqlandi. 1971-yilda esa yo'l harakati to'g'risidagi Konvensiyani to'ldiruvchi Yevropa kelishuvi qabul qilindi. Bu o'zgarishlar Konvensiya talablarini yanada mustahkamladi. Shartnoma tuzuvchi tomonlarga ularning hududida amal qiladigan yo'l harakati qoidalari Konvensiya talablariga muvofiq bo'lishi majburiyati yuklatildi. Shuningdek, shartnoma tuzuvchi tomonlarga o'z hududlariga Konvensiya talablariga javob beruvchi avtomobil va tirkamalarnigina kiritish hamda avtomobilni boshqarish huquqi Konvensiya talablari asosida berilgan guvohnomalarnigina tan olish majburiyati yuklatildi. Konvensiyaga yuk tashishning bir qator qoidalari kiritildi.

Avtomobil transportida xalqaro yuk tashish shartnomasini tuzish va amalga oshirishni tartibga solishda 1956-yil Jeneva shahrida tuzilgan

Xalqaro yuklarni tashish kelishuvi Konvensiyasi muhim ahamiyatga ega.

Konvensiya 8 bo'lim 51 moddadan iborat bo'lib, unda Konvensiyaning qo'llanish doirasi; tashuvchining javobgarliklari; yuk tashish shartnomasini tuzish va amalga oshirish tartibi; da'vo va nizolar; aralash tashishda turli xil transport turlarining vazifalari; tashish shartnomasi shartlarining ushbu Konvensiyaga nomuvofiqligining huquqiy asoslari keltirilgan.

Ushbu Konvensiya yuk jo'natish va yukni qabul qilish punktlari ikki davlat hududida joylashgan, shuningdek, bu davlatlardan hech bo'lmasa bittasi ushbu Konvensiyaning ishtirokchisi bo'lgan hollardagina qo'llaniladi.

Ushbu Konvensiyaning I bo'lim 4-moddasiga ko'ra Konvensiya xalqaro pochta tashish Konvensiyasida ko'zda tutilgan holatlar, tobut tashish, o'tish joylarida qurilmalar va mebel tashishga nisbatan qo'llanilmaydi.

Xalqaro yuk tashish shartnomasi nakladnoy orqali rasmiylashtiriladi. Nakladnoyda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- uni tuzilgan joyi va sanasi;
  - yuk jo'natuvchining nomi va manzili;
  - transport agentining nomi va manzili;
  - yukni tashish uchun qabul qilish joyi va sanasi hamda uni yetkazib berish joyi;
  - yukni qabul qiluvchining nomi va manzili;
  - yukning tavsifi va uni idishga joylashtirish turiga bog'liq holda qabul qilingan belgilanishi, xavfli yuklarni tashishda odatda qabul qilingan belgisi;
  - yuk o'rinlari soni, uning asosiy belgilari va nomeri;
  - yukning brutto og'irligi yoki yuk miqdorining boshqa o'lchov birligidagi qiymati;
  - tashish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar (tashish tannarxi, qo'shimcha xarajatlar, bojxona to'lovlari, shartnoma tuzishdan to yukni topshirgunga qadar boshqa turib qolishlar uchun xarajatlar);
  - bojxona nazoratidan o'tishda talab qilinadigan yo'riqnomalar.
- Yuqoridagilardan tashqari nakladnoyda zaruriyatga qarab quyidagi ko'rsatmalar ham bo'lishi lozim: ortish-tushirish ishlarini ta-

qiqlash bo'yicha; xarajatlar bo'yicha; yukni dekloratsiyalangan qiy-mati bo'yicha; yukni sug'urtalash yo'riqnomasi; yuk tashishni amalga oshirish muddatlari; tashuvchiga topshirilgan hujjatlar ro'yxati va boshqa zarur ko'rsatmalar.

Avtomobil transportida xalqaro yo'lovchilar va bagaj tashish 1997-yilning 9-oktabrida Bishkek shahrida qabul qilingan «Avtomobil transportida xalqaro yo'lovchilar va bagaj tashish to'g'risida»gi Konvensiya talablari asosida amalga oshiriladi. Ushbu Konvensiya O'zbekiston Respublikasida 1999-yil 14-sentabrdan kuchga kirgan bo'lib, Konvensiya 7 bo'limdan iborat. Konvensiyada uning amal qilish doirasi; tashishni tashkil etish sharoiti; tashuvchining huquq va majburiyatlari; yo'lovchining huquq va majburiyatlari; haydovchining huquq va majburiyatlari; yo'l haqi to'lash tartibi va yo'l haqi to'lashdagi imtiyozlar; yo'lovchilar va bagaj tashishni nazorat qilish tartibi hamda da'vo va nizolarning hal etilishining huquqiy asoslari yoritib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham xalqaro tashishni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 11-yanvardagi «Avtomobilida xorijiy yuk tashuvchilarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishlari, bo'lishlari, yuk olib o'tishlari va unidan chiqib ketishlari tartibi to'g'risida»gi 11-sonli qarori respublikada xorijiy tashishlarni tartibga solishning normativ-huquqiy hujjati bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi avtomobil va daryo transportida tashuvlarni amalga oshirish bo'yicha xalqaro shartnomalarning loyihalarini ekspert sifatida ishlab chiqish va xalqaro shartnomalar majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga olgan vakolatli organ hisoblanadi.

**Agentlikning xalqaro doiradagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

– Avtomobil va daryo transporti faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy bazani takomillashtirish, mavjud xalqaro avtomobil yo'laklaridan samarali foydalanish va ularning yangilarini ochish bo'yicha takliflarni davlat organlariga ko'rib chiqish uchun kiritish. Avtomobil va daryo transportidan foydalanish bo'yicha xalqaro bitimlar va shartnomalar ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi nomidan ishtirok etish;

– O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining tashqi iqtisodiy faoliyati Agentlikning xorijiy davlatlar bilan xalqaro aloqalarini o‘rnatish va rivojlantirishga mas‘ulligidan iborat.

– Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan xorijiy davlatlar bilan xalqaro avtomobil tashuvlarini amalga oshirishga doir 27 ta hukumatlararo va bitta idoralararo bitimlar imzolangan;

– Mazkur bitimlar bo‘yicha vakolatli davlat organi O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligidir;

– Xalqaro avtomobil tashuvlarini tartibga solish va rivojlantirish masalalarini hal etish maqsadida har yili O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi va xorijiy davlatlarning vakolatli organlari o‘rtasida amaldagi imzolangan shartnomalar talablarini bajarish bo‘yicha muzokaralar olib boriladi va o‘zaro kelishuvlar asosida ikki tomonlama ruxsatnoma blankalari almashiladi.

## **8.2. Avtomobil transportida xalqaro tashish bo‘yicha bitimlar**

Xalqaro yuk tashishlar xalqaro aloqalar to‘g‘risidagi ikki tomonlama hukumatlararo bitimlar asosida, avtomobil transportiga tegishli ko‘p tomonlama konvensiyalar va bitimlarning talablariga muvofiq hamda amaldagi milliy ko‘rsatmalarga rioya qilish sharti bilan amalga oshiriladi. Mana shundan kelib chiqqan holda avtomobil transportida xalqaro yuk tashishlarni bajarish chog‘ida quyidagi hujjatlar bo‘lishi zarur:

### **Haydovchining hujjatlari:**

a) hududlari bo‘yicha yuk tashiladigan mamlakatlarning kirish-chiqish va yuk olib o‘tish vizalarining haqiqiy muddatlari ko‘rsatilgan chet el pasporti;

b) yo‘l harakati to‘g‘risida 1998-yil 8-noyabrdagi Konvensiyaga muvofiq avtotransport vositasini boshqarish huquqini beruvchi xalqaro haydovchilik guvohnomasi;

v) 1970-yil 1-iyuldagi Yevropa bitimiga a‘zo bo‘lgan mamlakatlarda yuritish nazarda tutilgan, avtomobilda xalqaro yuk tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari ekipajlariga taalluqli haydovchining shaxsiy nazorat daftarchasi.

### **Avtotransport vositasiga tegishli hujjatlar:**

a) yo'l harakati to'g'risida 1968-yil 8-noyabrdagi Konvensiyaga muvofiq avtotransport vositasining ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma;

b) avtotransport vositasining mamlakatga kirishi yoki mamlakat hududi orqali o'tishi uchun (agar bitimda nazarda tutilgan bo'lsa) ruxsatnoma;

v) 1975-yilgi Xalqaro yo'l qoidalari to'g'risidagi Konvensiya talablariga muvofiq avtotransport vositasiga bojxona muhrlari va plombalari bo'lgan yuklarni xalqaro tashish uchun ruxsat berish to'g'risida guvohnoma;

g) tez buziluvchi yuklarni tashish lozim bo'lgan hollarda tez buziluvchi mahsulotlarni (SPS guvohnomasi) tashish uchun avtotransport vositasiga ruxsat berish to'g'risida guvohnoma.

### **Yukka tegishli hujjatlar:**

a) yuklarni xalqaro yo'llarda tashishga oid shartnoma to'g'risidagi Konvensiya talablariga muvofiq tovar-transport nakladnoyi va yukning har bir nomi bo'yicha yuklab jo'natish tafsiloti bo'lgan ro'yxati;

b) orqaga qaytishda yukni rasmiylashtirish uchun tovar-transport nakladnoylari to'plami;

v) 1975-yilgi Xalqaro yo'l qoidalari daftarchasi qo'llangan holda yuklarni xalqaro tashish to'g'risidagi Konvensiyaga muvofiq XYQ daftarchasi (TIR karneti);

g) bitta tovar-transport nakladnoyi bo'yicha yuklab jo'natiladigan tovarning har bitta partiyasiga beriladigan tovarning sifat sertifikatini;

d) agar yuk karantin va veterinariya tovarlari toifasiga kirsa, karantin va veterinariya sertifikatlari;

e) agar yuk tashqi savdo yuki hisoblansa, mamlakatga yukni olib kelish, mamlakatdan olib chiqib ketish uchun Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tomonidan beriladigan ruxsatnoma. Agar yuk korxonalarining to'g'ridan to'g'ri aloqalari orqali idoralarga qarashli transport bilan tashilsa, to'g'ridan to'g'ri aloqalar o'rnatish to'g'risidagi shartnoma yoki protokol nusxasi.

Yuklar xalqaro yo'nalishda tashilganda yuklarni yo'llarda xalqaro tashish shartnomasi to'g'risidagi konvensiya shartlariga muvofiq jo'natuvchi (yukning egasi) bilan tashuvchi o'rtasida tashish

shartnomasi tuziladi. Ushbu shartnoma SMR shaklidagi xalqaro tovar-transport nakladnoyi tuzilishi bilan tasdiqlanadi.

SMR nakladnoyi tomonlar o'rtasida shartnoma mavjudligini tasdiqlaydigan yuridik hujjat hisoblanadi.

SMR nakladnoyi uch nusxada tuziladi, jo'natuvchi va tashuvchi tomonidan imzolanadi. Ushbu imzolar bosmaxona usulida bosilishi yoki jo'natuvchi va tashuvchining shtempellari bilan almashtirilishi mumkin. Nakladnoyning birinchi nusxasi jo'natuvchiga beriladi, ikkinchi nusxasi yuk bilan birga qo'shib jo'natiladi, uchinchi nusxasi tashuvchida qoladi.

Avtotransportda xorijiy yuk tashuvchilarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishlari va undan chiqishlari, yuk olib o'tishlari va harakatini tartibga solish, ular tomonidan zarur yig'imlar, poshlinalar va boshqa to'lovlar to'lanishini, yo'l, maishiy va servis xizmati ko'rsatish tizimini tashkil etish, avtomobilda xorijiy yuk tashuvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarorida quyidagilar belgilab berilgan:

Harakat qilish uchun mo'ljallangan avtomobil yo'llari ro'yxati, harakatning vaqtinchalik yo'nalish varaqasi, O'zbekiston Respublikasi hududiga kirish-chiqishda va unda harakat qilishda xorijiy avtotransport vositalarining yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan parametrlari hamda avtotransport vositalari va yuklarga haydovchilarning zarur hujjatlari ro'yxati tasdiqlab berilgan.

Xorijiy avtomobilda yuk tashuvchilar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududida harakatlanish yo'nalishlaridagi o'zgartirishlar qat'iy ravishda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining tegishli hududiy boshqarmasi tomonidan beriladigan ruxsatnomalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Avtomobilda xorijiy yuk tashuvchi haydovchilarning, yuklarni kuzatib boruvchilar yoki yo'lovchilar sifatidagi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishlari, chiqishlari, bo'lishlari va yuk olib o'tishlari Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-noyabrdagi 408-son va 2002-yil 21 fevraldagi 62-son qarorlariga, shuningdek, MDH qatnashchisi bo'lgan davlatlarning ushbu masalalarni tartibga soluvchi tegishli bitimlariga muvofiq amalga oshiriladi.

**YO'L VARAQASI**  
**МАРШРУТНЫЙ ЛИСТ**  
**ROUTE LIST**

Haydovchi Водител _____ Driver	Haydovchilik guvohnomasi Водит. удостоверение _____ Driver's licence
--------------------------------------	--

Davlatning nomi Страна _____ Country	
--	--

Avtotransport vositasining Davlat raqami Автотранспортное средство Гос. номер _____ Motor transport	Markasi Марка _____ Type
Yuk: Груз: Lading:	Nomi Наименование _____ Name
	Vazni Объем (вес) _____ Volume weight

Tegishli hujjatlar Сопроводительные документы _____ Covering documents	
--	--

Qatnov yo'nalishi Маршрут следования _____ Movement route	
---	--

To'xtash va dam olish uchun tavsiya etiladigan mehmonxona, motel va kempinglar, yoqilg'i quyish va texnik xizmat ko'rsatish shoxobchasi  
 Рекомендуемые пункты стоянок, гостиницы, мотели и кемпинги для отдыха, АЗС, СТО Recommended points of parking, hotels, motels and camping-sites for resting, filling station, maintenance stations

Mo'ljallangan chiqib ketish joyi, kuni va vaqti Предполагаемый пункт, дата и время выезда _____ date and time of exit	_____lece
---	-----------

Kirib ketganligi to'g'risida belgi. Отметка о въезде _____ Register on entry	Chiqib ketganligi to'g'risida belgi Отметка о выезде _____ Register on exit
--	---

Haydovchining imzosi  
 Подпис водителя  
 Driver's signature

Haydovchining imzosi  
 Подпис водителя  
 Driver's signature



**O'zbekiston Respublikasi hududida avtotransport vositalarining yo'l qo'yilishi  
mumkin bo'lgan parametrlari**

1.	Gabaritlar: eni balandligi	- 2,5 metr - 4 metr
2.	avtomobilning va avtopoezdlarning uzunligi: O'qlarining soni turlicha bo'lgan avtomobillarning uzunligi yarim pritsepli yoki bir pritsepli avtopoezdlarning uzunligi	- 12 metrdan - 20 metrdan oshmasligi kerak
3.	Avtomobillar yoki avtopoezdlarning o'qiga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan og'irlik	- 8 tonnadan oshmasligi kerak
4.	Avtotransport vositasining og'irligi ko'pi bilan	- 40 tonnadan oshmasligi kerak

O'zbekiston Respublikasi Hukumati xalqaro yuk va yo'lovchi tashishni tashkil etish bo'yicha bir qator mamalakatlar bilan ikki tomonlama bitimlar imzolagan (8.2-jadval).

**Avtomobil transporti sohasida O'zbekiston Respublikasi va xorijiy  
davlatlar o'rtasida imzolangan ikki tomonlama bitimlar**

<b>Mamlakat</b>	<b>Bitimning nomlanishi, imzolangan sanasi va joyi</b>
Turkiya bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Turkiya Respublikasi Hukumati o'rtasida quruqlikda harakatlanadigan transport aloqasi to'g'risida bitim (1992-yil 28- aprelda Toshkent shahrida imzolangan)
Ukraina bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Ukraina Hukumati o'rtasida xalqaro avtomobil aloqasi to'g'risida bitim (1993-yil 20-fevralda Toshkent shahrida imzolangan)
Eron bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Islom Eron Respublikasi Hukumati o'rtasida xalqaro avtomobil aloqasi to'g'risida bitim (1993-yil 18-otabrda Toshkent shahrida imzolangan)
Xitoy bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Xitoy Xalq Respublikasi Hukumati o'rtasida xalqaro avtomobil aloqasi to'g'risida bitim (1993-yil 13-dekabrda Toshkent shahrida imzolangan)

Belorus bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Belorus Respublikasi Hukumati o'rtasida xalqaro avtomobil aloqasi to'g'risida bitim (1994-yil 22-dekabrda Toshkent shahrida imzolangan)
Gruziya bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Gruziya Respublikasi Hukumati o'rtasida xalqaro avtomobil aloqasi to'g'risida bitim (1995-yil 4-sentabrda Toshkent shahrida imzolangan)
Moldova bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Moldova Respublikasi Hukumati o'rtasida xalqaro avtomobil aloqasi to'g'risida bitim (1995-yil 21-noyabrda Toshkent shahrida imzolangan)
Turkmaniston bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Turkmaniston Hukumati o'rtasida xalqaro yuk va yo'lovchi avtomobil aloqasi to'g'risida bitim (1996-yil 16-yanvarda Chardjev shahrida imzolangan)
Latviya bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Latviya Respublikasi Hukumati o'rtasida xalqaro avtomobil aloqasi to'g'risida bitim (1996-yil 23-mayda Toshkent shahrida imzolangan)
Ozarboyjon bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Ozarboyjon Respublikasi Hukumati o'rtasida xalqaro yuk va yo'lovchi avtomobil aloqasi to'g'risida bitim (1996-yil 27-mayda Baku shahrida imzolangan)
Ruminiya bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Ruminiya Hukumati o'rtasida avtomobil yo'llarida tranzit tashish sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim (1996-yil 6-iyunda Buxarest shahrida imzolangan)
Qirg'iziston bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Qirg'iziston Respublikasi Hukumati o'rtasida xalqaro avtomobil aloqasi to'g'risida bitim (1996-yil 4-sentabrda Toshkent shahrida imzolangan)
Slovakiya bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Slovakiya Respublikasi Hukumati o'rtasida xalqaro yuk va yo'lovchi avtomobil aloqasi to'g'risida bitim (1997-yil 17-yanvarda Bratislava shahrida imzolangan)
Litva bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Litva Respublikasi Hukumati o'rtasida xalqaro yuk va yo'lovchi avtomobil aloqasi to'g'risida bitim (1997-yil 20-fevralda Toshkent shahrida imzolangan)
Finlyandiya bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Finlandiya hukumati o'rtasida xalqaro avtomobil aloqasi to'g'risida bitim

Bolgariya bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Bolgariya Respublikasi Hukumati o'rtasida xalqaro yuk va yo'lovchi avtomobil aloqasi to'g'risida bitim
Gretsiya bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Gretsiya Respublikasi Hukumati o'rtasida avtomobil transportida xalqaro yuk va yo'lovchi avtomobil aloqasi to'g'risida bitim
Chexiya bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Chexiya Respublikasi Hukumati o'rtasida avtomobil transportida xalqaro yuk va yo'lovchi avtomobil aloqasi to'g'risida bitim
Rossiya bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Rossiya Federatsiyasi Hukumati o'rtasida xalqaro avtomobil aloqasi to'g'risida bitim
Italiya bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Italiya Respublikasi Hukumati o'rtasida xalqaro yuk va yo'lovchi tashishni tartibga solish hamkorligi to'g'risida bitim
Germaniya bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Germaniya Federativ Respublikasi Hukumati o'rtasida avtomobil transportida xalqaro yuk va yo'lovchi tashish to'g'risida bitim
Avstriya bilan	O'zbekiston Respublikasi avtomobil va daryo transporti agentligi va Avstriya Respublikasi transport, innovatsiya va texnologiyalar vazirligi o'rtasida xalqaro yuk tashish to'g'risida bitim
Shveysariya bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Shveysariya Federal Kengashi o'rtasida avtomobil transportida xalqaro yuk va yo'lovchi tashish to'g'risida bitim
Vengriya bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Vengriya Respublikasi Hukumati o'rtasida avtomobil transportida xalqaro yuk va yo'lovchi tashish to'g'risida bitim
Niderlandiya bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Niderlandlar Qirolligi Hukumati o'rtasida avtomobil transportida xalqaro tashish to'g'risida bitim
Polsha bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Polsha Respublikasi Hukumati o'rtasida avtomobillarda xalqaro tashish to'g'risida bitim
Sloveniya bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Sloveniya Respublikasi Hukumati o'rtasida avtomobillarda xalqaro yuk va yo'lovchi tashish to'g'risida bitim
Qozog'iston bilan	O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Qozog'iston Respublikasi Hukumati o'rtasida xalqaro avtomobil aloqasi to'g'risida bitim

Xorijiy avtotashuvlarning O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit harakat qilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2011-yil 9-dekabrda «Xorijiy avtotashuvlarning O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit harakat qilishi uchun mo'ljallangan yo'nalishlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida»gi 323-qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq xorijiy avtotashuvchilar O'zbekiston Respublikasi hududiga 44 ta yo'nalishdagi avtomobil yo'llari bo'ylab amalga oshiriladi. Jumladan,

– Turkmaniston chegarasi – Xo'jayli (Qoraqalpog'iston Respublikasi) - Olot (Buxoro viloyati) – Turkmaniston chegarasi yo'nalishi (yo'nalish uzunligi 682 km);

– Turkmaniston chegarasi – Xo'jayli (Qoraqalpog'iston Respublikasi) – Xayraton (Surxondaryo viloyati) – Afg'oniston chegarasi (1035 km);

– Turkmaniston chegarasi – Xo'jayli (Qoraqalpog'iston Respublikasi) – Gulbahor (Surxondaryo viloyati) bo'jxona postlari – Tojikiston chegarasi (1086 km);

– Turkmaniston chegarasi – Xo'jayli (Qoraqalpog'iston Respublikasi) – Sariosiyo (Surxondaryo viloyati) – Tojikiston chegarasi (1152 km);

– Turkmaniston chegarasi – Xo'jayli (Qoraqalpog'iston Respublikasi) – Jartepa (Samarqand viloyati) – Tojikiston chegarasi ( 905 km);

– Turkmaniston chegarasi – Xo'jayli (Qoraqalpog'iston Respublikasi) – Oybek (Toshkent viloyati) – Tojikiston chegarasi (1168 km);

– Turkmaniston chegarasi – Xo'jayli (Qoraqalpog'iston Respublikasi) – Oybek (Toshkent viloyati) – Tojikiston chegarasi – Andarxon (Farg'ona viloyati) – Do'stlik (Andijon viloyati) – Qirg'iziston chegarasi (1375 km);

– Afg'oniston chegarasi – Xayraton (Surxondaryo viloyati) – Gulbahor (Surxondaryo viloyati) – Tojikiston chegarasi (52 km);

– Afg'oniston chegarasi – Xayraton (Surxondaryo viloyati) – Sariosiyo (Surxondaryo viloyati) – Tojikiston chegarasi (180 km);

– Afg'oniston chegarasi – Xayraton (Surxondaryo viloyati) – Yal'lama (Toshkent viloyati) – Qozog'iston chegarasi (664 km);

– Tojikiston chegarasi – Gulbahor (Surxondaryo viloyati) – Sari-osiyo (Surxondaryo viloyati) – Tojikiston chegarasi (220 km);

– Tojikiston chegarasi – Gulbahor (Surxondaryo viloyati) – Oybek (Toshkent viloyati) – Andarxon (Farg‘ona viloyati) – Do‘stlik (Andijon viloyati) – Qirg‘iziston chegarasi (1008 km);

– Qirg‘iziston chegarasi – Do‘stlik (Andijon viloyati) – Yallama (Toshkent viloyati) – Qozog‘iston chegarasi (310 km) va boshqa yo‘nalishlarlar.

Xorijiy shaxslarning (shu jumladan, yuk olib o‘tish) ko‘rsatib o‘tilgan masalalar bo‘yicha xalqaro qoidalarga, Vena Konvensiyasiga (haydovchilik hujjatlari to‘g‘risida), shuningdek, respublikaning amaldagi qonunchiligiga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishlari va bo‘lishlari xorijiy davlat transport vositasining O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq choralar ko‘rilishi uchun hududiy bojxona organlariga yoki ichki ishlar organlariga keltirilishiga sabab bo‘ladi.

Respublika hududi orqali o‘tuvchi transport vositalarining hududga kirgan kundan boshlab 3 kundan ortiq bo‘lmagan muddatda chiqib ketishlarini ta‘minlagan holda, ularning yuk olib o‘tishlari ustidan qattiq nazorat o‘matish, shuningdek, berilgan buyurtmanomalarga muvofiq avtomobil transportida tashiladigan maxsus yuklarni kuzatib borishni O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Avtomobilda xorijiy yuk tashuvchilarning tranzit orqali o‘tuvchi transport vositalarining harakat yo‘nalishi O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan o‘zgartirilgan taqdirda ularning chiqib ketish muddati O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirgan kundan boshlab 10 kundan oshmasligi kerak.

Hududga kirish hujjatlarini rasmiylashtirganlik uchun stavka va avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi uchun olinadigan to‘lov qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yig‘imlarni undirish erkin muomaladagi valyutada bevosita bojxona postlarida vakolatli banklarning qabul qilish punktlarida amalga oshiriladi, olingan mablag‘lar jamg‘arma daromadlarining tranzit hisob raqamlari orqali O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasining valyuta hisob raqamlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

Hujjatlarni rasmiylashtirish, O'zbekiston Respublikasi hududiga kirish uchun yig'imlar to'lash ustidan nazorat bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Agar ikki tomonlama bitimlarda o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, avtomobilda xorijiy yuk tashuvchilar tomonidan yuklarning uchinchi mamlakatlar(dan)ga tashilishi taqiqlanadi.

Avtomobilda xorijiy yuk tashuvchilarning kirishlari, bo'lishlari, yuk olib o'tishlari va chiqishlarining O'zbekiston Respublikasi hududida qabul qilingan tartibi to'g'risida diplomatik kanallar orqali davlatlarning elchixonalari, konsulxonalari va vakolatxonalariga O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan ma'lum qilinadi.

Xorijiy davlatlar og'ir yukli va katta hajmli transport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab yurishi uchun to'lovlar Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 11-yanvardagi 11-son qarori bilan tasdiqlangan «Xorijiy davlatlar og'ir yukli va katta hajmli transport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab yurishi uchun to'lovlar to'g'risida»gi Nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

Yo'llar va sun'iy inshootlarning tezda eskirishiga sabab bo'luvchi hamda qatnovda xalal berishni vujudga keltiruvchi og'ir yukli va katta hajmli transport vositalarining yurishi uchun to'lovlar ularni saqlash, ta'mirlash, o'tkazib yuborishlarni tashkil etish va harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha ish hajmlarini qoplash xarajatlari bilan aniqlanadi.

Og'ir yukli va katta hajmli transport vositalarining umumiy foydalanishdagi yo'llar bo'ylab yurishi uchun to'lovga quyidagilar kiradi:

– marshrutni kelishib olish va yurishga ruxsatnomani rasmiylashtirish uchun to'lov;

– transport vositasi umumiy haqiqiy vaznining yo'l qo'yiladigan umumiy vazndan oshib ketganligi uchun to'lov;

– g'ildirak o'qi haqiqiy nagruzkalarining yo'l qo'yiladigan yo'l konstruksiyalaridan oshib ketganligi uchun to'lov;

– transport vositasi hajmlarining oshib ketganligi uchun to'lov.

Yig'imlardan katta hajmli va og'ir yukli transport vositalarining yurib o'tishi tufayli vujudga kelgan yo'llar va inshootlarni ta'mirlash, saqlash bo'yicha qo'shimcha ish hajmlarini bajarishda, o'tkazib

yuborishlarni tashkil etishda va harakat xavfsizligini ta'minlashda foydalaniladi.

Ruxsatnomasiz yurib o'tganlik uchun transport vositasi egasidan yurib o'tish uchun to'lovning o'n baravari miqdorida qoplov puli undiriladi.

Yo'l harakati qoidalariga yohud tashuvlarni amalga oshirish shartlariga rioya qilmaslik tufayli yo'llarga va yo'l inshootlariga zarar yetkazganlik uchun transport vositasi haydovchisi amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladi.

Agar yo'llarga va inshootlarga yetkazilgan zarar katta hajmli va og'ir yukli transport vositalari kelishilgan qatnov marshruti bo'yicha, yo'l harakati qoidalariga rioya etgan holda yurib o'tganda ro'y bersa, u holda javobgarlik va zararni to'lash, amaldagi qonunchilikka muvofiq, qatnov marshruti kelishib olingan tashkilot zimmasiga tushadi.

Katta hajmli va og'ir yukli transport vositalarini Davlat avtomobil nazorati patrul avtomobillarining kuzatib borganligi uchun to'lov Davlat avtomobil nazorati bilan tuzilgan shartnoma asosida undiriladi.

Transport vositasi umumiy haqiqiy vaznining yo'l qo'yiladigan vazndan ko'pligi uchun to'lov miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 1-avgustdagi 233-sonli Vazirlar Mahkamasining «Avtomobilda xorijiy yuk tashuvchilarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishlari, bo'lishlari, yuk olib o'tishlari va undan chiqib ketishlari tartibi to'g'risida» 1995-yil 11-yanvardagi 11-son qaroriga o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorining 1-ilovasida keltirilgan tariflarga muvofiq belgilanadi (8.3-jadval).

8.3-jadval.

**Transport vositasi umumiy haqiqiy vaznining yo'l qo'yiladigan vazndan ko'pligi uchun to'lov miqdori**

Umumiy haqiqiy vaznning yo'l qo'yiladigan ortiqchalik miqdori, t	Yuriladigan 1 km uchun tarif, AQSh dollari	Umumiy haqiqiy vaznning yo'l qo'yiladigan ortiqchalik miqdori, t	Yuriladigan 1 km uchun tarif, AQSh dollari
0 dan 5 gacha	0,02	30 dan 35 gacha	0,33
5 dan 10 gacha	0,03	35 dan 40 gacha	0,46
10 dan 15 gacha	0,06	40 dan 45 gacha	0,63
15 dan 20 gacha	0,10	45 dan 50 gacha	0,85

20 dan 25 gacha	0,15	50 va undan yuqori	1,00
25 dan 30 gacha	0,23		

Og'ir yukli transport vositalari avtomobil yo'llari bo'ylab yurib o'tganda g'ildirak o'qi haqiqiy nagruzkasining yo'l qo'yiladigan miqdordan ortiqchaligi uchun to'lov nagruzkasi ortiqcha bo'lgan har bir o'q uchun 8.4-jadvaldagi tariflarga muvofiq undiriladi.

8.4-jadval

**Og'ir yukli transport vositalari avtomobil yo'llari bo'ylab yurib o'tganda g'ildirak o'qi haqiqiy yuklamasining yo'l qo'yiladigan yuklamaga nisbati uchun to'lov**

G'ildirak o'qi haqiqiy nagruzkasining yo'l qo'yiladigandan ortiqchaligi	Har bir o'qning yo'l qo'yiladigandan ortiqcha nagruzka bilan yurib o'tgan yo'li uchun tarif, 1 km yo'l uchun AQSh dollari	G'ildirak o'qi haqiqiy nagruzkasining yo'l qo'yiladigandan ortiqchaligi	Har bir o'qning yo'l qo'yiladigandan ortiqcha nagruzka bilan yurib o'tgan yo'li uchun tarif, 1 km yo'l uchun AQSh dollari
G'ildirak o'qi haqiqiy yuklamasining yo'l qo'yiladigandan yuklamaga nisbati	Har bir o'qning yo'l qo'yiladigandan ortiqcha yuklamaga bilan yurilgan masofa uchun tarif, 1 km yo'l uchun AQSh dollari	G'ildirak o'qi haqiqiy yuklamasining yo'l qo'yiladigandan yuklamaga nisbati	Har bir o'qning yo'l qo'yiladigandan ortiqcha yuklamaga bilan yurilgan masofa uchun tarif, 1 km yo'l uchun AQSh dollari
1,01 dan 1,05 gacha	0,11	1,55 dan 1,60 gacha	0,64
1,05 dan 1,10 gacha	0,12	1,60 dan 1,65 gacha	0,73
1,10 dan 1,15 gacha	0,14	1,65 dan 1,70 gacha	0,85
1,15 dan 1,20 gacha	0,18	1,70 dan 1,75 gacha	0,95
1,20 dan 1,25 gacha	0,21	1,75 dan 1,80 gacha	1,08



1,25 dan 1,30 gacha	0,25	1,80 dan 1,85 gacha	1,22
1,30 dan 1,35 gacha	0,30	1,85 dan 1,90 gacha	1,38
1,35 dan 1,40 gacha	0,35	1,90 dan 1,95 gacha	1,54
1,40 dan 1,45 gacha	0,41	1,95 dan 2,00 gacha	1,73
1,45 dan 1,50 gacha	0,48	2,00 va undan ortiq	2,00»
1,50 dan 1,55 gacha	0,55		

Transport vositalari hajmlarining ortiqchaligi uchun to'lov yurib o'tilgan 1 km yo'l uchun 0,15 AQSH dollari miqdorida undiriladi.

Og'ir yukli va katta hajmli transport vositalari tashuvlari uchun arizalarni ko'rib chiqish, marshrutni kelishib olish va ruxsatnomalar berish uchun to'lovlar miqdori yo'l organlari tomonidan ikkita tarif bir martalik va marshrutning 100 kilometri bo'yicha belgilanadi. Bir martalik tarifi AQSH dollarini tashkil qiladi. Marshrutning 100 kilometri uchun tarif 11 AQSH dollariga teng.

Chet davlatlar og'ir yuk ko'taruvchi va katta hajmli transport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab yurishidan tushgan mablag'lar Respublika yo'l fondiga o'tkaziladi.

### **8.3. Tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati ostida tashish**

**Tovarlar va transport vositalarini tashish.** Bojxona nazorati ostida turgan, shu jumladan bojxona hududi orqali tranzit rejimida olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalari yuk jo'natuvchi bojxona organidan yuk kelib tushuvchi bojxona organiga ushbu tovarlar va transport vositalarini tashish uchun qabul qilgan yuk tashuvchining javobgarligi ostida tashilishi mumkin.

Yuk kelib tushuvchi bojxona organiga topshirilishi lozim bo'lgan hujjatlar qaysi tovarlar va transport vositalariga tegishli bo'lsa, o'sha tovarlar va transport vositalari bilan bir xil tartibda yetkaziladi.

**Tashuvchining huquqlari va majburiyatlari.** Tashuvchi quyidagi hollarda tovarlar va transport vositalarini tashish uchun qabul qilmaslikka haqli:

– bojxona va transport hujjatlari belgilangan tartibni buzgan holda rasmiylashtirilgan bo'lsa;

– bojxona tomonidan transport vositasiga va tovarlar joylangan o'rov-idishlarga qo'yilgan ta'minlov choralari tashilayotgan tovarlarga ana shu ta'minlov choralari buzmasdan tegish imkoniyatini istisno etmasa.

Tovarlar, transport vositalari va ularga oid hujjatlarni tashish uchun qabul qilib olgan tashuvchi:

– ularni jo'natuvchi bojxona organi tomonidan belgilangan manzilga, yo'nalishda va muddatda, tabiiy eskirish yohud normal tashish va saqlash sharoitlaridagi kamayish oqibatidagi o'zgarishlarni istisno etganda, ularning o'rov-idishlari yoki holatini o'zgartirmasdan, eltib berishdan boshqa maqsadda foydalanmasdan yetkazib berishi;

– tovarlar, transport vositalari va ularga oid hujjatlarni yuk kelib tushadigan bojxona organida ko'rsatishi, bu organ mansabdor shaxslarining talabiga binoan esa, tovarlar va transport vositalarini amalda taqdim etishi;

– bojxona nazorati ostida turgan tovarlar bilan bir vaqtda boshqa tovarlarni tashimasligi shart.

Yuk eltib beriladigan joyiga yetib kelganidan keyin tashuvchi bojxona organining ruxsatisiz tovarlar va transport vositasini to'xtash joyida qarovsiz qoldirish, to'xtash joyini o'zgartirish, yo'lovchilarni tushirish, tovarlar bilan biron-bir ortish-tushirish va o'rash-joylash operatsiyalarini o'tkazish, qiyoslash vositalarini o'zgartirish, olib tashlash yoki yo'q qilish huquqiga ega emas.

Agar tashuvchi, yo'lovchilarning va transport vositasi ekipajining hayoti hamda sog'lig'i chinakam xavf ostida qolganligini, tovarlar va transport vositasining yo'q qilinishi, qaytarib bo'lmaydigan tarzda qo'ldan ketishi yoki jiddiy buzilishi xavfi mavjud bo'lganligini isbotlansa javobgarlik yuzaga kelmaydi. Ko'rsatilgan talablar buzilishiga sabab bo'lgan holatlar to'g'risida tashuvchi darhol bojxona organini xabardor qilishi shart.

Agar tashuvchi yoxud uning transport vositasi ushbu O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining talablariga rioya etilishini kafolatlay olmasa, bojxona organi transport vositasi faqat tegishlicha jihozlangan yoki bojxona kuzatuviga olingan yohud bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlovchi garov summalari kiritilgan yoki tovarlar bojxona tashuvchisi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashilgan taqdiridagina tovarlarning bojxona nazorati ostida olib o'tilishiga yo'l qo'yishga haqli.

Ayrim toifadagi tovarlarni tashuvchilar uchun qonun hujjatlarida boshqacha talablar belgilanishi mumkin.

**Tashuvchining javobgarligi.** O'zbekiston Respublikasi hududi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarining but saqlanishi uchun tashuvchi javobgar bo'ladi.

Tovarlar bojxona organining ruxsatisiz berib yuborilgan, yo'qotilgan yoki yuk kelib tushadigan bojxona organiga eltib berilmagan taqdirda, tashuvchi, tegishli ravishda erkin muomalaga yoki eksportga chiqarish rejimlarida to'lanishi lozim bo'lgan boj to'lovlarini to'lashi shart, tovarlar halokat yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida yo'q bo'lgan yohud qaytarib bo'lmaydigan tarzda qo'ldan ketgan, yohud kamomad tabiiy eskirish yoki normal tashish va saqlash sharoitida kamayish tufayli yuzaga kelgan yohud organlar yoki mansabdor shaxslarning qonunga xilof xatti-harakatlari natijasida egalikdan chiqib ketgan hollar bundan mustasno. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'y bergan bunday hollar O'zbekiston Respublikasining diplomatiya vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanishi lozim.

**Falokat yuz bergan yoki yengib bo'lmas kuch ta'sir etgan taqdirda ko'riladigan chora-tadbirlar.** Falokat yuz bergan yoki yengib bo'lmas kuch ta'sir etgan taqdirda tashilayotgan tovarlar transport vositasidan tushirilishi mumkin. Bu holda tashuvchi tovarlarning but saqlanishini ta'minlash va ulardan biron-bir tarzda foydalanilishiga yo'l qo'yimaslik uchun zarur choralarni ko'rishi, ishning holatlarini, tovarlar va transport vositalarining qayerda ekanligini eng yaqin bojxona organiga darhol xabar qilishi, tovarlarning eng yaqin bojxona organiga tashib keltirilishini yoki bojxona organining mansabdor shaxslari tovarlar turgan joyga olib kelinishini ta'minlashi shart.

Bojxona organi bunday hollarda bojxona nazoratini ta'minlash uchun ko'riladigan chora-tadbirlarni belgilaydi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan chora-tadbirlar ko'rilishi munosabati bilan tashuvchining qilgan xarajatlari bojxona organi tomonidan qoplanmaydi.

#### **8.4. «O'z xorijtrans» transport korxonasi bilan xalqaro tashishni tashkil qilish**

«O'z xorijtrans» kompaniyasi 1991-yilda tashkil topgan. Kompaniya faoliyatining asosiy yo'nalishlari: O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy yuklariga transport ekspeditorlik xizmatlarini taqdim etish, logistika xizmatlarini hamda yuklarni sug'urtalash, yetkazib berish va saqlash xizmatlarini taqdim etish. Har yili «O'z xorijtrans» 1,5 mln. tonna hajmida eksport-import yuqlarini yetkazib beradi. Kompaniya tomonidan tashiladigan yuklarning nomenklaturasi: paxta tolasi, lint, bug'doy, un, mineral o'g'itlar, rangli metallar, neft mahsulotlari, sanoat jihozlari, mexanizmlar va boshqa mahsulotlar.

Kompaniyaning muvaffaqiyatli faoliyatini belgilovchi omillar: Respublika tashqi iqtisodiy yuklarini xalqaro miqyosda tashishda katta tajriba; Moliyaviy barqarorlik; Transport ekspeditsiyasi va logistika sohasida malakali mutaxassislar mavjudligi.

yuklarga transport-ekspeditorlik xizmatlari taqdim etilishini tashkillashtirganda, kompaniya, uning tomonidan ta'sis etilgan korxonalar xizmatlaridan foydalanadi. Bular qatorida: «UVT-INSHURANS»—sug'urtalash xizmatlari (Sug'urtalash) «Buxoro Trans Terminal» ICHTK paxta tolasi (qabul qilish, saqlash, nazorat, fumigatsiya va fitosanitarya nazorati, eksportga ortish) va boshqa yuklar omborxona logistikasi xizmatlari (Terminal-logistika majmui)

Transport-ekspeditorlik xizmatlari xalqaro bozorida o'z faoliyatini amalga oshirib, kompaniya al temativ transport yo'nalishlari va yangi marshrutlarga katta e'tibor bermoqda. Sinchiklab amalga oshirilgan tahlil va har bir port imkoniyatlari, temiryo'l tarif siyosati, avtotransportda yuk tashuvchilar to'g'risida batafsil ma'lumot mavjudligi, yuk tashishning eng qisqa yo'li tanlanishini inobatga olgan

holda, kompaniya yuk egalariga xizmatlarni keng miqyosda taqdim etishga imkoniyat bermoqda.

Kompaniya yuk tashish jarayonini konteynerlash, shu jumladan ixtisoslashtirilgan terminallar bazasida eksportga chiqadigan paxta tolasini konteynerlash masalasiga alohida e'tibor bermoqda. Ixtisoslashtirilgan terminallarni yuklarni jamlash va keyinchalik ularni konteynerlarga ortish, yukni yakuniy nuqtasigacha marshrut jo'natmalarning barcha shartlarini o'ziga olgan konosamentlar bo'yicha amalga oshirish imkoniyatini beradi, bu esa yuk oluvchiga yukni yetkazib berish jarayonini sezilarli darajada arzonlashtiradi va tezlashtiradi, va natijada yukning barcha iste'mol xususiyatlari saqlanadi.

O'z faoliyatida «O'z xorijtrans» kompaniyasi transport xarajatlarini kamaytirish, tashilayotgan yuklar nomenklaturasini kengaytirish, taqdim etilayotgan xizmatlarning yuqori sifati hisobiga yuk tashish jarayonining tejamkorligini oshirishga intilmoqda.

«O'z xorijtrans» kompaniyasi yuklarning transport-ekspeditorlik xizmatlari bozorida 20 yil davomida faoliyat ko'rsatib kelmoqda va ushbu sohada O'zbekiston Respublikasi yetakchi kompaniyalarining biri hisoblanadi. Yuklarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha yetkazib berish xizmatlarini taqdim etadi: MDH davlatlari (Rossiya, Ukraina, Belarussiya), Sharqiy Yevropa, Boltiq mamlakatlari, Yaqin Sharq, Fors ko'rfazi, Janubiy-Sharq Osiyo, Lotin Amerika davlatlari, bunda temiryo'l, avtoullov va dengiz transport vositalaridan foydalaniladi.

Taqdim etilayotgan xizmatlarning raqobatdoshligini oshirish maqsadida kompaniya alternativ yo'nalishlar va marshrutlarni izlashga qaratilgan ishni doimiy ravishda olib bormoqda. Transport-ekspeditorlik faoliyatini amalga oshirishda, kompaniya yetakchi transport kompaniyalari, port va temiryo'llar bilan hamkorlik olib bormoqda. Kompaniya hamkorlari: «UzBaltTrans» QK (Latviya), Sinotrans Landbridge Transportation Co.Ltd (XXR), «Il ichyovskvnesh-trans» yoTAJ (Ukraina), «Rossiya temiryo'llari» OTAJ, Eron Islom Respublikasi temiryo'llari, «Kazaxstan temirjolo'» AJ MK, Ukraina temiryo'llari, Latviya temiryo'llari.

Kompaniyaning mijozlari: NafeesaTextilesLtd (Pokiston), «Ko'rgo'zjipteks» MChJ (Qirg'izston), Alashankou HengshENG Trade Co. Ltd (XXR), XINJIANG YINLONG INTERNATIONAL

CO. LTD (XXR), Alashankou Junchi Commerce and Trade Co., Ltd (XXR), Henan Xinye Textile Co., Ltd (XXR), JUSTIN UNIVERSAL LIMITED (Yangi Zelandiya), Dubai Cotton Centre DMCC (BAA), Daewoo International Corporation (Koreya), Jin Xing Mianhua (Singapur), Xiang Gang Jia You Xian Gong Si (GongKong), Paul Reinhart AG (Shveysariya), Xin Yi Kang Textile Products PTE Ltd (Singapur), Nassaji Iran Rise Alborz (Eron), Olam International Ltd (Singapur), Kavir Semnan Textile Co. (Eron), Satshid Sepehr Co. Ltd (Eron), O'zR TI AvaSV tashqi savdo kompaniyalari: «O'zinterimpeks» DATK, «O'zsanoatmashimpeks» DAK, «O'zmarkazimpeks» DATK, «Markazsanoateksport» DATK.

### **8.5. Avtomobilda xalqaro yuk tashiydigan avtotransport vositalarini raqamli nazorat qilish**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 22-dekabrda 340-sonli «Avtomobilda xalqaro yuk tashiydigan avtotransport vositalariga raqamli nazorat qurilmalarini joriy etish to'g'risida»gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan «Avtomobilda xalqaro tashishda mehnat va dam olish rejimlarini nazorat qilish uchun foydalaniladigan raqamli nazorat qurilmasi kartochkalari to'g'risida»gi Nizom ishlab chiqildi va 2012-yil 27-fevralda agentlik boshlig'ining 34-sonli buyrug'i asosida tasdiqlandi.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 22-dekabrda 340-son «Avtomobilda xalqaro yuk tashiydigan avtotransport vositalariga raqamli nazorat qurilmalarini joriy etish to'g'risida»gi qaroriga asosan Yevropa bitimi talablariga muvofiq avtomobilda xalqaro tashishda haydovchilarning mehnat va dam olish rejimini nazorat qilishga mo'ljallangan raqamli nazorat qurilmalarida foydalanish uchun mo'ljallangan kartochkalarni berish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi.

Avtomobilda xalqaro yuk tashiydigan avtotransport vositalariga raqamli nazorat qurilmalarini joriy etishda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**haydovchi kartochkasi** — avtomobilda xalqaro tashuvlarni amalga oshiruvchi haydovchiga beriladigan raqamli nazorat qurilmasida foydalaniladigan kartochka;

**tashkilot kartochkasi** — avtomobilda xalqaro tashuvlar sohasida xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyat olib boradigan tashkilotga beriladigan raqamli nazorat qurilmasida foydalaniladigan kartochka;

**ustaxona kartochkasi** — raqamli nazorat qurilmalarini o'rnatish, qiyoslash, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va tamg'alash bo'yicha faoliyat olib boruvchi yuridik shaxsga beriladigan raqamli nazorat qurilmasida foydalaniladigan kartochka;

**nazoratchi kartochkasi** — haydovchilarning mehnat va dam olish rejimini qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini nazorat qiluvchi vakolatli shaxsga beriladigan raqamli nazorat qurilmasida foydalaniladigan kartochka.

Haydovchi, korxonona, ustaxona va nazoratchi kartochkalarini berishni tashkil etish va amaldagi kartochkalar reestimi yuritish Avtomobil va daryo transporti agentligi tizimiga kiruvchi «Avtomobil va daryo transportini rivojlantirishni normativ-texnik ta'minlash respublika markazi» davlat korxonasiga yuklanadi.

**Haydovchi kartochkasi.** Haydovchi kartochkasi haydovchini identifikatsiya qilish, uni raqamli nazorat qurilmasi o'rnatilgan avtotransport vositasini boshqarishida mehnat va dam olish rejimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlashda foydalaniladi.

Haydovchi kartochkasidagi ma'lumotlar har 28 kunda avtotransport vositasining egasi tomonidan ko'chirib olinadi. Kartochkadan ko'chirib olingan ma'lumotlar bir yil davomida saqlanadi. Bu ma'lumotlar nazorat qiluvchi organlarga taqdim etishga tayyor holda bo'lishi shart.

Haydovchi «S», «D», «E» toifadagi avtotransport vositasini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lishi shart.

Yuk tashish bilan shug'ullanadigan haydovchining minimal yoshi: ruxsat etilgan maksimal og'irligi 7,5 tonnadan oshmaydigan avtotransport vositalarini tirkama va yarim tirkamalar bilan birga) boshqarish uchun — 18 yosh; boshqa avtotransport vositalarini boshqarish uchun — 21 yosh.

Yo'lovchilar tashish bilan band bo'lgan haydovchining minimal yoshi — 21 yosh. Bunda, haydovchi ruxsat etilgan maksimal og'irligi 3,5 tonnadan ortiq bo'lgan avtotransport vositasini boshqarish bo'yicha kamida 3 yillik haydovchilik stajiga ega bo'lishi shart.

Haydovchi kartochkasini olishga talabgor haydovchi ariza bergan vaqtda boshqa amaldagi kartochkaga ega bo'lmashligi shart.

Haydovchi kartochkasining amal qilish muddati 5-yil.

Haydovchi kartochkasini olish uchun haydovchi arizani vakolatli organga topshiradi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi: haydovchining fotosurati; fuqarolik pasporti nusxasi; haydovchilik guvohnomasi nusxasi; kartochka tayyorlash uchun to'langan to'lov to'g'risidagi hujjat.

Haydovchi kartochkasi ariza topshirilgan kundan boshlab 30 kun ichida arizachiga beriladi.

Har bir haydovchiga faqat bir dona haydovchi kartochkasi beriladi.

Haydovchi kartochkani boshqa shaxslarga berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Quyidagi hollarda yangi haydovchi kartochkasi beriladi: kartochkaning amal qilish muddati tugaganda; kartochka nosoz holatga kelganda, yo'qolganda yoki o'g'irlanganda; kartochkaga kiritilgan ma'lumotlar o'zgarsa (haydovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, vakolatli organning nomi, haydovchilik guvohnomasining tartib raqami, haydovchining pochta manzili).

Vakolatli organ haydovchi kartochkasini quyidagi hollarda bekor qilishi mumkin:

kartochka haydovchidan boshqa shaxslar tomonidan foydalanilganligi aniqlansa; kartochka soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi fakti aniqlanganda.

Haydovchi kartochkasini bekor qilishni vakolatli organ uni Raqamli nazorat qurilmalari kartochkalari reestridan chiqarish yo'li bilan amalga oshiradi.

*Avtomobillarda xalqaro tashuvlarni amalga oshiruvchi haydovchi kartochkasini to'ldirish tartibi:*

1. Yuqori chap tomonda 1968-yil 8-noyabrda Vena shahrida imzolangan yo'l harakati to'g'risidagi Konvensiyaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi belgisi tushiriladi.

2. Kartochkaning yuqori qismida yirik va aniq ajralib turadigan harflar bilan o'zbek va ingliz tillarida «Haydovchi kartochkasi. O'zbekiston Respublikasi» so'zlari yoziladi.



3. Kartochkadagi yozuvlar mazmuni:

1–haydovchining familiyasi;

2–haydovchining ismi;

3–haydovchining tug‘ilgan sanasi;

4a–haydovchi kartochkasining berilgan sanasi;

4b–haydovchi kartochkasining amal qilish sanasi;

4s–haydovchi kartochkasini bergan vakolatli organning nomi;

5a–haydovchilik guvohnomasining raqami;

5b–haydovchi kartochkasining tartib raqami;

6–haydovchining fotosurati;

7–haydovchining imzosi;

8–haydovchining pochta manzili.

4. Kartochkadagi yozuvlar ko‘rsatilgan joylarda ikki tilda: o‘zbekcha va inglizchada quyidagi formatda to‘ldiriladi: «O‘zbek tilidagi yozuv Ingliz tilidagi yozuv». Haydovchining familiyasi va ismining yozilishi xalqaro harakatda ishlatiladigan haydovchilik guvohnomasiga mos kelishi shart.

5. Haydovchi kartochkasining tartib raqami quyidagi tuzilishga ega:

UZ D XXXXXXXXXXXX X X bu yerda:

UZ - O‘zbekiston Respublikasi;

D - kartochka turi;

XXXXXXXXXXXX – haydovchi kartochkasining tartib raqami.

Haydovchi kartochkasi 11 ta raqamdan tashkil topadi. Har bir haydovchi uchun haydovchi kartochkasining tartib raqami uni yangi berilishidan qat’i nazar, yagona va doimiy bo‘ladi;

XX – haydovchi kartochkasining yangi berish indeksi.

Orqa tomoni

## HAYDOVCHI KARTOCHKASI

### DRIVER CARD

1. Familiya / Surname

2. Ism / First name(s)

3. Tug‘ilgan sanasi / Date of birth

4a. Berilgan sanasi / Date of issue

4b. Amal qilish sanasi / Date of expiry

4c. Taqdim etuvchi tashkilot / Issuing authority

5a. Haydovchilik guvohnomasining raqami / Driving license number

5b. Kartochka raqami / Card number .

6. Fotosurat / Photograph.

7. Imzo / Signature

8. Manzil / Address

Iltilmos, «Avtomobil va daryo transportini rivojlantirishni normativ-texnik ta'minlash Respublika Markazi» Davlat korxonasiga qaytaring / Please return to: State company «Avtomobil va daryo transportini rivojlantirishni normativ-texnik ta'minlash Respublika Markazi».

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Zulfiyaxonim k., 3 / Address: 3, Zulfiyaxonim street, Tashkent, Republic of Uzbekistan

**Tashkilot kartochkasi.** Tashkilot kartochkasi avtotransport vositasining egasi tomonidan haydovchining mehnat va dam olish vaqtlarini hisobga olishda foydalaniladi.

Tashkilot kartochkasi raqamli nazorat qurilmasiga ma'lumotlarni kiritish, ko'rish, qog'oz lentaga bosib chiqarish, ma'lumotlarni uchinchi shaxslar tomonidan ko'chirib olinishidan saqlash maqsadida blokirovka qilish hamda raqamli nazorat qurilmasidagi ma'lumotlarni ko'chirib olish uchun blokirovka holatidan chiqarishda foydalaniladi.

Tashkilot kartochkasi avtomobil transportida yuk yoki yo'lovchi tashish bilan shug'ullanayotgan yuridik shaxsga beriladi.

Tashkilot kartochkasi yuk tashish bilan shug'ullanadigan yakka tartibdagi tadbirkorlarga ham berilishi mumkin.

Tashkilot kartochkasining amal qilish muddati cheklanmagan.

Tashkilot kartochkasini olish uchun yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor arizani vakolatli organga topshiradi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi: yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi; yuridik shaxs rahbari yoki yakka tartibdagi tadbirkorning fuqarolik pasportining nusxasi; kartochka tayyorlash uchun to'langan to'lov to'g'risidagi hujjat.

Tashkilot kartochkasi ariza topshirilgan kundan boshlab 30 kun ichida arizachiga beriladi.

Quyidagi hollarda yangi tashkilot kartochkasi beriladi: kartochka nosoz holatga kelganda, yo'qolganda yoki o'g'irlanganda; kartochkaga kiritilgan ma'lumotlar o'zgarsa (yuridik shaxsning nomi, yuridik shaxs rahbari yoki yakka tartibdagi tadbirkorning ismi, familiyasi, otasining ismi, vakolatli organning nomi, yuridik shaxsning yoki yakka tartibdagi tadbirkorning pochta manzili).

Vakolatli organ tashkilot kartochkasini quyidagi hollarda bekor qilishi mumkin: kartochkadan kartochka egasidan boshqa shaxslar tomonidan foydalanilganligi aniqlansa; kartochka soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi fakti aniqlanganda.

Tashkilot kartochkasini bekor qilishni vakolatli organ uni Raqamli nazorat qurilmalari kartochkalari reestridan chiqarish yo'li bilan amalga oshiradi.

*Avtomobillarda xalqaro tashuvlarni amalga oshiruvchi tashkilot kartochkasini to'ldirish tartibi:*

1. Yuqori chap tomonda 1968-yil 8-noyabrda Vena shahrida imzolangan yo'l harakati to'g'risidagi Konvensiyaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi belgisi tushiriladi.

2. Kartochkaning yuqori qismida yirik va aniq ajralib turadigan harflar bilan o'zbek va ingliz tillarida «Tashkilot kartochkasi. O'zbekiston Respublikasi» so'zlari yoziladi.

3. Kartochkadagi yozuvlar mazmuni:

1–yuridik shaxs nomi;

2–tashkilot rahbari (yakka tartibdagi tadbirkor)ning familiyasi;

3–tashkilot rahbari (yakka tartibdagi tadbirkor)ning ismi;

4a–tashkilot kartochkasi berilgan sana;

4b–tashkilot kartochkasining amal qilish sanasi;

4s–tashkilot kartochkasini bergan vakolatli organning nomi;

5b–tashkilot kartochkasining raqami;

7–tashkilot rahbari (yakka tartibdagi tadbirkor)ning imzosi;

8–tashkilot (yakka tartibdagi tadbirkor)ning pochta manzili.

4. Kartochkadagi yozuvlar ko'rsatilgan joylarda ikki tilda: o'zbekcha va inglizchada quyidagi formatda to'ldiriladi: «O'zbek tilidagi yozuv/Ingliz tilidagi yozuv».

5. Tashkilot kartochkasining tartib raqami quyidagi tuzilishga ega:

UZ K XXXXXXXXXXX X X X, bu yerda:

UZ – O'zbekiston Respublikasi;

K – kartochka turi;

XXXXXXXXXX — tashkilot kartochkasining tartib raqami. Tashkilot kartochkasi 10 ta raqamdan tashkil topadi. Tashkilot uchun kartochkaning tartib raqami uni yangi berilishidan qat'i nazar, yagona va doimiy bo'ladi;

X - tashkilotlarga berilgan tashkilot kartochkalari soni indeksi;

X X - tashkilot kartochkasini yangi berish indeksi.

Orqa tomoni

<b>TASHKILOT KARTOCHKASI COMPANY CARD</b>	
1.1. Tashkilot nomi / Company name	
(2.) Familiya / Surname	
(3.) Ism / First name(s)	
4a. Berilgan sanasi / Date of issue	
4b. Amal qilish sanasi / Date of expiry	
4c. Taqdim etuvchi tashkilot / Issuing authority	
5b. Kartochka raqami / Card number6	
(7.) Imzo / Signature	
8. Manzil / Address	
Iltimos, «Avtomobil va daryo transportini rivojlantirishni normativ-texnik ta'minlash Respublika Markazi» Davlat korxonasiga qaytaring / Please return to: State company «Avtomobil va daryo transportini rivojlantirishni normativ-texnik ta'minlash Respublika Markazi».	
Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Zulfiyaxonim k., 3 / Address: 3, Zulfiyahxonim street, Tashkent, Republic of Uzbekistan	

**Ustaxona kartochkasi.** Ustaxona kartochkasi raqamli nazorat qurilmasini o'rnatish, qiyoslash, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, tamg'alash yoki raqamli nazorat qurilmasidagi ma'lumotlarni ko'chirib olishda foydalaniladi.

Ustaxona kartochkasi raqamli nazorat qurilmalarini o'rnatish, qiyoslash, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va tamg'alash bo'yicha faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarga beriladi.

Ustaxona kartochkasining amal qilish muddati – 1 yil.

Ustaxona kartochkasini olish uchun yuridik shaxs arizani vakolatli organga topshiradi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi: yuridik shaxsga nazorat qurilmalarini (taxograflarni) ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish huquqini beruvchi akkreditatsiya attestatining nusxasi; yuridik shaxsning joylashgan yeri (pochta manzili); yuridik shaxs rahbarining fuqarolik pasporti nusxasi; kartochka tayyorlash uchun to'langan to'lov to'g'risidagi hujjat.

Ustaxona kartochkasi ariza topshirilgan kundan boshlab 30 kun ichida arizachiga beriladi.

Ustaxona kartochkasi berilganda, u bilan birga kartochkaning identifikatsion raqami (PIN-kod) beriladi. PIN-kod konvertida maxsus himoya qatlami bilan qoplangan holatda beriladi.

Quyidagi hollarda yangi ustaxona kartochkasi beriladi: kartochkaning amal qilish muddati tugaganda; kartochka nosoz holatga kelganda, yo'qolganda yoki o'g'irlanganda; kartochkaga kiritilgan ma'lumotlar o'zgarsa (yuridik shaxsning nomi, yuridik shaxs rahbarining familiyasi, ismi, otasining ismi, vakolatli organning nomi, yuridik shaxsning joylashgan yeri (pochta manzili)).

Vakolatli organ tashkilot kartochkasini quyidagi hollarda bekor qilishi mumkin: kartochkadan kartochka egasidan boshqa shaxslar tomonidan foydalanilganligi aniqlansa; kartochka soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi fakti aniqlanganda.

Ustaxona kartochkasini bekor qilish vakolatli organ uni Raqamli nazorat qurilmalari kartochkalari reestridan chiqarish yo'li bilan amalga oshiradi.

*Raqamli nazorat qurilmalarini o'rnatish, qiyoslash, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va tamg'alash bo'yicha faoliyat olib boruvchi ustaxona kartochkasini to'ldirish tartibi:*

1. Yuqori chap tomonda 1968-yil 8-noyabrda Vena shahrida imzolangan yo'l to'g'risidagi Konvensiyaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi belgisi tushiriladi.

2. Kartochkaning yuqori qismida yirik va aniq ajralib turadigan harflar bilan o'zbek va ingliz tillarida «Ustaxona kartochkasi. O'zbekiston Respublikasi» so'zlari yoziladi.

3. Kartochkadagi yozuvlar mazmuni:

- 1—yuridik shaxsning nomi;
- 2—yuridik shaxs rahbarining familiyasi;
- 3—yuridik shaxs rahbarining ismi;

- 4a–ustaxona kartochkasi berilgan sanasi;
- 4b–ustaxona kartochkasining amal qilish sanasi;
- 4s–ustaxona kartochkasini bergan vakolatli organning nomi;
- 5b–ustaxona kartochkasining raqami;
- 7–yuridik shaxs rahbarining imzosi;
- 8–yuridik shaxsning joylashgan yeri (pochta manzili).

4. Kartochkadagi yozuvlar ko'rsatilgan joylarda ikki tilda: o'zbekcha va inglizchada quyidagi formatda to'ldiriladi: «O'zbek tilidagi yozuv/Ingliz tilidagi yozuv»/.

5. Ustaxona kartochkasining tartib raqami quyidagi tuzilishga ega:  
UZ U XXXXXXXXXXXX X X X, bu yerda:

UZ – O'zbekiston Respublikasi;

U – kartochka turi;

XXXXXXXXXXXX — ustaxona kartochkasining tartib raqami.

Ustaxona kartochkasi 10 ta raqamdan tashkil topadi. Ustaxona uchun kartochkaning tartib raqami uni yangi berilishidan qat'i nazar, yagona va doimiy bo'ladi;

X – Ustaxona kartochkasi indeksi;

XX –Ustaxona kartochkasini yangi berish indeksi.

**Orqa tomoni**

**USTAXONA KARTOCHKASI  
WORKSHOP CARD**

- 1. Ustaxona nomi / Workshop Name
- (2.) Familiya / Surname
- (3.) Ism / First name(s)
- 4a. Berilgan sanasi / Date of issue
- 4b. Amal qilish sanasi / Date of expiry
- 4c. Taqdim etuvchi tashkilot / Issuing authority
- 5b. Kartochka raqami / Card number
- (7.) Imzo / Signature
- 8. Manzil / Address

Iltimos, «Avtomobil va daryo transportini rivojlantirishni normativ-texnik ta'minlash Respublika Markazi» Davlat korxonasiga qaytaring / Please return to: State company «Avtomobil va daryo transportini rivojlantirishni normativ-texnik ta'minlash Respublika Markazi».

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Zulfiyaxonim k., 3 / Address: 3, Zulfiyaxonim street, Tashkent, Republic of Uzbekistan

**Nazoratchi kartochkasi.** Nazoratchi kartochkasi nazorat qiluvchi organlar tomonidan haydovchilarning avtotransport vositasini

boshqarish va dam olish rejimlarini nazorat qilishda foydalaniladi.

Nazoratchi kartochkasining amal qilish muddati cheklanmagan.

Qonun hujjatlariga ko'ra haydovchilarning mehnat va dam olish rejimini nazorat qiluvchi organning murojaati asosida nazoratchiga nazoratchi kartochkasi beriladi.

Nazoratchi kartochkasini olish uchun nazoratchi quyidagilarni taqdim etadi:

- nazoratchining guvohnomasi nusxasi; nazoratchining fotosurati;
- kartochka tayyorlash uchun to'langan to'lov to'g'risidagi hujjat.
- Nazoratchi kartochkasi ariza topshirilgan kundan boshlab 30 kun ichida arizachiga beriladi.

quyidagi hollarda yangi nazoratchi kartochkasi beriladi: kartochka nosoz holatga kelganda, yo'qolganda yoki o'g'irlanganda; kartochkaga kiritilgan ma'lumotlar o'zgarsa (nazorat qiluvchi organning nomi, nazoratchining ismi, familiyasi, otasining ismi, vakolatli organning nomi).

– Vakolatli organ nazoratchi kartochkasini quyidagi hollarda bekor qilishi mumkin: kartochkadan kartochka egasidan boshqa shaxslar tomonidan foydalanilganligi aniqlansa; kartochka soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi fakti aniqlanganda.

– Nazoratchi kartochkasini bekor qilish vakolatli organ uni Raqamli nazorat qurilmalari kartochkalari reestridan chiqarish yo'li bilan amalga oshiradi.

*Haydovchilarning mehnat va dam olish rejimini nazorat qiluvchi nazoratchi kartochkasi:*

1. Yuqori chap tomonda 1968-yil 8-noyabrda Vena shahrida imzolangan yo'l to'g'risidagi Konvensiyaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi belgisi tushiriladi.

2. Kartochkaning yuqori qismida yirik va aniq ajralib turadigan harflar bilan o'zbek va ingliz tillarida «Nazoratchi kartochkasi. O'zbekiston Respublikasi» so'zlari yoziladi.

3. Kartochkadagi yozuvlar mazmuni:

1–nazorat qiluvchi organ nomi;

2–nazoratchining familiyasi;

3–nazoratchining ismi;

4a–nazoratchi kartochkasi berilgan sana;

4b–nazoratchi kartochkasining amal qilish sanasi;

4s–nazoratchi kartochkasini bergan vakolatli organ nomi;

5b–nazoratchi kartochkasining raqami;

6–nazoratchining fotosurati

7–nazoratchining imzosi;

8–nazorat qiluvchi organning joylashgan yeri (pochta manzili).

4. Kartochkadagi yozuvlar ko'rsatilgan joylarda ikki tilda: o'zbekcha va inglizchada quyidagi formatda to'ldiriladi: «O'zbek tilidagi yozuv/ Ingliz tilidagi yozuv».

5. Nazoratchi kartochkasining tartib raqami quyidagi tuzilishga ega:

UZ N XXXXXXXXXXXX X X X bu yerda:

UZ – O'zbekiston Respublikasi;

№ – kartochka turi;

XXXXXXXXXXXX – nazoratchi kartochkasining tartib raqami. Nazoratchi kartochkasi 10 ta raqamdan tashkil topadi. Nazoratchi organ uchun kartochkaning tartib raqami uni yangi berilishidan qat'i nazar, yagona va doimiy bo'ladi;

X – nazoratchi kartochkasining indeksi.

XX – kartochkani yangi berish indeksi.

Orqa tomoni

#### NAZORATCHI KARTOCHKASI

#### CONTROL CARD

1. Nazorat qiluvchi tashkilot / Control Body

(2.) Familiya / Surname

(3.) Ism / First name(s)

4a. Berilgan sanasi / Date of issue

4b. Amal qilish sanasi / Date of expiry

4c. Taqdim etuvchi tashkilot / Issuing authority

5b. Kartochka raqami / Card number.

(6.) Fotosurat / Photograph.

(7.) Imzo / Signature

8. Manzil / Address f

Iltimos, «Avtomobil va daryo transportini rivojlantirishni normativ-texnik ta'minlash Respublika Markazi» Davlat korxonasiga qaytaring / Please return to: State company «Avtomobil va daryo transportini rivojlantirishni normativ-texnik ta'minlash Respublika Markazi».

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Zulfiyaxonim k., 3 / Address: 3, Zulfiyahxonim street, Tashkent, Republic of Uzbekistan



## Nazorat savollari:

1. Respublikamizda xalqaro yuk tashishni rivojlantirish bo'yicha qanday ishlar olib borilmoqda?
2. Yo'l harakati to'g'risidagi Konvensiya to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. 1956-yil Jeneva shahrida tuzilgan Xalqaro yuklarni tashish kelishuvi Konvensiyasida qanday huquqiy munosabatlarni belgilab beradi?
4. Xalqaro yuk tashish nakladnoyida qanday ma'lumotlar bo'lishi lozim?
5. «Avtomobil transportida xalqaro yo'lovchilar va bagaj tashish to'g'risida»gi Konvensiyaning tarkibiy qismlarini aytib bering?
6. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining xalqaro doiradagi asosiy vazifalari nimalardan iborat?
7. Avtomobil transportida xalqaro yuk tashishlarni bajarish chog'ida haydovchi qanday hujjatlarga ega bo'lishi zarur?
8. Avtomobil transportida xalqaro yuk tashishlarni bajarish chog'ida avtotransport vositasiga tegishli qanday hujjatlar bo'lishi zarur?
9. Avtomobil transportida xalqaro yuk tashishlarni bajarish chog'ida yukka tegishli qanday hujjatlar bo'lishi zarur?
10. O'zbekiston Respublikasi hududida avtotransport vositalarining yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan parametrlarini aytib bering?
11. O'zbekiston Respublikasi Hukumati xalqaro yuk va yo'lovchi tashishni tashkil etish bo'yicha qaysi mamalakatlar bilan ikki tomonlama bitimlar imzolagan?
12. Xorijiy avtotashuvchilar O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab qanday yo'nalisdagi avtomobil yo'llari bo'ylab amalga oshiriladi?
13. Tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati ostida tashishning o'ziga xos xususiyatlari.
14. «O'z xorijtrans» korxonasi xalqaro yuk tashishni tashkil qilishdagi o'rnini.

## **IX BOB.**

### **ZARAR YETKAZISHDAN KELIB CHIQUADIGAN MAJBURIYATLAR**

#### **9.1. Zarar yetkazilganda kelib chiqadigan majburiyatlarning umumiy asoslari**

Zarar yetkazilganda kelib chiqadigan majburiyatlar to'g'risida fikr yuritishdan avval zarar tushunchasining mohiyatiga to'xtalsak.

**Zarar** deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanish

i (haqiqiy zarar), shuningdek, bu shaxs o'z huquqlarini buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi (O'zR FK 14-moddasi).

Berilgan ta'rifga ko'ra zarar tarkibi quyidagilar bilan belgilanadi: huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari; shaxsning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar); shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda).

Zarar yetkazish fuqarolik huquqida majburiyat huquqiy munosabatlarning vujudga kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Shu munosabat bilan O'zR FKda alohida zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bobi mavjud. Fuqarolik huquqida majburiyatlarning bu bobi «delikt majburiyatlar» deb ham ataladi.

Agar qonun yoki shartnomada zararni kamroq miqdorda to'lash nazarda tutilmagan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs o'ziga yetkazilgan zararning to'la qoplanishini talab qilishi mumkin.

Agar huquqni buzgan shaxs buning natijasida daromad olgan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs boshqa zarar bilan bir qatorda boy beril-

gan foyda bunday daromaddan kam bo'lmagan miqdorda to'lanishini talab qilishga haqli.

Huquqiy munosabatlarni yuritishda zarar jismoniy, ma'naviy va mulkiy turlarga ajratiladi.

**Jismoniy zarar** – shaxsning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar (mazkur atama jinoyat ishlari bo'yicha sud ish yurituvida qo'llaniladi).

**Ma'naviy zarar (ziyon)** – jismoniy yoki ruhiy qiynoq va iztiroblar (O'zbekiston Respublikasi FK 1021-moddasi). Fuqaroning sha'ni, qadr-qimmatiga dog' tushirilishi yoki ishbilarmonlik obro'siga putur yetkazilishi. Ma'naviy zarar deganda fuqaroga tug'ilishidan yoki qonunga muvofiq tegishli bo'lgan moddiy boyliklar (shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati, ishbilarmonlik obro'si, shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirlari)ga daxl etuvchi yoki uning shaxsiy nomulkiy huquqlarini (o'z nomidan foydalanish huquqini, mualliflik huquqini hamda aqliy faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarni muhofaza qilish, qonunlarga muvofiq boshqa nomulkiy huquqlarni) buzuvchi yohud fuqaroning mulkiy huquqlarini buzuvchi harakat (harakatsizlik) orqasida yetkazilgan ma'naviy yoki jismoniy og'riq va iztiroblar tushuniladi.

Ma'naviy zarar, jumladan, qarindoshlarini yo'qotish, faol ijtimoiy hayotni davom ettira olmaslik, ishsizlik, oila yoki shifokor sirining oshkor etilishi, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini yoki ishbilarmonlik obro'sini tushiradigan yolg'on ma'lumotlar tarqatilishi, shaxsning muayyan huquqlari vaqtincha cheklanishi yoki u muayyan huquqlardan mahrum qilinishi, yetkazilgan jarohat yoki sog'liqqa yetkazilgan o'zga shikast yohud ma'naviy iztiroblar natijasida orttirilgan kasallik bilan bog'liq jismoniy og'riqlar oqibatida ma'naviy azob-uqubat chekishdan iborat bo'lishi ham mumkin.

Noqonuniy sudlanish, qonunga zid ravishda jinoiy javobgarlikka tortish, ehtiyot chorasi tariqasida qamoq yoki tilxat olishning noqonuniy qo'llanishi, qamoq yoki axloq tuzatish ishlari tariqasidagi ma'muriy jazo chorasining noqonuniy belgilanishi natijasida ma'naviy zarar ko'rgan shaxslar qonunga muvofiq ustun mavqega ega bo'ladi. Ularga ma'naviy zarar uni yetkazgan shaxsning aybidan qat'i nazar qoplanishi lozim.

Ma'naviy zararni qoplashning har xil shakllari (zarar yetkazuvchiga uzr so'rash majburiyatini yuklash, ish joyiga tiklash, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish va h.k.), shu jumladan pulli shakli ham mavjud. Ma'naviy zarar uchun to'lanadigan kompensatsiyaning miqdori jabrlanuvchiga yetkazilgan jismoniy va ma'naviy iztiroblar xususiyatiga qarab sud tomonidan belgilanadi. Bunda iztiroblar xususiyatiga ma'naviy zarar yetkazilgan holatlardan va jabrlanuvchining shaxsiy jihatlaridan kelib chiqib baho beriladi. Ayb yetkazilgan zararni qoplashga asos bo'lgan hollarda zarar yetkazuvchining aybdorligi darajasi ham e'tiborga olinadi. Kompensatsiya miqdorini aniqlashda oqilonalik va odillik talablarini ham inobatga olish lozim.

Ma'naviy zarar jinoyat orqasida yetkazilgan hollarda jabrlanuvchi mazkur jinoyat to'g'risidagi jinoyat ishi bo'yicha ish yurituvi jaryonida moddiy kompensatsiya to'lash haqida da'vo arizasi taqdim etishi mumkin.

**Mulkiy zarar** – jismoniy yoki yuridik shaxsga yetkazilgan moddiy zarar. Jismoniy yoki yuridik shaxsning mol-mulkiga ziyon yoki shikast yetkazilishi yohud u bilan tuzilgan shartnomaning bajarilmasligi oqibatida kelib chiqadi.

Zarar qaysi davlat hududida yetkazilgan bo'lsa, ushbu davlat huquqi qo'llanilishi lozimligini belgilovchi kollizion bog'lanish hisoblanadi. Mazkur kollizion bog'lanishda zarar yetkazish natijasida vujudga keladigan majburiyatlarni (delikt majburiyatlarini) tartibga soluvchi qonunchilikni tanlash maqsadida foydalaniladi. Xalqaro turizm va xalqaro transport operatsiyalarining ko'payishi natijasida chet el elementi bilan murakkablashgan delikt majburiyatlarning ortishi ushbu kollizion bog'lanishning qo'llanilish doirasi kengayishiga olib kelmoqda.

O'zR FKning 1194-moddasiga muvofiq, zarar yetkazilganligi oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha huquq va majburiyatlar zararni undirishni talab qilish uchun asos bo'lgan harakat yoki boshqa holat yuz bergan mamlakatning huquqi bo'yicha belgilanadi.

**Majburiyat** – iborasi kundalik hayotimizda ko'p bo'lmasa-da, tez-tez uchrab turadi. Lekin ushbu ibora yuridik va yuridik bo'lmagan ma'noga ega. Yuridik mazmunga ega bo'lmagan majburiyat shaxslar o'rtasida huquqiy munosabatlar keltirib chiqarmaydi, yuridik ma'no-

dagi majburiyatga asosan ma'lum shaxslar ishtirokida muayyan huquqiy munosabatlar vujudga keladi. Ikkala holatda ham majburiyat ma'lum shaxslardan unda nazarda tutilgan harakatni bajarishni yoki bajarishdan o'zini saqlashni talab qiladi, lekin farqi shundaki, agar yuridik ma'no, ya'ni ahamiyatga ega bo'lmagan majburiyat bajarilmasa, hech qanday yuridik oqibat, ya'ni javobgarlik kelib chiqmaydi, bunday oqibat faqat yuridik ahamiyatga ega bo'lgan majburiyat bajarilmagan taqdirda yuz berishi mumkin.

Yuridik ahamiyatga ega bo'lmagan majburiyatlar aksariyat hollarda qarindosh-urug', bir-biriga yaqin shaxslar o'rtasidagi munosabatlarda uchrab turadi. Masalan, farzandning ota-onasi oldida institutni imtiyozli diplom bilan tugatish, spirtli ichimliklar iste'mol qilmaslik, kabi majburiyatlar olishi. Bunday majburiyatlar ko'proq ahloqiy ahamiyatga ega bo'lib, og'zaki shaklda burch va vazifalarni o'z zimmasiga olib, bir tomonlama va'da berishdan iborat.

Majburiyatdan jismoniy va yuridik shaxslarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlashda mulkiy huquqiy munosabatlarning shakli sifatida ijtimoiy hayotning ko'p tarmoqlarida foydalaniladi. Majburiyat vositasida tadbirkorlik faoliyati amalga oshiriladi, tovar sotiladi va sotib olinadi, mol-mulk ijaraga topshiriladi, ishlab chiqarish obyektlari va uy-joy binolari quriladi, turli transportlarda yo'lovchi va yuklar tashiladi, xizmatlar ko'rsatiladi, kreditlar beriladi, hisob-kitoblar amalga oshiriladi, shaxsning o'zi va uning mol-mulkari sug'urta qilinadi, birgalikda tadbirkorlik faoliyati amalga oshiriladi, intellektual faoliyat natijalaridan foydalaniladi, fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulki muhofaza qilinadi va h.k.

Shunday qilib, majburiyat – fuqarolik-huquqiy munosabati bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o'zini tiyishga majbur bo'ladi, kreditor esa – qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi (O'zR FKning 234-moddasi).

Majburiyatlar shartnomadan, ziyon yetkazish natijasida hamda FKda ko'rsatilgan boshqa asoslardan kelib chiqadi.

Majburiyatning taraflari – kreditor yoki qarzdor sifatida bir yohud bir paytning o‘zida bir necha shaxs ishtirok etishi mumkin.

**Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar** – zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar tushunchasiga fuqarolik qonunchiligida ta’rif berilmagan. Biroq, mazkur tushuncha bevosita, g‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, shuningdek, yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan to‘liq hajmda qoplanishi lozimligi O‘zR FKning 985-moddasida o‘z ifodasini topgan.

G‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, shuningdek, yuridik shaxsga yetkazilgan shu jumladan boy berilgan foyda va zarar zararni yetkazgan shaxs tomonidan to‘liq hajmda qoplanishi lozim.

Qonunda zararni to‘lash majburiyati zarar yetkazuvchi bo‘lmagan shaxsga yuklatilishi mumkin.

Qonun hujjatlarida yoki shartnomada jabrlanuvchilarga zararni to‘lashdan tashqari tovon to‘lash majburiyati belgilab qo‘yilishi mumkin. Zarar yetkazgan shaxs, agar zarar o‘z aybi bilan yetkazilmaganini isbotlasa, zararni to‘lashdan ozod qilinadi. Qonunda zarar yetkazgan shaxsning aybi bo‘lmagan taqdirda ham zararni to‘lash nazarda tutilishi mumkin.

Qonuniy harakatlar tufayli yetkazilgan zarar qonunda nazarda tutilgan hollarda to‘lanishi lozim.

Agar zarar jabrlanuvchining iltimosi yoki roziligi bilan yetkazilgan bo‘lsa, zarar yetkazgan shaxsning harakatlari esa jamiyatning axloqiy tamoyillarini buzmasa, zararni to‘lash rad etilishi mumkin (O‘zR FKning 985-moddasi).

Mazkur normadan zarar yetkazgan shaxsning yetkazilgan zararni to‘liq qoplash majburiyati hamda jabrlanuvchining yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqi mavjudligini anglash mumkin. Bu esa o‘z navbatida majburiyatning an’anaviy tuzilishi (konstruksiyasi) – kreditor va qarzdorlar munosabatlari mavjudligini bildiradi. Mazkur holatda zarar yetkazuvchi – qarzdor hisoblansa, jabrlanuvchi (mulkiga, hayoti yoki sog‘lig‘iga zarar yetgan shaxs) – kreditor hisoblanadi. Shu bilan birga zarar yetkazilganda jabrlanuvchining talab qilish huquqi za-

rar yetkazuvchi uchun majburiyat sifatida namoyon bo'ladi. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga muvofiq, shaxs (jismoniy yoki yuridik shaxs)ning hayoti va sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazgan shaxsga yetkazilgan zararni to'liq qoplash majburiyatini oladi, jabrlanuvchi esa, o'ziga yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar fuqarolik huquqi nazariyasida delikt deb ataladi.

**Zararni qoplash** – huquqi buzilgan shaxs o'ziga yetkazilgan zararining to'la qoplanishini talab qilishi lozim. Zarar (haqiqiy zarar) deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi, shuningdek, bu shaxs o'z huquqlarini buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi. Sud zararni qoplash haqidagi talabni qanoatlantirar ekan, ish holatlariga muvofiq ravishda, yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxsga zararni aslicha qoplash (xuddi shunday turdagi va sifatdagi ashyoni taqdim etish, shikastlangan va h.k.) yoki yetkazilgan zararni to'lash majburiyatini to'lash majburiyatini yuklaydi. Agar qonun yoki shartnomada zararni kamroq miqdorda to'lash nazarda tutilmagan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs o'ziga yetkazilgan zararining to'la qoplanishini talab qilishi mumkin (O'zR FK 14-moddasi).

Huquqiy normalarda zarar miqdorining ko'p bo'lmagan, ancha miqdordagi, ko'p miqdordagi va juda ko'p turlari qo'llaniladi.

**Ko'p bo'lmagan zarar** – eng kam oylik ish haqining o'n baravaridan o'ttiz baravarigacha bo'lgan zarar

**Ancha miqdordagi zarar** – eng kam oylik ish haqining o'ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo'lgan miqdordagi zarar.

**Ko'p miqdordagi zarar** – eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha bo'lgan miqdordagi zarar.

**Juda ko'p zarar** – eng kam oylik ish haqining uch yuz baravari va undan ortiq bo'lgan miqdordagi zarar.

**Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik.** Qarzdor aybi bo'lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, javob beradi. Qarzdor majburi-

yatni lozim darajada bajarish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan hamma choralarni ko'rganligini isbotlasa, u aybsiz deb topiladi.

Aybning yo'qligi majburiyatni buzgan shaxs tomonidan isbotlanadi.

Basharti, qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lsa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs majburiyatni lozim darajada bajarishga yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) tufayli imkon bo'lmaganligini isbotlay olmasa, javobgar bo'ladi. Qarzdorning shartlashuvchi sheriklari tomonidan majburiyatlarning buzilishi, majburiyatni bajarish uchun zarur tovarlarning bozorda yo'qligi, qarzdorda zarur pul mablag'larining bo'lmaganligi bunday vaziyatlar jumlasiga kirmaydi.

Majburiyatni qasddan buzganlik uchun javobgarlikni bartaraf qilish yoki cheklash to'g'risidagi avvaldan kelishilgan bitim u tuzilgan paytdan boshlab haqiqiy emas (O'zR FK 333-moddasi).

**Majburiyatlarning bekor bo'lishi.** Majburiyat ushbu O'zR FKda, boshqa qonunlarda yoki shartnomada nazarda tutilgan asoslarga ko'ra to'liq yoki qisman bekor bo'ladi.

Majburiyatni taraflardan birining talabi bilan bekor qilishga qonun hujjatlari yoki shartnomada nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi.

Majburiyat, qoida tariqasida, uning lozim darajada bajarilishi bilan bekor bo'ladi. Yuqoridagi holatlardan tashqari yana quyidagi hollarda ham majburiyatlar bekor bo'lishi mumkin:

- hisobga o'tkazish bilan majburiyatning bekor bo'lishi;
- qarzdor bilan kreditor bir shaxs bo'lib qolganida majburiyatning bekor bo'lishi;
- majburiyat yangilanishi bilan uning bekor bo'lishi;
- qarzdan voz kechish;
- bajarish mumkin bo'lmaganligi tufayli majburiyatning bekor bo'lishi;
- majburiyatning davlat organi hujjati asosida bekor bo'lishi;
- fuqaro vafot etishi bilan majburiyatning bekor bo'lishi;
- yuridik shaxs tugatilishi bilan majburiyatning bekor bo'lishi.



## 9.2. Avtotransport korxonasining o'z xodimlari tomonidan yetkazilgan zarari uchun javobgarligi

Avtotransport korxonasining o'z xodimlari tomonidan yetkazilgan zarari uchun javobgarligi O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Fuqorolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida javobgarlikka tortiladi.

Tashuvchi yuk tashish uchun transport vositalarini qabul qilingan talabnoma (buyurtma)ga yoki boshqa tashish shartnomasiga muvofiq bermaganligi uchun, jo'natuvchi esa yukni taqdim etmaganligi yoki berilgan transport vositalaridan boshqa sabablarga ko'ra foydalanmaganligi uchun transport ustavlari va kodekslari, shuningdek, taraflarning kelishuvlari bilan belgilangan tarzda javobgar bo'ladilar.

Agar transport vositalarini bermaslik yoki o'z vaqtida bermaslik, yohud transport vositalaridan foydalanmaslik: yengib bo'lmay kuch yoki boshqa stixiyali hodisalar, shuningdek, harbiy harakatlar tufayli; muayyan yo'nalishlarda yuk tashish tegishli transport ustavi yoki kodeksida nazarda tutilgan tartibda to'xtatib yoki cheklab ko'yilganligi tufayli yuz bergan bo'lsa, yuk tashuvchi va yuk jo'natuvchi javobgarlikdan ozod qilinadi (O'zR FK 719-moddasi).

Avtotransport korxonasi bir qator hollarda o'z xodimlari tomonidan yetkazilgan zarar va qoidabuzarliklar uchun javobgarlikka tartiladi. Quyida bir qator qoidabuzarliklarni jazoga tortilish tartibiga to'xtalamiz.

**Transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish** O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (O'zR MJTK)ning 125-moddasi asosida jarima solinishiga sabab bo'ladi. Haydovchilarning transport vositalarini boshqarish va yo'lovchilar tashishda xavfsizlik kamaridan foydalanish qoidalariga, xuddi shuningdek, mototsikl haydovchilarining motoshlemlardan

foydalanish qoidalariga rioya etmasligi, eng kam ish haqining beshdan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

«Haydovchilarning belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilmagan yoki majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilmagan yohud foydalanish man etiladigan darajada nosozligi bo'lgan, xuddi shuningdek, ishlayotganida tashqariga chiqarayotgan ifloslantiruvchi moddalarning miqdori, shuningdek, shovqin darajasi belgilangan normalardan ortiq bo'lgan transport vositalarini boshqarishi, eng kam ish haqining ikkidan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Haydovchilarning tormoz tizimida, rul boshqaruvida yoki ulovchi qurilmada nosozligi bo'lgan yohud tegishli ruxsatnomasiz qayta jihozlangan transport vositalarini boshqarishi, eng kam ish haqining bir baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Yuk tashish qoidalarini, xuddi shuningdek, shatakka olish qoidalarini buzish, eng kam ish haqining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Tegishli ruxsatnomasiz og'ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli yuklarni tashish va yuk bilan yoki yuksiz holdagi gabarit o'lchamlari belgilangan normalardan ortiq bo'lgan transport vositalarida yo'lga chiqish, xuddi shuningdek, ruxsatnomada ko'rsatilgan harakat yo'nalishidan chetga chiqish, fuqarolarga eng kam ish haqining o'n baravari miqdorida jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidan olti oygacha muddatga mahrum etishga, yuk tashish uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarga esa, eng kam ish haqining o'n besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Foydalanish belgilangan tartibda man etilgan transport vositalarini, xuddi shuningdek, davlat raqam belgisi o'zboshimchalik bilan yechib olingan yohud davlat raqam belgisi yasama yoki o'zga usullarda o'zgartirilgan transport vositalarini boshqarish, eng kam ish haqining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qarashli transport vositalarini ishdan tashqari vaqtda ulardan foydalanish shartlariga muvofiq keladigan tarzda maxsus jihozlanmagan joyda saqlash, fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravari, mansabdor shaxslarga esa ikki baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 125-moddasi).

**Yuk tashish qoidalarini, shatakka olish qoidalarini buzish.** Yuk tashish qoidalarini, xuddi shuningdek, shatakka olish qoidalarini buzish, eng kam ish haqining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Tegishli ruxsatnomasiz og'ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli yuklarni tashish va yuk bilan yoki yuksiz holdagi gabarit o'lchamlari belgilangan normalardan ortiq bo'lgan transport vositalarida yo'lga chiqish, xuddi shuningdek, ruxsatnomada ko'rsatilgan harakat yo'nalishidan chetga chiqish, fuqarolarga eng kam ish haqining o'n baravari miqdorida jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidan olti oygacha muddatga mahrum etishga, yuk tashish uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarga esa eng kam ish haqining o'n besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 125-moddasi).

**Ko'zqusimon va tusi o'zgartirilgan (qoraytirilgan) nostandart oynali, shuningdek, tevarak-atrofni ko'rishni cheklaydigan qoplamali transport vositalaridan foydalanish.** Davlat standarti normalariga muvofiq bo'lmagan ko'zqusimon yoki tusi o'zgartirilgan (qoraytirilgan) oynali transport vositalaridan, xuddi shuningdek, haydovchining o'rnidan tevarak-atrofni ko'rishni cheklaydigan qo'shimcha narsalar o'rnatilgan yoki qoplamalar surtilgan transport vositalaridan foydalanish, eng kam ish haqining bir baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday xuquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir-yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, eng kam ish haqining ikki baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 126-moddasi).

Tovush signalini sababsiz berish, transport vositalariga uni ishlab chiqargan korxonada nazarda tutmagan tovush chiqaruvchi va yorituvchi qurilmalarni o'rnatish, xuddi shuningdek, ularni o'zgartirib o'rnatish, eng kam ish haqining bir baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Tegishli ruxsat olmay turib transport vositalariga tovush chiqaruvchi va yorituvchi maxsus qurilmalarni o'rnatish, ana shu qurilmalarni musodara qilib, fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa uch baravaridan besh bara-

varigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 127-moddasi).

Transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini oshirib yuborishi, svetoforning yoki yo'l harakatini tartibga soluvchining taqiqlovchi ishoralariga bo'ysunmasligi, piyodalar yo'lkasidan yurg'izishi, ustunlik beruvchi, taqiqlovchi va ko'rsatma beruvchi yo'l belgilari talablariga, yo'lning harakat qismidagi harakatda o'tkazib yuborishni ko'rsatuvchi chiziqlarga rioya etmasligi, odam tashish, transport vositalarini quvib o'tish, jamoat transporti to'xtaydigan bekatlar yoki piyodalar o'tish joylaridan yurish qoidalarini, sutkaning qorong'i davrida yoki ko'rish cheklangan sharoitlarda yoritish asboblaridan foydalanish qoidalarini buzishi, shuningdek, yo'lovchilarga loy sachratishi, eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan bir baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 127-moddasi).

**Haydovchilarning transport vositalarini piyodalar yo'lklaridan yurgizishi, yo'l belgilari va yo'l harakatining boshqa qoidalari talablariga rioya etmasligi.** Haydovchilarning transport vositalarini piyodalar yo'lklaridan yurgizishi, yo'l belgilari yoki yo'lning qatnov qismidagi chiziqlar bilan belgilab qo'yilgan talablarga rioya etmasligi, odam tashish, transport vositalarini quvib o'tish, yo'nalishli transport vositalari to'xtaydigan bekatlardan yoki piyodalar o'tish joylaridan yurish, sutkaning qorong'i vaqtida yoki ko'rish cheklangan sharoitlarda yoritish asboblaridan foydalanish qoidalarini buzishi, xuddi shuningdek, yo'lovchilarga loyqa sachratishi, eng kam ish haqining ikkidan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xuddi shunday huquqbuzarlikni ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish, eng kam ish haqining bir baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xuddi shunday huquqbuzarlikni ikki marta ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish, eng kam ish haqining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xuddi shunday huquqbuzarlikni uch marta va undan ortiq ma'muriy jazo

qo'llanilganidan keyin bir-yil davomida takror sodir etish, eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidan olti oy muddatga mahrum etishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 128-moddasi).

**Transport vositasini boshqarish vaqtida haydovchilarning telefondan foydalanishi.** Transport vositasini boshqarish vaqtida haydovchilarning telefondan foydalanishi, eng kam ish haqining ikki baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir-yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, eng kam ish haqining uch baravari miqdorida jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidan olti oygacha muddatga mahrum etishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 128<sup>1</sup>-moddasi).

**Transport vositasini boshqarish paytida monitordan (displaydan) tele-, videodasturlarni tomosha qilish uchun foydalanish va transport vositasiga o'zboshimchalik bilan monitor (display) o'rnatish.** Transport vositasini boshqarish paytida transport vositasi salonining old qismiga ishlab chiqaruvchi korxonadan tomonidan o'rnatilgan monitordan (displaydan) tele-, videodasturlarni tomosha qilish uchun foydalanish, eng kam ish haqining bir baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Transport vositasi salonining old qismiga o'zboshimchalik bilan monitor (display) o'rnatish, eng kam ish haqining ikki baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Yuqorida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin bir-yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, - eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorida jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidan olti oydan bir-yilgacha muddatga mahrum etishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 128<sup>2</sup>-moddasi).

**Transport vositalari haydovchilarining harakat tezligini oshirib yuborishi.** Transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga 20 kilometrdan ko'p bo'lmagan kattalikda oshirib yuborishi, eng kam ish haqining bir baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga 20 kilometr dan ortiq, lekin 40 kilometr dan ko'p bo'lmagan kattalikda oshirib yuborishi yoki transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga 20 kilometr dan ko'p bo'lmagan kattalikda xuddi shunday huquqbuzarlik uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir-yil davomida takror oshirib yuborishi, - eng kam ish haqining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga 40 kilometr dan ortiq kattalikda oshirib yuborishi yoki transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga 20 kilometr dan ortiq, lekin 40 kilometr dan ko'p bo'lmagan kattalikda xuddi shunday huquqbuzarlik uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror oshirib yuborishi yohud transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga 20 kilometr dan ko'p bo'lmagan kattalikda xuddi shunday huquqbuzarlik uchun ikki marta ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir-yil davomida takror oshirib yuborishi, eng kam ish haqining o'n baravari miqdorida jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidan bir yil muddatga mahrum etishga sabab bo'ladi.

Transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga 40 kilometr dan ortiq kattalikda xuddi shunday huquqbuzarlik uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror oshirib yuborishi yoki transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga 20 kilometr dan ortiq, lekin 40 kilometr dan ko'p bo'lmagan kattalikda xuddi shunday huquqbuzarlik uchun ikki marta ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir-yil davomida takror oshirib yuborishi yohud transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga 20 kilometr dan ko'p bo'lmagan kattalikda xuddi shunday huquqbuzarlik uchun uch marta ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror oshirib yuborishi, transport vositasini boshqarish huquqidan ikki yil muddatga mahrum etishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 128<sup>3</sup>-moddasi).

**Transport vositalari haydovchilarining svetofoarning taqiqlovchi signaliga yoki yo'l harakatini tartibga soluvchining taqiqlovchi ishorasiga bo'ysunmasdan o'tishi.** Transport vositalari

haydovchilarining svetoforning taqiqlovchi signaliga yoki yo'l harakatini tartibga soluvchining taqiqlovchi ishorasiga bo'ysunmasdan o'tishi, eng kam ish haqining ikki baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, eng kam ish haqining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ikki marta ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir-yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, transport vositasini boshqarish huquqidan bir-yil muddatga mahrum etishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 128<sup>4</sup>-moddasi).

**Transport vositalari haydovchilarining xalaqit berishi yoki avariya holatini yuzaga keltirishi, yo'lning qarama-qarshi harakatlanish uchun mo'ljallangan tomoniga yoki bo'lagiga chiqishi.** Transport vositalari haydovchilarining to'sqinliksiz harakat qilish huquqidan foydalanadigan transport vositalarining o'tib ketishiga xalaqit berishi, eng kam ish haqining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Transport vositalari haydovchilarining yo'lning qarama-qarshi harakatlanish uchun mo'ljallangan tomoniga yoki bo'lagiga yo'l harakati qoidalarini buzgan holda chiqishi, xuddi shuningdek, avariya holati yuzaga kelishiga sabab bo'lgan, ya'ni yo'l harakatining boshqa qatnashchilarini tezlikni, harakat yo'nalishini keskin o'zgartirishga yoki o'z xavfsizligini yohud boshqa fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash uchun o'zga choralarni ko'rishga majbur qiluvchi huquqbuzarlikni sodir etishi, eng kam ish haqining o'n baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir-yil davomida takror sodir etish, eng kam ish haqining yigirma baravari miqdorida jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidan bir yil muddatga mahrum etishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 128<sup>5</sup>-moddasi).

**Transport vositalari haydovchilarining to'xtash yoki to'xtab turish qoidalarini buzishi.** Transport vositalari haydovchilarining

to'xtash yoki to'xtab turish qoidalarini buzishi, eng kam ish haqining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xuddi shunday huquqbuzarlikni ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir-yil davomida takror sodir etish, eng kam ish haqining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xuddi shunday huquqbuzarlikni ikki marta ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish, eng kam ish haqining o'n baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xuddi shunday huquqbuzarlikni uch marta va undan ortiq ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish, eng kam ish haqining o'n besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 128<sup>5</sup>-moddasi).

**Transport vositalarini mast holda boshqarish.** Haydovchilarning transport vositalarini alkogolli ichimlikdan, giyohvand modda ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mast holda boshqarishi, transport vositasini boshqarish huquqidan bir yil-u olti oydan uch yilgacha muddatga mahrum etishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, eng kam ish haqining o'ttiz baravari miqdorida jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Alkogolli ichimlikdan, giyohvand modda ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mast shaxsga transport vositasini boshqarishni topshirish, eng kam ish haqining o'n besh baravari miqdorida jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidan ikki yildan uch yilgacha muddatga mahrum etishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 131-moddasi).

**Transport vositalari haydovchilarining yo'l harakati qoidalarini buzishi jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yoki ancha miqdorda moddiy zarar yetkazilishiga olib kelishi.** Transport vositalari haydovchilarining yo'l harakati qoidalarini buzishi jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yoki ancha miqdorda moddiy zarar yetkazilishiga olib kelsa, eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki transport vositalarini boshqarish huqu-



qidan bir yildan uch yilgacha muddatga mahrum etishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 133-moddasi).

**Haydovchilarning yo'l harakati qoidalarini buzishi transport vositalarining yoki boshqa mol-mulkning shikastlanishiga olib kelishi.** Transport vositalari haydovchilarning yo'l harakati qoidalarini buzishi transport vositalari, yo'l harakatini tartibga soluvchi vositalar yoki boshqa mol-mulk shikastlanishiga olib kelsa, lekin ancha miqdorda moddiy zarar yetkazmasa, eng kam ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidan olti oydan bir yilgacha muddatga mahrum etishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 134-moddasi).

**Yo'l harakati qoidalarida nazarda tutilgan hujjatlari bo'lmagan shaxslarning transport vositalarini boshqarishi.**

Transport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi hujjatlari, transport vositasini ro'yxatdan o'tkazganlik haqidagi, shuningdek, transport vositasiga egalik qilish, egasi yo'qligida undan foydalanish yoki uni tasarruf etish huquqini tasdiqlovchi hujjatlari, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisi (ushbu Kodeks 135<sup>1</sup>-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hol bundan mustasno), qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa litsenziya kartochkasi yoki yo'l varaqasi yonida bo'lmagan haydovchilarning transport vositalarini boshqarishi, xuddi shuningdek, ishonchnomalarni, transport vositalarini boshqa shaxsga o'tkazish va ijaraga berish shartnomalarini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazmasdan (hisobga qo'ymasdan) transport vositalarini boshqarishi, eng kam ish haqining ikkidan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxslarning shu vositalarni boshqarishi, xuddi shuningdek, boshqarish huquqi bo'lmagan shaxsga transport vositalarini boshqarishning topshirilishi, eng kam ish haqining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etilgan shaxslarning bunday vositalarni boshqarishi, eng kam ish haqining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 135-moddasi).

**Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablarini buzish.** Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polislarida nazarda tutilmagan foydalanish davrida transport vositalarini boshqarish, xuddi shuningdek, faqat mazkur sug'urta polislarida ko'rsatilgan haydovchilar ayni shu transport vositalarini boshqarishi to'g'risida mazkur sug'urta polislarida nazarda tutilgan shartlarni buzgan holda transport vositalarini boshqarish, eng kam ish haqining bir baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha qonunda belgilangan majburiyatning transport vositalari egalari tomonidan bajarilmasligi, xuddi shuningdek, agar bunday majburiy sug'urta qilinmaganligi oldindan ayon bo'lsa, transport vositalarini boshqarish, fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravari, mansabdor shaxslarga esa eng kam ish haqining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 135'-moddasi).

**Yo'l-transport hodisasi yuz bergan joydan ketib qolish** Yo'l-transport hodisasi qatnashchilarining belgilangan qoidalarni buzgan holda hodisa yuz bergan joydan ketib qolishi, eng kam ish haqining o'ttiz baravari miqdorida jarima solishga yoki transport vositalarini boshqarish huquqidan ikki yil muddatga mahrum etishga yohud o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 137'-moddasi).

**Nosoz transport vositalarini yo'lga chiqarish va transport vositalaridan foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish.** Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilmagan yoki majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilmagan transport vositalarini yo'lga chiqarish, transport vositalarining texnik holati va ulardan foydalanilishi uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Nosozligi bo'lgan yoki muayyan shartlar tufayli transport vositasidan foydalanish taqiqlangan yoki tegishli ruxsatnomasiz qayta jihozlangan transport vositalarini yo'lga chiqarish, transport vositalarining texnik holati va ulardan foydalanilishi uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 139'-moddasi).

**Transport vositalaridan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish.** Haydovchilarning korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qarashli transport vositalaridan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanishi, eng kam ish haqining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 141-moddasi).

**Yo'lovchilarni chiptasiz tashish.** Avtomobil transportida va shahar elektr transportida yo'lovchilarni chiptasiz tashish, eng kam ish haqining ikki baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 145-moddasi).

**Avtomobil transportida yuklarning saqlanishini ta'minlash qoidalarini buzish.** Transport vositalariga, shuningdek, yuk tashuvchi moslamalarga shikast yetkazish, eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Avtomobillar, avtomobil tirkamalari, konteynerlarning va boshqa yukxonalarning plombalariga va bekitkich qurilmalariga shikast yetkazish, ularning plombalarini buzish, ayrim yuk o'rinlariga va yuk o'ramalariga, paketlariga, yuk qo'ralarining, yuk avtomobillari stansiyalarining, konteyner punktlarining (maydonchalarining), va yuk tashish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni bajarish uchun foydalaniladigan omborlarning to'siqlariga shikast yetkazish, shuningdek, tegishli ruxsati bo'lmay turib yuk qo'ralariga, konteyner punktlariga (maydonchalariga) va yuqorida zikr etilgan omborlarga kirish, eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Avtomobil transportida yuklarning but saqlanishi ta'minlash qoidalarini buzish, mansabdor shaxslarga eng kam oylik ish haqining besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 146-moddasi).

**Yo'llarga, yo'l inshootlariga, yo'l harakatini tartibga solib turuvchi texnik vositalarga shikast yetkazish, ularni saqlash qoidalarini buzish** Yo'llarga, temiryo'ldan o'tish joylariga, yo'l harakatini tartibga solib turuvchi boshqa inshootlar yoki texnik vositalarga shikast yetkazish, shuningdek, yo'l harakatiga qasddan xalal berish, shu jumladan yo'l qoplamasini ifloslantirish yo'li bilan xalal berish, eng kam ish haqining o'n baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Yo'l belgilarini o'rnatish, yo'llarni, temiryo'ldan o'tish joylari va boshqa yo'l inshootlarini harakat uchun xavfsiz holda saqlash qoidalarini buzish yoki yo'lning ayrim qismlaridan foydalanish harakat xavfsizligiga tahdid etadigan paytda ularda harakatni o'z vaqtida taqiqlash yoki cheklash choralari ko'rmaslik, mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining o'n besh baravari miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 147-moddasi).

**Shartnoma intizomini buzish.** Shartnoma majburiyatlarini bajar-maslik yoki lozim darajada bajarmaslik oqibatida xo'jalik yurituvchi subyektlarga mulkiy zarar yetkazish, mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 176-moddasi).

**Avtomobil transportida yo'lovchilar tashish faoliyati bilan litsenziyasiz shug'ullanish.** Avtomobil transportida yo'lovchilar ta-shish faoliyati bilan litsenziyasiz shug'ullanish fuqarolarga eng kam ish haqining yigirma baravaridan yuz baravarigacha, mansabdor shaxs-larga esa, ellik baravaridan yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (O'zR MJTKning 176<sup>3</sup>-moddasi).

**Yo'lovchini jo'natib yuborish kechiktirilgani uchun tashuv-chining javobgarligi** Yo'lovchi tashish uchun transport vositasini ke-chiktirib jo'natganlik yoki bunday transport vositasi manzilga kechikib kelganligi uchun, shahar va shahar atrofi yo'nalishlarida tashish bun-dan mustasno, tashuvchi, agar kechikish yengib bo'lmas kuch yohud tashuvchiga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlar tufayli yuz berganini isbot qilib bermasa, yo'lovchiga jarima tariqasida neustoyka to'laydi. Jarima miqdori va uni to'lash tartibi transport ustavleri va kodekslari bilan belgilanadi.

Yo'lovchiga jarima to'lash tashuvchini transport vositasini jo'natish kechikkanligi yoki manzilga kechikib yetib kelganligi sababli yo'lovchi ko'rgan zararni unga to'lash majburiyatidan ozod qilmaydi.

Transport vositalarini jo'natish kechikkanligi sababli yo'lovchi ularda jo'nashdan bosh tortgan taqdirda, tashuvchi yo'lovchiga kira haqini va u qilgan boshqa xarajatlarni qaytarishi shart (O'zR FK 720-moddasi).

**Yuk yoki bagaj yo'qolganligi, kam chiqqanligi va ularga shikast yetkazilganligi (buzilganligi) uchun tashuvchining javobgarligi.**

Agar tashuvchi yuk yoki bagajning yo'qolishi, kam chiqishi yoki shikastlanishida (buzilishida) o'zining aybi yo'qligini isbot qilib bera olmasa, tashish uchun qabul qilib olgan yuk va bagaj yo'qolganligi, kam chiqqanligi yoki ularga shikast yetkazilganligi (buzilganligi) uchun javobgar bo'ladi.

Yuk yoki bagajni tashish vaqtida yetkazilgan zarar tashuvchi tomonidan quyidagi miqdorda to'lanadi: yuk yoki bagaj yo'qolgan yoxud kam chiqqan taqdirda yo'qolgan yoki kam chiqqan yuk yoxud bagajning qiymati miqdorida; yuk yoki bagajga shikast yetkazilgan (buzilgan) taqdirda uning qiymati qancha pasaygan bo'lsa, shuncha summa miqdorida, shikastlangan (buzilgan) yuk yoki bagajni tiklash mumkin bo'lmaganida esa, uning qiymati miqdorida; bahosini e'lon qilgan holda tashishga topshirilgan yuk yoki bagaj yo'qolgan taqdirda yuk yoki bagajning e'lon qilingan qiymati miqdorida.

Transport tashkiloti real zararni to'lash bilan birga yo'qolgan, kam chiqqan yoki shikastlangan (buzilgan) yukni tashish uchun olgan kira haqini, agar u yukning bahosiga kirmasa, jo'natuvchi (oluvchi)ga qaytarib beradi.

Jo'natuvchi tashuvchidan yuklar yo'qolishi, kam chiqishi yoki shikastlanishi (buzilishi) tufayli yetkazilgan boshqa zararni ham to'lashni talab qilishga haqli.

Yuk yo'qolganligi, kam chiqqanligi, shikastlanganligi (buzilganligi) uchun bir yo'nalishda har xil transportda tashuvchilar yuk jo'natuvchi (yuk oluvchi) oldida solidar javobgar bo'ladilar.

Agar oxirgi tashuvchi yukning kechikib kelishida tashuvchilarning aybi yo'qligini isbot qilib bera olmasa, yukning kechikib kelganligi uchun javobgar bo'ladi (O'zR FK 721-moddasi).

Yo'lovchining hayoti yoki sog'lig'iga shikast yetkazilganligi uchun tashuvchining javobgarligi Yo'lovchining hayoti yoki sog'lig'iga shikast yetkazilganligi uchun tashuvchining javobgarligi, agar qonunda yoki shartnomada kuchaytirilgan javobgarlik nazarda tutilgan bo'lmasa, O'zR FKning 57-bobi qoidalari bo'yicha belgilanadi (O'zR FK 725-moddasi).

Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha ekspeditorning javobgarligi. Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi uchun

ekspeditor O'zR FK 24-bobining qoidalariga muvofiq belgilanadigan asoslarda va miqdorda javobgar bo'ladi.

Agar ekspeditor majburiyatning buzilishi tashish shartnomalari tegishli ravishda bajarilmaganligi tufayli kelib chiqqanini isbotlasa, ekspeditorning mijoz oldidagi javobgarligi tegishli tashuvchi ekspeditor oldida javobgar bo'ladigan qoidalarga muvofiq belgilanadi (O'zR FK 728-moddasi).

**Sog'liqqa shikast yetkazilganligi tufayli ko'rilgan zararning o'rnini qoplash hajmi va xususiyati.** Fuqaro mayib qilinganda yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilganda jabrlanuvchi oladigan yoki muayyan ravishda olishi mumkin bo'lgan yo'qotilgan ish haqi (daromadlari), shuningdek, salomatligiga shikast yetkazilishi tufayli qilgan qo'shimcha xarajatlari, shu jumladan davolanish, qo'shimcha ovqatlanish, dori-darmonlar sotib olish, protez qo'ydirish, birovning parvarishida bo'lish, sanatoriy-kurortda da'volanish, maxsus transport vositalarini sotib olish, boshqa kasbga tayergarlikdan o'tish xarajatlari, agar jabrlanuvchining ana shu yordam va parvarish turlariga muxtojligi hamda ularni bepul olish huquqiga ega emasligi aniqlansa, o'rni qoplanishi lozim.

Yo'qotilgan ish haqini (daromadlarni) aniqlashda jabrlanuvchiga mayib bo'lishi yoki sog'lig'iga boshqacha shikast yetishi sababli tayinlangan nogironlik pensiyasi, xuddi shuningdek, sog'lig'iga zarar yetkazilmasidan oldingi va undan keyingi boshqa turdagi pensiyalar, nafaqalar va boshqa shunga o'xshash to'lovlar e'tiborga olinmaydi va zararni qoplash miqdorini kamaytirishga sabab bo'lmaydi (zararni qoplash hisobiga kiritilmaydi).

Zararni qoplash hisobiga shuningdek, jabrlanuvchi sog'lig'iga shikast yetkazilganidan keyin oladigan ish haqi (daromadi) ham kiritilmaydi.

Qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan ushbu moddaga muvofiq jabrlanuvchiga tegadigan to'lov hajmi va miqdori ko'paytirilishi mumkin (O'zR FK 1006-moddasi).

**Zararning o'rnini qoplash to'lovlari.** Jabrlanuvchining mehnat qobiliyati pasayishi yoki uning vafot etganligi bilan bog'liq zararni qoplash har oylik to'lovlar bilan amalga oshiriladi.

Uzrli sabablar bo'lgan taqdirda sud zarar yetkazuvchining imkoniyatlarini hisobga olib, undirish huquqiga ega bo'lgan fuqaroning talabi bilan unga tegishli to'lovlarni bir yo'la, lekin uch-yildan oshmagan vaqt uchun to'lashni belgilashi mumkin.

Kelgusi vaqt uchun qo'shimcha xarajatlarni undirish tibbiy ekspertiza xulosasi asosida aniqlanadigan muddatlarda, shuningdek, tegishli xizmatlar va mol-mulk (yo'llanma sotib olish, yo'l haqini to'lash, maxsus transport vositalari haqini to'lash va hokazo) qiymatini oldindan to'lash zaruriyati tug'ilganda amalga oshirilishi mumkin.

Jabrlanuvchi qonunga muvofiq majburiyatning bekor qilinishini yoki muddatidan oldin bajarilishini talab qilishga haqli bo'lgan hollarda, bunday talab vaqti-vaqti bilan to'lab turiladigan tegishli to'lovlarni kapitallashtirish yo'li bilan qanoatlantiriladi (O'zR FK 1006-moddasi).

**Zararni qoplash hajmi va miqdori.** G'ayriqonuniy harakatlardan tufayli zarar yetkazishdan kelib chiqqan majburiyat adabiyotda delikit<sup>1</sup> degan atama bilan ham yuritiladi. Yetkazilgan zarar uchun javobgarlik ham delikit javobgarlik deb nomlanadi. Bunday javobgarlik shartnomaga asoslanmaydi, balki shartnomadan tashqari vujudga keladi. Yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha, ya'ni zarar ko'rgan va uni yetkazgan shaxslar o'rtasida shartnomaga asoslanmagan majburiyat vujudga keladi. Bunday javobgarlik bo'yicha javobgarlik yetkazilgan zararni qoplash shaklida belgilanadi. Demak bunda fuqarolik-huquqiy javobgarlikning boshqa shakllari (jarima, burdsizlik to'lovi- neustoyka) qo'lanilmaydi.

Yetkazilgan zararni qoplash javobgarlikning boshqa shakllaridan farqli o'laroq quyidagi holatlarda: zarar haqiqatda mavjud bo'lsa; bunday zarar huquqqa xilof xatti-harakat natijasida yetkazilgan bo'lsa; yetkazilgan zarar bilan xatti-harakat o'rtasida sababli bog'lanish mavjud bo'lsa; bunday zararni yetkazishda uni yetkazgan shaxsning aybi bo'lsagina vujudga kelishi mumkin.

Fuqarolik kodeksida yetkazilgan zarar uchun so'nggi-yillarda ko'p mamlakatlarining qonunchilik tajribasida qabul qilingan shartnomaga asoslangan va asoslanmagan javobgarlikni ma'lum hollarda birgalikda qo'llash g'oyasi rivoj topdi. Ushbu g'oya respublikamizda dastlab

<sup>1</sup> Huquqqa xilof harakat.

1996-yil 26-aprelda qabul qilingan «Ite'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunining 20-moddasida aks ettirildi. Ushbu moddaga ko'ra: «Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bilan shartnoma munosabatlariga kirishgan-kirshmaganligidan qat'i nazar har qanday iste'molchi tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni tufayli yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish huquqiga ega».

Demak, sotilgan tovar, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmatning nuqsonlari oqibatida yetkazilgan zarar faqat oldi-sotdi, pudrat yoki yuk va yo'lovchilar tashish shartnomalarini tuzgan iste'molchilargina emas, balki shartnoma tuzmasdan tovardan, bajarilgan ishdan, ko'rsatilgan xizmatdan foydalanuvchi shaxslarning foydasiga ham qoplanishi lozim.

FKning 459-moddasi 3-qismida davlat kontraktini bajarish tufayli tovar yetkazib beruvchi ko'rishi mumkin bo'lgan barcha zararlarni davlat buyurtmachisi to'lashi lozimligi ko'rsatilgan. Sharhlanayotgan moddaning 1-qismiga binoan bunday zarar davlat buyurtmachisi tomonidan unga (yoki sotuvchiga) tovar topshirilgan kundan e'tiboran uzog'i bilan 30 kun ichida qoplanishi kerak. Shuningdek, davlat ehtiyojlari uchun tovarlar yetkazib berish to'g'risidagi qonun hujjatlarida yoki davlat kontraktida boshqacha tartibda ko'zda tutilishi mumkin.

Zararning o'rmini qoplash usullari FKning 1003-moddasida ko'rsatib o'tilgan bo'lib u quyidagicha ta'riflanadi: zarar hajmi, zararining yetkazilishi tufayli vujudga kelgan barcha ziyonlarni, chunonchi, nobud qilingan ashyolarning qiymatini yoki bahosining kamayishi summasini, sog'liqqa shikast yetkazishi yoki o'lim tufayli yo'qotilgan ish haqi miqdorini, sog'liqqa shikast yetkazganligi sababli qilingan xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Zarar mol-mulkka yetkazilgan bo'lganida uni aslicha tarzda yoki pul summasi hajmida undirish uchun ashyolarning xususiyatlariga e'tibor berish zarur.

Zarar miqdori jabrlanuvchiga to'lanadigan haqdan iborat bo'lib, zarar hajmiga muvofiq kelishi kerak. Ammo ba'zi hollarda, chunonchi, jabrlangan shaxsning aybi bo'lganida va zarar yetkazgan fuqaroning mulkiy ahvoli nazarga olinganda to'lanadigan zarar haqi yetkazilgan zarar hajmiga to'g'ri kelmasligi ham mumkin. Zarar uchun to'lanadigan



haq umumiy qoidaga muvofiq sudning qarori qabul qilingan kundagi narx bilan belgilanadi.

Bundan tashqari zararning o'rnini qoplash bo'yicha FKning 1005-moddasida shartnomani bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaganlik natijasida fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida qoida o'rnatildi. Shuningdek, harbiy xizmat majburiyatlarini, ichki ishlar organlarida xizmatini va boshqa shunga o'xshash majburiyatlarni bajarishda fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplashni hal qilishda sud amaliyotida davom etib kelgan ikkilanishlarga chek qo'yiladi. Ushbu modda umumiy qoidadan iborat bo'lib, fuqaro tomonidan shartnomaviy majburiyatni bajarish jarayonida uning sog'lig'iga, hayotiga yetkazilgan zararni qoplash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Bular qatoriga mehnati bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar kiradi. Demak, yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha barcha hollarda umumiy qoida qo'llaniladi. Ushbu modda fuqaroning hayoti va sog'lig'ini himoya qilishni kuchaytirish borasida yana bitta yangilik kiritdi. Bunga ko'ra javobgarlikning ancha yuqori miqdori qonunda yoki shartnomada alohida nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

**Oshiqcha xavf manbai egasini javobgarlikdan ozod qilish holatlari.** Tovarning bajarilgan ishning, ko'rsatilgan xizmatning yaroqlilik muddati belgilangan bo'lsa, ularning nuqsonlari bo'yicha da'vo yaroqlilik muddati davomida qo'zg'atildi, agar bunday muddat belgilanmagan bo'lsa, tovar ishlab chiqilgan, ish, xizmat qabul qilib olingan kundan boshlab da'vo o'n yil mobaynida qo'zg'atilishi mumkin (FK, 57-BOB 1019-modda).

Shuningdek, FKning 1020-moddasida tovarni, sotuvchini, ishni bajaruvchini, xizmat ko'rsatuvchini tovardagi, ishdagi, xizmatdagi nuqsonlari uchun javobgarlikni belgilashda mazkur Kodeksning 333, 335, 989-moddalarida nazarda tutilgan umumiy qoidalarga va ushbu moddada belgilangan maxsus qoidaga amal qilinishi lozim.

Tovarning sotuvchisi yoki tayyorlovchisi, ishning, xizmatning ijrochisi yetkazilgan zarar uchun javobgarlikdan faqat ikki holatda ozod bo'lishi mumkin. Birinchidan, agar yetkazilgan zarar oldindan olib bo'lmaydigan, yengib bo'lmas kuch (zilzila, yong'in, suv toshqini va

boshqa tabiiy ofatlar) ta'siri ostida, ikkinchidan, agar ist'emo'lchining aybi bilan vujudga kelgan bo'lsa.

Zararni qoplash bo'yicha javobgarlikdan ozod bo'lish birinchi holatda hech kimning erki yoki harakati bilan bog'liq emas, ikkinchi holatda esa iste'molchining harakatiga bog'liq. Bunday zarar iste'molchi tovarni saqlash yoki undan (ishning natijalaridan, ko'rsatilgan xizmatdan) foydalanish yuzasidan belgilangan qoidalarni buzishi, foydalanish bo'yicha yo'riqnomalarga rioya qilmaslik oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Lekin bunday holatda ham aybning yo'qligini isbotlash vazifasi iste'molchiga emas, balki sotuvchiga, ishni bajaruvchiga, xizmat ko'rsatuvchiga yuklatildi. Ularni tovarni saqlashda, bajarilgan ishdan, xizmatdan foydalanishdan iste'molchi tegishli qoidalarga rioya qilmaganligini isbotlab bergan taqdirdagina, javobgarlikdan, ya'ni yetkazilgan zararni qoplashdan ozod bo'lishlari mumkin. Shuning bilan iste'molchining manfaatlari har tomonlama himoya qilinishi nazarda tutiladi.

Tovarning, ishning, xizmatning nuqsonlaridan tashqari, boshqa sabablarga ko'ra, iste'molchiga yetkazilgan zararni qoplashga oid qoidalar «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 21, 22-moddalarida nazarda tutiladi.

**Fuqaroning sog'lig'iga zarar yetkazilganda, xarakatlanuvchi tarkib yoki mulkiga zarar yetkazilganda zararni qoplash.** Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarni tartibga solishning rivojlanishida muhim va jiddiy o'zgarishlar birinchi galda fuqaroning hayoti va sog'lig'ini himoya qilishning kuchaytirilishida o'z ifodasini topdi.

Fuqarolik Kodeksining 1005-moddasidagi e'tiborli tomonni dastlabki yangilik shundan iboratki, unda shartnomani bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaganlik natijasida fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida qoida o'rnatildi.

Ushbu modda umumiy qoidadan iborat bo'lib, fuqaro tomonidan shartnomaviy majburiyatni bajarish jarayonida uning sog'lig'iga, hayotiga yetkazilgan zararni qoplash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Bular qatoriga mehnat shartnomasi, pudrat shartnomasi, topshiriq va boshqa shaxsning manfaati uchun fuqarolarning bevosita mehnati bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar

kiradi. Demak, yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha barcha hollarda umumiy qoida qo'llaniladi.

FKning 1006-moddasi esa sog'liqqa shikast yetkazilgani tufayli ko'rilgan zararning o'rnini qoplash hajmi va xususiyati deb nomlangan bo'lib unda, fuqaroning mayib qilinishi yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilishi tufayli uning tomonidan yo'qotilgan ish haqini (daromadlarni) aniqlashda mutlaq boshqacha tamoyil qo'llaniladi. Endi jabrlanuvchi oladigan yoki muayyan ravishda olishi mumkin bo'lgan yo'qotilgan ish haqi (daromadlari), shuningdek, moddaning birinchi qismda deyarli to'liq ko'rsatilgan sabablarga ko'ra sarflangan xarajatlar qoplanishi zarur. Mehnat kontrakti bo'yicha ishga qabul qilingan xodim ishni boshlamasdan turib mayib qilinsa yoki shikast ko'rsa, uning mehnat kontrakti bo'yicha olishi lozim bo'lgan ish haqi qoplanishi kerak.

Moddaning ikkinchi qismi bo'yicha zararni qoplash hisobiga shuningdek, jabrlanuvchi sog'lig'iga shikast yetkazilgandan keyin olinadigan ish haqi (daromadi) ham kiritilmaydi.

Moddaning uchunchi qismiga binoan jabrlanuvchiga tegadigan to'lovning hajmi va miqdori ko'paytirilishi mumkin. Bunday ko'paytirilish maxsus bajariladigan ishning ahamiyati, xususiyatlari va yetkazilishi mumkin bo'lgan shikastning oqibati hisobga olingan holda qonun hujjatida yoki mehnat shartnomasida nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Fuqarolik kodeksining 1007-moddasida esa sog'liqqa shikast yetkazilishi natijasida yo'qotilgan ish haqi va uning miqdorini aniqlash tartibi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra, to'lov hajmini belgilashda jabrlanuvchining xohishi bilan uning ishdan bo'shagunga qadar olib kelingan ish haqini yoki uning malakasidagi xodimga to'lanadigan, ammo qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining besh karrasidan kam bo'lmagan odatdagi haq to'lash miqdori hisobga olinadi.

Agar jabrlanuvchiga zarar yetkazilishiga qadar uning mulkiy ahvolini yaxshilovchi barqaror o'zgarishlar sodir bo'lgan bo'lsa, masalan, egallab turgan lavozimi bo'yicha uning ish haqi oshirilgan, u yuqoriroq haq to'lanadigan ishga o'tkazilgan, kunduzgi o'quv yurtini bitirganidan keyin ishga kirgan bo'lsa va boshqa hollarda,

uning o'rtacha ish haqini aniqlashda u faqat tegishli o'zgarishlardan keyin olingan yoki olishi lozim bo'lgan ish haqi (daromadi) hisobga olinadi.

Agar jabrlanuvchiga zarar yetkazilishiga qadar uning mulkiy ahvolini yaxshilovchi barqaror o'zgarishlar sodir bo'lgan bo'lsa, uning o'rtacha ish haqini aniqlashda u faqat tegishli o'zgarishlardan keyin olgan yoki olishi lozim bo'lgan ish haqi (daromadi) hisobga olinadi.

Jabrlanuvchining sog'lig'iga yetkazilgan shikastning qoplash miqdorini belgilashda sud uning so'nggi paytdagi mulkiy ahvolini yaxshilovchi eng oxirgi, o'zgarishlarni ham hisobga olish kerak. Bu o'zgarishlar natijasida olingan qo'shimcha ish haqi va daromadlar ham jabrlanuvchiga beriladigan to'lov miqdorining ko'payishiga olib keladi. Faqat olingan ish haqi emas, balki olinishi lozim bo'lgan ish haqi (daromad) ham jabrlanuvchiga beriladigan to'lov miqdorining ko'payishi uchun sabab bo'ladi.

**Yuk yoki bagaj yo'qolgan, kam chiqqan yoki shikastlangan (buzilgan) hollarda tashuvchining javobgarligi.** Agar tashuvchi yuk yoki bagajning yo'qolishi, kam chiqishi yoki shikastlanishida (buzilishida) o'zining aybi yo'qligini isbotlay olmasa, tashish uchun qabul qilib olgan yuk yoki bagaj yo'qolganligi, kam chiqqanligi yoki ularga shikast yetkazilganligi (buzilganligi) uchun javobgar bo'ladi.

Yuk yoki bagajni tashish vaqtida yetkazilgan zarar yo'qotilgan, kam chiqqan yoki shikastlangan (buzilgan) yuk yoki bagaj qiymati, shuningdek, tashuvchi yo'qolgan, kam chiqqan yoki shikastlangan (buzilgan) yuk yoki bagajni eltib berish uchun mijozdan olgan kira haqi qiymati miqdorida, agar bu kira haqi yuk yoki bagajning bahosiga kirmasa, tashuvchi tomonidan qoplanadi.

Mijoz tashuvchidan yuk yo'qolgani, kam chiqqanligi yoki shikastlangani (buzilgani) tufayli yetkazilgan boshqa zararlar ham qoplanishini talab qilishga haqli (O'RQ «Avtomobil transporti to'g'risida» 22-modda).

**Tashuvchining yuk tashish uchun avtotransport vositasini bermaganligi yoki o'z vaqtida bermaganligi uchun javobgarligi.** Tashuvchi tashish shartnomasiga muvofiq yuk tashish uchun avtotransport vositasini bermaganligi yoki o'z vaqtida bermaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Agar avtotransport vositasini bermaganlik yoki o'z vaqtida bermaganlik yengib bo'lmas kuch, harbiy harakatlar, muayyan yo'nalishda yuk tashish to'xtatib yoki cheklab qo'yilganligi tufayli yuz bergan bo'lsa, tashuvchi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikdan ozod qilinadi (O'RQ Avtomobil transporti to'g'risida 23-modda).

**Yuk tashish uchun tashuvchi tomonidan berilgan avtotransport vositasidan foydalanmaganlik uchun mijozning javobgarligi.** Yuk tashish uchun tashish shartnomasiga muvofiq berilgan avtotransport vositasidan foydalanmaganlik uchun mijoz qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Agar bu yengib bo'lmas kuch, harbiy harakatlar, muayyan yo'nalishda yuk tashish to'xtatib yoki cheklab qo'yilganligi tufayli yuz bergan bo'lsa, mijoz qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikdan ozod qilinadi (O'RQ «Avtomobil transporti to'g'risida» 24-modda).

**Yo'lovchini jo'natib yuborish kechiktirilgani uchun tashuvchining javobgarligi** Yo'lovchilarni tashish uchun avtotransport vositasini jo'natish kechiktirilgan yoki u belgilangan manzilga kechikib kelgan taqdirda (shahar va shahar atrofida tashishlar bundan mustasno), tashuvchi, agar kechiktirish yoki kech yetib borish tashuvchiga bog'liq bo'lmagan holatlar tufayli yuz berganligini isbotlay olmasa, yo'lovchiga jarima tariqasida neustoyka to'laydi. Jarima miqdori va uni to'lash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yo'lovchiga jarima to'lash tashuvchini avtotransport vositasi kechiktirilishi yoki kech yetib borishi tufayli yo'lovchi ko'rgan zararni unga to'lashdan ozod etmaydi.

Avtotransport vositasi kechiktirilganligi sababli yo'lovchi unda jo'nashdan voz kechgan taqdirda, tashuvchi yo'lovchiga kira haqini va u qilgan boshqa xarajatlarni qaytarishi shart (O'RQ «Avtomobil transporti to'g'risida» 25-modda).

**Yo'lovchining hayoti yoki sog'lig'iga shikast yetkazilganligi uchun tashuvchining javobgarligi.** Tashuvchi tashish paytida yo'lovchining hayoti yoki sog'lig'iga shikast yetkazilganligi uchun, agar u shikast jabrlanuvchining qasdi yoki yengib bo'lmas kuch tufayli yuz berganligini isbotlay olmasa, javobgar bo'ladi.

Yo'lovchining hayoti yoki sog'lig'iga shikast yetkazilganligi uchun tashuvchining javobgarligi qonun hujjatlari bilan belgilanadi (O'RQ Avtomobil transporti to'g'risida 26-modda).

**Mijozning zarar yetkazganlik uchun javobgarligi.** Mijoz o'zining aybi bilan boshqa shaxslarga, tashuvchining va boshqa shaxslarning tashuvchi javobgar bo'lgan mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

Yuk jo'natuvchi transport hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar noto'g'riligi, noaniqligi yoki to'liq emasligi tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha zararlar uchun tashuvchi va uchinchi shaxs oldida javobgar bo'ladi (O'RQ Avtomobil transporti to'g'risida 24-modda).

**Xo'jalik shartnomalarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflarning javobgarligi.** Taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, bu taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'laydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, ushbu Qonunda, o'zga qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha tarzda javobgar bo'ladi.

Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, xo'jalik shartnomalarini bajarmaganlik va lozim darajada bajarmaganlik uchun ushbu Qonunning 25-32-moddalarida nazarda tutilgan javobgarlik choralari qo'llaniladi (O'RQ «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida» 24-modda).

**Tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuhorganlik, to'liq yetkazib bermaganlik, ishlarni bajarmaganlik yoki xizmat ko'rsatmaganlik uchun javobgarlik.** Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib

berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi (O'RQ «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida» 25-modda).

**Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berganlik uchun javobgarlik.** Agar yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga), qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, yetkazib beruvchidan (pudratchidan) sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar va xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar (ishlar va xizmatlar) haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan (pudratchidan) aktseptsiz tartibda undirib olinadi.

Jarimani hisobdan chiqarish to'g'risidagi to'lov talabnomasi bank muassasasiga tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) sifati, assortimenti va navi lozim darajada emasligi to'g'risidagi daololatnoma tuzilgandan keyin o'n kundan kechiktirmay taqdim etiladi. Jarimani hisobdan chiqarish to'g'risidagi to'lov talabnomasi belgilangan o'n kunlik muddatni buzgan holda taqdim etilgan hollarda, jarimani undirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi (O'RQ Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida 26-modda).

**But bo'lmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun javobgarlik.** But bo'lmagan tovarlar yetkazib berilgan taqdirda sotib oluvchi (buyurtmachi):

– tovarlarni butlab berishni talab qilishga haqli. Yetkazib beruvchi sotib oluvchining (buyurtmachining) talabini olgan paytdan boshlab, agar taraflarning kelishuvida o'zga muddat belgilangan bo'lmasa, o'n besh kunlik muddat ichida tovarlarni butlab berishi shart;

– bundan buyon tovarlar butlab berilgunga qadar ularning haqini to‘lashdan bosh tortishga, agar tovarlarning haqi to‘lab qo‘yilgan bo‘lsa, belgilangan tartibda to‘langan summalar qaytarilishini talab qilishga haqli;

– yetishmayotgan qismlar qiymatini qo‘shgan holda, yetkazib beruvchidan but bo‘lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

Tovarlarni yetkazib beruvchi belgilangan muddatda tovarlarni butlab bermasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) but bo‘lmagan tovarlarni qaytarib berishga hamda but bo‘lmagan tovarlarni but tovarlarga almashtirishni talab qilishga haqlidir (O‘RQ «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida» 27-modda).

**To‘lov, tovar-transport hujjatlarini yuborishni kechiktirganlik uchun javobgarlik.** Jo‘natilgan tovarlarga oid to‘lov yoki tovar-transport hujjatlarining nusxasini belgilangan muddatda yubormaganlik yoki tovarlar jo‘natilganligi to‘frisidagi boshqa axborotni taqdim etmaganlik uchun yetkazib beruvchi sotib oluvchiga axborot taqdim etilmagan har bir holat uchun yetkazib berilayotgan tovar qiymatining 1 foizi miqdorida jarima to‘laydi (O‘RQ «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida» 30-modda).

### Nazorat savollari

1. Zarar deganda nimani tushunasiz?
2. Ma‘naviy va jismoniy zarar.
3. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar.
4. Huquqiy normalarda zarar miqdorining qanday turlari bor?
5. Majburiyatlarning bekor bo‘lishi.
6. Yuk tashish qoidalarini, shatakka olish qoidalarini buzish qanday chora ko‘rilishiga sabab bo‘ladi?
7. Ko‘zqusimon va tusi o‘zgartirilgan (qoraytirilgan) nostandart oynali, shuningdek, tevarak-atrofnii ko‘rishni cheklaydigan qoplamali transport vositalaridan foydalanish qanday chora ko‘rilishiga sabab bo‘ladi?
8. Haydovchilarning transport vositalarini piyodalar yo‘lkalaridan yurgizishi, yo‘l belgilari va yo‘l harakatining boshqa qoidalari talablariga rioya etmasligi qanday chora ko‘rilishiga sabab bo‘ladi?
9. Transport vositasini boshqarish vaqtida haydovchilarning telefondan foydalanishi qanday chora ko‘rilishiga sabab bo‘ladi?



10. Transport vositasini boshqarish paytida monitordan (displaydan) tele-, videodasturlarni tomosha qilish uchun foydalanish va transport vositasiga o'zboshimchalik bilan monitor (display) o'rnatish qanday chora ko'rilishiga sabab bo'ladi?

11. Transport vositalari haydovchilarining harakat tezligini oshirib yuborishi qanday chora ko'rilishiga sabab bo'ladi?

12. Transport vositalari haydovchilarining svetoforming taqiqlovchi signaliga yoki yo'l harakatini tartibga soluvchining taqiqlovchi ishorasiga bo'ysunmasdan o'tishi qanday chora ko'rilishiga sabab bo'ladi?

13. Transport vositalarini mast holda boshqarish qanday chora ko'rilishiga sabab bo'ladi?

14. Nosoz transport vositalarini yo'lga chiqarish va transport vositalaridan foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish qanday chora ko'rilishiga sabab bo'ladi?

15. Transport vositalaridan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish qanday chora ko'rilishiga sabab bo'ladi?

16. Yo'llarga, yo'l inshootlariga, yo'l harakatini tartibga solib turuvchi texnik vositalarga shikast yetkazish, ularni saqlash qoidalarini buzish qanday chora ko'rilishiga sabab bo'ladi?

17. Avtomobil transportida yo'lovchilar tashish faoliyati bilan litsenziyasiz shug'ullanish qanday chora ko'rilishiga sabab bo'ladi?

18. Yuk yoki bagaj yo'qolganligi, kam chiqqanligi va ularga shikast yetkazilganligi (buzilganligi) uchun tashuvchining javobgarligi qanday chora ko'rilishiga sabab bo'ladi?

19. Sog'liqqa shikast yetkazilganligi tufayli ko'rilgan zararning o'rmini qoplash hajmi va xususiyati.

20. Fuqaroning sog'lig'iga zarar yetkazilganda, xarakatlanuvchi tarkib yoki mulkiga zarar yetkazilganda zararni qoplash.

21. Tashuvchining yuk tashish uchun avtotransport vositasini bermaganligi yoki o'z vaqtida bermaganligi uchun javobgarligi.

22. Tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborganlik, to'liq yetkazib bermaganlik, ishlarni bajarmaganlik yoki xizmat ko'rsatmaganlik uchun javobgarlik.

## X BOB.

### DA'VO (PRETENZIYA)LARNI TAQDIM QILINISHI VA KO'RIB CHIQLISHI

#### 10.1. Da'vo tushunchasi va da'vo bildirish tartibi

**Da'vo** – huquqni tiklash yoki bekor qilish haqida sud tartibida ko'riladigan talab. Da'vo sudga kiritilgach, jarayon ishtirokchilari vujudga keladi. Bu talab qiluvchi – da'vogar, da'voni bajaruvchi (agar da'vo qonuniy bo'lsa) – javobgar hisoblanadi.

Da'vo mazmuni qarzni qaytarish, merosga da'vogarlik, ishni bajarganlik uchun haq talab qilish, jarima undirish, ishga tiklash va boshqalar xususida bo'lishi mumkin.

Tajribada da'vo ko'pincha mulkiy masalalar xususida bo'ladi.

Da'vo bilan sudga har qanday shaxs, uning vakili murojaat qilishi mumkin. Shaxsning da'vo haqidagi arizasi sudda da'vo bo'yicha ish boshlash va yurgizishga asos bo'ladi.

Da'vo – da'vo arizasi orqali qo'zg'atiladi.

**Da'vo arizasining shakli va mazmuni.** Da'vo arizasi xo'jalik sudiga yozma shaklda beriladi. U da'vogar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksi (O'zRXPK)ning 112-moddasiga binoan da'vo arizasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan xo'jalik sudining nomi;
  - 2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nomi, ularning pochta manzillari;
  - 3) agar da'vo baholanishi lozim bo'lsa, da'voning bahosi;
  - 4) da'vo talablariga asos bo'lgan holatlar;
  - 5) da'vo talablarining asoslarini tasdiqlovchi dalillar;
  - 6) undiriladigan yoki nizolashilayotgan summaning hisob-kitobi;
  - 7) da'vogarning qonun hujjatlarini dalil qilib keltirgan talablari,
- da'vo bir necha javobgarga nisbatan taqdim etilganda esa ularning har biriga qo'yilgan talablar;

8) nizoni javobgar bilan sudgacha hal qilish (talabnoma yuborish) tartibiga rioya etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, agar shu toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;

9) ilova qilinayotgan hujjatlar ro'yxati.

Da'vo arizasida, agar nizoni to'g'ri hal qilish uchun zarur deb hisoblansa, boshqa ma'lumotlar ham, shuningdek, da'vogarda mavjud iltimosnomalar ham ko'rsatiladi.

Da'vogar da'vo taqdim etganda ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga da'vo arizasining va unga ilova qilingan, bu shaxslarda bo'lmagan hujjatlarning nusxalarini yuborishi shart.

**Da'vo arizasiga ilova qilinadigan hujjatlar.** Da'vo arizasiga quyidagilarni tasdiqlovchi hujjatlar sifatida ilova qilinadi:

1) belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji to'langanligini;

2) da'vo arizasining va unga ilova qilingan hujjatlarning nusxalari yuborilganligini;

3) nizoni javobgar bilan sudgacha hal qilish (talabnoma yuborish) tartibiga rioya etilganligini, agar bu shu toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;

4) da'vo talablariga asos bo'lgan holatlarni.

Agar da'vo arisasi da'vogarning vakili tomonidan imzolangan bo'lsa, uning da'vo taqdim etishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi ishonchnoma ilova qilinadi.

Shartnoma tuzishga majbur etganlik to'g'risidagi arizaga shartnoma loyihasi ilova qilinadi.

Da'vogar o'zaro bog'liq bo'lgan bir necha talabni bitta da'vo arizasida birlashtirishga xaqli.

Xo'jalik sudi ayni bir shaxslar ishtirok etuvchi bir turdagi bir necha ishni bitta ish yuritishga birlashtirishga haqli.

Xo'jalik sudi bir yoki bir necha birlashtirilgan talabni alohida ish yuritishga ajratishga haqli.

Xo'jalik sudi ishlarni birlashtirish va talablarni alohida ish yuritishga ajratish to'g'risida ajrim chiqaradi (O'zR XPK 115-modda).

**Da'vo arizasini qabul qilish.** Da'vo arizasini qabul qilish masalasi sudyani yakka o'zi hal qiladi. Sudya O'zR XPKda nazarda tutilgan talablarga rioya etgan holda berilgan da'vo arizasini Xo'jalik sudining ish yuritishiga qabul qilishi shart. Sudya da'vo arizasini qabul

qilish to'g'risida u kelib tushgan kundan boshlab o'n kundan kechiktirmay ajrim chiqaradi. Bu ajrimning mazmuni ishni majlisda ko'rishga tayyorlash to'g'risidagi ajrimda bayon qilinishi mumkin.

**Da'vo arizasini qabul qilishni rad etish.** Sudya da'vo arizasini qabul qilishni quyidagi hollarda rad etadi:

1) nizo xo'jalik sudida ko'rib chiqishga tegishli bo'lmasa;

2) ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan ishni yuritishni tugatish to'g'risida xo'jalik sudining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki ajrimi yohud umumiy sudning kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risida hal qiluv qarori yoki ajrimi bo'lsa;

3) xo'jalik sudining, umumiy sudning, hakamlar sudining ish yuritishida ayni bir shaxslar o'rtasida, ayni bir predmet to'g'risida va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo'lsa;

4) ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan qabul qilingan hakamlar sudining qonuniy kuchga kirgan qarori bo'lsa, xo'jalik sudi hakamlar sudining qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berishni rad etib, ishni qarorni qabul qilgan hakamlar sudiga yangidan ko'rish uchun qaytargan, biroq ishni o'sha hakamlar sudida ko'rish imkoniyati bo'lmagan hollar bundan mustasno.

Sudya da'vo arizasini qabul qilishni rad etish to'g'risida ajrim chiqaradi. Ajrim ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ariza kelib tushgan kundan boshlab besh kundan kechiktirmasdan yuboriladi. Da'vogarga yuborilayotgan ajrimga da'vo materiallari ilova qilinadi.

Da'vo arizasini qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin. Ajrim bekor qilingan taqdirda da'vo arizasi xo'jalik sudiga dastlabki murojaat qilingan kunda berilgan deb hisoblanadi (O'zR XPK 117-modda).

**Da'vo muddati.** Ko'p-yillar, uzoq muddatlardan so'ng o'sha davrda bo'lib o'tgan nizoli holatlarni to'liq dalillar bilan tiklash va aniqlash uchun yetarli imkoniyat qolmaydi. Davr o'tishi bilan da'vo bo'yicha javobgar deb hisoblangan shaxslar, o'zlarining aybi yo'qligini isbotlash, da'voga javob berish va o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. Bunday hollarda, fuqarolar

va tashkilotlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida da'vo muddati qo'llaniladi. Ayni vaqtda da'vo muddati huquqiy munosabat taraflarini buzilgan huquqlarini tiklash va belgilangan muddat davomida himoya qilishga undaydi va bu masalada beg'am bo'lmaslikka majbur qiladi. Chunki belgilangan da'vo muddati o'tib ketgach, fuqaro yoki tashkilot ma'lumot o'ziga tegishli qonuniy huquq va manfaatlarini, agar sud tomonidan sabablar uzrli deb tan olinmasa, himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi

Mulkiy munosabatlarda huquqlari buzilgan jismoniy va yuridik shaxslar faqat qonunda belgilangan ma'lum muddat davomida o'z buzilgan huquqlarining himoya qilinishini tegishli davlat organlaridan talab qilishga haqlidir. Bu muddat da'vo muddati deb ataladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga ko'ra da'vo muddati umumiy va maxsus muddatlarga bo'linadi.

O'zR FKda umumiy da'vo muddati – uch yil deb belgilangan.

Ayrim turdagi talablar uchun qonunlarda umumiy da'vo muddatiga qaraganda qisqartirilgan yoki uzaytirilgan maxsus da'vo muddatlari belgilanishi mumkin.

Agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, O'zR FKning 152–162-moddalarida ko'zda tutilgan qoidalar maxsus da'vo muddatlariga ham joriy qilinadi.

Da'vo muddatlari va ularni hisoblash tartibi taraflarning kelishuvi bilan o'zgartirilishi mumkin emas.

Da'vo muddatlari o'tishini to'xtatish va uning uzilish asoslari O'zR FK talablari asosida belgilanadi.

Buzilgan huquqni himoya qilish talabi da'vo muddatining o'tganligidan qat'i nazar sudda ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi.

Da'vo muddati sud tomonidan faqat nizodagi tarafning sud qaror chiqargunicha bergan arizasiga muvofiq qo'llanadi.

Qo'llanish to'g'risida nizodagi taraf bayon qilgan da'vo muddatining o'tishi sudning da'voni rad etish haqida qaror chiqarishi uchun asos bo'ladi.

Da'vo muddati shaxs o'zining huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan o'ta boshlaydi. Bu qoidadan istisnolar O'zR FK va boshqa qonunlar bilan belgilanadi.

Muayyan ijro muddatiga ega bo'lgan majburiyatlar bo'yicha da'vo muddati ijro muddati tamom bo'lganidan keyin o'ta boshlaydi.

Ijro etish muddati belgilanmagan yoki talab qilish payti ijro etish muddati bilan belgilangan majburiyatlar bo'yicha da'vo muddati kreditorida majburiyatni bajarish to'g'risida talab qo'yish huquqi paydo bo'lgan vaqtdan o'ta boshlaydi, bordi-yu, qarzdorga bunday talabni bajarish uchun imtiyozli muddat berilsa, da'vo muddati imtiyozli muddat tamom bo'lganidan keyin hisoblana boshlaydi.

Majburiyatdagi shaxslarning almashinishi da'vo muddati va uni hisoblash tartibining o'zgarishiga olib kelmaydi.

Da'vo muddatining o'tishi quyidagi hollarda to'xtatiladi:

1) agar da'vo ko'zg'atilishi uchun muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan favqulodda hodisa (yengib bo'lmas kuch) to'sqinlik qilgan bo'lsa;

2) O'zbekiston Respublikasi Hukumati majburiyatlarni bajarishni kechiktirganligi tufayli;

3) agar da'vogar yoki javobgar harbiy holatga o'tkazilgan Qurolli Kuchlar, chegara qo'shinlari va ichki qo'shinlar tarkibida bo'lsa;

4) agar muomalaga layoqatsiz shaxsning qonuniy vakillari bo'lmasa;

5) tegishli munosabatni tartibga soluvchi qonun hujjatlarining amal qilishi to'xtatilgan bo'lsa.

Agar ushbu moddada ko'rsatilgan holatlar da'vo muddatining oxirgi olti oyida, bu muddat olti oydan kam bo'lsa, da'vo muddatida vujudga kelgan yoki davom etib turgan bo'lsa, da'vo muddatining o'tishi to'xtatiladi.

Muddatning to'xtab turilishiga asos bo'lgan holat barham topgan kundan boshlab da'vo muddatining o'tishi davom etadi, bunda muddatning qolgan qismi olti oygacha, da'vo muddati olti oydan kam bo'lsa, da'vo muddatiga qadar uzaytiriladi (O'zR FK 156-modda).

Da'vo muddatining o'tishi belgilangan tartibda da'vo ko'zg'atilishi bilan, shuningdek, majbur shaxs qarzni tan olganligini ko'rsatuvchi harakatlarni qilishi bilan uziladi.

Uzilishdan keyin da'vo muddatining o'tishi yangidan boshlanadi, uzilishgacha o'tgan vaqt esa yangi muddatga qo'shilmaydi (O'zR FK 157-modda).

Agar da'vo sud tomonidan ko'rilmagan qoldirilgan bo'lsa, da'vo qo'zg'atilgunga qadar o'ta boshlagan da'vo muddati umumiy tartibda davom etadi.

Agar ishi bo'yicha qo'zg'atilgan da'vo sud tomonidan ko'rilmagan qoldirilgan bo'lsa, da'vo ko'zg'atilgunga qadar o'ta boshlagan da'vo muddati da'voni ko'rmasdan qoldirgan hukm qonuniy kuchga kirguncha to'xtatib turiladi, da'vo muddati to'xtatib turilgan vaqt da'vo muddatiga qo'shilmaydi. Bunda muddatning qolgan qismi olti oydan kam bo'lsa, u olti oygacha uzaytiriladi.

Basharti, sud da'vo muddatining o'tkazib yuborilganligi sababini uzrli deb topsa, buzilgan huquq himoya qilinishi kerak. Da'vo muddatini o'tkazib yuborish sabablari da'vo muddatining oxirgi olti oyida, bu muddat olti oyga teng yoki olti oydan kam bo'lsa, da'vo muddatida yuz bergan bo'lsa, ular uzrli deb hisoblanishi mumkin (O'zR FK 159-moddada).

Da'vo muddatining to'xtatilishi, uzilishi va tiklanishi haqidagi qoidalar (O'zR FKning 156, 157 va 159-moddalari), agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, maxsus da'vo muddatiga nisbatan ham qo'llanadi.

Da'vo muddati o'tganidan keyin majburiyatini bajargan shaxs ijro etish paytida da'vo muddatining o'tib ketganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lganligidan qat'i nazar bajargan narsasini qaytarishni talab qilishga haqli emas.

Asosiy talab bo'yicha da'vo muddati o'tishi bilan qo'shimcha talablar (neustoyka, garov, kafolat va shu kabilar) bo'yicha da'vo muddati ham o'tgan hisoblanadi.

**Da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablar.** Da'vo muddati quyidagilarga joriy qilinmaydi:

– shaxsiy nomulkiy huquqlarni va boshqa nomoddiy boyliklarni himoya qilish haqidagi talablarga, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

– omonatchilarning o'z omonatlarini berish to'g'risida bankka qo'yadigan talablariga;

– fuqaroning hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'lash haqidagi talablarga. Da'vo muddati o'tganidan keyin ko'zg'atilgan

talablar da'vo ko'zg'atilishidan oldingi ko'pi bilan uch-yil bo'yicha qondiriladi;

- jinoyat tufayli yetkazilgan zararni to'lash haqidagi talablarga;
- mulkdoming yoki boshqa egalik qiluvchining o'z huquqini har qanday buzishlarni, shu jumladan, egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan buzishlarni (O'zR FKning 231-moddasi), bartaraf etish haqidagi talablariga;
- qonunda belgilangan hollarda boshqa talablarga.

## **10.2. Avtotransport xizmatidan shikoyat qilish tartibi**

yo'lovchilar va bagajlarni tashish jarayonida paydo bo'lgan e'tirozlar e'tiroz qiluvchining xohishiga ko'ra tashuvchiga jo'nash joyidagi yoki manzildagi punktda bildirilishi mumkin.

E'tiroznomaga ushbu e'tirozni tasdiqlovchi hujjat taqdim qilinishi shart.

Tashuvchiga shikoyat olti oy davomida bildirilishi mumkin. Jarima to'lovi bo'yicha shikoyat muddati esa 45 kun.

### **Mazkur muddatlarning boshlanish payti esa quyidagicha:**

- bagajga zarar yetkazilgani yoki bagajda yetishmovchilik qayd etilgani uchun jarima undirish haqidagi e'tirozlar – bagaj yetkazib berilgan kundan boshlab;
- bagaj yo'qolgani uchun jarima undirish haqidagi e'tirozlar – bagajni yetkazib berish muddatida 10 kun o'tganidan boshlab;
- boshqa barcha holatlarda – e'tirozga asos bo'lgan voqea sodir bo'lgan kundan boshlab.

Tashuvchi bildirilgan e'tirozni ko'rib chiqishga va uni e'tiroz kelib tushgan kundan boshlab quyidagi muddatlarda qanoatlantirishi to'g'risida shikoyatchiga xabar berishga majbur:

- avtomobil tashuvlari davomida sodir bo'lgan e'tirozlar bo'yicha – 3 oy davomida;
- to'g'ridan to'g'ri, aralash tashuvlar davomida sodir bo'lgan e'tirozlar bo'yicha – 6 oy davomida;
- jarima to'lovlari bo'yicha e'tiroz tushganda – 45 kun davomida.

E'tirozlar qisman qondirilgan yoki rad etilgan taqdirda tashuvchi shikoyatchiga yo'llayotgan bildirgisida o'z qarorining asoslarini



ko'rsatishi hamda shikoyatchiga e'tirozga ilova qilingan hujjatlarni qaytarishi shart.

E'tirozlar to'la miqdorda qanoatlantiriladigan bo'lsa arizaga ilova qilingan hujjatlar qaytarilmaydi.

Yo'lovchi va bagaj tashuvlari davomida kelib chiqqan da'volar sudga yuborilishi ham mumkin.

Yo'nalishdagi tashuvchilarning ishi bo'yicha quyidagi tartibda murojaat qilish mumkin:

– *shahar yo'nalishlari bo'yicha* – shahar hokimiyatiga yoki shahar yo'lovchi transporti boshqaruv organiga (Departament);

– *shahar atrofi yoki shaharlararo-viloyat ichi yo'nalishlari bo'yicha* – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar hokimiyatlariga yoki yo'lovchi transporti boshqaruv organiga;

– *shaharlararo-viloyatlararo yoki xalqaro yo'nalishlar bo'yicha* – Idoralararo Komissiyaga yoki O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligiga.

### **10.3. Davlat va boshqarma (tarmoq) hakamlar hay'ati (xo'jalik sudlari), avtotransport korxonasi ning xo'jalik sudlari**

Har qanday manfaatdor shaxs o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishni so'rab xo'jalik sudiga ushbu O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik protsessual kodeksi (O'zR XPK)da belgilangan tartibda murojaat qilishga haqli.

Xo'jalik sudiga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas.

Xo'jalik sudi iqtisodiyot sohasida vujudga keladigan, O'zR XPK va boshqa qonunlar bilan o'zining vakolatiga kiritilgan nizolar hamda boshqa ishlarni hal qilish yo'li bilan odil sudlovni amalga oshiradi.

**Xo'jalik sudida sud ishlarini yuritish vazifalari.** Xo'jalik sudida sud ishlarini yuritish vazifalari quyidagilardan iborat:

1) iqtisodiyot sohasida korxonalar, muassasa, tashkilotlar va fuqarolarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yohud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

2) iqtisodiyot sohasida qonunchilikni mustahkamlash va huquqbu-zarliklarning oldini olishga ko'maklashish (O'zR XPK 3-modda).

**Xo'jalik sudida ish qo'zg'atish.** Xo'jalik sudi quyidagi hollarda ish qo'zg'atadi: manfaatdor shaxslarning; prokurorning; qonun bo'yicha davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish maqsadida Xo'jalik su-diga murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan hollarda davlat organlari va boshqa organlarning arizalari bo'yicha ish qo'zg'atadi.

Agar qonunda ayrim toifadagi nizolar uchun ularni sudgacha hal qilish (talabnoma yuborish) tartibi belgilangan yohud bu tartib shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, taraflar o'zaro munosabatlarini ixtiyoriy ravishda hal qilish choralarini ko'rganlaridan so'nggina Xo'jalik sudida ish qo'zg'atish mumkin. Bunda prokuror, davlat organlari va boshqa organlarning arizalari bo'yicha ish qo'zg'atish taraflar yuqoridagi choralarni ko'rgan-ko'rmaganliklaridan qat'i nazar amalga oshiriladi (O'zR XPK 6-modda).

**Qonun va sud oldida tenglik.** Xo'jalik sudida nizolarni hal qilish korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mulkchilik shaklidan, qa-yerda joylashganligi, kimga bo'ysunishidan qat'i nazar, fuqarolarning esa, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shax-siy va ijtimoiy mavqeidan, shuningdek, boshqa holatlardan qat'i nazar qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi (O'zR XPK 7-modda).

### **Xo'jalik sudiga quyidagi ishlar taalluqlidir:**

1) iqtisodiyot sohasida yuridik shaxslar (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi), yuridik shaxs tuzmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgilangan tarzda olgan fuqarolar o'rtasidagi fuqaroviy, ma'muriy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga doir ishlar;

2) iqtisodiyot sohasida tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari vu-judga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar;

3) tashkilotlar va fuqarolarning bankrotligi to'g'risidagi ishlar.

Qonun bilan Xo'jalik sudiga taalluqli ishlar jumlasiga boshqa ish-lar ham kiritilishi mumkin.

Xo'jalik sudi o'ziga taalluqli ishlarni, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi tashkilotlari va fuqarolari, shuningdek, chet el tashkilotlari, chet el investitsiyalari ishtirokidagi tashkilotlar, xalqaro tashkilotlar, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokida ko'radi.

O'zaro bog'liq bo'lib, ba'zilar Xo'jalik sudiga, boshqalari esa umumiy sudda taalluqli bo'lgan bir necha talab birlashtirilgan taqdirda, hamma talablar umumiy sudda ko'rilishi kerak (O'zR XPK 23-modda).

**Xo'jalik sudi tomonidan hal etiladigan nizolar.** Xo'jalik sudi quyidagilarni hal etadi:

1) tuzilishi qonunda nazarda tutilgan shartnoma yuzasidan kelib chiqqan kelishmovchiliklar yoki shartnoma yuzasidan kelib chiqqan bo'lib, hal etish uchun Xo'jalik sudiga topshirish haqida taraflar o'zaro kelishgan ixtiloflar;

2) shartnoma shartlarini o'zgartirish yoki shartnomani bekor qilish haqidagi nizolar;

3) mulk huquqini tan olish to'g'risidagi nizolar;

4) majburiyatlar bajarilmaganligi yoki tegishli darajada bajarilmaganligi to'g'risidagi nizolar;

5) mulkdor yoki mulkning boshqa qonuniy egasi tomonidan mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish to'g'risidagi nizolar;

6) mulkdorning yoki mol-mulkning boshqa qonuniy egasining huquqlari egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan holda buzilganligi to'g'risidagi nizolar;

7) yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar;

8) sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilish to'g'risidagi nizolar;

9) davlat organlari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan, tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjatlarini (butunlay yoki qisman) haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi nizolar;

10) undirish so‘zsiz (akseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjatini yoki boshqa hujjatni ijro etilishi mumkin emas deb topish to‘g‘risidagi nizolar;

11) davlat ro‘yxatiga olishni rad etganlik yoki belgilangan muddatda davlat ro‘yxatiga olishdan bosh tortganlik ustidan berilgan shikoyat;

12) agar qonunda so‘zsiz (aktseptsiz) tartibda jarima undirilishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, tekshiruv vazifalarini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan tashkilotlar va fuqarolardan jarimalar undirish to‘g‘risidagi nizolar;

13) tekshiruv vazifalarini amalga oshiruvchi organlar tomonidan qonun hujjatlarining talablarini buzgan holda so‘zsiz (akseptsiz) tartibda hisobdan chiqarilgan pul mablag‘larini byudjetdan qaytarish to‘g‘risidagi nizolar.

Xo‘jalik sudi o‘zining vakolat doirasiga kiritilgan boshqa nizolarni ham hal qiladi (O‘zR XPK 24-modda).

#### **10.4.Xo‘jalik sudlarida nizolarni ko‘rib chiqish tartibi**

Ariza Xo‘jalik sudiga yozma shaklda sudlovga tegishlilikning umumiy qoidalari bo‘yicha beriladi. U kreditor yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Vakil tomonidan imzolanadigan arizaga ishonchnoma ilova qilinadi.

Arizada quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan Xo‘jalik sudining nomi;
- 2) kreditorning, qarzdorning nomi va ularning manzillari;
- 3) kreditorning qonun hujjatlariga asoslangan talabi;
- 4) talabga asos bo‘lgan holatlar va ularni tasdiqlovchi dalillar;
- 5) undiriladigan summaning hisob-kitobi, lizing obyeksi talab qilib olingan taqdirda esa lizing shartnomasida belgilangan, to‘lanmagan to‘lovlarning lizing beruvchining lizing shartnomasi muddati tugaguniga qadar qolgan davrdagi daromadini chegirib tashlagan holdagi summaning hisob-kitobi.

6) ilova qilinayotgan hujjatlar ro‘yxati.

**Ishni sudda ko‘rishga tayyorlash bo‘yicha sudyaning harakatlari.** Ishni sudda ko‘rishga tayyorlash paytida sudya da‘vo arizasi kelib

tushgan kundan boshlab o'n kundan kechiktirmay quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

1) ishda ishtirok etish uchun boshqa javobgar yoki uchinchi shaxsni jalb etish masalasini ko'rib chiqadi;

2) ishni yuritish to'g'risida manfaatdor shaxslarni xabardor qiladi;

3) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, boshqa tashkilotlarga, ularning mansabdor shaxslariga muayyan harakatlarni bajarishni, shu jumladan nizoni hal qilish uchun ahamiyatli hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishni taklif etadi;

4) dalillarning daxldorligi va ularga yo'l qo'yilishi mumkinligini tekshiradi;

5) guvohlarni chaqirtiradi;

6) ekspertiza tayinlash masalasini ko'rib chiqadi;

7) boshqa Xo'jalik sudlariga sud topshiriqlarini yuboradi;

8) ishda ishtirok etuvchi shaxslarni chaqirtiradi;

9) taraflarni murosaga keltirish choralarini ko'radi;

10) ishda ishtirok etuvchi tashkilotlar rahbarlarini tushuntirish berish uchun chaqirish masalasini hal qiladi;

11) da'voni ta'minlash choralarini ko'radi.

Sudya nizoni to'g'ri va o'z vaqtida hal qilishga qaratilgan boshqa harakatlarni ham amalga oshiradi (O'zR XPK 122-modda).

Sudya ishni sudda ko'rishga tayyorlash to'g'risida ajrim chiqaradi, unda ishni tayyorlashga doir harakatlar, ishni sudda ko'rishga tayinlash, uni o'tkazish vaqti va joyi ko'rsatiladi.

Ishni sudda ko'rishga tayyorlash to'g'risidagi ajrim chiqarilgan kundan boshlab ish bir oydan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rilishi va hal qiluv qarori qabul qilinishi kerak.

Alohida hollarda ishni ko'rish muddati Xo'jalik sudining raisi tomonidan bir oydan oshmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

**Xo'jalik sudining majlisi.** Majlisga raislik qiluvchi sudya:

1) Xo'jalik sudining majlisini ochadi va qanday ish ko'rilishini e'lon qiladi:

2) ishda ishtirok etuvchi shaxslar, xo'jalik sudlov ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari majlisga kelganligini, ularning vakolatlarini, majlisga kelmagan shaxslar tegishli ravishda xabardor qilinganliklarini

hamda ular kelmaganligining sabablari to'g'risida qanday ma'lumotlar borligini tekshiradi:

3) sud tarkibini e'lon qiladi, prokuror, ekspert, sud majlisi kotibi tarjimon sifatida kimlar ishtirok etayotganligini ma'lum qiladi hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning rad qilish huquqini tushuntiradi;

4) kelgan guvohlarni so'roq qilish boshlanguncha ularni majlis zalidan chiqarib yuboradi;

5) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga hamda xo'jalik sudlov ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilariga ularning protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi;

6) tarjimonni bila turib noto'g'ri tarjima qilganlik uchun, ekspertni bila turib noto'g'ri xulosa berganlik yoki xulosa berishdan bosh tortganlik uchun, guvohlarni bila turib yolg'on ko'rsatma berganlik va ko'rsatma berishdan bosh tortganlik yoki bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantiradi;

7) majlisni olib borish va dalillarni tekshirish tartibini belgilaydi;

8) majlisga rahbarlik qilib, ish uchun ahamiyatli holatlar aniqlanishini ta'minlaydi;

9) majlisda tegishli tartibni ta'minlash choralari ko'radi.

Majlis zalida hozir bo'lganlar yozma qaydnomalar qilish, stenogramma olib borish va ovoz yozib olish huquqiga ega. Sud majlisini kinoga va fotosuratga olish, videotasvirga olish, shuningdek, radio va televidenie orqali ko'rsatishga ishni ko'rayotgan sudning ruxsati bilan yo'l qo'yiladi (O'zR XPK 126-modda).

**Xo'jalik sudining majlisidagi tartib.** Sudyalar majlis zaliga kirganlarida zalda hozir bo'lganlarning barchasi o'rinlaridan turadi. Xo'jalik sudining hal qiluv qarorini zalda hozir bo'lganlarning barchasi tik turgan holda tinglaydi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar va xo'jalik sudlov ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari Xo'jalik sudiga tik turgan holda murojaat qiladi hamda tushuntirishlar va ko'rsatmalar beradi. Bu qoidadan chetga chiqishga faqat raislik qiluvchining ruxsati bilangina yo'l qo'yilishi mumkin.

Majlis vaqtida tartib buzilgan taqdirda raislik qiluvchi Xo'jalik sudi nomidan tartibni buzgan shaxsni ogohlantiradi. Tartib takroran

buzilgan taqdirda mazkur shaxs raislik qiluvchining farmoyishi bilan chiqarib yuborilishi mumkin.

**Ishni ko'rishning tamomlanishi.** Barcha dalillar tekshirilganidan keyin sud majlisida raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslardan ularda ish bo'yicha qo'shimcha materiallar bor-yo'qligini aniqlaydi. Bunday arizalar bo'lmasa, raislik qiluvchi ishni tekshirish tugaganligini e'lon qiladi va Xo'jalik sudi hal qiluv qarori qabul qilish uchun chiqib ketadi.

**Hal qiluv qarorini qabul qilish.** Xo'jalik sudi nizoni mazmunan hal qilishda hal qiluv qarori qabul qiladi. Xo'jalik sudining hal qiluv qarori qonuniy va asoslantirilgan bo'lishi kerak. Xo'jalik sudi hal qiluv qarorini majlisda tekshirilgan dalillar bilangina asoslaydi.

Hal qiluv qarori sud majlisida ishni ko'rish tugagandan keyin alohida xonada qabul qilinadi. Hal qiluv qarorini qabul qilish vaqtida xonada ishni ko'rayotgan xo'jalik sudi tarkibiga kiruvchi sudyalargina bo'lishi mumkin.

Ishni hayatda ko'rganda xo'jalik sudining hal qiluv qarori ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

**Hal qiluv qarorini qabul qilishda hal etiladigan masalalar:**

- 1) dalillarga baho beradi;
- 2) ish uchun ahamiyatli bo'lgan qaysi holatlar aniqlanganligini va qaysilari aniqlanmaganligini belgilaydi;
- 3) ishda ishtirok etuvchi shaxslar asos qilib keltirgan qaysi qonun hujjatlarini ushbu ish bo'yicha qo'llash mumkin emasligini hal qiladi;
- 4) ushbu ish bo'yicha qaysi qonun hujjatlarini qo'llash zarurligini belgilaydi;
- 5) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning qanday huquq va majburiyatlari borligini aniqlaydi;
- 6) da'voni qanoatlantirish lozimligi yoki lozim emasligini hal qiladi.

Xo'jalik sudi maslahat vaqtida dalillarni qo'shimcha ravishda tekshirishni yoki ish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlashni davom ettirishni zarur deb topsa, ishni ko'rishni yangidan boshlaydi (O'zR XPK 136-modda).

Hal qiluv qarori sud majlisida raislik qiluvchi yoki ishni ko'rayotgan sudyalar tarkibidagi boshqa sudya tomonidan yozma bayon qilinib, majlisda ishtirok etayotgan barcha sudyalar tomonidan imzolanadi.

**Hal qiluv qarorining mazmuni.** Xo'jalik sudi hal qiluv qarorini O'zbekiston Respublikasi nomi bilan qabul qiladi.

Xo'jalik sudining hal qiluv qarori kirish, bayon qilish, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi.

Hal qiluv qarorining kirish qismida uni qabul qilgan Xo'jalik sudining nomi, sud tarkibi, sud majlisi kotibi, ishning tartib raqami, ish ko'rilgan sana va joy, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nomi, nizo predmeti, majlisda hozir bo'lgan shaxslarning familiyalari va vakolatlari ko'rsatiladi.

Hal qiluv qarorining bayon qilish qismida da'vo arizasining, uning yuzasidan bildirilgan mulohazaning, boshqa tushuntirishlarning, ishda ishtirok etuvchi shaxslar arizalarining qisqacha mazmuni ifodalanishi lozim.

Hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida ishning Xo'jalik sudi tomonidan aniqlangan holatlari, xo'jalik sudining bu holatlar to'g'risidagi xulosalariga asos bo'lgan dalillar va xo'jalik sudi u yoki bu dalillarni rad qilishiga hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslar asos qilib keltirgan qonun hujjatlarini qo'llamasligiga sabab bo'lgan vaj, shuningdek, sud hal qiluv qarorini qabul qilishda tayangan qonun hujjatlarini ko'rsatilishi lozim.

Hal qiluv qarorining xulosa qismida har bir da'vo talabini qanoatlantirish yoki qanoatlantirishni rad etish to'g'risidagi xulosalar bo'lishi lozim.

Ishda bir necha da'vog'ar va javobgar ishtirok etayotgan bo'lsa, qarorda nizo ulardan har biriga nisbatan qanday hal qilingani ko'rsatiladi.

Dastlabki da'voni va qarshi da'voni to'la yoki qisman qanoatlantirganda hal qiluv qarorining xulosa qismida da'volarni o'zaro hisobga olish natijasida undirilishi lozim bo'lgan summa ko'rsatiladi.

Hal qiluv qarorining xulosa qismida ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'rtasida sud xarajatlarining qanday taqsimlanishi, hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish muddati va tartibi ko'rsatiladi.

Agar Xo'jalik sudi hal qiluv qarorini ijro etish tartibini belgilasa yoki uning ijrosini ta'minlash choralarini ko'rsa, bu to'g'rida hal qiluv qarorida ko'rsatiladi (O'zR XPK 138-modda).



**Hal qiluv qarorini e'lon qilish.** Hal qiluv qarori imzolanganidan keyin ish ko'rilgan majlisning o'zida raislik qiluvchi tomonidan e'lon qilinadi. Alohida hollarda o'ta murakkab ishlar yuzasidan asoslantirilgan hal qiluv qarorini tuzish ko'pi bilan uch kunga kechiktirilishi mumkin, ammo hal qiluv qarorining xulosa qismi ishning muhokamasi tugagan majlisning o'zida e'lon qilinadi. Ayni bir vaqtda raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslar asoslantirilgan hal qiluv qarori bilan qachon tanishishlari mumkinligini e'lon qiladi.

Hal qiluv qarorining e'lon qilingan xulosa qismi barcha sudyalardan tomonidan imzolanishi va ishga qo'shib qo'yilishi lozim.

Majlisda raislik qiluvchi Xo'jalik sudining hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish tartibini tushuntirib beradi

Xo'jalik sudining hal qiluv qarori qabul qilingandan keyin bir oylik muddat o'tgach kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan paytdan kuchga kiradi.

Xo'jalik sudida ish hay'atda ko'rilayotganda va hal qilinayotganda kelib chiqadigan masalalar sudyalarning ko'pchilik ovozi bilan hal qilinadi. Sudyalardan birortasi ovoz berishda betaraf qolishga haqli emas. Majlisga raislik qiluvchi hammadan keyin ovoz beradi.

Boshqa sudyalarning qaroriga qo'shilmagan sudya bu qarorga imzo chekishga majbur va u o'zining alohida fikrini yozma ravishda bayon qilishga haqli. Alohida fikr ishga qo'shib qo'yiladi, lekin e'lon qilinmaydi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alohida fikri bilan tanishtirilmaydilar.

Sudya quyidagi hollarda ishni ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas va u rad qilinishi lozim:

1) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning yoki ular vakillarining qarindoshi bo'lsa;

2) shu ish ilgari ko'rilganida ekspert, tarjimon, prokuror, sud majlisi kotibi vakil yoki guvoh sifatida ishtirok etgan bo'lsa;

3) ishning pirovard natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa yohud uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa.

Ishni ko'rayotgan Xo'jalik sudi tarkibiga bir-biriga qarindosh bo'lgan sudyalardan kirishi mumkin emas (O'zR XPK 17-modda).

**Xo'jalik sudlarining qarorlari va qarorlar bo'yicha shikoyat qilish tartiblari.** Xo'jalik sudi hal qiluv qarori, ajrim, qaror, sud buyrug'i shaklidagi sud hujjatlarini qabul qiladi. Sud hujjatlarining bajarilishi majburiydir.

Sudning qonuniy kuchga kirgan hujjati barcha davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy bo'lib, O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart.

Xo'jalik sudi qabul qilgan sud hujjatlarini bajarmaslik O'zR XPK va boshqa qonunlarda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

**Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining tarkibi.** Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi rais va sud yalardan iborat bo'ladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi rais, sudyalari va xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tarkibida ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalari bo'ladi (O'RQ Sudlar to'g'risida (yangi tahriri 36-modda)).

**Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining vakolatlari.** Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi qonun bilan o'z vakolatlari doirasiga berilgan fuqarolik ishlarini ko'radi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi qonun bilan uning vakolatlari doirasiga berilgan fuqarolik ishlarini va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi.

Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi qonun bilan o'z vakolatlari doirasiga berilgan jinoyat ishlarini hamda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'radi.

Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi qonun bilan uning vakolatlari doirasiga berilgan jinoyat ishlarini hamda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni, shuningdek, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qamoqda saqlash muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqadi (O'RQ «Sudlar to'g'risida» (yangi tahriri 37-modda)).

**Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining raisi.** Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining raisi:

– sud majlislarida raislik qiladi, sudyalar o'rtasida ishlarni taqsimlaydi;

– sud amaliyotini umumlashtirish va sud statistikasini yuritish ishlariga rahbarlik qiladi, qonun buzilishini, huquqbuzarliklar sodir etilishiga olib kelgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslarga taqdimnomalar kiritadi;

– sud xodimlari va xalq maslahatchilari malakasini oshirish ishini tashkil etadi;

– fuqarolarni shaxsan qabul qiladi, ularni qabul qilish, ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishini tashkil etadi;

– sud idorasi ishiga rahbarlik qiladi, sud xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining raisi yo'qligida uning vakolatlari sudyalarning tegishli malaka hay'atining qarori bilan sudyalardan biri zimmasiga yuklatilishi mumkin (O'RQ «Sudlar to'g'risida» (yangi tahriri 38-modda)).

## **10.5. Davlat boji**

**Davlat boji** – davlatning maxsus vakolatli idoralari (sud, militsiya, fuqarolik holatini qayd etish byurosi, xo'jalik sudlari, notarial idoralar, sug'urta agentliklari va b.) tamonidan fuqarolar, korxonalar, tashkilot va muassasalar manfaatlari yo'lida xizmat ko'rsatganlik hamda yuridik ahamiyatga molik hujjatlar (pasport, turli guvohnomalar, sertifikat, litsenziya va b.) berganlik uchun undiradigan pul yig'implari. O'zbekistonda davlat boji stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

### **Quyidagilar uchun davlat boji to'lanadi:**

- 1) da'vo arizalari;
- 2) tashkilotlar va fuqarolarni bankrot deb topish to'g'risidagi arizalar;
- 3) nizo predmeti yuzasidan mustaqil talablar qo'yadigan uchinchi shaxs sifatida ishga kirishish haqidagi arizalar;
- 4) yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi arizalar;
- 5) xo'jalik sudining hal qiluv qarorlari, shuningdek, ish yuritishni tugatish, da'voni ko'rmasdan qoldirish, sud jarimalari solish to'g'risidagi ajrimlari ustidan berilgan apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlari;
- 6) hakamlar sudining qarorlarini majburiy ijro etish varaqasini berish to'g'risidagi ariza;
- 7) hakamlar sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish va ijro varaqasini berishni rad etish to'g'risidagi Xo'jalik sudining ajrimlari ustidan berilgan apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlari.

Da'vo talablari ko'paytirilganida davlat bojining yetishmayotgan summasi hal qiluv qarori qabul qilinayotganda da'voning ko'paygan summasiga muvofiq undiriladi. Da'vo qiymati kamaytirilganda to'langan boj qaytarilmaydi.

Davlat bojining miqdori, uni to'lashdan ozod qilish va uning miqdorini kamaytirish qonun hujjatlarida belgilanadi.

Alohida hollarda sud da'vogarning arizasiga ko'ra uning mulkiy ahvoriga qarab, davlat bojini to'lashni kechiktirishga yoki bo'lib-bo'lib to'lash uchun ruxsat berishga xaqli (O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik-protsessual kodeksi, 91-modda).

### **Da'voning bahosi quyidagicha aniqlanadi:**

- 1) pul mablag'larini undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha – undiriladigan summaga qarab;
- 2) ijro etish hujjatini yoki undirish so'zsiz (aktseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan boshqa hujjatni ijro etish mumkin emas deb topish to'g'risidagi da'volar bo'yicha – nizolashilayotgan summaga qarab;

3) mol-mulkni talab qilib olish to'g'risidagi da'volar bo'yicha – shu mol-mulkning qiymatiga qarab;

4) yer uchastkasini talab qilib olish to'g'risidagi da'volar bo'yicha - yer uchastkasining belgilangan bahoda, bahosi bo'lmasa – bozor bahosida chiqarilgan qiymatiga qarab.

Da'voning bahosiga da'vo arizasida ko'rsatilgan neustoyka (jrima, penya) summalari ham kiritiladi.

Bir necha mustaqil talablardan iborat bo'lgan da'voning bahosi barcha talablarning summasi bilan belgilanadi.

Da'voning bahosi noto'g'ri ko'rsatilgan taqdirda u Xo'jalik sudi tomonidan belgilanadi (O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik-protsessual kodeksi, 92-modda).

**Davlat bojini qaytarish.** Davlat boji qonun hujjatlarida belgilangan hollarda qaytarilishi kerak.

Xo'jalik sudining hujjatida davlat bojini to'liq yoki qisman qaytarish uchun asos bo'ladigan holatlar ko'rsatiladi.

Davlat boji to'langan, lekin xo'jalik sudiga kelib tushmagan yoki u qaytargan arizalar, apellyatsiya yoki kassatsiya shikoyatlari bo'yicha hamda bojni to'liq yoki qisman qaytarishni nazarda tutuvchi sud hujjatlari bo'yicha uni qaytarish sud tomonidan berilgan ma'lumotnoma asosida amalga oshiriladi (O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik-protsessual kodeksi, 92-modda).

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza uchun sudga da'vo bilan umumiy tartibda murojaat qilganda nizolashilayotgan summa asosida hisoblab chiqilgan stavkaning ellik foizi miqdorida davlat boji to'lanadi.

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qabul qilish rad etilgan taqdirda undiruvchi to'lagan davlat boji undiruvchi tomonidan qarzdorga umumiy tartibda da'vo taqdim etilganda to'lanishi lozim bo'lgan boj hisobiga o'tkaziladi (O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik-protsessual kodeksi, 106-modda).

Transportda faoliyat ko'rsatish huquqi uchun davlat boji to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan raqobat muhitini shakllantirish hamda transport va aloqa sohasidagi faoliyatni tartibga solishning bozor mexanizmlarini yanada

takomillashtirish maqsadida 1997-yil 19-fevralda qabul qilingan 89-sonli «Transport va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatish huquqi uchun davlat poshlinasi miqdorini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori asosida belgilab berilgan.

Transport va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatish huquqi «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash» to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni asosida beriladi. Ushbu qonuning 26-moddasi «Litsenziya berganlik uchun davlat boji» deb nomlanib unda quyidagilar o'z aksini topgan:

Litsenziya berganlik va litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun da'vo boji undiriladi.

Litsenziya berganlik va litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun davlat boji miqdorlari va ularni to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Faoliyatning litsenziyalangan turining bir qismi uchun litsenziya berganlik va litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun davlat boji stavkalarining kamaytirilgan miqdorlari belgilanishi mumkin. Davlat boji stavkalarining kamaytirilgan miqdorlari litsenziya qonun hujjatlarida belgilangandan kamroq muddatga berilganda va litsenziyaning amal qilish muddati uzaytirilganda ham berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 21-avgustdagi 360-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Avtomobil transportida yo'lovchilarni hamda yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash to'g'risida» Nizomdaniy 36-bandida davlat boji to'lash tartibi belgilab berilgan.

Bunga ko'ra:

Avtomobil transportida yo'lovchilar hamda yuklarni shahar, shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda tashishga litsenziyalar berilganligi va ularni amal qilish muddati uzaytirilganligi uchun davlat boji Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdorlarda undiriladi. Avtotransport vositalari soni to'ldirilgan (ko'paytirilgan) taqdirda davlat boji har bir litsenziya kartochkasi uchun qo'shimcha ravishda undiriladi.

Litsenziya berish va uning amal qilish muddatini litsenziya talabgorining arizasiga ko'ra besh yildan kam bo'lmagan muddatga uzaytirish chog'ida davlat boji miqdori litsenziyaning amal qilish muddati kamayishiga mutanosib ravishda kamaytiriladi.

Litsenziya berilganligi uchun undiriladigan davlat boji mablag'lari Avtomobil va daryo transporti agentligining maxsus hisob raqamiga o'tkaziladi, uning 40 foizi respublika byudjetiga yo'naltiriladi, qolgan mablag'lardan Komissiya tomonidan belgilangan tartibda shahar yo'lovchi tashish transportini rivojlantirishda foydalaniladi, mablag'larning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan smetaga muvofiq agentlik xarajatlariga sarflanadigan qismi bundan mustasno.

Transport sohasida faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar berilganligi uchun davlat boji miqdorlari<sup>1</sup>:

Faoliyat turlari	Boji miqdori (eng kam oylik ish haqining baravari) miqdorida
Yo'lovchilarni hamda yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish	250*
Yo'lovchilarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish:	
avtobuslarda	8**
mikroavtobuslarda	30**
yengil avtomobillarda	40**
Yo'lovchilarni shaharda va shahar atrofidagi yo'nalishlar bo'yicha tashish:	
avtobuslarda	2**
mikroavtobuslarda	10**
yengil avtomobillarda	12**
Yo'lovchilarni shaharlararo yo'nalishlar bo'yicha tashish:	
avtobuslarda	3**
mikroavtobuslarda	12**

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 21-avgustdagi «Transport sohasidagi faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida Nizomlarni tasdiqlash haqida»gi 360-son qaroriga 7-ilova.

yengil avtomobillarda	15**
Yo'lovchilarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish:	
avtobuslarda	3**
mikroavtobuslarda	12**
yengil avtomobillarda	15**
Yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish	25***
Yuklarni shaharda, shahar atrofida yo'nalishlar bo'yicha tashish	6***
Yuklarni shaharlararo yo'nalishlar bo'yicha tashish	9***
Yuklarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish	12***

**Izohlar:** Davlat bojining miqdori eng kam oylik ish haqining davlat boji to'lash kunida belgilangan miqdoridan kelib chiqqan holda besh yilga belgilangan. Litsenziya besh yildan kam muddatga berilganda davlat boji miqdori litsenziyaning amal qilish muddatining kamayishi-ga mutanosib ravishda kamaytiriladi.

\*) Har bir transport vositasi birligi uchun davlat boji miqdori.

\*\*) Davlat boji miqdori avtomobildagi har bir o'rindiqlik uchun belgilanadi.

\*\*\*) Davlat boji miqdori har bir yuk ko'tarish quvvatibirligi uchun belgilanadi.

### Nazorat savollari

1. Da'vo deganda nimani tushunasiz?
2. Da'vo arizasida nimalar ko'rsatilishi kerak?
3. Da'vo arizasiga qanday tasdiqlovchi hujjatlar ilova sifatida taqdim qilinadi?
4. Da'vo muddati tushunchasi va uning davomiyligi.
5. Avtotransport xizmatidan shikoyat qilish tartibi.
6. Xo'jalik sudida sud ishlarini yuritish vazifalari.
7. Xo'jalik sudiga qanday ishlar taalluqlidir?
8. Xo'jalik sudi tomonidan qanday nizolar hal etiladi?
9. Xo'jalik sudlarida nizolarni ko'rib chiqish tartibi.
10. Xo'jalik sudlarida hal qiluv qarorini qabul qilishda qanday masalalar hal etiladi?



11. Xo'jalik sudlarida hal qiluv qarorini e'lon qilish tartibi.

12. Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining vakolatlari.

13. Davlat boji undiriladigan holatlarni ayting.

14. Avtomobil transportida litsenziya berganlik va litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun davo boji undirish tartibi va miqdori.

## ADABIYOTDA QO'LLANILGAN ATAMALARNING IZOHI

**AVTOMOBIL YO'LI** – transport vositalari harakatlanishi uchun mo'ljallangan, ularning belgilangan tezlikda, og'irlikda, o'lchamlarda muttasil va xavfsiz harakatlanishini ta'minlaydigan muhandislik inshootlari majmuasi, shuningdek ushbu majmuani joylashtirish uchun berilgan yer uchastkalari va majmua ustidagi belgilangan doiradagi bo'shliq.

**AVTOBUS** – yo'lovchilarni, bagajni tashishga mo'ljallangan va haydovchi o'mini hisoblaganda 8 tadan ortiq o'rindiqqa ega bo'lgan avtotransport vositasi.

**AVTOVOKZAL (AVTOSTANTSIYA)** – transport-ekspeditsiya, tashish faoliyatini amalga oshiruvchi va yo'lovchilarga boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot.

**AVTOMOBILYO'LLARIDAN FOYDALANUVCHILAR** – yo'l harakatining ishtirokchilari bo'lgan yoki ajratilgan mintaqada hamda yo'l bo'yi mintaqasi doiralarida belgilangan tartibda ruxsat etilgan faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

**AVTOMOBIL TRANSPORTI** – tarkibiga yuridik va jismoniy shaxslar kiruvchi, iqtisodiyot va aholining yo'lovchilar, bagaj va yuklarni, shu jumladan pochmani avtomobilda tashishga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlovchi ishlab chiqarish-texnologiya majmui.

**AVTOPAVILON** – yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan avtomobil yo'lidagi inshoot.

**AVTOTRANSPORT VOSITALARI** – yo'lovchilar, bagaj, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan avtomobillar, shatakchi avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar.

**AJRATILGAN MINTAQQA** – avtomobil yo'li, uning tegishli konstruktiv elementlari va muhandislik inshootlari, shuningdek avtomobil yo'lidan foydalanish uchun zarur bo'lgan binolar, inshootlarni joylashtirish, ihota va manzarali daraxtzorlar barpo etish uchun doimiy foydalanishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan yer uchastkasi.

**BAGAJ** – jo'natish uchun idishga joylangan va yo'lovchi tomonidan ushbu avtobusda olib ketiladigan buyumlar.

**BAGAJ AVTOMOBILI** – bagaj tashishga mo'ljallangan avtomobil.

**BAGAJ KVITANTSİYASI** – bagajning tashish uchun qabul qilib olinganligini tasdiqlovchi hujjat.

**BOJXONA NAZORATI** – qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmui.

**BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH** – tovarlar yoki transport vositalarini har qanday usulda, shu jumladan xalqaro pochta jo'natmalarini yuborish, quvur transportidan hamda elektr uzatish liniyalaridan foydalanish yo'li bilan bojxona hududiga olib kirish yoki olib chiqish harakatlarini amalga oshirish.

**DA'VO** – buzilgan yoki cheklangan huquqni yoki qonun tomonidan muhofaza qilinadigan manfaatni sud (Xo'jalik sudi) orqali himoya qilish vositasi. Da'voning ikki tomoni farqlanadi: moddiy-huquqiy va protsessual-huquqiy. Birinchi holatda so'z talabning mazmuni bo'yicha aniqlangan faktlar va fuqarolik, mehnat, oila huquqining normalari asosida qondirish imkoniyati haqida bormoqda. Ikkinchisida esa, sudga, sud qarorini olish maqsadida murojaat qilish qonuniyligi to'g'risida bormoqda.

**DA'VO ASOSI** – shaxs o'zining buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga ariza, da'vo ariza yoki shikoyat tartibida murojaat qilishi mumkin. Ushbu holatda shaxs o'zining da'vo predmeti bo'yicha talablarini asoslovchi dalillarni ariza, da'vo ariza yoki shikoyat ko'rinishi da'voning asosi hisoblanadi.

**DA'VO MUDDATI** – fuqarolik huquqida da'vo muddati – shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddat. Da'vo muddatining ikki turi farqlanadi. Umumiy da'vo muddati uch yilni tashkil etadi.

**DA'VO PREDMETI** – fuqarolik ishlari bo'yicha har qanday da'voning ikki elementi mavjud bo'ladi. Ular da'vo predmeti va uning asosi. Da'vo predmeti bu - sudga murojaat qilayotgan shaxsning ikkinchi tarafdin talab qilayotgan narsasi hisoblanadi. Muallifi ko'rsatilmagan xatlar va manbai noma'lum bo'lgan yoki g'ayriqonuniy tarzda olingan boshqa ma'lumotlar dalil bo'la olmaydi.

**DA'VOGAR** – fuqarolik-protsessual va xo'jalik-protsessual qonunlariga muvofiq, protsessda tarafdinlardan biri. O'zR FPKning 39-moddasiga binoan, da'vogar – o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yohud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan yoki manfaatini ko'zlab ish qo'zg'atilgan shaxs. O'zR XPKning 36-moddasiga ko'ra, o'zlarining huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida da'vo taqdim etayotgan yoki manfaatlarini ko'zlab da'vo taqdim etilgan tashkilotlar va fuqarolar da'vogardir.

**YENGIL AVTOMOBIL** – yo'lovchilar va bagajni tashishga mo'ljallangan hamda haydovchi o'mini hisobga olmaganda 8 tadan ko'p bo'lmagan o'rindiqqa ega bo'lgan avtotransport vositasi.

**JABRLANUVCHI** – transport vositasi boshqa shaxs tomonidan foydalanilayotganda hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga zarar yetkazilgan shaxs.

**ZARAR** – zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o'z huquqlarini buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi.

**YO'L** – transport vositalari qatnovi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan va xuddi shu maqsadda foydalaniladigan yer mintaqasi yoxud sun'iy inshoot yuzasi Yo'l o'z ichiga avtomobil yo'llarini (umumiy foydalanishdagi va idoraviy avtomobil yo'llarini), shaharlar, shaharchalar va qishloq aholi punktlarining ko'chalarini va yo'lklarini, shuningdek, shahar elektr transporti yo'llarini oladi.

**YO'L BO'YI MINTAQASI** – ajratilgan mintaqaga tutashgan, chegaralarida aholi xavfsizligini va transportning harakatlanish xavfsizligini ta'minlash uchun yerdan foydalanishning alohida shartlari belgilanadigan yer uchastkasi.

**YO'L VARAQASI** – avtotransport vositasi ishini aniqlash va hisobga olish uchun belgilangan namunadagi yuridik hujjat.

**YO'L HARAKATI** – odamlar va yuklarning transport vositalari yordamida yoki bunday vositalarsiz yo'llar doirasida harakatlanishi jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlar majmui.

**YO'L HARAKATI QATNASHCHISI** – yo'l harakati jarayonida transport vositasining haydovchisi, yo'lovchisi yoki piyoda tariqasida bevosita ishtirok etayotgan shaxs.

**YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGI** – yo'l harakati qatnashchilarining yo'l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo'l harakati holati.

**YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH** – yo'l-transport hodisalarining yuzaga kelish sabablari oldini olishga, bunday hodisalar oqibatlarining og'irligini yengillatishga qaratilgan faoliyat;

**YO'L HARAKATINI TASHKIL ETISH** – yo'llarda harakatni boshqarish bo'yicha huquqiy, tashkiliy-texnikaviy tadbirlar va boshqaruv harakatlari majmui.

**YO'LOVCHI** – tuzilgan tashish shartnomasiga muvofiq tashish xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxs.

**YO'L-TRANSPORT HODISASI** – transport vositasining yo'ldagi qatnovi jarayonida sodir bo'lib, fuqarolarning o'limi yoki ularning sog'lig'iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan hodisa.

**YO'NALISH** – avtotransport vositalarining muayyan manzillar oralig'ida belgilangan qatnov yo'li.

**YO'NALISH PASPORTI (YO'NALISH HUJJATLARI)** – yo'nalish to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni tavsiflovchi hujjatlar.

**YO'NALISH SXEMASI** – yo'nalishning shartli belgilar qo'yilgan grafik tasviri

**YO'NALISHLI AVTOBUS** – belgilangan yo'nalish bo'yicha yo'lovchilar va bagajni tashishga mo'ljallangan avtobus.

**YO'NALISHLI TAKSILAR** – yo'lovchilarning talabiga ko'ra to'xtab o'tadigan muntazam yo'nalishlarda yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan avtotransport vositasi (avtobus yoki yengil avtomobil).

**YO'NALISHSIZ TAKSI** – yo'lovchilarning buyurtmanomalariga ko'ra hisoblagich (taksometr) ko'rsatkichi bo'yicha haq to'lash hisobiga yo'lovchilarni va ularning bagajini tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan avtotransport vositasi.

**YO'NALISHSIZ TAKSILARNING MAXSUS JIHOZLANGAN TO'XTASH JOYI** – ma'lumotlar ko'rsatkichlari bilan jihozlangan, tegishli yo'l belgilari qo'yilgan hamda yo'lovchilarni o'tqazish (tushirish) va yo'nalishsiz taksilarning to'xtab turishi uchun mo'ljallangan, ko'chalarning yo'lovchi yurmaydigan qismidagi maxsus maydoncha.

**YO'RIQNOMA** – vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat bo'lib, umummajburiy davlat ko'rstamalari sifatida qonun hujjatlarini normalarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat Yo'riqnoma bir necha vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari bilan birgalikda yoki ularning bittasi tomonidan boshqalari bilan kelishilgan holda qabul qilinishi mumkin Yo'riqnomalar tarzida qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar buyruq hamda qarorlar bilan tasdiqlanadi.

**QATNOV JADVALI** – reysni bajarish vaqti, joyi va izchilligi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan grafik (jadval).

**KODEKS** – (lot. codex, oldin – o‘zak, keyinchalik – kitob, qonunlar to‘plami; ing. code) – ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi, ustuvor huquq normalarini o‘zida mujassamlashtirgan va tizimlashtirilgan huquqiy hujjat – qonun bo‘lib, unda huquq tarmog‘ining barcha normalari mantiqan mutonosiblashtiriladi (masalan, Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi, Jinoyat kodeksi va boshqalar). U katta miqdordagi turli xil normalarni qamrab olsa ham, ichki muvofiqlikka ega bo‘lgan yagona bir butun hujjatdir. Kodeksning tarkibiy qismlari (boblar, bo‘limlar, normalar, institutlar) o‘zaro uzviy aloqador bo‘lib, muayyan tizim tarzida joylashtiriladi. An‘anaga ko‘ra, qonunchilik sohalarida uyg‘unlashtiruvchi va boshqaruvchi faol markaz rolini tegishli kodekslar o‘ynaydi. Kodeks oddiy qonundan o‘zining mukammalligi, sayqal topganligi, barqarorligi bilan farq qiladi. Agar muayyan qonunchilik sohasida bir vaqtning o‘zida kodeks va bir necha qonun hujjatlari mavjud bo‘lsa, ular ichida kodeks yuridik kuchi hamda tartibga solish imkoniyati jihatidan ustunlik qiladi.

**KOMPENSATSIYA TO‘LOVLARI** – majburiy sug‘urta bo‘yicha sug‘urta to‘lovini amalga oshirish mumkin bo‘lmagan hollarda, jabrlanuvchilarning hayoti, sog‘lig‘i va (yoki) mol-mulkiga yetkazilgan zararining o‘mini qoplash hisobiga amalga oshiriladigan to‘lovlar

**QO‘L YUKI** – yo‘lovchi tomonidan bepul tashiladigan tashish uchun idishga joylangan buyumlar.

**LITSENZIAT** – faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish litsenziyasi bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

**LITSENZIYA** – (lot. licenzia – harakatlar erkinligi, huquq; ing. licence) – litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so‘zsiz rioya etilgan holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma(huquq)dir.

**LITSENZIYA DA‘VOGARI** – litsenziyalovchi organga faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziya berish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat etgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

**LITSENZIYA KARTOCHKASI** – yo‘lovchilar tashishda foydalaniladigan avtotransport vositasi uchun belgilangan tartibda litsenziyalovchi organ tomonidan beriladigan yo‘nalishsiz taksilarda yo‘lovchilar tashishni amalga oshirishga ruxsatnoma (huquq).

**LITSENZIYA TALABLARI VA SHARTLARI** – faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirayotganda litsenziat tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan, qonun hujjatlarida belgilangan talablar va shartlarning majmui.

**LITSENZIYA SHARTNOMASI** – litsenziya shartnomasi litsenziyalovchi organ va litsenziatning o'zaro huquqlari va majburiyatlarini belgilovchi hujjatdir. Litsenziya shartnomasi quyidagilarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim: shartnomani imzolagan shaxslarning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi; taraflarning rekvizitlari; amalga oshirilishi uchun litsenziya berilayotgan faoliyat turining nomi; litsenziatga qo'yiladigan litsenziya talablari va shartlari; cheklangan amal qilish muddatiga beriladigan litsenziyalar uchun litsenziyaning amal qilish muddati; litsenziya shartnomasining talablari va shartlarini buzganlik uchun taraflarning javobgarligi; litsenziya shartnomasining talablari va shartlari litsenziat qanday bajarayotganligining litsenziyalovchi organ tomonidan nazorat qilinishi tartibi; faoliyatning ayrim turini litsenziyalash to'g'risidagi nizomga muvofiq boshqa ma'lumot. Litsenziya shartnomasi ikki nusxada – litsenziat hamda litsenziyalovchi organ uchun bittadan nusxada tuziladi.

**LITSENZIYALAR REESTRI** – berilgan, to'xtatib turilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan litsenziyalar, shuningdek amal qilishi tugatilgan litsenziyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan litsenziyalovchi organlarning ma'lumotlar majmui.

**LITSENZIYALASH** – litsenziya berish to'g'risidagi arizani topshirish va ko'rib chiqish, litsenziyani qayta rasmiylashtirish litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va bekor qilish jarayoni bilan bog'liq tadbirlar kompleksi.

**LITSENZIYALOVCHI ORGANLAR** – qonun hujjatlariga muvofiq, litsenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar.

**MAXSUS YO'NALISHLAR** – tashkilotlarning xodimlarini ish joyiga va ish joyidan tashish.

**MIJOZ (YO'LOVCHI, YUK OLUVCHI, YUK JO'NATUVCHI)** – tuzilgan tashish shartnomasiga muvofiq tashuvchining xizmatlaridan foydalanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

**NEUSTOYKA** – qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to'lashi shart bo'lgan pul summasi neustoyka hisoblanadi.

Neustoyka jarima yoki penya shaklida bo'ladi.

Qarzdor majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarda to'laydigan va qoida tariqasida, qat'iy pul summasida hisoblanadigan neustoyka jarima hisoblanadi.

Qarzdor majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to'laydigan va o'tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka penya hisoblanadi.

Neustoyka to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilishi kerak.

**NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT** – qonunda belgilangan shaklda qabul

qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida qonun hujjatlari normalarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat.

Normativ-huquqiy hujjat umummajburiy xulq-atvor qoidalarini o'z ichiga oladi hamda o'zining quyidagi xususiyatlari bilan ijtimoiy normalarning boshqa turlaridan ajralib turadi: a) davlat nomidan qonunda belgilangan tartibda qabul qilinadi; b) vakolatli subyektlarning huquq ijodkorligi faoliyatining mahsuli hisoblanadi; v) barcha uchun umummajburiy qoidalami o'rnatadi, o'zgartiradi (takomillashtiradi) yoki bekor qiladi; g) maxsus protsessual tartibda amalga oshiriladi; d) muayyan hujjatlashtirilgan shaklga ega (qonun, farmon, qaror va b.); e) muayyan turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan; j) normativ-huquqiy hujjatlarda huquqiy qoidaning mazmuni, ya'ni huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlari bayon etiladi; z) normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan qoidalar bajarilmagan yoki buzilgan taqdirda muayyan huquqiy oqibatlar kelib chiqadi, qoida bo'yicha davlatning majburlov kuchi ishga solinadi.

«Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi O'zR Qonunining 5-moddasiga muvofiq, quyidagilar normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi: a) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; b) O'zbekiston Respublikasining Qonunlari; v) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari; g) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari; d) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari; ye) vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining hujjatlari; j) mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

«Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi O'zR Qonunining 6-moddasiga asosan, normativ-huquqiy hujjatlar quyidagi rekvizitlarga ega bo'ladi: hujjatning turi va nomi; hujjat qabul qilingan joy, sana va hujjat raqami; tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni imzo qo'yib tasdiqlashga rasman vakolatli bo'lgan shaxslarning familiyasi, lavozimi va imzolari.

**OMMAVIY SHARTNOMA** – tashkilot tomonidan tuzilgan hamda uning bunday tashkilot o'z faoliyati xususiyatiga ko'ra o'ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirishi shart bo'lgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish sohasidagi vazifalarini (chakana savdo, umumiy foydalanishdagi transportda yo'lovchi tashish, aloqa xizmati, energiya bilan ta'minlash, tibbiy xizmat, mexmonxona xizmati va sh.k.) belgilab qo'yadigan shartnoma. Bunday tashkilot ommaviy shartnoma tuzishda bir shaxsni boshqa shaxsga nisbatan afzal ko'rishga haqli emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

**REYS** – avtotransport vositasining yo'nalishning boshlanishidan oxirgi manziligacha bo'lgan yo'li

**SUG'URTA** – yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz



berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish.

Sug'urta fuqaro yoki yuridik shaxs (sug'urta kildiruvchi) sug'urta tashkiloti (sug'urtalovchi) bilan tuzadigan mulkiy yoki shaxsiy sug'urta shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi.

Majburiy sug'urtada sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchi bilan sug'urtaning ushbu turini tartibga soladigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shartlarda shartnoma tuzishi shart.

Qonunda fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini davlat byudjeti mablag'lari hisobidan majburiy sug'urta qilish hollari (davlat majburiy sug'urtasi) nazarda tutilishi mumkin.

**SUG'URTA QILDIRUVCHI** – sug'urtalovchi bilan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasini tuzgan transport vositasi egasi

**SUG'URTA PULI** – bu shunday summaki, sug'urtalovchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganda yetkazilgan zararining o'rmini uning doirasida jabrlanuvchiga (uning merosxo'riga yoki huquqiy vorisiga) qoplash majburiyatini oladi.

**SUG'URTA HODISASI** – transport vositasidan foydalanishda jabrlanuvchilarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga zarar yetkazilganligi uchun sug'urta qildiruvchining yoki transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha javobgarligi sug'urtalangan boshqa shaxsning fuqarolik javobgarligi yuzaga kelishi bo'lib, bu sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash majburiyatini keltirib chiqaradi.

**SUG'URTALOVCHI** – majburiy sug'urta qilishga haqli tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs.

**SUPACHA** – yo'l qoplamasi sathidan balandroq bo'lgan, avtovokzallarda (avtostansiyalarda)gi yo'lovchilarni transportga chiqarish va undan tushirishga mo'ljallangan maydoncha.

**TARIF** – yo'lovchilar va bagajni tashish uchun belgilangan to'lov miqdori.

**TASHUVCHI** – mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida avtotransport vositasiga ega bo'lgan, tijorat asosida yo'lovchilar, bagaj, yuklar tashish xizmatini ko'rsatadigan hamda bunga maxsus ruxsatnomasi (litsenziyasi) bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

**TOVAR-TRANSPORT HUJJATLARI** – hujjatlar komplekti, shu jumladan schyot-faktura, ular asosida yukni hisobga olish, qabul qilish, berish, tashish, topshirish hamda transport jarayonining qatnashchilari o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

**TOVAR-TRANSPORT YUK XATI** – tovar-moddiy boyliklarning hisobdan chiqarishga, ularning yo'ldagi joyi o'zgarishini hisobga olish, kirim qilish, omborxonaga, tezkor va buxgalteriya hisobi uchun, shuningdek yukni tashish uchun hisob-kitob qilish va bajarilgan ishni hisobga olish uchun mo'ljallangan transport jarayonining barcha qatnashchilari uchun yagona bo'lgan hujjat.

**TRANSPORT VOSITALARI** – yo'lovchilar va tovarlarni tashish uchun foydalaniladigan vositalar, shu jumladan konteynerlar va boshqa transport uskunalari.

**TRANSPORT VOSITASIDAN FOYDALANISH** – transport vositasidan uning yo'llarda (yo'l harakatida), shuningdek ularga tutash, transport vositalari harakati uchun mo'ljallangan hududlarda harakatlanishidan iborat bo'lgan foydalanish. Transport vositasiga o'rnatilgan va transport vositasining harakatlanishida ishtirok etishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan uskunalardan foydalanish transport vositasidan foydalanish hisoblanmaydi.

**TRANSPORT VOSITASINING EGASI** – transport vositasining mulkdori, shuningdek transport vositasiga xo'jalik yuritish huquqi yoki operativ boshqarish huquqida yohud boshqa qonuniy asosda (mulk ijarasi shartnomasi, transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ishonchnoma, tegishli organing mazkur shaxsga transport vositasini topshirish to'g'risidagi farmoyishi va shu kabilar) egalik qiluvchi shaxs.

**TRANSPORT JARAYONI** – tashuvchi tomonidan yuk tashishga qabul qilib olingan paytdan boshlab uni qabul qilib oluvchiga topshirishgacha yoki tayinlangan joyga yetgungacha (yuklash, tashish, tushirish, saqlash. Tegishli tovar-transport hujjatlarini rasmiylashtirish va boshqa xizmatlar) bo'lgan ekspeditor va tashuvchining birgalikdagi operatsiyalari va harakatlari kompleksi.

**TRANSPORT HUJJATI** – tashish yoki transport-ekspeditorlik xizmati ko'rsatishni, tashuvchi yoki transport-ekspeditorlik korxonasi tomonidan yukni o'z tasarrufiga olganligini tasdiqlovchi, tashuvchi yoki transport-ekspeditorlik korxonasi tomonidan beriladigan hujjat.

**TRANSPORT EKSPEDITSIYASI SHARTNOMASI** – fuqarolik-huquqiy shartnomalarning bir turi bo'lib, unga ko'ra ekspeditor haq evaziga va mijoz (yuk jo'natuvchi yoki yuk oluvchi) hisobidan ekspeditsiya shartnomasida belgilangan yuk tashish bilan bog'liq xizmatlarni bajarish yoki bajarishni tashkil etish majburiyatini oladi.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasida ekspeditorning ekspeditor yoki mijoz tanlagan transportda va yo'nalishda yuk tashishni tashkil etish majburiyati, mijoz yoki o'zining nomidan yuk tashish shartnomasi (shartnomalari)ni tuzish, yukning jo'natilishini va olinishini ta'minlash majburiyati, shuningdek tashish bilan bog'liq boshqa majburiyatlari nazarda tutilishi mumkin.

**TRANSPORT-EKSPEDITORLIK FAOLIYATI** – transport-ekspeditorlik korxonasi tomonidan amalga oshiriladigan transport-ekspeditorlik xizmatlarini bajarishga doir faoliyat.

**TRANSPORT-EKSPEDITORLIK XIZMATI** – yukni jo'natish va qabul qilib olish jarayonini tashkil etish, shuningdek, transport ekspeditsiyasi shartnomasiga muvofiq yuk tashishga aloqasi bo'lgan boshqa ish turlarini bajarish bilan bog'liq transport xizmati turi.

**TRAFARET** – yo'lovchilarni yo'nalish to'g'risida xabardor qilishga mo'ljallangan ko'rsatkich.

**UNITAR KORXONA** – o'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulka nisbatan mulkdor tomonidan mul huquqi berilmagan tijoratchi korxonasi. Unitar korxonaning mol-mulki bo'linmasdir va u qo'shilgan hissalar (ulushlar, paylar) bo'yicha, shu jumladan korxonasi xidimlari o'rtasida ham, taqsimlanishi mumkin emas.

**HAYDOVCHI** - avtotransport vositasini boshqaruvchi shaxs;

**HISOBLAGICH (TAKSOMETR)** – yo'lovchi boradigan manzilning uzoqligini hisobga olishni va qiymatini hisob-kitob qilishni ta'minlaydigan qurilma.

**HUQUQ** – davlat irodasini ifodalaydigan va uni kuch bilan himoya qiladigan umumiy majburiy normalar majmui (tizimi). Huquq – davlat belgilab qo'ygan yoki ijozat bergan normalar tizimi. Ko'pdan-ko'p turli ijtimoiy normalar mavjud, ammo faqat huquqiy normalarni davlat belgilab beradi. Boshqa normalarning hammasi turli nodavlat tashkilotlar, jamoat birlashmalari, partiyalar, boshqa organlar va tashkilotlar tomonidan belgilanadi va rivojlantiriladi.

**HUQUQ NORMASI** – «Norma» so'zi, lotinchadan tarjima qilinganda, «qoida», «namuna» ma'nosini anglatadi. Huquq normasi – davlat tomonidan belgilanadigan, kafolatlanadigan va amalga oshiriladigan barcha uchun majburiy xulq-atvor qoidalaridir.

**HUQUQIY HUJJAT** – (ing. Judicial act, law) – majburiy kuchga ega, vakolatli huquq sub'ekti (davlat organi, to'g'ri demokratiya institutlari) tomonidan qabul qilingan, hokimiyat irodasini ifoda etuvchi, muayyan huquqiy oqibatlarga olib keluvchi, yuridik holat vujudga keltiruvchi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga yo'naltirilgan rasmiy yozma hujjat. «Huquqiy hujjat» tushunchasi «yuridik hujjat» tushunchasiga mos keladi.

Huquqiy adabiyotlarda huquqiy hujjatning ko'plab ta'riflari berilgan. Ko'pincha huquqiy hujjatni uni «normativ-huquqiy hujjatlar» bilan tenglashtirishadi, vaholanki, individual, axborot va boshqa xarakterdagi hujjatlar normativ-huquqiy hujjat hisoblanmaydi.

Yuridik shakli bo'yicha huquqiy hujjatni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:  
a) O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi; b) O'zRning qonunlari; v) O'zR Oliy

Majlisi palatalarining qarorlari; g) O'zR Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari; d) O'zR VMning qarorlari, farmoyishlari; e) vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining hujjatlari; j) mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari; z) lokal (korporativ) hujjatlar; i) sudlar va nazorat qiluvchi organlar qarorlari; ommaviy-huquqiy shartnomalar va kelishuvlar; k) dasturlar va deklaratsiyalar; l) nizomlar va ustavlar; m) xalqaro-huquqiy hujjatlar.

**CHIPTA** – yo'lovchining haq to'lagan holda avtobusdan foydalanishga bo'lgan huquqini hamda yo'lovchi va tashuvchi o'rtasida tashuvlar yuzasidan oshkora shartnomalar tuzilganligini tasdiqlovchi qat'iy hisobda turadigan hujjat.

**SHARTNOMA** – ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasidagi turli huquqiy munosabatlarni tartibga solish maqsadidagi o'zaro kelishuv. Shartnomaviy munosabatlarda ko'proq fuqarolik huquqida va xalqaro huquqda qo'llaniladi.

O'zR FKning 353-moddasida shartnomaga o'uyidagicha ta'rif berilgan: ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi.

**EKSPEDITOR** – (ing. forwarding agent, dispatcher, forwarder) 1-transport ekspeditsiyasi shartnomasi tomonlaridan biri. Ekspeditor sifatida faqat transport ekspeditsiyasi xizmatlarini ko'rsatish uchun litsenziya olgan tijoratchi yuridik shaxslar va fuqarolar bo'lishi mumkin. Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha ekspeditor haq evaziga va mijoz (yuk jo'natuvchi yoki yuk oluvchi) hisobidan ekspeditsiya shartnomasida belgilangan yuk tashish bilan bog'liq xizmatlarni bajarish yoki bajarishni tashkil etish majburiyatini oladi.

Shartnomada ekspeditorning u yoki mijoz tanlagan transportda va yo'nalishda yuk tashishni tashkil etish majburiyati, mijoz yoki o'zining nomidan yuk tashish shartnomasi (shartnomalari)ni tuzish, yukning jo'natilishini va olinishini ta'minlash majburiyati, shuningdek, tashish bilan bog'liq boshqa majburiyatlarni nazarda tutilishi mumkin. Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi uchun ekspeditor qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan asoslarda va miqdorda javobgar bo'ladi. Agar ekspeditor majburiyatning buzilishi tashish shartnomalari tegishli ravishda bajarilmaganligi tufayli kelib chiqqani isbotlansa, ekspeditorning mijoz oldidagi javobgarligi tegishli tashuvchi ekspeditor oldida javobgar bo'ladigan qoidalarga muvofiq belgilanadi. Mijoz ekspeditorga hujjatlar hamda yukning xossalari, uni tashish shartlari to'g'risidagi boshqa axborotni, shuningdek, ekspeditor transport ekspeditsiyasida nazarda tutilgan vazifalarni bajarishi uchun zarur bo'lgan boshqa axborotni bajarishi shart. Ekspeditor olingan axborotdagi aniqlangan kamchiliklar haqida mijozga xabar qilishi, axborot to'liq bo'lmaganida esa, mijozdan qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilib olishi shart; 2) korxonaning yuklarini qabul qilib olish, ularni tashishda kuzatib borish, topshirish, tovarlarni taqsimlash ishlarini amalga

oshiruvchi xodim. Ekspeditor bundan tashqari o'rash, joylash, markalash, saqlash, bojxona operatsiyalarini ham amalga oshiradi.

**EKSPEDITOR** – transport ekspeditsiyasi shartnomasi tomoni – tovarlarni tashishni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs, bunda u temiryo'l, suv, avtomobil transportida yuklarni tashish, shuningdek, yuklarni, tavakkalchiliklarni, transport vositalarini sug'urtalash, yuklar va hujjatlarni rasmiylashtirish, joylashtirish, saqlash, ishlov berish, deklaratsiyalash va bojxona tartibotlari, transport-ekspeditorlik xizmati ko'rsatish shartnomasida nazarda tutilgan boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha keng va turli ishlar kompleksini bajaradi, shuningdek, ushbu tashishlarni amalga oshirish ustidan nazoratni ta'minlaydi va mijozning transport korxonalari oldidagi manfaatlarini himoya qiladi.

**EKSPEDITORLIK TOPSHIRIG'I** – transport jarayonini tashkil etish va yuklarga transport-ekspeditorlik xizmatlari ko'rsatish uchun mijoz tomonidan ekspeditorga beriladigan hujjat.

**EKSPEDITORLIK XIZMATLARI** – bu ekspeditor shartnomaga muvofiq xizmat ko'rsatishni o'ziga olgan vositachilik va yordamchi-texnologiya xizmatlari kompleksi.

**YUK** – tashish uchun beriladigan har qanday yuk.

**YUK TASHISH SHARTNOMASI** – fuqarolik huquqiy shartnomalarining bir turi. O'zR FK 711-moddasiga muvofiq, yuk tashish shartnomasi bo'yicha yuk tashuvchi yuk jo'natuvchi tomonidan o'ziga ishonib topshirilgan yukni belgilangan manzilga yetkazib berish va uni olishga vakolat berilgan shaxsga (oluvchiga) topshirish, yuk jo'natuvchi esa yukni tashib berganlik uchun belgilangan haqni to'lash majburiyatini oladi.

**YUK HUJJATLARINI RASMIYLASHTIRISH** – yukni belgilangan joy-gacha yetkazib berilganlik uchun tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgan va tashuvchi bilan o'zaro hisob-kitoblar qilingan holda tashuvchi tomonidan yukni qabul qilib oluvchi yoki ekspeditor tasarrufiga berish tartiboti.

**YUKNI HAR XIL TRANSPORTDA TASHISH** – transport-ekspeditorlik xizmati ko'rsatish shartnomasi asosida transport korxonasi tasarrufiga yuk kelib tushgan joydan tayinlangan joygacha yuklarni ikki yoki undan ortiq transport turida tashish.

**YUK O'RNI** – avtotransport vositasiga yuk ortish yoki tushirishda yukni tashish yoki yuk oluvchiga topshirish uchun qo'llash maqsadida yukning shartli birligi;

**YUK JO'NATUVCHI** – yuk egasining nomidan ish ko'ruvchi yoki tashish shartnomasi bo'yicha yukning egasi hisoblanuvchi va tashish hujjatlarida yuk jo'natuvchi sifatida ko'rsatilgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

**YUK OLUVCHI** – yukni va yukka ilova qilingan hujjatlarda ko'rsatilganlarni olishga vakil qilingan yuridik yoki jismoniy shaxs.

**YUKLARNI TASHISHGA BUYURTMA** – yuk jo'natuvchi (yuk oluvchi) tuzilgan shartnomaga muvofiq yukning kelishilgan turkumini (partiyasini) kelishilgan muddatlarda yetkazib berish uchun tashuvchiga beradigan hujjat.

**YURIDIK SHAXS** – (lot. Universitas personarum; ing. Juridical person, legal entity) – fuqarolik huquqi sub'ekti, fuqarolik-huquqiy munosabatlarining ishtirokchisi.

O'zR FKning 39-moddasiga muvofiq, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. «Avtomobil yo'llari to'g'risida». O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2007-yil 2-oktabr, 117-son.
2. «Avtomobil taransporti to'g'risida». O'zbekiston Respublikasining Qonuni 1998-yil 29-avgust, 674-I-son.
3. «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida». O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1999-yil 19-avgust, 818-I-son.
4. «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida». O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2001-yil.
5. «Pochta aloqasi to'g'risida». O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2000-yil.
6. «Sudlar to'g'risida» (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2001-yil.
7. «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida». O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2011-yil 26-aprel, O'RQ-289-son.
8. «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida». O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2000-yil.
9. «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida». O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1998-yil 24-dekabr, 717-I-son.
10. «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida». O'zbekiston Respublikasining Qonuni 1998-yil 29-avgust 670-I-son.
11. «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida». O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1997-yil 25-aprel, 419-I-son.
12. «Shahar yo'lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to'g'risida». O'zbekiston Respublikasining Qonuni 1996-yil 30-avgust, 278-I-son.
13. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Kodekslari to'plami. 1-qism. –T.: «Yurist-Media markazi» nashryoti, 2008. 221-293-betlar.
14. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Kodekslari to'plami. 1-qism. –T.: «Yurist-Media markazi» nashryoti, 2008. 725–761-betlar.

15. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Kodekslari to'plami. 1-qism. –T.: «Yurist-Media markazi» nashryoti, 2008. 294 - 500-betlar.

16. O'zbekiston Respublikasining xo'jalik protsessual kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Kodekslari to'plami. 1-qism. –T.: «Yurist-Media markazi» nashryoti, 2008. 501 - 566-betlar.

17. O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik protsessual kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Kodekslari to'plami. 1-qism. –T.: «Yurist-Media markazi» nashryoti, 2008. 684 - 724-betlar.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-iyun, PF-2871-son «Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish va boshqaruvni takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2001-y., 6-son, 118-modda.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2009–2014-yillarda O'zbekiston milliy avtomagistralini rekonstruksiya qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2009-yil 22-apreldagi PQ-1103-son qarori.

20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 9-dekabrda 323-sonli «Xorijiy avtotashuvchilarning O'zbekiston Respublikasi hududi bo'yab tranzit harakat qilishi uchun mo'ljallangan yo'nalishlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori.

21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 19-fevralda 89-sonli «Transport va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatish huquqi uchun davlat poshtinasi miqdorini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori.

22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 11-iyuldagi 296-son «O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligini tashkil etish to'g'risida»gi qarori.

23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 17-avgustda 350-sonli «Shahar yo'lovchilar transportida ochiq tenderlar tashkil etish va ularni o'tkazish masalalari to'g'risida»gi qarori.

24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-iyuldagi «Shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo'lovchilar tashish avtomobil transportida ochiq tenderlar tashkil etish va o'tkazish masalalari to'g'risida»gi 296-son qarori.

25. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 9-sentabrda 324



348-sonli «O'zbekiston Respublikasida transport-ekspeditorlik faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish to'g'risida» gi qarori.

26. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 5-iyundagi 245-sonli «Avtomobil transporti sohasida boshqaruvning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

27. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 10- dekabrda gi 433-sonli «Avtomobilda xorijiy yuk tashuvchilarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishlari, bo'lishlari, yuk olib o'tishlari va undan chiqib ketishlari tartibi to'g'risida»gi 1995-yil 11-yanvardagi 11-son qaroriga o'zgartirishlar kiritish haqida»gi qarori.

28. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi 482-son «O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga doir talablarni tasdiqlash haqida»gi qarori.

29. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 10-martdagi 118-sonli «O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

30. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 6- dekabrda gi 318-sonli «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori.

31. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 22-oktabrdagi 277-sonli «O'zbekiston milliy avtomagistrali bo'ylab yo'l infratuzilmasi va servisini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

32. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 18-maydagi 139-sonli «Yo'nalishsiz taksilar faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori.

33. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 22- dekabrda gi 340-sonli «Avtomobilda xalqaro yuk tashiydigan avtotransport vositalariga raqamli nazorat qurilmalarini joriy etish to'g'risida»gi qarori.

34. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26- dekabrda gi 342-sonli «O'zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo'llari xavfsizligini ta'minlash va tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

35. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 4-iyuldagi 191-sonli «Avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo'yicha xavfsizligi to'g'risida»gi reglamentni tasdiqlash haqida» gi qarori

36. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 1-avgustdagi 233-sonli Vazirlar Mahkamasining «Avtomobilda xorijiy yuk tashuvchilarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishlari, bo'lishlari, yuk olib o'tishlari va undan chiqib ketishlari tartibi to'g'risida» 1995-yil 11-yanvardagi 11-son qaroriga o'zgartirishlar kiritish haqida»gi qarori.

37. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 5-dekabrda 539-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi yo'llarida harakatlanish xavfsizligini ta'minlash to'g'risida»gi Nizom.

38. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrda 482-qarori bilan tasdiqlangan «Avtomobil transportida yo'lovchilar va bagajni tashish» Qoidalari.

39. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 10-martda 118-qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi to'g'risida»gi Nizom.

40. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2003-yil 21-avgustda 360-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Avtomobil transportida yo'lovchilarni hamda yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash to'g'risida»gi Nizom.

41. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2003-yil 21-avgustda 360-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Yo'lovchilar va yuklarni daryo transportida faoliyatini litsenziyalash to'g'risida»gi Nizom.

42. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2003-yil 4-noyabrda 482-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida avtobuslarda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga doir» talablar.

43. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 11-dekabrda 472-son qarori bilan tasdiqlangan «Yo'l harakati qoidalari».

44. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 11-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan «Xorijiy davlatlar og'ir yukli va katta hajmli transport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab yurishi uchun to'lovlar to'g'risida»gi Nizom.

45. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-iyuldagi 386-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Shahar atrofida, shaharlararo (viloyatlar ichida, viloyatlararo) va xalqaro yo'lovchilar

tashish yo'nalishlarini joylashtirish uchun ochiq tenderlar tashkil etish va o'tkazish to'g'risida»gi Nizom.

46. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 9-sentabrdagi 348-son qarori bilan tasdiqlangan «Transport-ekspeditorlik korxonalarini to'g'risidagi Nizom va transport-ekspeditorlik xizmatlari ko'rsatish tartibi». O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2000-y., 9-son.

47. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 25-sentabrdagi 332-son qarori bilan tasdiqlangan «Transport-ekspeditorlik korxonalarini to'g'risidagi Nizom va transport-ekspeditorlik xizmatlari ko'rsatish tartibi»ga qo'shimchalar kiritish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2002 y., 17-18-son.

48. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 14-iyuldagi 138-son qarori bilan tasdiqlangan «Avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash to'g'risida»gi Nizom.

49. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1996-yil 10-dekabrda 290-son bilan davlat ro'yxatdan o'tkazilgan «1975-yildagi yuklarni xalqaro yo'llarda tashish daftarchasini qo'llagan holda yuklarni xalqaro tashish to'g'risidagi bojxona konvensiyasini qo'llash tartibi to'g'risida»gi Nizom.

50. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yilning 21-may kuni 1363-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston avtomobil va daryo transport agentligining 2004-yil 22-martdagi 44-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Avtomobil transportida shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish yo'nalishlarini ochish (yopish) tartibi to'g'risida»gi Nizom.

51. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yilning 28-iyun kuni 1377-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston avtomobil va daryo transport agentligining 2004-yil 26-apreldagi 65-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Avtomobil transportida yo'lovchilar va yuk tashish bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslarning xodimlariga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga qo'yiladigan malaka talablari to'g'risida»gi Nizom.

52. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yilning 30-yanvar kuni 1305-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining 2003-yil 6-dekabrda 158-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Yo'lovchilar avtovokzallari, avtostansiyalar to'g'risida»gi Nizom.

53. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2012-yilning 26-mart kuni 2345-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston avtomobil va daryo transport agentligining 2012-yil 27-fevralda 34-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Avtomobilda xalqaro tashishda haydovchilarning mehnat va dam olish rejimlarini nazorat qilish uchun foydalaniladigan raqamli nazorat qurilmasi kartochkalari to'g'risida»gi Nizom.

54. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2012-yil 21-mayda 2367-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2012-yil 4-aprelda 53-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Texnik ko'rikdan o'tkazishda DYHXX organlari tomonidan nosoz deb topilgan, shuningdek, belgilangan muddatlarda texnik ko'rikdan o'tmagan yoki tegishli ruxsatnomasiz qayta jihozlangan transport vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami belgilarini yechib olish tartibi to'g'risida»gi Nizom.

55. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yilning 2-iyul kuni 1382-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston avtomobil va daryo transport agentligining 2004-yil 3-iyundagi 83-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Tashuvchilarning yuk avtomobillari uchun yo'l varaqalari, tovar-transport nakladnoylarini tayyorlash, hisobga olish, to'ldirish va qayta ishlash bo'yicha» yo'riq-noma.

56. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 1993-yil 3-iyundagi «Mahsulotlar, tovarlar yetkazib berishda kamomad chiqishi bilan bog'liq nizolarni hal etish amaliyoti to'g'risida»gi 17-sonli qarori.

57. Конвенция о договоре международной перевозки грузов (КДПГ). Женева, 19 мая 1956 г.

58. Конвенция о международных автомобильных перевозках пассажиров и багажа. Бишкек, 9 октября 1997 г.

59. Таможенная конвенция о международной перевозке грузов с применением книжки МДП (ТИР-КОРНЕТ)

60. Конвенция о дорожных знаках и сигналах.. Вена, 1968 г.

61. Конвенция о дорожном движении. Вена, 1968 г.

62. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Tahrir hay'ati: M.Aminov, B.Ahmedov va boshqalar. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 1–7-jildlar.
63. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi/Nashr uchun mas'ul R.A.Muhitdinov va boshq.; mas'ul muharrir N.To'ychiyev. – T.: Adolat, 2010.
64. Xo'jaev B.A. Avtomobillarda yuk va passajirlarni tashish asoslari.–T.: O'zbekiston, 2002.
65. Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. – T.: Toshkent Moliya instituti, 2004.
66. Rahmonqulov H. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar. 1-jild. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 1997.
67. Rahmonqulov H. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga sharhlar. 2-jild. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 1997.
68. Савин В.И. Перевозка автомобильным транспортом: Справочное пособие. 2-е изд., перераб. И доп. – М.:Издательство «Дело и Сервис», 2004.
69. Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev X. Davlat va huquq asoslari. Darslik. – T.: Sharq, 2002.
70. Ходжаев Б.А. Автомобильные перевозки. Т.: «Укитувчи», 1991 г.

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
--------------	---

### I BOB.

#### AVTOTRANSPORT HUQUQI TO'G'RIDA TUSHUNCHA, UNING TURLARI, TUZILISHI VA MANBALARI

1.1. Avtomobil transport huquqi tushunchasi.....	12
1.2. «Avtomobil transporti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.....	17
1.3. «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.....	19
1.4. «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.....	21
1.5. Avtomobil transporti faoliyatini tashkil etishdagi boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar .....	22

### II BOB.

#### AVTOMOBIL TRANSPORTINI BOSHQARISHNING HUQUQIY TASHKIL QILINISHI

2.1. Avtotransport korxonalarini va birlashmalarining huquqiy holati.....	29
2.2. Yuridik shaxs tushunchasi va uning belgilari.....	42
2.3. Avtomobil transporti faoliyatini nazorat qilish .....	49
2.4. Avtomobil yo'llari turlari va yo'llarda harakatni tashkil etish.....	55
2.5. Avtomobil yo'llarida harakatni huquqiy boshqarish.....	69
2.6. Yuk va yo'lovchi tashishni tashkil qilishda harakatlanuvchi tarkibning texnik holatini huquqiy tartibga solish .....	76

**III BOB.**  
**AVTOMOBIL TRANSPORTIDA YUK**  
**TASHISH SHARTNOMASI**

3.1. Yuk tashish shartnomasi.....	84
3.2. Yuk tashish shartnomasining taraflari va ishtirokchilari.....	96
3.3. Harakatlanuvchi tarkiblarga yukni ortish va tushirish, yuklash-tushirish vaqtlari.....	100
3.4. Tovar-transport hujjati, uning vazifalari va uni rasmiylashtirish tartibi .....	103
3.5. Shaharlararo markazlashgan yuk tashish.....	107
3.6. Qishloq xo'jalik mahsulotlari tashishning o'ziga xos xususiyatlari .....	111
3.7. Oziq-ovqat va savdo yuklarini tashishning xususiyatlari .....	112
3.8. Tashilayotgan yukka zarar yetkazilgandagi javobgarlik, zarami qoplash tartibi va miqdori .....	114
3.9. Tabiiy xususiyatlariga ko'ra yuk vaznining kamayishi.....	124

**IV BOB.**  
**AVTOMOBIL TRANSPORTIDA YO'LOVCHI, YUK**  
**VA POCHTA TASHISH SHARTNOMASI**

4.1. yo'lovchi tashish shartnomasi tushunchasi.....	127
4.2. Shahar ichi yo'nalishlarida yo'lovchilar va bagaj tashish .....	136
4.3. Shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchilar va bagaj tashish .....	139
4.4. Bagaj mashinalarida bagajni tashish.....	148
4.5. Yo'lovchilarni imtiyozli tashish.....	149
4.6. Jismoniy va yuridik shaxslarning buyurtmanomalari (buyurtmalari) yoki boshqa tashish shartnomalari bo'yicha ularga beriladigan avtobuslar va yengil avtomobillarda yo'lovchilar tashish.....	151

4.7. Taksilarda yo'lovchilar va bagaj tashish.....	153
4.7. Tashuvchilarning, yo'lovchilarning va buyurtmanoma (buyurtma) bergan yoki boshqa tashish shartnomasini tuzgan shaxslarning javobgarligi, e'tirozlar va da'volar .....	156
4.8. Pochta tashish shartnomasi .....	160

## **V BOB.**

### **ARALASH, TO'G'RIDAN TO'G'RI QATNOVDA YUKLARNI TASHISH SHARTNOMALARI**

5.1. To'g'ri, aralash usulda yuk, yo'lovchi va yuk tashishni huquqiy tartibga solish.....	166
5.2. Avtomobil transportidan boshqa transportlarga yukni topshirish yoki qabul qilish tartibi .....	171
5.3. Bevosita to'g'ri va bevosita to'g'ri aralash qatnovlarda yuk tashish huquqiy munosabatlari.....	176

## **VI BOB.**

### **TRANSPORT-EKSPEDITSIYA XIZMATI KO'RSATISH**

6.1. Korxonalar va tashkilotlarga transport-ekspeditsiya xizmati ko'rsatish.....	181
6.2. Aholiga transport-ekspeditsion xizmat ko'rsatish.....	184
6.3. Yukni kuzatib borish, yukni avtomobildan boshqa transport turiga topshirish yoki qabul qilish .....	185
6.4. Transport-ekspeditsiyasi xizmati ko'rsatish shartnomasi .....	186
6.5. Avtotransport korxonalar va fuqarolarning huquq va majburiyatlari .....	189

## **VII BOB.**

### **AVTOTRANSPORT BIRLASHMALARI VA KORXONLARNING MUNOSABATLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH YO'LOVCHI TASHISHNI TASHKIL QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI**

7.1. Transport-ekspeditsiya xizmatining avtotransport korxonalar bilan munosabati.....	195
---	-----



7.2. Tashishni markazlashgan usulda tashkil qilganda	
avtotransport korxonalarining boshqa korxonalar bilan munosabati.....	197
7.3. Avtobus marshutlarini tashkil qilishning	
huquqiy asoslari .....	200
7.4. Maxsus marshrutlar.....	205
7.5. Umumiy foydalaniladigan avtobus yo'nalishlarini ochish	
va yopish .....	208
7.6. Avtomobil transportida yo'lovchilarni hamda yuklarni	
shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar	
bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash .....	210

## **VIII BOB.**

### **XALQARO AVTOMOBIL QATNOVINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

8.1. Xalqaro tashishning o'ziga xos xususiyatlari .....	221
8.2. Avtomobil transportida xalqaro tashish bo'yicha bitimlar.....	225
8.3. Tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati ostida	
tashish .....	237
8.4. «O'z xorijtrans» transport korxonasi bilan xalqaro	
tashishni tashkil qilish.....	240
8.5. Avtomobilda xalqaro yuk tashiydigan avtotransport	
vositalarini raqamli nazorat qilish.....	242

## **IX BOB.**

### **ZARAR YETKAZISHDAN KELIB CHIQUADIGAN MAJBURIYATLAR**

9.1. Zarar yetkazilganda kelib chiqadigan majburiyatlarning	
umumiy asoslari .....	254
9.2. Avtotransport korxonasining o'z xodimlari tomonidan	
yetkazilgan zarari uchun javobgarligi.....	261

## X BOB.

### DA'VO (PRETENZIYA)LARNI TAQDIM QILINISHI VA KO'RIB CHIQLISHI

10.1. Da'vo tushunchasi va da'vo bildirish tartibi .....	286
10.2. Avtotransport xizmatidan shikoyat qilish tartibi .....	292
10.3. Davlat va boshqarma (tarmoq) hakamlar hayati (xo'jalik sudlari), avtotransport korxonasi-ning xo'jalik sudlari .....	293
10.4. Xo'jalik sudlarida nizolarni ko'rib chiqish tartibi .....	296
10.5. Davlat boji.....	303
<b>Adabiyotda qo'llanilgan atamalarning izohi.....</b>	<b>310</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar .....</b>	<b>323</b>

**K.J. MATKARIMOV**

**AVTOTRANSPORTDA QONUNCHILIK  
ASOSLARI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

Muharrir *O. Kanayev*

Musahhah *U. Komilov*

Texnik muharrir *Ye. Krasnikova*

Sahifalovchi *Ye. Krasnikova*

Nashriyot litsenziyasi № AI 192.  
Bosishga 04.10.2012-yilda ruxsat etildi.  
Bichimi 60x90  $\frac{1}{16}$ . Ofset usulida bosildi. «Times» garniturası.  
Nashr b.t. 20,6. Shartli b.t. 21,0. Adadi 2799 nusxa.  
Buyurtma №176-12.

«DAVR nashriyoti» MCHJ. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

«O'qituvchi» NMIU bosmaxonasida chop etildi.